

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

G‘AFFAROVA GULCHEHRA

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT FALSAFASI

Monografiya

«SARBON LLS»
TOSHKENT – 2024

UO‘K: 821.512.133
KBK: 83.3(5Ÿ)

G‘affarova, Gulchehra

Axborotlashgan jamiyat falsafasi / Monografiya. – T.: «SARBON LLS», 2024. – 192 b.

Monografiyada axborotlashgan jamiyat tushunchasi, unga oid ilmiy konsepsiyalar, rivojlangan davlatlarning axborotlashgan jamiyatiga oid konsepsiyalar, axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlari, axborotlashgan jamiyatda inson, madaniyatdagi transformatsiyalar, axborotlashgan jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishning milliy va xorijiy tajribalari tahlili kabi masalalari zamonaviy qarashlar va yangi manbalar asosida tahlil etilgan.

Monografiya faylasuf olimlar, tadqiqotchilar va oliy ta‘lim muassasalari Gumanitar fanlar fakultetlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir:
Nasriddin NAZAROV,
falsafa fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Ilyosjon SIDDIQOV,
falsafa fanlari doktori, professor
Bahodir QANDOV,
falsafa doktori (PhD), dotsent

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (6-son bayonnoma, 2024 yil 27 noyabr)

ISBN 978-9943-4816-8-4

© G.G‘affarova, 2024.
© «SARBON LLS», 2024.

KIRISH

XXI asr boshlari jahonda hal qiluvchi omillari axborot va bilim bo‘lgan axborotlashgan jamiyatning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jamiyatning rivojlanish evolyutsiyasi bilim jamiyatidan tarmoqli jamiyatga, undan raqamli jamiyatga transformatsiyalanishi bilan ifodalanadi. Xususan, 2006 yili BMT Bosh Assambleyasida 17 mayning Butunjahon axborot jamiyati kuni¹ deb e‘lon qilinishi, 2001 yilda YUNESKOning «Axborot hamma uchun» xalqaro dasturining qabul qilinishi², axborotlashgan jamiyat masalalariga bag‘ishlangan Butundunyo sammiti³, 2000 yil 22 iyulda «Katta sakkizlik» uchrashuvida «Global axborotlashgan jamiyat Xartiyasi»⁴ning qabul qilinishi ham hozirgi kunda axborot, axborotlashgan jamiyat va raqali jamiyat muammolarini tadqiq etishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Dunyo falsafiy tadqiqotlarida axborotning ahamiyati, axborot va bilim, axborot falsafasi, kommunikativ jamiyat, kognitiv jamiyat, virtuallik, raqamlashgan jamiyat masalalarini falsafiy-metodologik jihatdan tahlil qilish, unga nisbatan turli qarashlarni tizimlashtirish borasidagi izlanishlar dolzarb masaladir. Shu bois hozirgi tez o‘zgaruvchan olamda inson murakkab tafakkurga asoslanib, dunyoni anglashi, bilishi uchun raqamli, tarmoqli jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi, ushbu jamiyatda inson nimaga e‘tibor berishi, tafakkurning yangi ko‘rinishlarining vujudga kelishiga oid nazariy yo‘nalishlarni falsafiy tadqiq etishga bo‘lgan zarurat yanada oshib bormoqda.

Mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan axborotlashgan jamiyatni shakllantirish hamda barcha sohalarni raqamlashtirishning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, texnologik shart-sharoitlari yaratilmoqda. Yangi taraqqiyot strategiyasida axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qilish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasini yanada takomillashtirish, elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, axborot tahdidlariga qarshi kurashish va «axborot xavfsizligini ta‘minlashga alohida e‘tibor

¹ <http://infocom.uz/2006/04/03/oon-obyavila-17-maya-vsemirnyim-dnem-informatsionnogo-obshchestva/> Хабола 13.03.2019

² Программы ЮНЕСКО «Информация для всех» / <http://www.unesco.org/webworld/ifap;www.ifar.ru>

³ Всемирный Саммит по Информационному обществу (WSIS) – <http://www.wisis.org;http://www.unesco.org/wsirectory>

⁴ Хартия глобального информационного общества/ <http://www.ifap.ru/ofdocs/okinhar.htm>

qaratish»¹ hamda «ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizga axborot va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish»² mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Ayniqsa, bu borada «Raqamli O‘zbekiston - 2030» dasturini hayotga tatbiq etish³ zaruriyatidan kelib chiqib, axborotlashtirish va raqamlashtirish jarayonida axborotning ahamiyati, axborotlashgan jamiyatni shakllantirish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Dunyoda axborotning falsafiy mohiyati, axborotlashgan jamiyat va uning o‘ziga xosligi bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: axborot transformatsiyasi, axborot madaniyati, raqamli jamiyat, raqamli fan, tarmoqli jamiyat, bilim jamiyati, global axborotlashgan jamiyat, ta’limni axborotlashtirish, axborot konstruksiyasi kabi jihatlarni yoritib berish ushbu monografiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda axborotlashgan jamiyat (D.Bell, J.Gelbreyt, P.Draker, M.Kastels, U.Rostou, A.Toffler, F.Uebster, B.Gottxard) bilan bog‘liq ayrim muammolar o‘rganilgan. Ular axborot va bilim munosabatlarini, axborot generatsiyasi muammosini «postindustrial jamiyat» va «axborotlashgan jamiyat» konsepsiyalarining sinonimi sifatida tadqiq etishgan. Mazkur olim va faylasuflarning asosiy e’tibori global axborotlashgan jamiyat g‘oyasini tadqiq etishga qaratilib, jamiyat taraqqiyotining turli murakkablikdagi ziddiyatli ko‘rinishlari ochib berilgan.

Mamlakatimizda axborot, axborotlashgan jamiyatning falsafiy, iqtisodiy, informatika va texnika, huquqiy, siyosiy, sotsiologik masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar mavjud. Jumladan, Sh.S.Qo‘shoqov, N.A.Shermuxamedova, O.U.Abduazimov, O.V.Lanseva, M.A.Usmonova, O.M.Kostrina, M.Yoqubova, G.O.Jalalova, H.I.Rajabovlarning doktorlik hamda nomzodlik ilmiy ishlarini alohida ta’kidlash mumkin. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlarida axborot, axborotlashgan jamiyat va axborotlashtirish jarayonining ba’zi ijtimoiy-falsafiy masalalari o‘rganilgan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // «Куч – адолатда». Ўзбекистон Республикаси судининг ҳуқуқий газетаси. 2018 йил 29 декабрь, №52-53(722). –Б.3.

² Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024. – B.62.

³ Қаранг: Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент, 2018. <https://www.pv.uz/uz/news/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirzиеeva-olij-mazhlisu>

Ushbu monografiyada axborotlashgan va raqamlashgan jamiyatning falsafiy mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish hamda ilmiy-nazariy tahlil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Monografiyada axborotlashgan jamiyatda insonning faolligi, uning bilimi asosiy resurs ekanligi, inson kapitali, murakkab tizimlarda axborot, kommunikatsiya muammolarining falsafiy tadqiqi yoshlarimizning bilish jarayonidagi muammolarini o'rganishda muhim ahamiyatga egaligi ko'rsatilgan.

I-BOB. AXBOROT TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY- FALSAFIY TAHLILI

XXI asr – axborotlashgan jamiyat, ya'ni axborot, yuksak texnologiyalar va zamonaviy bilimlar, oldimizda ochilayotgan yangi istiqbollar asridir. Chunki bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani hamda jadal rivojlanish yo'liga o'tgani jamiyatimizga ham katta o'zgarishlar olib kirdi. Bu o'zgarishlar asosini axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari tashkil etadi.

Axborotlashgan jamiyat taraqqiyoti natijasida aholining ko'p qismi axborotlarni o'zida qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va qo'llash bilan band bo'ladi. Bu esa insonlarning faoliyatini o'z vaqtida axborotga ega bo'lgani va undan foydalana olganligiga bog'liq bo'lib, barcha sohalarining zamonaviy mutaxassisi axborot oqimlarida erkin harakatlanishi uchun axborot generatsiyasini (ishlab chiqish, ko'paytirish) kompyuterlar, telekommunikatsiyalar kabi aloqa vositalaridan foydalana olishni (bilishni) talab etmoqda. Bu esa bugun dunyodagi barcha davlatlar axborot va bilimga asoslangan axborotlashgan jamiyat sari borayotganligidan, hozirgi vaqtda axborotning tez va sifatli aylanishini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining bosh mezoniga aylanishidan dalolat beradi.

Ushbu bobda axborot tushunchasining paydo bo'lishi, mohiyati, unga oid ta'riflar tahlili, axborotga oid yondashuvlar keng yoritib berilgan. Jumladan, axborotning mohiyati to'g'risidagi turli-tuman nuqtai-nazarlardan kelib chiqib, axborot atributiv, funksional va antropotsentrik xususiyatlarga egaligi, ushbu xususiyatlarning mohiyati yoritilgan. Shuningdek, jamiyat hayotida axborotning ahamiyati va rolini mohiyatan anglashga aloqador holatlarda axborot va bilimning o'zaro aloqasini tushunish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham axborotning epistemologik asoslari tahlil etilgan.

1.1. Axborot tushunchasining falsafiy tahlili

Axborotning metodologik xarakteri va ahamiyatini falsafiy jihatdan tahlil qilishni boshlar ekanmiz, bunda avvalo "axborot" tushunchasining mazmun-mohiyati, genezisi va uning falsafiy talqini xususida fikr yuritishimiz kerak bo'ladi. Axborot (lotincha «informatio» – tushuntirmoq, bayon etmoq) zamonaviy fan, falsafa va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, dastlab kishilar tomonidan og'zaki, keyinroq

yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan ma'lumot sifatida ta'rif va tasnif etilgan.

Ma'lumki, Norbert Viner birinchi bo'lib, axborotni jismoniy o'zgaruvchi miqdor sifatida qabul qilish taklifi bilan chiqqan. Uning fikricha¹, jonli tabiat, jamiyat va mashinalardagi barcha boshqaruv va aloqa jarayonlariga axborot uzatish, saqlash va qayta ishlash jarayonlari sifatida qaraladi. Biroq aloqaning mazmuni axborot qay tarzda – yozma, og'zaki, rus, ingliz yoki boshqa tillarda, imo-ishora, shartli signal va hokazolar bilan berilganiga bog'liq emas.

Axborot o'zi nima? Bu savol bir qarashda oddiy ko'rinadi, ammo unday emas. Shu sababli ham falsafa va fanda eng munozarali masalalardan biri axborot tushunchasi hisoblanadi. Axborot muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarda unga turlicha ta'riflar berilgan, ammo barchani qondiruvchi umumiy ta'rif mavjud emas.

Inson tashqi olam bilan bog'lovchi axborot (informatsion) kanallari hisoblangan o'zining sezgi organlari yordamida tashqi olamdan axborotni qabul qiladi (ko'rish, hidi, ta'mi, eshitish, ko'rish). Shu sababli ham axborot xilma xil ko'rinishlarda mavjud. Axborotni turli ko'rinishlarda, masalan, yozma ravishda (matn orqali), og'zaki (tovushlar yordamida), harakatdagi rasmlar (kino, video, animatsiya) va boshqa ko'rinishlarda ifodalash mumkin. Shu sababli, ajdodlarimiz axborotni har xil toshlarni turli shaklda joylashtirish yordamida, so'ngra papirus yaproqlariga axborotni yozish orqali saqlashgan. Keyinchalik axborot qog'oz kitoblarda nashr etiladigan bo'ldi. Undan keyin esa, mos qurilmalar kashf etilgach, axborotni saqlash uchun fotoplyonka, gramplastinka, magnit plyonka, hozirgi vaqtda esa turli disklar (egiluvchan, qattiq, kompakt va h.k.) qo'llanila boshlandi.

Ma'lumki, XXI asr haqqoniy ravishda axborot inqilobi asri, degan nom olgan. Bu asrdagi axborot inqilobining asosini axborot uzatishda tezlik va hajm jihatdan misli ko'rilmagan texnologiyalar rivoji tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda, uzatilayotgan turli axborotlardagi texnologik portlash o'zining obyektiv manbalariga ham ega. Umuman olganda, ommaviy axborot vositalarining ko'p asrlik evolyutsiyasida haqiqatan ham olamshumul kashfiyotlar mavjud. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: telegraf va rotatsion tipografik mashinaning yaratilishi (1847 y.), telefon (1870 y.), radio (1895 y.), simsiz telegraf (1922 y.), televideniye (1930 y.).

¹ Винер Н. Человек управляющий. – СПб: Питер, 2001. – С.24.

1946 yilda AQShning Sent-Luis shahrida radiotelefon aloqa yaratilgan, bu uyali aloqaning ilk ko‘rinishi hisoblanadi. Aynan ular keyingi axborot va axborotlashtirish sohasidagi olamshumul voqea hisoblangan Internetning paydo bo‘lishiga olib kelgan¹. O‘z navbatida, axborot sohasidagi inqilobiy o‘zgarishlar uning milliy modernizatsiyalashgan masalalarini ham o‘rganishga keng yo‘l ochib berdi².

Axborot to‘g‘risidagi birinchi ma‘lumotni amerikalik olim R.Xartli 1928 yilda texnik aloqa kanallari bo‘ylab tarqaluvchi ma‘lumotlarning miqdoriy mezonini belgilash uchun ilk marotaba axborot tushunchasini ilmiy muomalada qo‘lladi³. Ammo «axborot» tushunchasiga 1948 yildan boshlab jiddiy e‘tibor qaratildi. Bunga sabab K.SHenon va Viner bir biridan xabarsiz ushbu tushunchani tahlil etishgan.

Tadqiqotimizdan ma‘lum bo‘lishicha, «axborot» tushunchasiga atroflicha yondashish va aniq miqdor o‘lchovi paydo bo‘lishi axborotni o‘rganishga katta qiziqish uyg‘otdi. XX asrning 60-yillaridan boshlab ko‘p tadqiqotlar axborotni qidirish muammolari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ayni shu davrda axborotlarni qidirish tizimi va usullari yaratildi. Shu o‘rinda qayd etishimiz lozimki, axborot tushunchasi XX asrning o‘rtalaridan boshlab insonlararo, inson-mashina, mashina-mashina o‘rtasidagi ma‘lumot hamda hayvonlar va o‘simliklardagi signal almashinuvi, hujayradan hujayraga muayyan belgilarning uzatilishini anglata boshlagan.

Darhaqiqat, axborotni mustaqil o‘rganish mumkin, degan g‘oya ilmfanda axborot har qanday tizimni boshqarish jarayoniga, mustahkamligi va yashay olishini ta‘minlashga bevosita aloqadorligini isbotlagan kibernetika bilan bir vaqtda paydo bo‘ldi. Kibernetikaning kelib chiqishi va rivojlanishi bu tushunchani «aloqa» va «boshqaruv» tushunchalari bilan birga keng qo‘llanishiga olib keldi. Kibernetikaning asosiy bo‘limlaridan biri axborot nazariyasi bo‘lib, unda axborotni to‘plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish usullari tadqiq etiladi. Biroq axborot nazariyasi aniqlanish aspekti bo‘yicha kibernetikadan kengroqdir.

Hozirgi kunda axborot nazariyasi ilmiy-metodologik jihatdan ham taraqqiy etgan, unga J. Fon Neyman, N.Viner, K.SHenon kabi olimlar asos solgan. Ular bir-biridan xabarsiz holda axborotning statistik-miqdoriy

¹ Чернов А.А. Становление глобального информационного общества: проблемы и перспективы. – М.: Дашков и К, 2003. – С.13.

² Хоц А.Ю., Аксюмов Б.В. Информационная революция в контексте трансформации современной культуры // Проблемы философии культуры: Сборник статей. – Ставрополь: СГУ, 1999. – С. 20-24.

³ Хартли Р. Передача информации // Теория информации и её приложения. – М.: Гос. изд. физ.-мат. лит., 1959.

jihatlarini aniqlagan. Bu o'rinda K.SHennonning «Aloqaning matematik nazariyasi» asari katta rol o'ynagan. Ayni shu davrlarda N.Vinerning «Hayvonot va mashina», «Kibernetika yoki boshqaruv» asarlari e'lon qilingan edi. Bu asarlarda asosan axborot nazariyasi haqida fikr yuritiladi.

Axborot nazariyasining falsafiy-metodologik muammolari orasida markaziy o'rinni egallaydigan masalalaridan biri «axborot» tushunchasidir. Bu tushuncha ustida tadqiqot olib borgan D.I. Dubrovskiy «axborot – falsafiy kategoriya, chunki u o'zida insonning fenomenologik bilimlarini ham ifoda etadi»¹, degan fikrni bildirib o'tadi.

Axborotning eng sodda klassik ta'rifi bu – ma'lumot berishdir. N.Viner fikricha, «axborot tashqi muhitga moslashish (ko'nikish) jarayonida undan olingan ma'lumot, signalning mazmunini ifodalash»². Bu yerda axborot tashqi olamni aks ettirish (gnoseologik jihat) va adaptatsiya (unga moslashish) deb ifodalanadi. Shu bilan birga, rang-baranglikni ifodalash³; o'ziga xoslik, yangilik, tuzilmalarning murakkabligi mezoni⁴; tanlash ehtimolligi⁵, xilma-xillikni aks ettirish⁶ kabilar orqali ta'riflanadi.

L.G.Svitich esa, «axborot tushunchasi ko'p ma'noga ega, lekin umumiy falsafiy, metolingvistik ma'noda potensial, keng yoritilgan real mohiyatlarning majmui»⁷ deb tushunsa, L.Popov «axborot kommunikatsiya va aloqa jarayonidagi noaniqlikning bartaraf qilinishi»⁸ deb hisoblaydi. Bu ta'rifda asosan axborotning falsafiy-psixologik (kommunikatsiya, aloqa) tomoniga e'tibor qaratiladi. Darhaqiqat eng umumiy ma'noda axborot narsa va hodisalar haqidagi har qanday ma'lumotni anglatadi.

Biz axborotni tadqiq qilishning ilmiy jihatlariga qarab, uning ko'plab ta'riflari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, axborot tashqi muhitga moslashish jarayonida undan olingan ma'lumot, signalning mazmunini ifodalash⁹; rang-baranglikni ifodalash¹⁰; o'ziga xoslik,

¹ Дубровский Д.И., Вержбицкий В.В. Категория информации (философский обзор) // Философские науки. – Москва, 1976. – № 1. – С.156.

² Винер Н. Человек управляющий. – СПб: Питер, 2001. – С.48.

³ Эшби Р. Массовая информация: стратегия и тактика потребления. – М.: Дело, 1993. – С.405.

⁴ Моль А. Искусство и ЭВМ. – М.: Мир, 1975. – С.506.

⁵ : Яглом Т. Массовые коммуникации в современном мире: методология анализа и практика исследования. – СПб.: Питер, 2000. – С.190.

⁶ределенности и неопределенности. – Кишинев, 1996. – С.61.

⁷ Свитич Л.П. Социальная информатиология. - М.: Алгоритм, 2000. –С.250

⁸ Попов Л. Информатиология и информационная политика. - М.: Луч, 1999. -С.27

⁹ Винер Н. Человек управляющий. – СПб: Питер, 2001. – С.48.

¹⁰ Эшби Р. Массовая информация: стратегия и тактика потребления. – М.: Дело, 1993. – С.405.

yangilik, tuzilmalarning murakkablik mezoni¹; tanlash ehtimolligi², xilma-xillikni aks ettirish³, reallikning asosiy xususiyati⁴ kabilar orqali ta'riflanadi.

Darhaqiqat, axborot – obyektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo'lib, o'zini saqlash, qayta ishlash va ta'sir natijalaridan foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo'ladi. Obyektivlik, moddiylashtirish va uzatish imkoniyatining mavjudligi – axborotning muhim xususiyatlaridir. Shuningdek, «axborotni o'rganish axborot-boshqaruv jarayonini tahlil qilish bilan uzviy bog'liq, chunki axborot unda funksional xossa sifatida mavjuddir»⁵.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarning har biri «axborot» tushunchasining u yoki bu qirrasini ochib bersa-da, ushbu tushunchaga hanuzgacha aniq bir ta'rif berilgani yo'q. Darhaqiqat, axborotni tadqiq etishning ilmiy jihatlariga qarab, uning ko'plab ta'riflari mavjudligini ko'rish mumkin.

Axborot haqidagi g'oyalarning murakkabligi, ko'pqirraligi, qo'llash mumkin bo'lgan sohalarining kengligi, jadal sur'atlar bilan rivojlanishi “axborot” tushunchasiga doimiy yangicha yondashuvlarni vujudga keltirdi. Shuning uchun “axborot” tushunchasi haqida “axborot real olamning in'ikosi” degan umumiy g'oyadan tortib, “axborot – obyektlar saqlashi mumkin bo'lgan barcha ma'lumot” kabi tor ta'riflarga mavjud. Shu sababli axborotni falsafiy aniqlanishi bo'yicha mashhur mualliflarning ilmiy-falsafiy jihatlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

o'lchov bo'yicha: bilim uchun⁶, turli xil cheklovlar⁷, tizimni tashkillanishi⁸, ularni kiritish mumkinligi⁹, noaniqlik tajribasi¹⁰, aniqlikdan

¹ Моль А. Искусство и ЭВМ. – М.: Мир, 1975. – С.506.

² Яглом Т. Массовые коммуникации в современном мире: методология анализа и практика исследования. – СПб.: Питер, 2000. – С.190.

³ Урсул А.Д. Диалектика определенности и неопределенности. – Кишинев, 1996. – С.61.

⁴ Колин К.К. Философия информации: структура реальности и феномен информации // Метафизика, 2013, № 4(10); Колин К.К. Философия информации и проблема формирования современного научного мировоззрения // Вестник Международной академии наук, 2013, № 1.

⁶ Дубровский Д.И. Информация, сознание, мозг. – М., 1980.

⁷ Урсул А.Д. Отражение и информация. – М., 1973.

⁸ Дружинин В.В., Конторов Д.С. Проблемы системологии. – М., 1976.

⁹ Бриллюэн Л. Наука и теория информации. – М., 1959.; Шеннон К.Э. Работы по теории информации и кибернетике. – М., 1963.

¹⁰ Кочергин А.Н., Цайер З.Ф. Информациогенез и вопросы его оптимизации. – Новосибирск, 1977.

foydalanish , struktura murakkabligi¹, entropiyani inkor etish², tanlov ehtimolligi³, aks etishni tashkillanishi;

uzatilishi bo'yicha: xilma-xillik⁴, o'zgarish⁵;

xususiyati bo'yicha: modda⁶, aks ettirish⁷, maydon⁸;

munosabati bo'yicha: kommunikatsiya va aloqa⁹, aks ettirish¹⁰.

Ushbu axborotni ta'riflarini tizimlashtirilganidan ko'rish mumkinki, hozirgi paytda zamonaviy ilmiy adabiyotlarda axborotning ko'plab ta'riflari mavjud, ammo ularning barchasi munozarali tomonlarga ega. «Okkam ustarasi» qoidasiga ko'ra, «mohiyatlarni zaruriyatdan ortiq ko'paytirish maqsadga muvofiq emas», axborot subyekt-obyekt munosabatlari jarayonida, subyekt «maqsadga qaratilgan harakatlarni o'rgana boshlaganida»¹¹ vujudga keladi. «Subyekt» tushunchasi barcha jonli tizimlarga nisbatan ishlatiladi.

Bizningcha, mazkur muammolarning yana boshqa, birlamchi sabablari ham mavjud. Jumladan, G.Jdanovning fikricha, «jonli olamning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini o'rganish uchun «materiya» va «harakat meyor» (energiya) tushunchalari yetarli emas. Bu butunlay yangi axborot tushunchasining qabul qilinishini taqozo etadi»¹². Shu maqsadda, N.Viner, N.Moiseyev, G.Jdanov va boshqalar tomonidan axborot tushunchasi fanga kiritildi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda axborot tushunchasining ta'riflarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- «axborotning paydo bo'lishi hayot fenomeni bilan bog'liq»¹³;
- «axborot subyektning maqsadli faoliyati bilan bog'liq»¹⁴;
- «axborot tartiblangan, tashkillashgan sharoitlarda vujudga keladi»¹⁵;

¹ Бриллюэн Л. Наука и теория информации. – М., 1959.

² Яглом А.М., Яглом И.М. Вероятность и информация. – М., 1969.

³ Новик И.Б. О некоторых методологических проблемах кибернетики / Кибернетику – на службу коммунизму. Т.1. – М.-Л., 1961.

⁴ Эшби У.К. Введение в кибернетику. – М., 1959.

⁵ Ракитов А.И. Философия компьютерной революции. – М., 1991.

⁶ Перегудов Ф.М., Тарасенко Ф.П. Введение в системный анализ. – М., 1989.

⁷ Урсул А.Д. Проблема информации в современной науке. – М., 1975.

⁸ Глушков В.М. Основы безбумажной информатики. – М., 1987.

⁹ Шеннон К.Э. Работы по теории информации и кибернетике. – М., 1963.

¹⁰ Тарасенко Ф.П. К определению понятия информации в кибернетике // Вопросы философии, 1963. №4.

¹¹ Моисеев Н.Н. Расставание с простотой. – М., 2000. – С.106.

¹² Жданов Г.Б. Информация и сознание // Вопросы философии. – Москва, 2004. – №11. – С.97.

¹³ Кастлер Г. Возникновение биологической организации. – М., 1967. – С.20.

¹⁴ Моисеев Н.Н. Человек, среда, общество. – М.: Наука, 1982. – С.74.

¹⁵ Эйген М., Винклер Р. Игра жизни. – М., 1979. – С.18.

E.Yanchning fikricha, «axborot biologik tuzilmalarning evolyutsiya jarayonida o'z-o'zini tashkillashtirish qo'llanmasidir»¹.

V.Korogodin esa axborotni ma'lum bir algoritm sifatida izohlaydi². Darhaqiqat, axborot algoritmgaga asoslangan bo'lib, unda ma'lum bir uzviylik aks etadi. Chunki «algoritm» tushunchasi «qat'iy belgilangan qoidalar muvofiq bajariladigan har qanday hisoblash tizimining umumiy nomlanishini, aniq vazifani bajarishda ketma-ketlik bilan amalga oshiriladigan formal qoidalar to'plamini»³ ifodalaydi. Ammo, bizning fikrimizcha, algoritmi ilmiy bilish usuli sifatida axborot kelib chiqishning mexanizmini aniqlab bermaydi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, «axborot» tushunchasi o'zining uzoq tarixi va ko'p qirrali ma'nosiga ega. Bizning asosiy maqsadimiz axborotning vujudga kelishini murakkab tizimlar va bilim rivoji nuqtai-nazaridan gnoseologik va epistemologik tahlil etishdan iboratdir.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ijtimoiy hayotga tatbiqan axborot – insonlar, predmetlar, faktlar, hodisalar va boshqa jarayonlar haqidagi ma'lumotni anglatadi. Ammo «axborot» tushunchasi o'zining tom ma'nosida bilish jarayonining ma'lum bir bosqichidagina qo'llanilmoqda.

Axborotning mohiyati to'g'risidagi turli-tuman nuqtai-nazarlardan kelib chiqib, axborot atributiv va funksional xususiyatlarga egaligini ta'kidlash mumkin. Ba'zi mualliflar (B.V. Axlibinskiy, K.YE. Morozov, I.B. Novik, L.A. Petrushenko, A.D.Ursul, K.K.Kolin, O.F.Fayzullayev, M.N.Abdullayeva, R.M.Imomaliyeva, S.S.Sanginov, B.O.To'rayev, B.R.Karimov, N.A.Shermuhamedova, E.M.Izzetova va boshqalar) axborotning atributivligini tan olib, uni materiyaning barcha moddiy obyektlariga taalluqli xususiyat sifatida qarashadi.

Boshqa mualliflar (V.V. Verbitskiy, I.I. Grishkin, D.I. Dubrovskiy, N.I. Jukov, A.M. Korshunov, M.I. Setrov, G.I. Saregorodsev, Sh.S.Qo'shoqov va boshqalar) atributiv qarashlar nazariy jihatdan g'ayriqonuniy funksional xususiyatga egaligini ta'kidlaydilar. Ular o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizimlarni avvalgi evolyutsiyadan ajratgan holda ko'rib chiqishadi, o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizimlar «yerda hayot shakllangan tarixiy davrda vujudga keladi»⁴, deya izoh berishadi, ammo

¹ Янч Э. Самоорганизующаяся Вселенная. Введение и обзор: рождение парадигмы из метафлуктуация / Э.Янч // Общественные науки и современность. 1999. №1, -С.151.

² Корогодин В.И., Корогодина В.Л. Информация как основа жизни. – Дубна: Издательский центр «Феникс», 2000. – 208 с.

³ Кабулов В., Фаизуллов А., Назиров Ш. Ал-Харезми, алгоритм и алгоритмизация. – Т.: Фан, 2006. – С.52.

⁴ Дубровский Д.И. Информация, сознание, мозг. – М.: Высшая школа. 1980. – С.97.

ular qanday qilib vujudga kelishi, hayot nimaning hisobiga shakllanishini tushuntirib bermaydilar. Shu bilan birga ular fikricha, “axborot boshqariluvchi (jonli va kibernetik) tizimlarga tegishli” dir.

Shuni aytish kerakki, «axborot» tushunchasini falsafiy jihatdan tahlil qilgan S.B.Lukovkinning fikricha, zamonaviy bosqichda materiya atributi sifatida axborotning umumfalsafiy muammosi uzil-kesil yechim topgan emas¹. Bu masala, o‘z navbatida, atributiv va funksional yondashuvlar o‘rtasidagi bahslar mavzuini tashkil qiladi. Shu ma‘noda, funksional yondashuv tarafdorlari axborot fenomenini bilish subyektining mavjudligi bilan bog‘lab, uning noorganik tizimlar darajasida funktsionalligini rad qiladilar. Ya‘ni, axborot va informatsion jarayonlar faqat jonli tabiatga xos, uning funksiyasi hisoblanadi.

Atributiv yondashuv tarafdorlari esa axborot – umumiy xarakteristika, organik va noorganik tabiat materiyasining atributi, degan xulosaga keladilar. Shuningdek, hozirgi kunda antropotsentrik yondashuv tarafdorlari fikrlaricha axborot va informatsion jarayonlar faqat insonga tegishlidir.

A.V. Bayandin axborotni ikkiga², ya‘ni strukturali (kelib chiqishi tabiiy va sun‘iy jonli va jonsiz tabiat obyektlarini o‘ziga xosligi yoki bog‘liqligi) va operativ (yoki ishchi, material olam obyektlari orasidagi sirkulyatsiyasi (aylanishi), insoniyat jamiyatidagi tirik tabiatni boshqarish jarayonida foydalaniladi) bo‘ladi.

Shu bilan birga axborot tushunchasini aniqlash bo‘yicha iqtisodchi olimlar K.A.Zadumkin, I.A.Kondakov, M.N.Ivanovlar tadqiqotlarida ilmiy-texnik faoliyat kontekstida tahlil etilgan hamda axborotli, intellektual va obyektiv yondashuvlar³ ga ajratiladi. Ularning fikricha, «axborot - tuzulmaviy shakldagi, ma‘lumotlarni anglagan, dastlabki holda iste‘molchilarining keng doirasiga ega, lekin ularni harakatga undamaydigan, o‘zgarishsiz tarqalish xususiyatiga ega bo‘lgan ma‘lumotlar yig‘indisidir»⁴. Bunday talqin o‘z ichiga ikkita asosiy yondashuvni mujassam etadi – obyektiv va axborotni miqdoriy, sifatii tabiatini ko‘rib chiqish imkonini beruvchi - intellektual yondashuvni birlashtiradi.

¹ Луковкин С.Б. Проблемы становления информационного общества в современной философии: Автореф. дисс. Канд. филос. наук. – Мурманск, 2006. – С.18.

² Баяндин А.В. От восприятия – к информации // Исследования в области естественных наук. Апрель, 2012. №4 (Электронный ресурс). URL:<http://science.snauka.ru/2012/04/234> (дата обращения: 21.01.2014)

³ Задумкин К.А., Кондаков И.А., Иванов М.Н. Процесс генерации знаний: основные понятия и сущность // Экономика региона: проблемы развития, Вып.4(50), апрель-июнь, 2010. –С.23.

⁴ Задумкин К.А., Кондаков И.А., Иванов М.Н. Процесс генерации знаний: основные понятия и сущность // Экономика региона: проблемы развития, Вып.4(50), апрель-июнь, 2010. –С.23.

Axborotli yondoshuv tarafdorlari – axborotni maʼlum ketma-ketlikda koʻrib chiqadilar, ularning fikricha, “axborot” - bu ishlov beriladigan, maʼlum shaklda taqdim etiladigan maʼlumotlardir”¹.

Intellektual yondoshuv tarafdorlari talqini boʻyicha, “axborot” - bu maʼlum mezonlarga tayangan holda ajralib turadigan, tizimlashgan maʼlumotlar majmuasidir”². Axborot, ularning fikricha, ishlov berilgan, anglanilgan, tuzulma shaklida uygʻunlashgan maʼlumotlar yigʻindisidir. Shu bilan birga, axborot – bu maʼlum mazmunga ega boʻlgan, inson yoki odamlar guruhining intellektual faoliyatining (xosili) natijasi boʻlib, biror bir qaror chiqarishda bu maʼlumotlarning isteʼmolchiga ahamiyat, qadr-qimmat kasb etuvchi maʼlumotlar majmuasidir³.

Obyektiv yondashuv - axborotni maʼlum aniq obyekt yoki jarayonni tasniflovchi maʼlumotlar sifatida tushunadilar. Ularning fikricha, axborot – bu dalillar va maʼlumotlar uygʻunlashgan birligi boʻlib, ular alohida maʼlum bir vaziyatni yoki muammoni izohlaydi⁴. Shu bilan birga, axborot – bu ishlab chiqarish, texnologik jarayonlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar yigʻindisidir⁵. Axborot – bu obyektlar tavsifi (maʼlumoti) va ularning atributiv xususiyatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar yigʻindisidir⁶.

Aytish kerakki, har qanday axborot uchta asosiy koʻrsatkichga ega: *mazmun, miqdor va qadriyat*. Axborotning *miqdori* matematik statistikada, *qadriyat* va *mazmuniy* tomonlari semantik nazariyada oʻrganiladi. Axborotning miqdor tushunchasi axborot ustida soʻz borgan voqeaning ehtimolli darajasiga teskari proporsional miqdor sifatida taʼriflanadi.

Axborot ilmiy tushunchasining ishlab chiqilishi, olam moddiy birligining yangi qirrasini ochib beradi. Ilgarilari butunlay turlicha boʻlib koʻringan koʻpgina jarayonlarga – aloqaning texnik kanallari boʻyicha axborotlar berishga, asab tizimining ishlashiga, hisoblash mashinalarining ishini boshqarishning xilma-xil jarayonlariga va h.k., yagona bir nuqtai-nazardan qarashga imkon berdi. Buni misol bilan tushuntiramiz. Biror maʼlumotdagi axborot miqdori harflarning u yoki boshqa birikmasiga bogʻliq emas, yaʼni harflar oʻrnini almashtirib maʼlumotni maʼnosiz qilib

¹ Хорошилов А.В. Информационные системы в экономике. – М.: МЭСИ, - 168 с.

² Лабодский В.В. Управления знаниями. – Мн.: Современная школа, 2008. – 392 с.

³ Попов Е., Коновалов А. Управление издержками производства и потребления информации // Проблемы теории и практики управления. 2007. №2, -С.16-25.

⁴ Чередникова Л.Е. Знания в контексте инновационного развития // Научные записки НГУЭУ. 2004. №3.

⁵ Иноземцев В.Л. Современное постиндустриальное общество: природа, противоречия, перспективы. – М.: Логос, 2000. – 304 с.

⁶ Wig K. Knowledge Management Foundations: How People and Organizations Create, Represent and Use Knowledge. – Schema Press, Arlington, TX, USA, 1993. – 158 p.

qo'yishi mumkin. Bu holda axborotning qimmati yo'qoladi, lekin miqdori oldingiday qoladi. Bularning hammasi axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlash jarayonlari bilan bog'liqdir. Demak, "axborot tevarak-atrofdagi turli xil manbalardan to'plangan omillar bo'lib, bilimlarni qayta izhor qilish"¹ hamdir.

Axborotga semantik yondashuvning ma'nosi – axborotni ba'zi tillar belgilaridan tashkil topgan, matnni anglash, deb qarashni anglatadi. Bunda keltirilgan axborotlarni bir kiyimatli anglashda til bo'yicha muvofiqlik ya'ni inson tili bilan, EHM tilining o'zaro moslik usullari topiladi. Ba'zi tizimlarda bu belgilar o'zaro farq qilinadi va anglanadi (axborot yetkazuvchi). Anglash qabul qiluvchi tomonga belgilarni ma'lum bo'lishini taqozo etadi (axborot qabul qiluvchi). Darhaqiqat, axborot qabul qiluvchi har bir tushunchani anglash uchun yordam beradigan bilimlar majmuiga, ya'ni tezaurusga, ega bo'lishi lozim. Axborotni uzatuvchi tilidan oluvchi tiliga tezaurisiga tarjima qilishi lozim. Shunday usul bilan olingan axborot tizimi atrof-muhitga o'z munosabatini bildiradi.

Progmantik tahlil - boshqaruv uchun foydalanilgan axborotlarni aniqlashda ko'llaniladi. Ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat qiluvchi, taqsimlovchi, xalq xo'jaligini va uning bo'g'inlarini ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv masalalarini yechishni taminlovchi axborotlarga boshqaruv axborot deyiladi. Bu axborot o'zida turli xil iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy, huquqiy va boshqa xabarlarini aks ettiradi.

Axborot tushunchasi kibernetika nazariyasining asosini tashkil etadi. Ular fikricha, jonli tabiat, jamiyat va mashinalardagi barcha boshqaruv va aloqa jarayonlari, axborot uzatish, saqlash va qayta ishlash jarayonlari sifatida, qaraladi.

Kibernetikaning rivojlanishi faylasuflarni axborot tushunchasi va informatsion muammolarga qiziqishni oshirdi. Jumladan, XX asrning 50-90 yillarida A.D.Ursulning ilmiy tadqiqotlari bevosita axborot tabiati bilan bog'liq, ya'ni axborot nazariyasi va axborot tushunchasini falsafiy konsepsiyasini yaratdi². Olim birinchilardan bo'lib axborot tushunchasini umumiy xususiyatini hamda materiya va ong tushunchalari, shuningdek axborotning falsafiy kategorial maqomini (I.Zeman³), ichki axborotni materiyaning atributivi sifatida hamda bilish va boshqaruvning energetik bo'lmagan shakllari bilan taqqoslagan.

¹ Давронов З. Илмий ижод методологияси. – Т.: Иктисод-молия, 2007. –Б.180.

² Урсул А.Д. Природа информация. – М., 1968; Информация. – М., 1971.; Отражение и информация. – М., 1973.; Проблема информации в современной науке. – М., 1975.

³ Земан И. Познание и информация. – М., 1966.

Ma'lumki, L.Brillyun axborot tushunchasiga umumilmiy atributiv yondashuv sifatida fizik axborotni negentropiya konsepsiyasi bilan bog'lagan¹.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, axborot tushunchasini bir muncha umumiy aniqlanishi akademik V.M.Glushkovga tegishlidir. Uning asarlarida eng umumiy ma'noda axborot - bu dunyodagi barcha jarayonlar vaqt va makonda modda va energiyani taqsimlanishi, o'zgarish o'lchovi bilan birga keladi². Ularda "axborot" tushunchasiga atributiv yondashish mavjudligi ko'rsatilgan hamda uning asosiy ikki statik (makonda modda va energiya joylashishi) va dinamik (vaqt ichida jarayonlarning o'zgarib borishi) jihatiga urg'u berilgan. Bu masalalar mutloq muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular tadqiqotchilarning diqqatini tabiatda ikki muhim axborot turi - statistik va dinamik axborot mavjudligiga yo'naltiradilar. Bu tahlil uning bir qator ishlarida amalga oshirilgan. Ammo V.M.Glushkov tomonidan taqdim etilgan "axborot" tushunchasiga ta'rif nafaqat jiddiy aniqlikni, balki yangi interpretatsiyani ham talab etadi.

Bunday ikki yondoshuvli axborot tabiati bir necha martoba professor Y.I.Shemakin o'z ilmiy ishlarida ko'rsatib kelgan. U ta'kidlaydiki, tabiatda statistik ma'lumotlarni (axborotni) tarqatuvchisi materiya (narsa, modda) bo'lib, u axborotni eslab qolish qobiliyatiga ega bo'lgan, axborotni saqlash vaqtida namoyish etishni ta'minlab beradigan tashuvchidir³. Dinamik axborotga kelganda, uning asosiy tashuvchisi quvvat maydoni (energiya maydoni) bo'lib, u axborotni fazoda tarqatish imkonini beradi.

Aytish kerakki, axborot fenomenini birinchi bo'lib V.Y.Kolmakov tizimli tahlil etgan. Uning tadqiqotida bilishning alohida obyekti sifatida axborotni o'rganish hamda axborotning zamonaviy falsafiy konsepsiyalari umumlantirilgan⁴. Jumladan, axborot fenomenining falsafiy tahlili, axborotni mohiyatini tushunishning universal-fundamental imkoniyatlari, borliqni axborotli-dialektik falsafasi, axborotli va virtual reallik kabi masalalar tahlil etilgan.

Axborot tushunchasi bilan bog'liq tadqiqotlarda juda ko'p muammolar mavjud. Axborot barcha moddiy organizmlarga xosmi yoki faqat

¹ Бриллиун Л. Наука и теория информации. – М., 1959.; Научная неопределенность и информация. – М., 1966.

² Глушков В.М. Введение в алгебраическую теорию информации. – М.: Наука; Физматлит, 1995. – 112 с.

³ Шемакин Ю.И. Семантика самоорганизующихся систем. – М.: Академический проект, 2003. – 176 с.

⁴ Колмаков В.Ю. Информация, информационность, виртуальность. – Красноярск: Изд-во СибГТУ, 2004. – с.

jonli organizmlarga yoxud faqat ongli faoliyat ko'rsatuvchi mavjudotlarga xosmi, degan bahs hamon davom etmoqda. Axborot muammosi, hozirgi kompyuter inqilobi natijasida, axborotni saqlash va uzatish funksiyalari, deyarli, mashinalar zimmasiga yuklangan zamonda keskin va dolzarb hisoblanadi.

Darhaqiqat, axborotning yuzaga kelishi hamda rivojlanishida hisoblash texnikasi va boshqa texnik vositalarning o'rni beqiyos, chunki ma'lumotlar bevosita hisoblash texnikasi yordamida qayta ishlanadi. Aloqa va telekommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, elektron-hisoblash texnikasining vujudga kelishi va hayotning turli sohalariga kirib borishi axborotning kengroq tushunchasini ishlab chiqishni talab etdi.

Shu bilan birga fan va texnikaning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda axborotni nazariy jihatdan anglab, tushunib yetish, unga xos bo'lgan va "axborot" tushunchasini yangi mazmunga to'ldirgan belgi va xususiyatlarini aniqlash zaruriy ehtiyoji tug'ildi, bular "axborot" tushunchasini talqin qilishda ikki prinsipial o'zgarishlardir¹.

Zamonaviy fan rivojlanishining dolzarb falsafiy va ilmiy-metodologik muammolari tahlili ushbu muammolardan biri axborot falsafasining mohiyatini anglash ekanligini ko'rsatmoqda. Aksariyat tadqiqotchilar fikriga ko'ra, axborot bizni qurshab turgan olamdagi eng muhim ahamiyatli va shu bilan birga jumboqli hodisadir. XX asrning o'rtalaridan boshlab bir necha o'n yilliklar davomida ko'plab olimlar ushbu hodisa mohiyatini anglab yetishga takror-takror uringanlar. Lekin hozirgi vaqtgacha ilmiy muhitda axborot falsafasining umumiy konseptual mohiyati to'g'risida kelishilgan tasavvur ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ushbu urinishlar bugungi kunda, ko'pincha axborot asri deb atalmish XXI asrning ikkinchi o'n yilligining boshida ham davom etmoqda.

Ma'lumki, XXI asrda olam tezkor o'zgarib bormoqda. Bunday tub va keng miqyosli o'zgarishlar jamiyatning aynan axborot sohasida sodir bo'lmoqda. Ushbu o'zgarishlar ilmiy-texnik inqilobning navbatdagi bosqichi emas, balki global sivilizatsion xarakterga ega jarayondir. O'z navbatida, XXI asrning o'rtalaridayoq sayyoramizda "sivilizatsiyaning umuman yangi turi – axborot (informatsion) sivilizatsiya shakllanadi"², deb bashorat qilinmoqda. Darhaqiqat, sivilizatsiyaning shakllanish

¹ Каранг: Охэндзан Е.Г. Информация в управленческом решении в условиях перехода к рыночным отношениям: Дисс. канд.экон. наук. – М., 1992.–С.3; Корченкова Н.Ю. ССтановление теоретико-прикладной концепции права на информацию: Автореф. дисс.канд.юрид.наук. – Н.Новгород, 2003. –С.3.

² Колин К. К. Информационная цивилизация, какой она будет? // Библиотекосведение, 2001. № 5. –С.32-38; Колин К.К. Информационная цивилизация. - М.: ИПИ РАН, 2002. –С.112.

jarayonida jamiyatning deyarli barcha sohalarida axborot va ilmiy bilimning ahamiyati jiddiy ravishda ortadi. Aynan shu hodisa falsafiy tadqiqotlarning yangi, axborot falsafasi deb nom olgan yo‘nalish rivojlanishining asosiy sababi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Oxirgi yillarda bir necha mamlakatlarda (jumladan, Rossiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Xitoy kabi) falsafiy tadqiqotlarda yangi yo‘nalish – axborot falsafasi paydo bo‘ldi. Jahon ilmiy jamoatchiligi doirasida ushbu falsafiy yo‘nalishning mazmuni faol muhokama etilmoqda, bunda Rossiya va Xitoy olimlari peshqadamlik qilmoqda. Jumladan, rus, xitoy va ingliz tillarida qator ilmiy maqolalar va monografiyalar chop etildi, xalqaro konferensiyalarda ma‘ruzalar qilingan va nashr etilgan, Internet tarmoqlarida olimlarning ilmiy bahs-munozaralari o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari, 2011 yildan boshlab Rossiyada muntazam ravishda “Axborot to‘g‘risidagi fanlar ilmiy-metodologik muammolari” mavzudagi fanlararo ilmiy-metodologik seminar majlislari (yig‘ilishlari) o‘tkazilmoqda¹, unda turli mamlakatlarning axborot falsafasi sohasidagi natijalari tahlil qilinmoqda.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “axborot falsafasi” atamasi yaqinda paydo bo‘lib, undan xitoylik olim Lyu Gan o‘zining “Axborot falsafasi va bo‘lg‘usi Xitoy fan va texnika falsafasi asoslari” nomli maqolasida foydalangan. Unda “kiberfazoning paydo bo‘lishi va kiberdavrning boshlanishi” bilan birga paydo bo‘lgan axborot falsafasini falsafiy tadqiqotlar sohasidagi yangi fan sifatida tan olish taklif etiladi². Umuman olganda muallif axborot falsafasining paydo bo‘lishini oxirgi o‘n yillikda o‘zini sezilarli darajada namoyish etayotgan jamiyat axborotlashuvi jarayonining rivojlanishi bilan shartlaydi. Uning ta‘kidlanicha, ushbu jarayonning oqibatlaridan biri falsafadagi - “kompyuter bilan bog‘liq burilish” bo‘ldi, bunda jamiyatning keng miqyosli kompyuterlash-tirilishidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni falsafiy anglash bo‘yicha urinishlar amalga oshirilmoqda. Bizning nazarimizda ushbu nuqtai-nazar juda tor, shuning uchun unga qisman, ya‘ni falsafiy tadqiqotlar sohasida yangi fanning ajralib chiqishining maqsadga muvofiqligi

¹ Методологические проблемы наук об информации: материалы 10-м заседании семинара. – М: ИНИОН РАН, 7 февраля 2013; Методологические проблемы наук об информации: материалы 11-м заседании семинара. – М: ИНИОН РАН, 15 марта 2013; Методологические проблемы наук об информации: материалы 17-м заседании семинара. – М: ИНИОН РАН, 24 апреля 2014. <http://www.inion.ru/seminars.mpni>

² Лю Ган. Философия информации и основы новой китайской философии науки и техники //Вопросы философии. 2007. № 5. -С.45-57.

masalasida qo‘shilish mumkin. Ushbu fanning mazmuniga kelganda, bizning fikrimizga ko‘ra, u sezilarli darajada keng bo‘lishi lozim.

Darhaqiqat, axborot falsafasi ilmiy maktabi Xitoyda 30 yildan buyon mavjud bo‘lib, uning asoschisi va ilmiy peshqadami professor U.Kundir. Hozirda u Sian Jiaotong universiteti qoshida 2011 yilda tashkil qilingan Axborot falsafasi xalqaro tadqiqot markaziga rahbarlik qilib kelmoqda. Ushbu Markazning Xalqaro akademik kengashi tarkibiga Avstriya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, AQSH, Rossiya va Fransiya olimlari kirgan. Markazning asosiy vazifalari maqsadli ilmiy-nashriyot faoliyati, axborot falsafasi muammolari bo‘yicha Internet tarmoqlarida munozaralar va xalqaro konferensiyalar o‘tkazish yo‘li bilan turli mamlakatlar kuchlarini birlashtirishdan iborat¹.

Umuman olganda shuni ta‘kidlash zarurki, axborotning falsafiy muammolarini tizimli ravishda tadqiq qilish Rossiyada o‘tgan asrning 60-yillaridayoq boshlangan, uning natijasida axborot falsafasi Rossiya ilmiy maktabining shakllanishi bo‘ldi. Akademik A.D. Ursul uning asoschisi va tan olingan peshqadamidir, ushbu sohadagi uning fundamental monografiyalari nafaqat Rossiya, balki boshqa mamlakatlar mutaxassislariga ma‘lum². Ammo Rossiya ilmiy adabiyotlarida axborot falsafasi tushunchasini birinchi bor 1996 yil M.N.SHerbinin o‘z maqolasida foydalangan³. Uning fikricha, “...butun olam tarixiy masshtabida falsafiy bilimlarni o‘zida butunlik yangi formulasini axborot falsafasi ta‘minlaydi”⁴.

Ma‘lumki, 1968 yilda A.D. Ursulning axborot tabiati bo‘yicha birinchi monografiyasi bosilib chiqqanda, “kiberfazo” (“kibermakon”) va “falsafada kompyuter bilan bog‘liq burilish” kabi tushunchalar ilmiy jamoa o‘rtasida hali tarqalmagan edi. Shunga qaramasdan, o‘sha vaqtlarda Rossiyada yangi ilmiy fan - axborot nazariyasining falsafiy jihatlarini faol muhokama qilingan, bu fan jadal rivojlana boshlagan va nafaqat texnik fanlarda, balki biologiya va lingvistikada keng foydalana boshlangan edi. Yuqorida keltirilgan monografiyada A.D. Ursul axborot falsafasi muammolari mazmunining keng tushunilishini rivojlantirdi va asoslab

¹ Wu Kun. Thirty years of research of Information Philosophy in Cina // Открытое образование. № 5. С. 28-49.

² Урсул А.Д. Природа информации. Философский очерк. - М.: Политиздат, 1968. - 288 с.; Урсул А.Д. Информация. Методологические аспекты. - М.: Наука. 1971. -295 с.; Урсул А.Д. Природа информации: философский очерк. 2-е изд. – Челябинск, 2010. – 231 с.

³ Щербинин М.Н. Философия информации // Информатизация Москвы, России, мира, Вселенной. – М., 1996. №3(4).

⁴ Щербинин М.Н. Философия информации // Прикладная философия и социология: труды международной конференции. – Ульяновск: УлГТУ, 2001. Т.1. –С.99.

berdi. Uning nuqtai-nazariga ko‘ra¹, falsafaning ushbu yo‘nalishi yaqin kelajakda jamiyatning informatsion rivojlanishi jarayonining ilmiy asosiga aylanishi kerak. Bunda u mazkur jarayonni ilmiy-texnik inqilobning yangi bosqichi sifatida emas, balki sivilizatsiya rivojlanishining sifat jihatdan yangi, yanada yuqori darajaga – noosferaning shakllanishiga o‘tishning boshlanishi deb bilgan. Ushbu strategik jihatdan muhim falsafiy g‘oya A.D. Ursulning “Noosfera yo‘li. Tirik qolishi va sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishi konsepsiyasi” monografiyasida yetarli darajada batafsil asoslab berilgan. Bu asarda informatsion rivojlanish insoniyatning keyingi evolyutsiyasida, har holda XXI asr davomida, ustunlik qilishi kerakligi ko‘rsatilgan².

Axborot falsafasi tushunchasini ikki xil ma‘noda, ya‘ni keng ma‘noda 1960 yillardan axborotni umumiy muammosini o‘rganish bilan bog‘liq faoliyat sifatida (R.F.Abdeyev, Y.F.Abramov, N.P.Vashekin, V.M.Glushkov, V.S.Gott, D.I.Dubrovskiy, V.S.Kogon, K.K.Kolin, V.V.Sanochkin, E.P.Semenyuk, A.V.Sokolov, A.D.Ursul, D.S.Chernavskiy, A.I.CHyorniy, Y.A.Shreyder va boshqalar), tor ma‘noda 1996 yildan boshlab falsafiy bilimlarda mustaqil soha (M.N.SHerbinin, A.V.Nesterov, S.M.Olenev, L.V.Skvorsov, V.I.Kashirin, O.V.Kashirina, K.K.Kolin, A.V.Sokolov, G.V.Xlebnikov, Y.Y.CHyorniy va boshqalar) sifatida tushunish mumkin.

Masalan, M.N.SHerbinin fikricha, “... axborot falsafasi – tabiat, jamiyat va tafakkurning o‘zini uzoq vaqt rivojlanishida tayyorlagan natijasidir”³.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlarini ikki bosqichga ajratish mumkin, ya‘ni tabiiy (1996-2009 yillardagi M.N.SHerbinin, A.V.Nesterov⁴, L.V.Skvorsov⁵, V.I.Kashirin va O.V.Kashirina⁶) hamda “ongli” (2010

¹ Ursul A. D. Природа информации. Философский очерк. - М.: Политиздат, 1968. - 288 с.

² Ursul A. D. Путь в ноосферу. Концепция выживания и устойчивого развития цивилизации. - М.: Луч, 1993. 275 с.

³ Шербинин М.Н. Философия информации // Информатизация Москвы, России, мира, Вселенной. – М., 1996. №3(4); Философия информации // Прикладная философия и социология: труды международной конференции. – Ульяновск: УлГТУ, 2001. Т.1. –С.96.

⁴ Нестеров А.В. Философия информации // Научно-техническая информация. Сер.1. – М., 2000. №2, -С.1-9.

⁵ Сковорцов Л.В. Философия информации или информационная культура // Человек: образ и сущность. Слово и культура. Ежегодник. – М., 2003. – С.53-80.

⁶ Каширин В.И., Каширина О.В. Философия информации: союз философии и компьютерной культуры // Вестник Ставропольский государственный ун-та: научный журнал. – Ставрополь, 2006. Вып.44. – С.157-161.

yildan 5-chi Rossiya faylasuflar kongressi materiallari, K.K.Kolin¹, A.V.Sokolov² ishlari, “Axborot haqidagi metodologik fan muammolari” mavzuidagi seminar faoliyati).

Masalan, A.V.Sokolov o‘z tadqiqotlarida axborot falsafasining ikki xil: pozitiv va metafizik jihatlarini ko‘rsatib beradi. Uning fikricha, “metafizik axborot falsafasining vazifasi asl mohiyatini ochib berish, ya‘ni semantik axborot, uni borliq bilan tushunish (ontologiyasi), uni tabiati (epistemologiyasi) qadriyati (aksiologiyasi) metodologik prinsiplarga asoslangan”³. Demak, axborot falsafasining metafizik jihatlarining tuzilishi quyidagilardan iborat: axborot epistemologiyasi (gnoseologiyasi), axborot ontologiyasi, axborotli yondashuv metodologiyasi, axborot aksiologiyasi, inson va axborot (antropologiya falsafasi), axborot fenomenologiyasi (turli fenomenlar mohiyati) hamda axborot etikasi.

Darhaqiqat, bugungi kunda axborot falsafasi predmeti oxirigacha aniqlanmagan. Rossiya axborot falsafasining o‘ziga xosligi shundaki, u bir tomondan axborotning ontologik va gnoseologik muammolariga, boshqa tomondan axborotning antropologiya va etikasiga oid qiziqishlarning oshganligidir. Shu bilan birga bizning mamlakatimizda ham axborot falsafasiga oid ilmiy tadqiqotlar mavjud⁴. Ushbu tadqiqotlarda axborot tushunchasining falsafiy muammolari, axborotning ontologik, epistemologik, gnoseologik hamda sinergetik tahlili, axborot fenomeni yoritilmoqda. Masalan, Sh.S.Qo‘shoqovning ilmiy tadqiqoti «axborot» tushunchasi va uni turlarining falsafiy-metodologik tahliliga bag‘ishlangan⁵.

Umuman olganda, bugungi kunda axborotga ega bo‘lish hamda undan asosiy manba va sivilizatsiya rivojlanishining ustuvor omili sifatida keng foydalanish insoniyatni tizimli tanglikdan chiqish va hozirgi davrning

¹ Колин К.К. Философия информации и фундаментальные проблемы информатики // Информационные ресурсы России: научно-практический журнал. – М., 2010. №1(113), – С.25-28.

² Соколов А.В. Философия информации: проф.-мировоззрение. Учебное пособие. – СПб: СПбГУКИ, 2010. – 368 с.

³ Соколов А.В. Философия информации: проф.-мировоззрение. Учебное пособие. – СПб: СПбГУКИ, 2010. – С.299.

⁴ Кушаков Ш.С. К вопросу о специфике информации // Труды СамГУ (общественные науки). Новая серия. Вып. № 340. - Самарканд: СамГУ, 1976. -С.55-76; Кушаков Ш.С. Природа и основные виды информации (философско-методологические аспекты): Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1978. – 24 с.; Ланцева О. Информационные аспекты развития (философско-методологический анализ): Дисс. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1995. – 125 с.; Фаффарова Г.Ф. Аxborot va axborotlarni tuzish jara'ёнlarining falsafiy-metodologik muammolari: Дисс. фалс.ф.н. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2008. – 160 б.

⁵ Қаранг: Кушаков Ш.С. Природа и основные виды информации (философско-методологические аспекты): Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1978. – 24 с.

aksariyat global muammolarini, shuningdek kelajakda vujudga keladigan muammolarni hal qilishga umidvor qiladi. Xo'sh, axborotga ega bo'lish talabi nimani bildiradi? Avvalo, bu uning tabiatini, ya'ni konseptual falsafiy mohiyatini adekvat tarzda tushunish zaruriyatidir¹. Keyingi talab tabiat va jamiyat, shuningdek inson evolyutsiyasi jarayonlaridagi axborot ahamiyatini tushunish zaruriyatidan iborat. Tadqiqot natijalari ko'rsatib turganidek, "axborot va informatsion o'zaro ta'sir jarayonlari muhim o'rin egallagan hozirgi zamon olam manzarasi faqat shu asosda qurilishi mumkin"². Aynan shuning uchun axborot tabiatini falsafiy anglash dolzarb va strategik jihatdan muhim ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda olimlarning axborot falsafasiga qiziqishini oshirishga qanday omillar ko'maklashadi? Bunda birinchi navbatda zamonaviy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish dolzarb muammosini ko'rsatish joiz, unda informatsion jihatlar insonning informatsion yashash muhiti va faoliyatining shiddatli rivojlanishi tufayli muhim bo'lib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "bugungi kunda bunday dunyoqarash nafaqat olimlar, balki davlat arboblari, siyosatshunoslar, pedagoglar, har bir o'qimishli odam uchun kerak"³.

Ikkinchi omil sifatida axborot fanining fanlararo ahamiyatini ko'rsatish mumkin, uning konsepsiya va usullari tabiat, jamiyat va insonni ilmiy tadqiq qilishning turli yo'nalishlarida tobora keng foydalanilmoqda. Rossiya va chet el olimlarining tadqiqotlari ko'rsatganidek, har qanday tirik organizm, o'z mohiyatiga ko'ra, juda murakkab axborot tizimidir, uni o'rganish uchun axborot to'g'risidagi fanning fundamental qonuniyatlarini, shuningdek ushbu hodisaning turli informatsion muhitlarda namoyon bo'lishi ajoyib xilma-xilligini bilish va ulardan foydalanish zarur⁴.

Xulosa qilib aytganda yuqorida sanab o'tilgan omillarning ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi rivojlanishiga bo'lgan ta'siri ortib boradi. Aynan bu hol axborot falsafasi rivojlanishini va uning yutuqlariga asoslangan ilmiy dunyoqarashni zamonaviy fanning keyingi rivojlanishidagi g'oyat dolzarb va strategik jihatdan muhim muammoga aylantiradi. Shuning uchun ham hozirgi kunda axborot falsafasiga bo'lgan qiziqish

¹ Колин К. К. Сущность информации и философские основы информатики // Информационные технологии. 2005. № 5. С. 63-70.

² Колин К. К. Овладение информацией - стратегическая проблема развития цивилизации в XXI веке. //Межотраслевая информационная служба, 2013, № 2. С. 5-15.

³ Колин К. К. Человек в изменяющемся мире и проблема научного просвещения // Информация и научное мировоззрение: сборник статей. - М.: Русская школьная библиотечная ассоциация, 2013. - С.81-98.

⁴ Судаков К. В. Информационный феномен жизнедеятельности. М.: РМАПО.1999. - 380 с.

ortib bormoqda, buning sababi bir tomondan axborotning ontologik va gnoseologik mohiyati bo'lsa, ikkinchi tomondan axborotning etik va antropologik xususiyatlaridir. Shu bilan birga bugungi kunda axborotga oid fanlarning falsafiy va ilmiy-metodologik jihatlarini o'rganish sohasida ba'zi istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari, shuningdek fanlararo tadqiqotlar va fanlar integratsiyasini rivojlantirish uchun ularning ahamiyati ko'rib chiqilmoqda.

Bizning nazarimizda, fan integratsiyasi maqsadida qilinishi kerak bo'lgan qadamlardan biri bu – axborot falsafasi sohasini rivojlantirish va u qo'lga kiritgan yutuqlardan keng foydalanish hamda axborot fanlarini rivojlantirishdir. Shuning uchun axborot falsafasining asosiy konsepsiyalaridan, shuningdek axborot fanlari usullaridan fanning boshqa sohalarida foydalanish ushbu sohalarda yangi natijalarga erishish hamda fanning o'zini integratsiyasiga yordam beradi.

Biz «axborot» tushunchasini bugun yuzaga kelgan hodisa sifatida qabul qilmasligimiz kerak, chunki axborotni o'zida ifoda etgan qarashlar qadimgi davr mumtoz faylasuflari Aflotun, Arastu va stoiklar ta'limotlarida gnoseologik jihatdan tahlil etilgan. Keyinchalik Lokk, Leybnits va Kondilyak unga mantiqiy-matematik nuqtai-nazardan baho berganlar. Pirs, Morris, Sossyur, Yakobson esa axborotning semantik, strukturaviy va pragmatik jihatlarini aks ettirgan qarashlarni ilgari surganlar. Biroq mazkur olim va faylasuflar axborotning ayrim masalalarini yoritib berishga muvaffaq bo'lganlar. Chunki, biz uchun oddiy bo'lgan kundalik hayotda ham «axborot» tushunchasi ko'pincha subyektning atrof-olam, o'zi va boshqa subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'indisi sifatida talqin etiladi. Shu ma'noda, subyekt uchun axborot o'zining maqsadli faoliyatini adekvat amalga oshirish imkoniyatlarini belgilash uchun zarurdir.

Umuman olganda, hayotning paydo bo'lishidagi murakkab jarayonlar, obyektiv olamni yanada chuqurroq bilish, fanlararo tadqiqotlarni amalga oshirish, EHM, kibernetika va shu kabilar rivojlanishini ham aynan «axborot» tushunchasi, uning paydo bo'lishi bilan bog'lashimiz mumkin bo'ladi. Shu ma'noda, axborotni bilish bosqichidagi yangi yondashuvni, ya'ni tabiat, jamiyat, inson, texnika va texnologiyani bilishga axborotli yondashuv tushunchasi kirib borayotganini e'tirof etishimizga to'g'ri kelmoqda.

Aytish kerakki, bilish jarayonidagi maqsad va manfaatlarning turli-tumanligi axborotga nisbatan azaldan turli yondashuv va ta'riflarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Shuning uchun ham ayrim gnoseologik

qarashlarda axborotga texnik vosita, boshqalarida bir qancha imkoniyatlarga ega bo'lgan yuksak faoliyat mezonini hisoblanadi. Ushbu tushunchalarning turlichaligiga sabab axborotning maqsad va vazifalari ifodasi inson ilmiy tafakkurining rivoji bilan bog'liq hodisa ekanligidir. Biroq, shu o'rinda ta'kidlash kerakki, axborot bilish jarayonini to'raligicha o'zida aks ettirmaydi. Bu masalada u insonning bilish faoliyati mezoniga tenglasha olmaydi. Shuning uchun ham bilish jarayonida inson insonligicha, kompyuter mashinaligicha qoladi.

Yana shuni aytishimiz mumkinki, gnoseologik masalalarga axborotli yondashuv asosida qarash falsafiy mazmun-mohiyat kasb etmaydi. Chunki bunday insoniy bilish unsurlarida gumanizm va axloqiy meyorlar mavjud bo'ladi. Shuningdek, jamiyatning barcha sohalariga axborot va uning texnologiyalarining tez sura'tlarda kirib kelishi, yangidan–yangi mummolarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa falsafiy mummolarning ortib borishidan dalolat bermoqda. Masalan, bunday muammolar qatoriga insonlarning manipulyatsiya qilinishi, mehnatning degumanizatsiyalashuvi, insonlararo axloqiy munosabatlardan uzoqlashib borayotganligi kabilarni keltirishimiz mumkin.

1.2. Axborotning epistemologik asoslari

Bugungi kunda jamiyatning asosiy omili axborot va bilim hisoblanadi. Axborot oqimining kuchayishi va yangi axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi natijasida barcha sohadagi ijtimoiy taraqqiyot sur'atlarining keskin o'sishi hamda murakkablashuvi oqibatida bilimlar ko'lami va unga munosabat keskin o'zgardi. Yangi jamiyatda bilim asosiy boylik hisoblanadi. Shuning uchun ham bu ikki tushunchaning o'zaro aloqadorligi masalalari tahlili asosida axborotning epistemologik asoslari yoritib beriladi.

Ma'lumki, ilmiy-falsafiy konsepsiyalarda axborot va bilimning metodologik xarakteriga alohida e'tibor beriladi. Zero, ular haqiqatni ratsional bilishga qaratilgan tadqiqot usullari va vositalarini izlab topishga yordam beradigan faoliyat mezonlaridir. Lekin ular o'z holicha insonning bilish darajasiga to'liq o'zgarish olib kirmaydi. Buning uchun mavjud axborotning gnoseologik va epistemologik chegarasini aniqlashga to'g'ri keladi. YA'ni, axborot va bilimning tadqiqot doirasi ma'lum obyektlarni haddan tashqari tor yoki keng ma'noda tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi

mumkin. Shuning uchun ham bunday ilmiy demarkatsiyalar buzilishining oldini olish katta metodologik ahamiyatga ega.

Tadqiqotchi tadqiqot obyektidan bilim yoki axborot oladimi degan savol tug'ilishi tabiiy hol? Fikrimizcha, tadqiqotchi obyekt bilan bilish usullari orqali muloqat o'rnatadi. Usullar o'ziga xos muloqot kanali sifatida obyektning xossalari, jihatlari to'g'risidagi ma'lumot va axborotlarni tadqiqotchiga yetkazadi. Mazkur ma'lumotlar tadqiqotchi tomonidan qayta o'rganilishi, ishlanishi natijasida bilimga aylanadi.

Tarixiy taraqqiyot tajribasidan ma'lumki, inson o'zi yashayotgan tabiiy ijtimoiy muhitni, o'zini-o'zi o'zgartirishni bilishi uchun hamisha yangi ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi. Boshqacha aytganda, inson o'zining tabiiy ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun unga yangi axborot va bilimlar zarur bo'ladi. Shuning uchun ham inson bilimlari doimo o'zgarib turuvchi, dinamik xususiyatga ega.

Axborot va bilim jamiyat rivojlanishining barcha davrlarida muhim rol o'ynagan va o'ynamoqda. Jamiyat hayotida axborotning ahamiyati va rolini mohiyatan anglashga aloqador holatlarda axborot va bilimning o'zaro aloqasini tushunish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham "axborot-bilim" muammosi XX asrning 30-50 yillarida shakllana boshlandi: fanda informatsion xususiyatdagi xalqaro va davlat ichidagi nashrlarning yaratilishi (ilmiy adabiyotlar indeksi, adabiyotlar ko'rsatkichlari, ilmiy axborot markazlari va boshqalar); sun'iy yaratilgan tizimda axborot va boshqaruv haqida nazariy ishlarning paydo bo'lishi ("Kibernetika" N.Viner, axborot nazariyasi, kibernetika, aloqaning matematik nazariyasi kabi K.S.Hennon ishlari); "axborot" tushunchasi va uni umumilmiy tushuncha guruhiga o'tishi, keyinroq falsafiy kategoriya doirasiga kirishi; avtomatlashtirilgan informatsion qidiruv tizimi, bilimni avtomat saqlash g'oyasi. Bu davr bilim hajmi eksponential ortishi va axborot eskirish darajasini ortib borayotganligi bilan xarakterlanadi.

Bu sohada R.F.Abdeyev, V.Inozemsev, I.S.Melyuxin, N.N.Moiseyev, I.B.Novik, V.S.Styopin, D.S.Chernavskiy, A.A.Chernov, Y.A.Shreyder¹

¹ Каранг: Абдеев Р.Ф. Философия информационной цивилизации. - М.: ВЛАДОС, 1994; Иноземцев В.Л. Перспективы постиндустриальной теории в меняющемся мире // Новая индустриальная волна на Западе: Антология.-М.: Academia, 1999; Мелюхин И.С. Информационное общество: истоки, проблемы, тенденции развития. - М.: МГУ, 1999; Моисеев Н. Информационное общества: возможность и реальность // Информационное общество. - М.: ООО «Издательство И74 АСТ», 2004; Новик И.Б Введение в информационный мир. - М.: Наука, 1991; Стёпин В.С., Горохов В.Г., Розов М.А. Философия науки и техника. - М.: Контакт-Альфа, 1995; Чернавский Д.С. Синергетика и информация. - М.: Наука, 2001; Чернов А.А. Становление глобального информационного общества. - М., 2003; Шрейдер Ю.А. Информатизация и культура: Аналитический обзор. - М., 1991.

kabi olimlarning ishlari salmoqlidir. Mazkur olimlar axborotning yuzaga kelishi, bilimning ishlab chiqilishi (generatsiyasi), axborotning qadri-qimmati, axborot g'oyasini ijtimoiy tizimdagi murakkab o'zgarishlar strategiyasi, izomorfizm, antropomorfizm kabi muammolarni o'zlarining falsafiy-metodologik asarlarida yoritib berganlar.

Ba'zi tadqiqotchilar, jumladan, “axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot va bilim munosabati”¹, “axborot va bilim”², “axborot va bilim tushunchalarining munosabati”³, “bilim ong fenomeni sifatida”⁴, “axborot va bilim munosabatining ba'zi jihatlar”⁵, “axborotlashgan jamiyatda ilmiy bilim”⁶, “bilish subyekti pozitsiyasida axborot va bilim”⁷, “bilish va reallikda yangi obrazlar”⁸, “axborot va bilim bilish jarayonining zaruriy komponentlari sifatida”⁹, “ilmiy bilish kontekstida axborot fenomeni”¹⁰ sifatida tahlil etishgan.

Umuman olganda, axborot va bilim inson omilining barcha sohalarida namoyon bo'layotgan jihatlar bilan ham ajralib turishi muhim ilmiy-falsafiy masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bilim va axborot nima, ular o'zaro bog'liqmi, degan savollarga javob berishga harakat qilamiz.

¹ Ёрмирзаева Ф.А. «Информация» и «знание»: анализ соотношения статуса понятий в условиях информационного общества // Вестник ТГУПБП, 2018. №1 (74), -С.48-57.

² Шрейдер Ю.А. Информация и знание // Системная концепция информационных процессов: сб. Трудов. – М.: ВНИИСИ, 1988 (Вып.3). – С.47-53.

³ Чуринов Н.М. Информационная реальность: основания и принципы построения теории: Автореф. дис. д-ра филос. наук. М., 1991. - 29 с.

⁴ Катречко С.Л. Знание как сознательный феномен // Что значит знать?: сборник научных статьи. – М.: Центр гуманитарных исследований. – СПб.: Университетская книга, 1999. – С.60-99.

⁵ Петров М.А. О соотношении понятий «знание» и «информация»: Автореф. дис. д-ра филос. наук. - Красноярск, 2005. - 29 с.

⁶ Лазаревич А.А. Научное знание в информационном обществе. – Мн.: Наука и техника, 1993. – 101 с.

⁷ Сергиевский В. Информация и знание с позиций субъекта познания.

⁸ Микешина Л.А., Опенко М.Ю. Новые образы познания и реальности. – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 1997. - 240 с.

⁹ Караваев Н.Л. Знание и информация как необходимые компоненты познавательного процесса: взаимоотношения и взаимопереходы: Дисс... на соискание учёной степени канд.филос.н. Киров, 2009.

¹⁰ Богатырева Е.Н. Феномен информации в контексте научного познания: философский анализ: Автореф. дис. К.филос. наук. - Саратов, 2000. - 29 с.

A. Bard va Y. Zoderkvist asarida, axborot va bilim o'rtasidagi farqni hamda zamonaviy olamda «bilimning keskin yetishmasligida haddan tashqari yuklangan axborotlar muhim o'ringa ega»¹ligini ko'rsatishadi.

Jamiyat rivojlanishida bilim va axborot katta ahamiyatga ega bo'lib, mazkur jamiyatda bilimning rivojlanishi va unga ta'siri ishlab chiqilib manba sifatida tadqiq etiladi. Jamiyat o'z rivojlanishining barcha bosqichlarida bilimlar ishlab chiqqan va ulardan foydalanib kelgan. Ma'lumki, insonning rivojlanishi uchun axborot suv, havo va olov kabi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham YE.Kudras ta'kidlaganidek, axborot – to'rtinchi hayotiy zarur elementdir.

«Axborot» – bilimga bo'ysunuvchi tushuncha bo'lib, bilimni boyitadi va o'zgartiradi. Inson ijtimoiy turmush taraqqiyoti asosida bilim yotadi, ya'ni bilim ijtimoiy tajribani harakatlantiradi. Shu sababli jamiyatda to'plangan ilmiy bilimlar o'z dalillari bilan birgalikda odamlarning xilmaxil amaliy harakatlariga asos bo'lgan umumiy boylikni tashkil etadi. Darhaqiqat, «butun ijtimoiy amaliyot va ijtimoiy munosabatlar tizimi jamiyat tomonidan egallangan bilimlarni o'zida namoyon etadi. Aynan shu egallangan bilimlar umumiy tajribaga aylanadi»². Tajriba esa bilimning haqiqiylikni mezoni hisoblanadi.

Bilim o'z taraqqiyotining dastlabki bosqichida anglash holatini bosib o'tadi. Bilimning ma'no va mohiyatini anglab yetmasdan turib, uni tushunib bo'lmaydi. Xuddi shuning uchun ham anglab olingan bilim o'z taraqqiyotining ikkinchi bosqichida tushunish holatiga kiradi. Inson bilimlarning ma'no va mohiyatini tushunib yetgach, uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi to'g'risida fikr bildiradi. Inson tomonidan o'zlashtirib olingan bilimlar, ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga, manfaatlariga, xohish-istaklariga, qisqacha aytganda, hayotiy mo'ljallariga mos tushsa, kishida o'zlashtirib olgan bilimlarni turmushga tatbiq etish istagi hosil bo'ladi. Shuning uchun ham «axborot tevarak-atrofdagi turli xil manbalardan to'plangan omillar bo'lib, bilimlarni qayta izhor qilish»³ hamdir.

Hozirda biz bilim tushunchasini turlicha tushuntirishimiz mumkin. Masalan, subyekt – olgan bilimlari asosida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bilim – obyektiv reallikni subyekt ongida tizimli ravishda aks

¹ Бард А., Зодерквист Я. Нетократия. Новая правящая элита и жизнь после капитализма. / Перевод со шведского языка. – СПб.: Стокгольмская школа экономики в Санкт-Петербурге, 2004. – 252 с.

² Файзуллаев О., Абдуллаева М.Н. Ҳозирги замон фанида имконият муаммолари. -Т.: Фан, 1993. – Б.86-87.

³ Давронов З. Илмий ижод методологияси. – Т.: Иктисод-молия, 2007. – 180-б.

ettirishdir. Shu bilan birga professor O.Fayzullayev bilimga ta'rif berar ekan, uning oddiy mexanik in'ikos bo'lmay, balki subyektning faolligi mavjud bo'lgan jarayon sifatida ta'riflaydi. Bu haqda "bilim ma'lum bir narsani holati, xususiyati, siri haqidagi ozmi ko'pmi miya ilg'ab olgan ma'lumotdir. U in'ikos, lekin, u oynadagi birdan paydo bo'ladigan aks emas, balki ma'lum bir uzoq vaqt davomida yaratiladigan "suvratdir". Ya'ni, bilim – bilishning natijasi. Demak bilish jarayondir¹ deb ta'kidlaydi.

Professor M.N.Abdullayeva fikricha, "Bilim – o'qish, ta'lim orqali kamol topishga intilishni ifodalovchi shaxs tarkibining zaruriy qismidir"². Bu ta'rifda bilim hosil bo'lishida insondagi ratsional va noratsional jihatlarining birligi, subyekt faolligi ta'kidlanadi.

N.A. SHermuhammedova izlanishlarida ilmiy bilim umumiy ma'noda "obyektiv va haqiqiy bilimni egallash jarayoni"³ sifatida tahlil etiladi.

G.Jalalova dissertatsiyasida esa "bilim tassavurlarimizning atrofigimizdagi voqea va predmetlarga mos kelishi, bilim ma'lumotlarni tushunish va muammolarni hal qilish imkonini beradi"⁴ deb ko'rsatiladi.

S.L.Katrechko fikricha, "bilim so'zlarni mexanik talaffuz etish emas, balki o'qiyotganda mohiyatni anglash, shuningdek, ongning diskret, fenomenidir"⁵. YA'ni, olim bilimni ongli fenomen deb ataydi. Shu bilan birga uni ta'kidlashicha, bilim "substrat" (moddiy) va "nosubstrat" (maydon) tashkil etuvchilaridan iboratdir. Bu fizikada mashhur bo'lgan korpuskulyar-to'lqin dualizmini eslatadi. Buni olim har qanday jumlada (so'zda) ko'rish mumkin, deb hisoblaydi. Jumlaning moddiy tashkil etuvchisi va nomoddiy tashkil etuvchisi mavjud. Moddiy, ya'ni "substratli tashkil etuvchisi" bu harflar, bo'g'inlar, so'zlar bo'lsa, "nosubstratli" tashkil etuvchilari bo'lib jumlani tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, probellar, pauza, intonatsiya, urg'u ishtirok etadi.

¹ Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. - Тошкент.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006 – Б.23.

² Абдуллаева М.Н., Туленова К.Ж., Гаффарова Г.Г., Ниязиметов М.К. Миллий ғоя ва фаннинг методологик муаммолари. - Тошкент.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2009. - Б.24.

³ Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. –Тошкент, 2005. - Б. 24.

⁴ Жалалова Г.О. Илмий билимларда трансформация жараёнларининг эпистемологик моҳияти: Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.яси. – Тошкент, 2018. –Б.12.

⁵ Катречко С.Л. Знание как сознательный феномен // Что значит знать?: сборник научных статьи. – М.: Центр гуманитарных исследования. – СПб.: Университетская книга, 1999. – С.64.

L.A.Mikeshina bilimni “ijtimoiy va individual xotira, shuningdek meros sifatidagi va yangi yaratilgan axborotni saqlash va undan foydalanishning usuli”¹ sifatida ifodalaydi.

Epistemologik nuqtai-nazardan esa bilim obyektiv ma‘noga ega bo‘lib haqiqatning mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Bunda bilim to‘g‘ri tanlansa, ezgu maqsad va faoliyatga yo‘naltirilsagina, obyektiv ma‘no-mazmun kasb etadi. Shuning uchun ham bilim bilan faoliyatning o‘zaro bog‘liqlik munosabatlari ko‘pchilik falsafiy qarashlarning diqqat markazida turadi. G‘azzoliy bu xususda shunday degan edi: “Bilim – ildizlarning ildizidir, chunki nima qilmoq kerakligi haqida bilim olgandan so‘nggina faoliyat o‘z shaklini oladi”. Darhaqiqat, bilimsiz hech qanday harakat bo‘lishi mumkin emas. Biroq ongli harakatni yuzaga chiqarib, butunjamoaga manfaat keltiradigan bilimgina foydalidir.

Insonning jamiyatda tutgan o‘rni uning nechog‘lik o‘qimishli, bilimliliigi bilan bog‘liq. U hech qachon insonning boyligi, nasl-nasabi bilan belgilanmasligi qayd etiladi. Bunday ijtimoiy muhitda “axloqi, taqvodorligi, faoliyati va yana boshqa ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan sifatlar “bilim olish”dek e‘tiborga molik emas”². Aftidan, jamiyatni axborotlashtirish ijodiy yaratuvchilik qobiliyatlarining yuksalishiga imkoniyat beradi.

Kundalik faoliyatimizda «axborot» va «bilim» tushunchalarini bir-biriga yaqin, o‘xshash tushunchalar sifatida ishlatamiz. Ammo chuqurroq o‘ylab qarasak, ushbu tushunchalarning biri ikkinchisiga o‘xshash emasligiga guvoh bo‘lamiz. Har qanday axborot ham bilim bo‘lavermaydi. Bilim – axborotning oliy darajasi, eng yuqori holatidir. Axborot bilim darajasiga ko‘tarilishi uchun inson bisotida mavjud bo‘lgan tarixiy tajriba, idrok, tasavvur chig‘irig‘idan o‘tmog‘i darkor. Ana o‘shandagina axborot bilimga aylanadi. Xuddi shuning uchun ham, yuqorida ta’kidlaganimizdek, bilim faqat ma’lumotlar yig‘indisi emas, balki ularning sintezidir. Bilim inson borlig‘ining eng asosiy xususiyati, miya faoliyatining mahsulidir.

Shu bilan birga “Bilim fenomenining obrazli xarakteri tasavvur bilan bog‘liq bo‘lsa, uning diskursiv xarakteri aql faoliyatiga bog‘liq. Axborotni ongli ishlov berish jarayonining asosida ikkilamchi sintez yotadi. Ular tasavvurning obrazli – eydetik sintezi va aqlning dastlab analitik-diskursiv qayta ishlashida namoyon bo‘luvchi sintezidan iboratdir. Bu ikki sintez bilimning hosil bo‘lish jarayonida doimiy bir birlarini to‘ldirib boradilar” –

¹ Микешина Л.А. Философия науки. Учебное пособие. - М.: Прогресс-традиция, 2005 . - С.68.

² Роузенталь Ф. Торжество знания. – М., 1978. – С.235.

deb ko'rsatadi¹. Bunda olim bilim dastlab "ongning o'ziga xos ekranida" paydo bo'lishi, so'ngra esa hissiy organlarga ma'lumotlarning ta'sir etishi natijasida ikkinchi marta ongli ravishda qayta ishlanishini ta'kidlaydi.

Inson tug'ilganida uning miyasida hech qanday bilim bo'lmaydi. Bilim hayot jarayonida, ya'ni inson amaliy faoliyatining natijasi sifatida hosil bo'ladi. Insonning yangi axborotni bilishi va o'rganishi uzoq davom etadigan murakkab, ziddiyatli jarayon bo'lib, bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Bilimga ega bo'lish juda ko'p ma'lumotlar bilan tanishishga bog'liq.

Ma'lumki, axborot va bilim munosabati intellektual resurs sohasida turli nazariyalarda markaziy hamda munozarali hisoblanadi. Shu sababli ba'zi tadqiqotchilar axborot va bilimning umumiy va farqli tomonlarini tahlil etishgan. Jumladan, K.A.Zadumkin, I.A.Kondakov, M.N.Ivanovlar fikricha, axborot va bilim tushunchalari orasida chegara mavjud, ammo u individual va asosli xususiyatga ega. "Axborot o'zida bilim mazmunini ifodalaydi va uni uzatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Axborotni bilimdan asosiy farqi shundaki, u (axborot) o'zining dastlabki holatida faoliyat, operatsiya, harakat yo'nalishi hisoblanmaydi"².

Subyekt mustaqil bo'lishiga qaramay har qanday obyekt axborotga ega. Obyektdan axborotni qabul qilib, subyekt o'zining maqsadiga muvofiq uni ishonchliligi va qimmatini shaxsan ishlov (qayta ishlaydi) beradi, ya'ni bilimda qabul qilingan axborotni tuzilishi va qayta ishlashni amalga oshiradi (barcha jamiyat uchun yoki uning uchun yangi). Jarayonning yakunlanishi natijasida obyektning sifati va parametrlarini o'zgartirish maqsadida yo'naltirilgan faoliyatda bilim generatsiyasi yuz beradi.

Darhaqiqat, inson hamisha axborotdan, unda mujassam etilgan ma'lumotdan ko'ra, ko'proq (ma'lumotga) bilimga ega bo'ladi. Aksi bo'lsa, inson uchun bu ma'lumot axborot emasdir. Masalan, fond indeksi.

Ammo bu shunday ayniyatki, ya'ni yangi axborot miyada yangi bilim yaratish imkonini beradi. Va biqiq halqa hosil bo'ladi. Uning yechimi: biz dastlab qandaydir miqdordagi bilimlar bilan birga dunyoga kelamiz, ular bizga axborotni anglash, qabul qilish, tasniflash imkonini beradi va biz shu bilan birga yangi bilimga ega bo'lib boraveramiz. Shu ma'noda bu bir umr davom etadi.

¹ Катречко С.Л. Знание как сознательный феномен // Что значит знать?: сборник научных статьи. – М.: Центр гуманитарных исследования. – СПб.: Университетская книга, 1999. – С.64.

² Задумкин К.А., Кондаков И.А., Иванов М.Н. Процесс генерации знаний: основные понятия и сущность // Экономика региона: проблемы развития, Вып.4(50), апрель-июнь, 2010. –С.29.

Shuni aytish kerakki, miyaga axborot yetib kelishi bilan bilim, ma'lumotlarni anglashi, tasniflash va tahlil qilish uchun intuitsiya zarur bo'ladi. Chunki miya qobig'ida chuqur bekilgan bo'lsa, u (intuitsiya) o'z kuchini namoyish etadi. Shuning uchun biz axborotni ba'zida yengillik bilan aqliy urinishsiz qo'shimcha aql-idrokni ishga solmasdan, qalbni zo'rqiqtirmasdan tez qabul qilamiz va u biz uni yetarligicha anglamaganimiz uchun, shunchalik tez bizni tark etadi, unutiladi. Faqat tajriba, anglash, boshdan va qalbdan kechirilgan axborot haqiqiy bilimga aylana oladi. Bu yerda aqldan tashqari amalda iroda kuchi ham ishtirok etadi hamda keyinchalik, albatta, amaliyot asosiy ahamiyat kasb etadi. Chnuki, amaliyot – bilimga ega bo'lishning yagona hayotiy maqsaddir. Agar biz faqat eshitsak, unda unutamiz. Agar bir ham eshitib, ham ko'rsak – o'rganiladigan masalani tushunamiz. Lekin, biz yuqoridagilar bilan birga, yana uni amaliyotda ham qo'llasak – biz uni bilamiz va uni amalga oshira olamiz, ya'ni, ma'lum masalani, fanni to'liq egallab olamiz.

Hozirgi kunda axborotning yildan-yilga ko'payib borishi natijasida bilim olish birinchi o'ringa chiqmoqda. Axborotlashtirish jarayonlarining, ayniqsa informatsion-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanishida axborot va bilim muhim o'rin tutadi. Shu sababli, axborot va bilim XX asrning oxiridan boshlab texnologiyalarning (informatika, elektronika, biotexnologiya, nanotexnologiya va h.k.) fundamenti hisoblanadi¹.

Bilim insoniyat rivojlanishining asosini tashkil etadi, uni olish usullari esa turlichadir. Jamiyatning rivojlanishiga qarab bilim olishning turli usullarini tasniflash mumkin.

Rivojlanishning agrar usulida kuzatuv bilim manbai hisoblanadi va u asosida mehnatga oid natijali xatti-harakatlar va tabiiy resurslarning o'sishi ta'minlanadi.

Industrial rivojlanish usulida esa yangi energetik manbalarni kiritish va ishlab chiqarish jarayonida energiyadan foydalanishni detsentralizatsiya qila olishning asosini tashkil etuvchi kuzatuv, eksperiment va nazariyalar yaratish bilim manbalari hisoblanadi.

1953 yildan boshlab fanda kompyuterli modellashtirish qo'llanila boshlandi. Bu bevosita nazariya orqali kuzatib bo'lmazligi, eksperiment tekshirish yoki bashorat qilishning iloji yo'qligi haqidagi bilimlarning rivojlanishiga olib keldi. Kompyuterli modellashtirish fanning ko'pgina sohalarida keng tatbiq etilmoqda.

¹ Абдуллаева М.Н., Покачалов Г. Философские проблемы методологии науки. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – С.37.

Axborotlashgan jamiyatda yangi bilimni olish usuli hisoblash texnikasini qo'llashga asoslangandir. Zamonaviy fanning metodlari (usullari) hajmi jihatidan juda katta bo'lgan ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi, yangi (kuzatuv, eksperiment, modellashirishga asoslanmagan) yondashuvlar qo'llaniladi. Alohida faktlarni izlash o'rniga korrelyatsiyalarni, tendensiyalarni o'rnatish uchun ma'lumotlar bazasi qo'llanadi, ilmiy ma'lumotlar informatsion operatsiyalar orqali olinadi. Demak, yangi axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning manbai bilimni to'plash texnologiyalari, axborotni qayta ishlash va simvolik kommunikatsiyalarga bog'liq.

Jamiyat rivojlanishida bilim va axborot doim katta ahamiyatga ega. Lekin mazkur jamiyatda axborotning rivojlanishi va bilimga ta'siri ishlab chiqarish manbai sifatida tadqiq etiladi. Jumladan, axborot haqidagi g'oyalariga oid muammolar bilan shug'ullangan xorijlik olimlardan D.Bell, J.Gelbreyt, P.Draker, M.Kastels, U.Rostou, O.Toffler, F.Uebster¹ ishlarida axborot va bilim aloqadorligi, axborot g'oyasini «postindustrial jamiyat» va «axborotlashgan jamiyat» konsepsiyalarining sinonimi sifatida tadqiq etishgan.

Axborotning bilimdan farqli tomonlari mavjud. “Axborot”, “bilim” tushunchalari ko'pincha bir-biriga o'xshatiladi. Bu qisman shu bilan izohlanadiki, bir darajada axborot sifatida amal qiluvchi dalillar boshqa darajada ma'lumot sifatida amal qilishi mumkin. Masalan, radio yoki televideniye muxbiri suhbat jarayonida axborot, ya'ni yangilik oladi. Axborot jamoatchilik fikrini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Bu axborotdan, o'z navbatida, tashkilotlar, muassasalar tahlil uchun ma'lumot sifatida foydalanishlari mumkin.

Axborot o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlarining muhim tarkibiy qismidir. Xotira, faoliyat dasturi, o'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni, muloqot va boshqa murakkab bio-ijtimoiy hodisalar axborotsiz amalga oshmaydi. Axborot orqali bilim ifodalanadi, bir subyektdan ikkinchisiga yetkaziladi, biogenetik faoliyatni ijtimoiy boshqarish dasturlari tuziladi hamda ularning bajarilishi nazorat qilinadi.

¹ Каранг: Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования / Пер. с англ. – М.: Academia, 1999; Гелбрейт Дж. Справедливое общество. Гуманистический взгляд. – Boston-NY, 1996; Дракер П. Посткапиталистическое общество // Новая индустриальная волна на Западе: Антология / Под ред. В.Л. Иноземцева. - М.: Academia, 1999; Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество, культура / Пер. с англ.; Под науч. рук. О.И.Шкаратана. – М.: ГУВШЭ, 2000; Ростоу В. Стадии экономического роста / Пер. с англ. - Нью-Йорк, 1960; Тоффлер О. Футурошок. - СПб.: Лань, 1997; Уэбстер Ф. Теории информационного общества / Пер. с англ. М.В. Арапова, Н.В. Малыхиной; Под ред. Е.Л.Вартановой. -М.: Аспект Пресс, 2004.

Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda axborot va bilim aynanlashtiriladi. Vaholanki, bilim axborot emas, balki tushunchalar, tasavvurlar, g'oyalar majmuasidir. Aloqa kanalida, muloqot jarayonida bilim axborotning mazmuniga aylanadi. Bilimning ma'nosi axborot signallarining ketma-ketligida, tartibida kodlashtiriladi. Muloqotning birinchi subyekti bilimni kodlashtirish orqali axborotga (so'z, gap, matn, aloqa to'liqini, belgilarga) aylantiradi. Bu subyekt ijtimoiy guruh, tashkilot bo'lishi mumkin. Muloqotning ikkinchi subyekti yana bir marta kodlashtirish amalini bajarib, axborotni bilimga aylantiradi.

Darhaqiqat, bilim doimo subyektning ajralmas qismi sifatida amal qilsa, axborot nafaqat obyektiv, balki subyektiv shaklda ham mavjud bo'ladi. Bilim subyektdan ajralmas bo'lsa, axborot esa moddiy tashuvchilarda mavjud bo'ladi. Bilimda insonning tajribasi, malakasi, idrok kabi subyektiv jihatlari aks etadi. Umuman olganda "bilim ong mavjudlik shakli, axborot esa formalizatsiya qilingan bilimdir. Bilim obyekt va subyekt o'rtasidagi o'ziga xos munosabatni aks ettiradi"¹. Ammo bilim va axborot o'zaro doimiy sinergetik aloqadorlikdadir.

Hozirgi dunyoda bilimning muhimligi va zarurligi, axborotlashgan jamiyatni barpo etish haqidagi konsepsiyalarda o'z aksini topgan. Shu sababli axborotlashgan jamiyatda ko'pchilik ishlovchilar axborotni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishlash va amaliyotga qo'llash, ayniqsa uning oliy shakli bo'lmish bilim bilan band bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda axborot va bilim xavf (risk) yoki ehtiyotkorlik manbai sifatida ham qaralmoqda².

Bilimni egallash voqelikni subyektiv o'zlashtirish bilan bog'liq. Ushbu nuqtai-nazardan, san'at, axloq, din bilish nazariyasi tomonidan o'rganiladigan predmetlar sirasiga kirmaydi.

"Bilish uchun bilish" va "uddalash (eplash) uchun bilish" - bu insonning refleksiyaga bo'lgan sof qobiliyatidir. Bu Pyer de Sharden e'tibor berib o'tganidek, axborotni yig'ish, uzatish va qayta ishlash jarayonlarining vujudga kelishiga olib keldi³.

¹ Негодаев И.А. На путях к информационному обществу. - Ростов на Дону.1999. - С .75- 76.

² Асланова М.Н., Сапрыкина Е.В. Знание и информация в современном обществе: источник опасности или эксперты риска? // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 1. 2014. №1(135). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/znaniye-informatsiya-v-sovremennom-obschestve-istochniki-opasnosti-ili-eksperty-riska> (Хавола: 18.07.2019)

³ Пьер Тейяр де Шарден. Феномен человека (Преджизнь, жизнь, мысль, сверхжизнь). – М., 1987. – С. 54.

M.Polanining ta'kidlashicha, his-tuyg'ular orqali olinadigan axborot ong orqali o'tadigan axborotga qaraganda nisbatan boyroqdir¹.

Zamonaviy dunyoda mamlakatning rivojlanishi bilimlar va axborotni innovatsiya va tatbiq etish o'rtasida muloqotni amalga oshiradigan va axborotni qayta ishlaydigan bilim va moslamalarning yuzaga kelishiga nisbatan qo'llashi bilan belgilanadi. O'z navbatida bilim subyekt tomonidan, shaxsiy mulohaza asosida shakllantiriladi, ya'ni "bilim jonli, anglangan, ichki kordinatsiya va konsentratsiya qilingan axborotdir"².

Bilim uning turli ma'naviy o'zgachaligi bilish faoliyatining xususiyatlarini ifodalaydi. Bilib olish, bilish – predmetning mohiyatiga kirib borish, uni ideal shaklda tasvirlashni hamda bu bilimni biluvchining real faoliyati sxemasiga aylantirish va alohida belgining mazmunini ochib berish qobiliyatini anglatadi. Bilim insonning qobiliyatidan ajralmasdir. Inson har doim bilimni o'z faoliyati chog'ida qo'llab boradi. Bilim tushunish jarayoni, lekin shu bilan birga tadqiq etilayotgan obyektning qiymati jihatlarini aks ettiradigan baholash hamdir.

Shunday qilib, axborot va bilim tushunchalarning umumiy tomonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: tugallanmagan, chegara va makondan mustaqilligi, tez eskirishi, juda kam baholanishi, orqaga qaytarimasdan uzatilishi, mahsulot sifatida mo'l-ko'l, qiymatini pasayishiga olib kelmaydi, tabiatda geterogen (farqlari bor).

Axborot va bilimning farqli tomonlarini esa quyidagicha ifodalash mumkin: axborot – ham jonli ham jonsiz tabiatda mavjud; bilim asosi hisoblanadi; ijtimoiy kontekstga bog'liq emas. Dj.Xodjson bunday farqlarni quyidagicha ifodalaydi, "axborot – bu qandaydir ma'noni berashga muvaffaq bo'lgan allaqachon talqin qilingan ma'lumotlar jamlanmasi. A bilim – axborotdan foydalanish mahsuloti". Bilim "yaqin joyda" bo'lgan narsadir va faqat "uni qo'llash" yoki "ochish" kerak³.

R.Krouford fikricha, "bilim – bu muayyan faoliyat turiga axborotni qo'llash imkoniyati"⁴.

B.Z. Milner fikricha, «axborot va bilim – ularning orasidagi chegaralar aniq emas va harakatlanmoqda, u bir xil narsa emas. Bir kishi

¹ Полани М. Личностные знания. – Москва: «Книга по Требованию», 1985. – С.9.

² Клейнер Г.Б. Управление корпоративными предприятиями и экономика знаний // России. Социология. Этнология. 2005. №4. –С.30-48. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/upravlenie-korporativnymi-predpriyatiimi-i-ekonomika-znaniy> (Хавола: 18.07.2019).

³ Ходжсон Дж. Социально-экономические последствия прогресса знаний и нарастания сложности // Вопросы экономики, 2001. №8, -С.34.

⁴ Crawford R. In the Era of Human Capital: The Emergence of Talent, Intelligence and Knowledge as the Worldwide Economic Force and Means to Managers and Investors. N.Y., 1991. –P.4.

uchun axborot bo'lsa, boshqasi uchun bilim. Axborot bilimlarni o'z ichiga oladi, lekin u hukm va tushunish kontekstiga qaraydi. Bilim (nou-xau, inson malakasi) yangi axborotni baholashda mavjud ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati va narsani chuqur tushunishni bildiradi. Bilim insonlarga to'g'ri yechimni tez qabul qilish va vaziyatni tushunishga imkon beradi va intuitiv darajada «ishlaydi»¹. Bu yerda olimning fikriga qo'shilib bo'lmaydi, chunki u o'ziga zid tahlil etadi. Bizning fikrimizcha, axborot va bilim orasidagi asosiy farq shundaki, bunda bilim doimo subyektiv hamda u subyektdan alohida bo'la olmaydi, ya'ni bilim tashuvchisidan. Aksincha, axborot obyektiv ravishda mavjud va jamiyatda aylanadi. U qog'ozga yoki elektron muhitga biriktirilishi mumkin va aniq bir subyekt bilan bog'liq bo'lmaydi.

Axborotni qabul qilish va qayta ishlash orqali alohida subyektlar olam haqidagi o'z bilimlarini oshiradi. Agar ular uni kondifitsirovat istasa va umumiy informatsion oqimda bog'lansa, unda bu boshqa subyektlarda shaxsiy bilish hajmini o'sishiga yordam beradi. Bunday holda umumiy ijtimoiy bilim ortadi hamda tobora ortib borayotgan axborot oqimlari bilan ifodalanadi. Bu haqida Aristotel quyidagi payqaydi, ya'ni «biz nimani izlaymiz (axborotni – muallifdan), biz bilganga tengdir».

Fransuz iqtisodchisi J.Sapir esa, “allaqachon mavjud bilimlarga signaldan terib olingan va qo'shilgan bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumot”². Va davomida “axborot bunday agentga berilmagani sababli, uni sotib olishning muhimligi uni qayta ishlashning muhimligiga yo'l ochib beradi. Bilim atrof-muhit holatiga bog'liq jami axborotlarga nisbatan asosiy tushunilgan”³.

Bilim – inson va jamiyat bilan judayam chuqur bog'langan. Axborot esa ijtimoiy kontekstni aniqlovchi, insonlar guruhi va inson ongi orqali o'tuvchi hamda inson intellektual imkoniyatining darajasiga bog'liq⁴.

YE.V. Ushakov ishlarida axborot muammosi insoniyat va inson bilimi sifatida tadqiq etiladi. Uning fikricha, axborotning asosiy mazmuni – bu inson (shaxsiy bilim), jamiyat (jamoaviy bilim) va insoniyat (umumiy bilim) uchun zaruriy bilim bo'lishdir. Bilim esa birinchi navbatda, inson va

¹ Мильнер Б.З. Управление знаниями: эволюция и революция в организации. – Москва: Инфра-М, 2003. – С.58.

² Сапир Ж. К экономической теории неоднородности систем: Опыт исследования децентрализованной экономики. Пер. с фр. Под науч. Ред. НА. Макашовой. – М.: Изд-во ВШЭ, 2001. – С.48.

³ Ўша жойда.

⁴ Степанова Т.Е. Экономика знаний: методологический аспект. – Саратов: Изд.во Саратовского университета, 2004. – 127 с.

insoniyatning o‘ta shaxsiy (mejlchnostnix), ijtimoiy va ijtimoiy-tabiiy o‘zaro harakatining amaliy faoliyati uchun sodiq xizmat qilishi zaruriyatidir¹. Darhaqiqat, zamonaviy jamiyatda bilim – bu amaliy qimmatga ega hamda aniq natija olish uchun xizmat qiladigan axborotdir. Chunki bugun bilim o‘zining ahamiyatini doimo isbotlaydi hamda amalda tekshiriladi. Zero, natijalar insondan tashqarida – jamiyatda, iqtisodda va bilimning o‘z taraqqiyotida nomoyon bo‘lmoqda. Har qanday sohada ahamiyatli natijalarni olish uchun yuqori malakali bilim talab etiladi.

Y.V. Pushkaryov hamda YE.A. Pushkaryova axborot va bilim tushunchalarining jamiyat taraqqiyoti tarixida o‘zgarishida ikki holda, ya‘ni “axborot” va “bilim” kategoriyalari munosabati hamda zamonaviy ijtimoiy holatlarda (situatsiya) unga moslashuvchanligini ko‘rib chiqishadi². Birinchi holda, bilim keng ma‘noda bu jamiyat taraqqiyotining aniq vaqtida otrezki tarqalgan barcha ommaviy axborot. Bunda bilim atamasi jamiyatdagi jami axborotlar sinonimi sifatida mavjud bo‘ladi (yoki qaysidir alohida ijtimoiy umumiylik). Ikkinchi holda, bilim tor ma‘noda, axborotning tegishli qismida tuzilgan ijobiy, maxsus sifatga, hayot uchun muhim ma‘noga ega bo‘lgan umumiy axborotlarning muayyan qismi sifatida tushuniladi. Bu jihatdan, axborot ijtimoiy hayotning fundamental asosi sifatida hayotiy faoliyatning tegishli turlari endi bilim emas, ma‘nosiz yoki vayron qiluvchi vaqt sarflashini tushunamiz.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, «axborot» tushunchasi XX asrning yarmigacha odamlar tomonidan turli yo‘llar bilan og‘zaki, yozma ravishda, belgilar, texnik vositalar va shu kabilar bilan uzatiladigan ma‘lumotlar deb talqin qilingan. Biroq, aloqa va telekommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, elektron hisoblash texnikasining vujudga kelishi va hayotning turli sohalariga kirib borishi axborotning kengroq tushunchasini ishlab chiqishni talab etdi.

K.SHennon tomonidan berilgan axborotning ta‘rifi ehtimolli-statistik (entropiyli) yondashuv asosida amalga oshiriladi va «biron-bir obyekt, tizim, jarayon va hodisa haqidagi bilimlarning noaniqlik darajasining pasayishi yoki obyekt, tizim, hodisa va jarayon holatining aniqligining

¹ Ушакова Е.В. Системно-философское содержание современной научной картины мира (мировоззренческо-методологический аспект): дисс....докт.филос.наук. – Иркутск, 1999.; Ушакова Е.В. Знаниеведение и управление. Монография. – Барнаул: Изд-во АлтГУ, 2006.; Коложов Ю.И., Ушакова Е.В. Содержательная стратегия обучения: знаниеведческий аспект // Вестник Томского государственного университета. 2005. №45, -С.16-18.

² Пушкарёв Ю.В., Пушкарёва Е.А. Знаниевая парадигма в общественном развитии: основные концепции // Вестник Новосибирского государственного педагогического университета, 2015. №3(25) // www.vestnik.nspu.ru

o'zgarishi», ¹ deb talqin qilinadi. Ushbu ta'rif bir necha ehtimolli pirovardlardan (oqibatlardan, natijalardan) qay biri sodir bo'lganligini (yoki sodir bo'lishini) ko'rsatadi va ana shu orqali masalaning yechimi sifatidagi bir nechta ehtimolli variantlar soni kamaytiriladi.

Axborotning idrok qiluvchi tizim haqidagi bilim hajmi va tuzilishining o'zgarishi sifatidagi falsafiy, aniqrog'i umumilmiy talqini ham ishlatib kelinmoqda. Qabul qiluvchi bo'lib har qanday tizim, masalan, inson, biologik hujayra tug'ilish jarayonida genetik axborotni qabul qiladigan hisoblanishi mumkin va h.k. Biologik tashkilot darajasida axborot va uning moddiy tashuvchisi o'rtasida funksional aloqa shakllanadi. Moddiy kodlar orasida neyrodinamik kodni, DNK va RNK axborot mavjud bo'lishining biopsixik shaklini ta'kidlab o'tish mumkin. Ushbu axborotlarni ehtirosli hayotda, ongning ishlashida va ehtirosli reaksiyalarda, harakatga keltiruvchi xatti-harakatlar ong harakatida, insonning xulq-atvori va faoliyatida ifodalanadigan hissiy-perseptiv tizimlar tufayli olish mumkin bo'lgan.

Atrof-muhit haqidagi axborotni qabul qilgan holda, tirik organizmlar ularga nisbatan turli usullar bilan munosabat bildirishadi. Moddiy dunyo evolyutsiyasining dinamikasini tadqiq etib, shuni ta'kidlash joizki, tirik organizmlarda turli-tuman in'ikos shakllari va vositalari, tashqi dunyoni idrok qilish, tashqi dunyo haqidagi axborotni qabul qilish va qayta ishlab chiqishni ta'minlaydigan funksional-avtonom organlari shakllandi. Ideallikning vujudga kelishi axborotning moddiy kodlari rivojlanishi va evolyutsiyasi bilan bog'liq.

Ideal turli moddiy kodlarning – neyrodinamik, semantik-ekspressiv (ko'z, yuz ifodasi, imo-ishora, harakatga keltiruvchi xatti-harakatlar), nutqiy madaniyatning obyektiv-predmetli kodlarda mujassamlashishi bilan bog'liqdir. Bir kodli tizimlarning boshqa kodli tizimlarga o'tishi ideal variant hisoblanadi. Bunda bitta moddiy kodning obyektiv borlig'i (uning energetik, substrat, ashyoviy va boshqa ko'rsatkichlari) o'zining dolzarbligini yo'qotadi, qayta kodlanadi, "predmetsizlanadi" va insonning faoliyatli qobiliyatlaridagi funksional ahamiyatli tavsiflarga aylanadi.

Falsafiy adabiyotlarda axborot izomorfi (gomomorfi), invariant va shu kabilar vositasida uzatiladi degan konsepsiya keng ishlatib kelinmoqda. Tuzilmaning biologik shakllarini o'rganishda «izomorfizm» va «gomomorfizm» tushunchalari bilan bir qatorda «invariantlik» tushunchasi ham qo'llanilib, u bilish jarayonida axborotning saqlanib qolinishini nazarda tutadi. Axborotga berilgan ta'riflarning ko'pligiga qaramay,

¹ Шеннон К. Работы по теории информации и кибернетике. – М., 1963. –С.35.

axborotni qabul qiluvchining tezariusiga ta'siri qabul qiluvchining tezariusini o'zgartirishi kerak.

A.P.Levich axborot hodisasini tahlil qilgan holda, axborotli tizimning umumlashgan blok tizimiga tegishliligini ko'rsatib, uni uch tarkibiy qismdan iboratligini ta'kidlaydi¹: obyektning tuzilishi – qabul qiluvchi tezaurusining in'ikosi. U axborotni ayrim kategoriyalar (kategoriyalarning matematik nazariyasi nazarda tutilmoqda) bilan tasvirlanadigan tizim holatlarining tuzilishi sifatida tavsiflaydi. Ushbu yondashuv axborotning juda keng tarqalgan “tasvirlangan turli-tumanlik” degan ta'rifiga aniqlik kiritadi. Bunda “tuzilmalarni qayta kodlash” va blok - sxemaning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan hamda “qabul qiluvchi tezariusining o'zgarishi” deb tushuniladigan tasvirlashga alohida e'tibor beriladi.

A.P.Levichning ta'kidlashicha², axborotni izomorfizm va gomomorfizm atamalarida talqin qilish “bir tipli” tuzilmalar bilangina bog'liq hamda bir vaqtning o'zida u tomonidan taklif etilayotgan va matematikaning oliy bo'limiga tegishli kategorial yondashuv erkin tuzilmalar bilan invariantlarning ko'pligini chiqarish va tuzilmalarning invariant logarifmi sifatidagi axborot miqdorini, tizimning tuzilishini saqlab qoladigan o'zgartirishlarni hisoblab chiqish mumkin.

Axborotning ushbu tahlili axborotli tizimlar shaklining ko'pligini o'ylab olishga imkon beradi. Bilim va axborot o'rtasidagi farqni quyidagi ta'rif bilan belgilab olish mumkin: “bilim – boshqalarga ayrim kommunikatsiya vositalari bilan tizimlashtirilgan shaklda uzatiladigan, mulohaza yoki eksperiment natijasiga asoslangan fakt yoki g'oyalar haqidagi fikrlarning tashkillashtirilgan majmuasi”³.

Bilimning eng yuqori darajalari, odatda, sarf qilingan birlikka nisbatan mahsulotning yaxshilangan va ko'tarilgan darajasini beradi. Bilim va axborot zamonaviy ishlab chiqarish texnologik funksiyalarini tavsiflaydi. Bilim – ishlab chiqarishning manbaidir.

“Axborot va bilimni, tasavvur etish shakli va uslubidan qat'i nazar, tizim (inson, tashkillashgan tuzilma, avtomatlashgan tizim) tomonidan qabul qilinadigan ayrim predmetli soha (shaxslar, predmetlar, faktlar, hodisalar, voqealıklar, jarayonlar) haqidagi bilim hajmi va tuzilishining o'zgarishi deb tushunamiz”⁴.

¹ Левич А.П. Информация как структура систем//Семиотика и информатика. – М., 1978. – №10, – С.116.

² Ўша асар. – С.132.

³ Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – М., 2000. – С.39.

⁴ Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. – М., 1999. – С.2.

Bilim mavjudligining shakllari: bevosita shaxsiy va bevosita jamoaviy. Ilmiy bilim mavjudligining shakllari individual ko'nikmalar, uquqlar, xotiralar va shu kabilarning mavjudlik shakllaridan farq qiladi. Bularning ikkinchisi shaxsdan, uning o'ziga xosligidan ajralmasdir, birinchi esa individual ongda emas, balki jamoat ongida, birinchi navbatda muayyan ilmiy hamjamiyat ongida mavjud bo'ladi.

Shaxsiy bilim (unda bilim va kechinmalarning qo'shilab ketganligi) bevosita jamoaviy bilim shakllariga o'xshamaydi. U ishlab chiqaruvchidan chetlasha olmaydi hamda bizga haqiqatni bermaydi, dunyoning ratsional tartibiga erishishga yo'l qo'ymaydi.

Bilimlar faqatgina aniq odamlar, shaxslar tomonidan olinishi mumkin va bu shaxs qanchalik original (mukammal) bo'lsa, fan va madaniyatga shunchalik katta hissa qo'shishi mumkin. Shu sababli ijod jarayonini hech qachon shakllantirib bo'lmaydi, hech qanday mashina tirik odamning, ayniqsa olim, tadqiqotchining o'rini bosa olmaydi.

O'ta shaxsiylashtirilgan axborotdan bilim olish mumkin. Lekin qabul qiluvchining tezaurusiga barcha qabul qilinadigan axborot ham ta'sir o'tkaza oladimi? Subyektning bilish faolligi eksplikatsiyaga oid va implitsitiv elementlar bilan belgilanadi. Bilimning implitsit elementi axborotning shakllantirilishiga tegishli bo'lmagan ortiqcha bilim mantiqiy shaklining zaruriy asosidir. Tushunarli ifodalangan bilim kodlashtiriladi, aniq bo'lmagan, yashirin, implitsit bilim esa subyektning mulki hisoblanadi.

Subyekt intellekti, bilimning mavjudlik shakllari axborotga yaqindan kirib borish – axborotni bilimga aylantirishning asosiy omillari hisoblanadi.

Bilish – inson ongingning yangi axborot bilan boyib borish jarayoni. Bilim esa fikrlash faoliyatining natijasi, inson faoliyatining reguliyati (tartibga soluvchisi)dir. U texnika va texnologiyada o'zining amaliy ifodasini topadi, manbaning potensial imkoniyatlarini ishga soladi va hozirgacha inson tomonidan ishlatilgan barcha tabiiy boyliklar va o'tmishdagi barcha ishlab chiqarish kuchlaridan behad ustunlik qilib kelmoqda. Ideal sifatidagi bilim inson faoliyati davomida moddiylashtiriladi.

Zamonaviy fanning kibernetlashtirish, kompyuterlashtirish, axborotlashtirish tushunchalari algoritmlashtirishning asosini tashkil qiladi. "Algoritm" so'zi lotin transkripsiyasida "Al-Xorazmiy"ni anglatadi. Fan tarixida birinchi bor algoritm algebralik masalalarni yechish uchun Muhammad al-Xorazmiy tomonidan qo'llanilgan. Algebraning elementlari qadimgi Misr, Bobil va Yunonistonda ma'lum bo'lgan bo'lsa-da, aynan al-

Xorazmiy tufayli algebraga alohida fan sohasi sifatida qaraladigan bo'ldi. Uning nomi bilan ketma-ketlik qoidalarining yig'indisi bog'liq bo'lib, unga ko'ra o'nli sanoq tizimi bo'yicha to'rt arifmetik amallardan biri bajarilishi nazarda tutiladi.

Qoidaga ko'ra, algoritmni tabiat, jamiyat va inson fikrlashida tabiiy va sun'iy jarayonlarning o'tishi¹, deb ta'riflash mumkin. Algoritmning tamoyillari fanning barcha sohalariga kirib borgan va aniq hisoblarni talab etadigan algoritmlashtirish asosi bo'ladi. Bugungi kunda texnika, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'pgina sohalar unga asoslanadi.

Al-Xorazmiyning to'rt arifmetik amal natijalarining tahlili (qo'shuv va ko'paytiruv, ayirish, bo'lish va cheksiz davriy kasrlar) fanning ilmiy apparatiga manfiy sonlarni, "chegara" va "chegaraviy o'tish" kabi yangi fundamental tushunchalarni kiritishni asoslaydi. Bu tushunchalar matematik tahlilning fundamental g'oyalari bo'lib, Leybnits va Nyuton differensial va integral hisobni aynan ulardan boshlaganlar. Turli tasnifdagi bilimlarning mavjud bo'lishiga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, u erkin va "ochiqdir"².

Bilimning ana shu xususiyatlari asosida yangi bilim sohaları ochiladi, fanlarning differentsiallasuvi va integratsiyallasuvi sodir bo'ladi. Shu ma'noda, zamonaviy algebra matematikaning cheksiz sohasi hisoblanadi.

Biz hali modullar, kategoriyalar, gomologiya nazariyalariga to'qnash kelganimiz yo'q. Hozir ko'pgina chala nazariyalar umumiy algebraning umumiy sxemasiga joylashtirilgan. Algebra va matematik mantiq tutashgan joyda modullar nazariyasi vujudga keldi. Bugungi kunda zamonaviy algebraviy geometriya, algebraviy tipologiya, algebraviy nazariyalar haqida gapirish mumkin. «Bu nazariyalarning rivojlanishi davom etmoqda va ushbu rivojlanishga O'zbekiston matematiklari o'zlarining katta hissalarini qo'shishmoqda»³. YA'ni, bilim va uning barcha shakllarini turli bilish kombinatsiyalarida qo'llash imkoniyatlarining kengayishi zamonaviy jamiyatning rivojlanish asosi bo'ldi.

Aniq va aniq bo'lmagan bilimning bir-biriga tashkillashgan ta'siri yangi bilim yaratishning asosidir. Bilim tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirish shaxsiy faoliyat natijasi bo'lib, uni boshqalarga formalizatsiyalashgan tuzilmalar orqali uzatib bo'lmaydi. Aniq bilimni aniq bo'lmagan

¹ Файзуллаев А.Ф. Современная алгоритмизация науки, техники и рыночных отношений // Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация. – Т., 2000. – С.92.

² Кабулов В.К. Принципы и методы алгоритмизации // Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация. – Т., 2000. – С.66.

³ Аюбов Ш.А. Продолжение идей ал-Хоразми в современных алгебраических системах // Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация. – Т., 2000. – С.54.

bilimga va, aksincha, aniq bo'lmaganini aniq bo'lganiga o'tkazish mumkin bo'lganida "ong orqali sodir bo'ladiganlariga qaraganda axborot his-tuyg'u organlari orqali olinadigan" bilimlar ko'proq bo'lardi.

Umuman olganda, bilim va axborot jamiyat rivojlanishining barcha usullari uchun muhim, chunki ishlab chiqarish jarayoni har doim bilimlar va axborotni qayta ishlash darajasiga bog'liqdir. Bilimlar axborotni qayta ishlaydigan va innovatsiyalarni tatbiq etish yo'nalishlari o'rtasida muloqotni amalga oshiradigan qurilmalarni ishga solish uchun qo'llaniladi.

Fan rivojining hozirgi bosqichi gen injeneriyasining taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Insoniyat tarixi biotexnologiyalar qadimdan qo'llanib kelgandan guvohlik bermoqda. Mikrobiologiya sohasidagi inqilob, hayot tuzilishining bazaviy ochilishi, 1953 yildagi DNKning qo'sh (ikkitalik) spirali, 1970 yilning boshlarida DNK genlarini ajratish va qayta birlash-tirish – gen injeneriyasining texnologik asosi – to'plangan bilimlarni qo'llash imkonini berdi.

Hozirgi kunda fan tizimli bilimni rivojlantirishning hukmronlik qiluvchi vositasidir. Fan tarixiga nigoz tashlaydigan bo'lsak, jamiyat rivojlanishida bilimning oshib boruvchi rolini ko'rish mumkin. O.Kont ijtimoiy hayotni bilim orqali qayta tashkil etishda tabiiy kuchlarni boshqarish kerak, degan g'oyani ilgari surdi. Ushbu g'oyaning xususiyati bilimning o'z-o'ziga ta'sir qilishi, joriy axborotni uzatish – axborotli yondashuv shakllaridan biridir.

Axborotni tahlil qilishning yangi zamonaviy imkoniyatlari vujudga kelmoqda. Bilimning manbai bo'lgan axborot yangi texnologiyalar va shu kabilarning manbai bo'lgan bilimlarning yuzaga kelishini yaxshilash uchun qayta ishlanadi. Bilim va axborotning o'zaro nisbatida ular o'rtasida murakkab sinergetik-dialektik aloqa ochiladi.

Har qanday ijod muhitida bilim darajasi cheklangan bo'lsa, ijodkor ishining faolligi susayadi, u foydasiz bo'ladi. Bunday foydasizlik intellektual o'ziga xoslikning aksidir. Boshqacha aytganda, bilim va axborot orasidagi farqni odam va kompyuter o'rtasidagi farqqa qiyoslash mumkin. Etik andozaga, meyorga mos tushishi uchun aniq voqelikni, ahvolni belgilovchi vaziyatdan xabardor bo'lish kerak. Ushbu yo'l bilan nafaqat maqsad to'g'ri tanlab olinadi, balki unga yetishish uchun adekvat vositalar ham topiladi. Biroq bir ish ahvoli haqida mustaqil fikr yuritish uchun odamga yoki bir guruh odamlarga axborot berish kerak. Ba'zi hollarda axborotning ko'pligi odamni chalg'itadi, to'g'ri fikr-mulohaza yuritishga qo'ymaydi. Bilim shaxsiy tajriba mavjudligini ko'zda tutsa, axborot aksariyat hollarda uni e'tiborga olmaydi. Odam hali birlamchi

tajribaga ega bo'lishga ulgurmay turib, axborot unga ikkilamchi tajribani yetkazib beradi.

Shu o'rinda bilim va axborot tushunchalarining nisbati muhim epistemologik masala ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir. P.P. Gaydenko quyidagi g'oyani taklif qiladi: "Axborot – bu bilim ayiruv shaxsiy tajriba"¹. Jamiyatshunos olim N.Luman ham shunga o'xshash g'oya tarafdoridir. Uning fikricha, «axborotni bilim yaratadi, ammo uni ko'chirma bilimdan ajratish kerak»². Darhaqiqat, axborot bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa hamda bo'layotgan yoki xabar qilinayotgan hodisa o'rtasidagi tafovutdir. Shu sababli ham, axborot boshqa narsalardan ajralib turishi uchun na doirasi, chegarasi ichida turlanishi mumkin bo'lgan o'lchovga, na uni topib olish mumkin bo'lgan makon-manzilga ega.

Bizningcha, axborot unga ehtiyoj, talab paydo bo'lganidagina bilimga aylanadi. Shuningdek, axborotlashgan jamiyat tarkibiy jihatdan bilim talablari natijalaridan iboratdir. Bulardan biz bilim va axborot o'zaro dialektik bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. YA'ni, bilim – bilim bo'lishi uchun, avval axborotga aylanishi kerak. Bu jarayonda axborot bilimni tasodif shaklida qayta yuzaga keltiradi. U o'z navbatida belgilagan, ta'riflagan barcha narsalarni boshqacha belgilashi, ta'riflashi mumkin bo'ladi. Shu ma'noda, biz axborotning topa oluvchanlik, talabchanlik sifati alohida ahamiyat kasb etishini ko'rishimiz mumkin. Biroq, fikrimizcha, axborotni qo'lga kiritish, unga nomigagina egalik qilish oson-u, undan foydalanish qiyin. Buning uchun mahsus uquv va mahorat kerak bo'ladi.

Agar axborotdan to'la-to'kis shaxsiylashtirilgan bilim sifatida foydalanilsa, bilimga ketgan harajatlar uning natijasini sira oqlamaydi. Ba'zan arzimas axborotlar nihoyatda ulkan hajmdagi bilimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, ilmiy ijod jarayonidagi ba'zi evristik qarashlarni aynan e'tibordan chetda qolgan axborotlarning ta'siri tufayli yuzaga kelgan.

"Axborot – hokimiyat demak. Axborot olish erkinlikning shartidir... Bilim va axborot strategik resurslarga va postindustrial jamiyatni o'zgartirish vositasiga aylanadi"³. Ammo axborotga hukmronlik qilib bo'lmaydi, u demokratik manba sifatida hamma uchun eshigi lang ochiq va unga yakka hokimlik qilish mumkin emas. Biroq axborot – ishlab chiqarishning eng nodemokratik omili hamdir, chunki eshigi ochiq bo'lgani bilan, unga

¹ Гайдено П.П. Знание и информация // Философия науки. – М., 1997. – №3. – С.189-190.

² Луман Н. Невероятность коммуникации // Проблемы теоретической социологии. – СПб., 2000. – №3. – С.43-54.

³ Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. – М.: Akademia, 1999. – С.103.

ega bo‘lish ma‘nosini bildirmaydi. Boshqa barcha resurslardan farqli o‘laroq axborot an‘anaviy tushunchalar qolipiga mos tushmaydi, unga nisbatan «tugadi», «ado bo‘lyapti», «falon hajmda iste‘mol qilindi», degan iboralarni ishlatib bo‘lmaydi.

Taniqli faylasuf F.Bekonning “kuch bilimda” iborasini hozirgi ijtimoiy kontekstda “o‘zgarishlar – bilimdadir”, deb izohlasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Texnologiyalarni oziqlantiruvchi bilimlarning tobora tezlik bilan o‘zlashtirilishi tub o‘zgarishlarning shiddatidan darak beradi.

Hozirgi axborotlashtirish jarayonlarida bilim, axborot, axborot-kommunikativ texnologiyalarning ahamiyati ayniqsa oshdi. Yuqori malakali mehnat bilim va axborotga asoslangani uchun ijodkor shaxsning roli oshadi. XX asr oxirida yuksak texnologiyalarning (elektronika, informatika, biotexnologiya, nanotexnologiya, raqamli texnologiya va h.k.) poydevori bilim va axborot bo‘lgan. Bu texnologiyalarning yaratilishi ishlab chiqarish asoslarida, inson bilan tabiat munosabatlarida keskin sifat o‘zgarishlari yasadi. Zamonamizda yuz berayotgan kompyuterlashtirish, kompyuter texnologiyalari fikrlash bosqichlarining imkoniyatlarini kengaytiradi, esda saqlashdan ozod qilgani uchun miyaga dam berib, ijodiy parvozga yo‘l ochadi.

Insonning yuqori yoki past malakali bilimga egaligi biror qarorga tez kelishida, bir vaziyatdan ikkinchisiga tez ko‘nika olishida bilinadi. Shuning uchun ilm-fan, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy hayotda bilim va axborotning ahamiyati tinmay oshib boraverishi yuqorida aytilgan sohalarida insonning intellektual salohiyatiini namoyon etadi. Bu esa shaxsning ijodiy fikrlash, tang holatlarda tez qaror qabul qilish qobiliyatlarini hisobga olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jamiyatga ijodiy-tanqidiy yondashuvda inson omili hal qiluvchi rol o‘ynay boshlaydi. Olingan axborotlarni quruq to‘playvermasdan, ularni ilmga aylantira oladimi, ijodiy qo‘llab, qaror chiqara oladimi-yo‘qmi – asosiy gap ana shunda. Bunday sharoitda uzluksiz o‘qitish, malaka oshirish, ijodiy imkoniyatlarni faollashtirish konsepsiyasi faqat bir shaxsga emas, butun jamiyatga, alohida birlashmalarga qaratilmog‘i lozim. Bilim va axborotni o‘zida jamlab, ulardan ijodiy foydalanib, yangilik yaratadigan odamlarga talab ortib boradi.

Har xil turlardagi axborot mahsuloti inson bilimlarining manbaidir. Axborot mahsuloti deganda, bilimlarning turli jabhalari, ma‘lumotlar, san‘at asarlari va an‘anaviy yo‘l bilan yoki elektron texnika yordamida olingan boshqa axborot shakllari tushuniladi. Bulardan ko‘rinadiki, intellektual mehnat vakillarining faoliyati ko‘p jihatdan ular oladigan

axborotning mazmuni, aniqligi va o'z vaqtidaligiga bog'liq. Ayni shu sohada axborotni bilimlar yaratilish va ulardan foydalanish joylariga yetkazishda axborot texnologiyalari katta xizmatchi kuch bo'lib, u ikkita tashkil etuvchi qismdan axborot va ko'ngil ochishdan iborat.

Demak, odamlar uchun axborotni taqdim etish sur'ati mavjud bo'lib, u qanchalik shiddatli bo'lsa, tushunish, anglash shunchalik qiyinlashadi.

Axborot va bilim tushunchalari ta'lim tushunchasi bilan bevosita bog'liq. Eynshteyn aytganidek, ta'lim – bu imtixondan keyin boshda qolgan bilim. Bu fikrga qo'shilgan holda aytish kerakki, ta'lim – bu birinchi navbatda axborotni qabul qilish va qayta ishlash ko'nikmalari. YA'ni, axborot – qabul qilinadigan ma'lumotlar, bilim – to'g'ri qayta ishlangan axborot. Bunda avval bilimga yo'l birinchi qadamdan boshlanadi, ya'ni dastlab men bilaman, ko'raman, eshitaman, bu holda inson endigina bilimga yaqinlashadi. Endi ikkinchi qadam zarur – men tushunaman, nimani ko'rganimni yoki eshitganimni anglayman. Agar axborot faqat miyaga tushgan bo'lsa, unda bu hali bilim emas (balki keng tarqalgan o'qituvchini savoliga javob berish uchun maktabda eslab qolingan ma'lumotlardir). Shu sababli ta'limning formal tizimi insonni o'ylashga o'rgatadi, inson nimanidir ko'rib yoki eshitib, uni amaliyotda erkin qo'llashi mumkin. Demak, axborot bu inson miyasida qayta ishlashdan o'tgan ma'lumotlar, bilim esa 10 yildan keyin miyada qolgan axborot.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, axborot va bilimning o'zaro aloqadorligi epistemologik xususiyatga ega. YA'ni, obyekt – axborot bo'lsa, bilish bu bilimdir.

Xulosa qilib aytganda, axborot, hajmi va odamlarning ongi-shuuriga kirib borishi jihatidan insoniyatning bitmas-tuganmas strategik zaxirasiga aylanmoqda. Obyektiv sharoit shunga olib keldiki, uchinchi ming yillikda jamoaviy, umumdunyoviy axborot tafakkuri hayron qolarli darajada o'smoqda. Albatta, axborot bilim tushunchasiga qaraganda kengroq tushuncha hisoblanadi. Chunki bilim doimo subyektning ajralmas qismi sifatida amal qilsa, axborot nafaqat obyektiv, balki subyektiv shaklda ham mavjud bo'ladi. Bilim subyektdan ajralmas bo'lsa, axborot esa moddiy tashuvchilarda mavjud bo'ladi. Bilimda insonning tajribasi, malakasi, idrok kabi subyektiv jihatlari aks etadi. Umuman olganda “bilim ong mavjudlik shakli, axborot esa formalizatsiya qilingan bilimdir. Bilim obyekt va subyekt o'rtasidagi o'ziga xos munosabatni aks ettiradi”¹. Ammo bilim va axborot o'zaro doimiy sinergetik aloqadorlikdadir. Shu

¹ Негодаев И.А. На путях к информационному обществу. - Ростов на Дону. 1999. - С. 75- 76.

sababli ko‘pincha axborot va bilim tushunalari aynanlashtiriladi. Zero, bunda bilimda aks etgan subyektiv jihat inkor etiladi.

1.3. Axborotning ontologik xususiyati

Axborotlashtirish jarayonlari insoniyat taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Tabiat bilan insoniyat jamiyati o‘rtasida, shuningdek insoniyat jamiyatining o‘zida o‘zaro axborot almashuvi mavjud bo‘lmaganida u taraqqiy qilmagan va hozirgi kamolotiga erishmagan bo‘lardi. Hayot mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun, moddiy vositalar kabi, axborot ham zarur. Insoniyatning taraqqiyot darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning hayotida axborotlar shunchalik katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Jamiyatning rivojlanishi hamda hayotning moddiy sharoitlarini ta‘minlash, shuningdek, atrof-muhit va o‘zini ko‘proq o‘rganish bu faoliyatning yo‘naltiruvchi asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ontologiya borliq muammolarini o‘rganadigan qadimiy falsafaning bo‘limi bo‘lib, mavjud borliq haqida uni qonun va shakllarini o‘rganadi (o‘rgatish, ta‘limoti). Ontologiyaning asosiy savoli: nima va qanday real mavjud va unga qanday ishonish kerak? Informatsion fanlarda ontologik muammo “qayerda va qanday qilib axborot mavjud?”.

M.I. Setrov ta‘kidlashicha, “bu sirli (shubhali, yashirin) axborotni xususiyat sifatida, substansiya sifatida ham hech kim ko‘rmagan... Nimaga? Ha shuning uchun u tabiatda mavjud emas, flyuid, flogist, efin va h.k. sifatida ham mavjud emas”¹. Darhaqiqat, axborot kuzatilmaydigan (nazorat qilinmaydigan) va sezilmaydigan, u qandaydir real mavjudligiga ishonch hosil qiladi.

Ontologik jihatdan olib qaraganda, logos va axborot o‘rtasida aloqa paydo bo‘lishi va o‘rnatilishi axborot nazariyasi sohasidagi jiddiy falsafiy muammolarni hal qilishni nazarda tutadi, masalan axborot qiymati, ma‘naviy imperativlarga taalluqliligini, uning bilish jarayonida va o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi tizimlar o‘z funksiyasini bajarishi jarayonlarida tutgan o‘rnini aniqlashga yordam beradi.

A.D.Ursul bu haqda shunday yozadi: “Axborot tushunchasi umumil-miy, ya‘ni barcha xususiy fan sohalari uchun tushuncha, axboriy yondashuv esa, o‘z ichiga g‘oyalar majmui va matematik vositalar kompleksini oluvchi tadqiqotning umumiy ilmiy vositasiga aylandi. Axborot

¹ Сетров М.И. Информационные процессы в биологических системах. Методологический очерк. – Л., 1975. – Б.123-124.

tushunchasining rivojlanishi zamonaviy fanda uning dunyoqarashli, asosan falsafiy talqinlari paydo bo'lishiga olib keldi"¹.

"Axborot" atamasining falsafada "borliq" atamasining holatini esga soladi, uni shunday talqin qilish orqali M. Xaydeger shunday xulosaga kelgan². Borliq haqida, boshqa ko'p narsalar haqida bo'lgani kabi, falsafa uning aslida qandayligidan tashqari boshqa narsa ayta olmagan. Bu oddiy dalilni qayd etishdan boshlab, M.Xaydeger shunday savol qo'yadi: "Borliq" o'zi bo'sh so'zmi, uning ma'nosi esa – tumanmi, yoki Yevropaning ma'naviy taqdirimi?"³.

Aynan M.Xaydeger mulohazalari "axborot" atamasiga nisbatan juda ahamiyatlidir, chunki ko'p tarjimonlarning fikricha, tirik tilning umumqo'llaniluvchi so'zlarini shunday talqin qilishi mumkinki, ayni paytda ular muvaffaqiyat bilan G'arb metafizikasining an'anaviy tushunilish apparatiga yoziladi. M.Xaydegerning falsafiy qarashi, uning falsafiy til bilan aniq va filtrlangan ishi uning "axborot" atamasining talqiniga e'tibor berish va taklif qilinayotgan ma'noda qo'llash uchun jiddiy asos bo'lgan.

M.Xaydeger tomonidan qo'llanilgan metodologik yondashuv dialektik texnikaning "yuragini" tashkil qiladi, ya'ni dialektika bir so'zda ilg'asa bo'ladi. M.Xaydeger ishlarini rus tiliga tarjima qilgan tarjimonlardan biri A.V.Mixaylovning fikricha, olim qismchalarda eng nozik modalliklar va tonalliklarni ko'rgan va shu tarzda qismchalarning ma'nosiga falsafiy nuqtai nazar uchun aniqliklar (yoki belgilar) kiritgan⁴.

Shuning uchun ham M.Xaydeger: "Qismchalar natijada, falsafiy sun'iy qismchalar konkret ravishda nima sifatida xizmat qilishini aniqlaydi, qismchalarning hammasini egiluvchan va fikrning borishiga itoatkorlik qiladi"⁵, bu "axborot" so'zida falsafiy ma'noli qismchaning bo'lishi so'zni qayta tushunishga imkon beradi, uni kundaliklik va rituallikdan mahrum qiladi, tabiiy til chegarasidan tashqariga chiqaradi va faylasuf nutqiga kiradi"⁶, – deydi. Bundan ko'rinadiki, axborot o'zida nafaqat gnoseologik yoki epistemologik xususiyatlarni mujassamlashtirgan, balki, metafizik, dialektik, sinergetik asosga ega bo'lgan ontologik

¹ Урсул А.Д. Информация // Философский энциклопедический словарь. – М., 1983. – С. 95.

² Хайдеггер М. Введение в метафизику. – СПб., 1998. – С.119.

³ Ўша асар. – С. 119.

⁴ Хайдеггер М. Бытие и время. – М., 1997. – С. 448.

⁵ Хайдеггер М. Положение об основании. Статьи и фрагменты. – СПб., 2000. – С. 64.

⁶ Хайдеггер М. Положение об основании. Статьи и фрагменты. – СПб., 2000. – С. 64.

masalalarni ham qamrab olgan. Jumladan, dialektik maʼnoda axborot ham miqdoriy ham sifatiy oʻzgarishlar koʻrsatkichiga ega¹.

Axborot falsafasining ontologik masalasi murakkab hisoblanadi. Chunki, ontologiyaning umumfalsafiy yechilmagan muammolari oz emas. Shu sababli ushbu paragrafda makon va vaqtning axborotlashuv jarayonlaridagi imkoniyati va ahamiyatini yoritib berishga harakat qilamiz. Bu esa axborot jarayonlarini falsafiy tahlil etishdagi yana bir muammoning yechimi hisoblanadi.

Maʼlumki, axborotlashgan jamiyat hayotni inson faoliyatining barcha ijtimoiy muhim koʻrinishlarida haqqoniy, toʻla va zamonaviy bilimlardan koʻproq foydalanish asosida qayta qurishni bildiradi. Shu maʼnoda N.N.Moiseyev “Axborot – eng oddiy, hayotiy maʼnoda – qandaydir dalillar majmui. Muhimi, bu tushunchani kiritish zarurati maqsadga yoʻnaltirilgan harakatlarga qodir obyektlarni oʻrganish asosida paydo boʻlgan”² degan fikrni bildiradi. Shuning uchun ham mazkur fenomenning asosiy xususiyatlarini ifodalash maqsadida uning falsafiy konsepsiyalarini tizimlashtirish zarur. Shu bilan birga, axborotni tor doirada tushunmaslik kerak, chunki, u ontologik maʼno-mazmun kasb etadi. Axborot fenomenining taʼriflarini eng qadimgi falsafiy va diniy tizimlarda kuzatish mumkin, bu esa axborot fenomenining borliqda chuqur ildiz otganini koʻrsatadi.

Maʼlumki, falsafaning asosiy tushunchalaridan biri “makon” va “vaqt”dir. Ushbu tushunchalarning qisqacha mohiyatiga toʻxtalsak.

Fan tarixida makonning xususiyatlari quyidagicha belgilandi: boʻshliq (Demokrit, Epikur, Lukretsiy), cheksizlik (Epikur), mutlaq sukunat, uzluksizlik, jismni qamrab olish, jismdan taʼsirlanmaslik, jismdan jismga taʼsir kuchining boʻshliq orqali juda tez oʻtishi, materiyaning mohiyatli xossasi (Ibn Sino), hajmga ega jism chegarasi (Ibn Sino), jism koʻlami (Beruniy), turli jismlarning joylashuvi (Leybnits).

Vaqtning xossalari deganda quyidagilar tushunilgan: borliqning subyektiv sezgilari (qadimgi mutafakkirlar); uch oʻlchovli materiya atributi (Ibn Sino); jism harakatining miqdori, hodisalarning almashuvi, ketma-ketlik tartibi (Ibn Sino); element zarralariga va bir-biriga aylanishi (Beruniy); harakat bilan bogʻlangan narsa (Forobiy); mutlaqo hech narsa bogʻliq emas, voqealarni joylashtirish mumkin boʻlgan va oldinga

¹ Фабричное С.А. Концепция и основные методологические принципы исследования информационного труда / Современное общество. – Омск, 1999. Вып.2. – С.34.

² Моисеев Н.Н. Универсум. Информация. Общество. – М.: Устойчивый мир, 2001. – С. 185.

yoʻnalgan oqim «boʻshligʻi», cheksiz-uzluksiz (Nyuton); sabab-oqibat tarzidagi tartib (Leybnits).

“Fazo” tushunchasi fors tili taʼsirida yozilgan adabiyotlarda “makon” deb ham atalgan. “Makon” – fizikaviy tushuncha boʻlib, falsafaga ham oid kategoriyadir. Makon borliqning asosiy mavjudlik shakllaridan biri boʻlib, obyektlarning oʻzaro joylashish tartibi, koʻlami, hajmi, oʻlchamlari, obyektни tashkil etuvchi nuqtalarning oʻzaro joylashish vaziyati kabi xususiyatlarini ifoda etadi. Demak, makon narsalarning koʻlamini, hajmini, oʻzaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalaydi. Mazkur xossa va xususiyatlar axborotga ham taalluqli boʻlib, uning yangi miqdoriy hamda sifatii koʻrsatkichlarini belgilab olishga xizmat qiladi.

“Makon” tushunchasini ikki xil – substansional va relyatsion nuqtai nazardan talqin etuvchi konsepsiyalar mavjud¹. Substansional konsepsiya boʻyicha makon - narsalar joylashadigan joy, mutlaqo oʻzgarmas, mustaqil substansiyadir. Relyatsion konsepsiya boʻyicha “fazo” obyektlarni tashkil etuvchi nuqtalarning oʻzaro joylashish tartibini ifoda etib, u borliqning nisbiy barqaror xususiyatlari majmuasini anglatadi.

S.B. Lukovkinning taʼkidlashicha², axborot materiyani ifodalovchi aksariyat atributlarni oʻz ichiga oladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, axborotni tahlil qilishda ham substansional va relyatsion konsepsiyalar asosida yondashish, axborotning cheklangan yoki cheklanmagan tabiatini aniqlash mumkin boʻladi.

Makonning xususiyatlari, mohiyati jihatidan topologik va metrik xususiyatlarga boʻlinadi. Makonning topologik xususiyatlari borliqning sifatii-fazovii xususiyatlarini, metrik xususiyatlari esa borliqning miqdoriy fazovii xususiyatlarini ifodalaydi. Makonning metrik xususiyatlariga: koʻlam, bir jinslilik, izotroplik, egrilanganlik; topologik xususiyatlariga esa oʻlchamlilik, uzluksizlik, bogʻlanganlik, yoʻnalganlik, kompaktilik kiradi. Borliqning harakat shakllariga mos ravishda, makon (fazo)-vaqt shakllari ham turlicha boʻladi, yaʼni fizik, ximik, biologik, psixologik va ijtimoiy fazo shakllari mavjud. Ammo ular bir-biridan farq qiladi.

Vaqt – borliqning asosii mavjudlik shakllaridan boʻlib, voqea va hodisalarning roʻy berish ketma-ketligi va izchilligi tartibini, davomiyligini ifodalaydi. “Vaqt” tushunchasi forsii til taʼsirida yozilgan falsafii adabiyotlarda zamon³ deb ham atalgan. Ammo bu tushuncha

¹ Тураев Б.О. Пространство, время, развитие. – Т.: Фан, 1992. – С.21.

² Луковкин, С.Б. Философский анализ понятий информация и информационное взаимодействие // Поиск: философские и социально-экономические исследования: межвузовский сборник научных статей. – Мурманск: Максимум, 2002. – Вып. IV. – С.67.

³ Фалсафа қисқача изоҳли луғат. – Т.: Шарқ, 2004. – Б.83.

ko'proq, ikki vaqt lahzalari orasidagi muddat yoki davr ma'nosini aks ettiradi. Vaqt so'zi kengroq falsafiy mazmunga ega bo'lganligi sababli, shu atamadan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Umuman olganda, "vaqt" hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi. Vaqtning o'lchash bugun butun yer sharida standartlashtirilgan. Axborotda makon va vaqt nuqati nazaridan turli darajadagi ma'lumotlarni qabul qilish yoki uzatishda ketma-ketlik, almashinuvning davomiyligi, uzlukli va uzluksizligi kabilarni aniqlashga qaratilgan faoliyat mezonlari tartibga solinmoqda.

Bundan ko'rinadiki, vaqtning asosiy xususiyatlariga vaqtning davomiylik, bir o'lchamlilik, orqaga qaytmaslik, chiziqli tartiblanganlik kabilarni kiradi. Biror obyektidagi vaqtning o'tishi shu obyektning harakatlanish tezligiga va obyektning tashkil etuvchi moddalar zichligiga bog'liq. Axborot qanchalik tezlikda harakatlansa, unda vaqtning o'tishi, nisbatan tinch turgan obyektlarga qaraganda shunchalik sekin o'tadi.

Falsafada vaqtning mohiyatiga to'rt xil yondashish va unda tegishli to'rt xil konsepsiya mavjud. Ushbu konsepsiyalarni professor B.To'rayev o'zining «Prostranstvo, vremya, razvitiye» nomli monografiyasida falsafiy tahlilini yoritib bergan. Monografiyada substansional va relyatsion yondashuvlar, dinamik va statik konsepsiyalar to'g'risida fikr yuritiladi. «Substansional yondashuv zahirida vaqtning alohida substansiya»¹, deb olib qarash yotadi. Bu konsepsiya bo'yicha vaqt azaliy va mustaqil substansiya, unda hodisalar bo'lib o'tadi. Relyatsion konsepsiyada vaqt jarayonlar o'lchovi sifatida ifodalanadi, ammo vaqtning jarayondan ajratib bo'lmaydi.

Makon uchun xos bo'lgan xususiyat uning uch o'lchamliligidir. Obyektning qayerdaligini uch o'lcham yordamida aniqlash mumkin. Vaqt esa bir o'lchamli. "Ko'p o'lchamli fazo" tushunchasi ham bor. To'rt va undan ortiq o'lcham haqida matematikada, nazariy fizikada, falsafada ko'p bahslar bo'lib turadi.

Klassik fizikada vaqt bir yo'nalishga ega, ya'ni u orqaga qaytmaydi. Sinergetika asoschilari bu fikrni qayta ko'rib qarab chiqish kerak, degan xulosaga kelishdi. Darhaqiqat, bir vaqtlar moddani, materiyani vakuumga qarshi qo'yishar edi. Keyin ma'lum bo'ldiki, vakuum, ya'ni bo'shliq ham materiya bo'lib chiqdi. Shunga o'xshash tartibsizlik ham, o'ziga xos tartibga ega ekan. Vaqtning orqaga qaytmasligi masalasi ham shunday, bu esa sinergetikaning asosiy g'oyalaridan biridir.

Nyutonning klassik mexanikasida vaqt orqaga qaytarilishi mumkin. Kelgusida sodir bo'ladigan voqealar vaqt orqali qanday bilinsa, bo'lib

¹ Тураев Б.О. Пространство, время, развитие. – Т.: Фан, 1992. – С.21.

o'tganlari ham shunday bilinadi. Masalan, Muhammad al-Xorazmiy o'zining tarixga bag'ishlangan kitobida qadimgi zamonlarda bo'lib o'tgan tabiiy va ijtimoiy voqea hodisalarning vaqtlarini aniqlab bergan. Beruniy esa o'zining «Osori boqiya» asarida Yerda bo'lib o'tgan buyuk tayfun vaqtini o'lchagan. Ulug'bek o'zining «Zij» asarida kelgusida bo'ladigan Quyosh va Oy tutilishlari vaqtini belgilagan. Ammo bu tadqiqotlar samoviy jismlar harakatining kinematikasi va geometriyasi yordamida amalga oshirilgan. Nyuton esa dinamikaning asosiy qonuni asosida ish yuritgan. Vaqtga nisbatan bu bir-biriga teskari hollarda mexanika bab-baravar ishlaydi.

Shunday qilib, klassik mexanikada vaqt hech narsani «qaritmaydi», samoviy jismlar qanday bo'lsa, shundayligicha qolaveradi.

Termodinamikada esa boshqacharoq: olamda hozircha barcha energiya vaqt o'tishi bilan kamayib boradi, koinot issiqligining «o'lib» borishiga olib keladi. Narsa va voqeaning ertasiga bugungisining o'zi emas, ularning farq qilishiga vaqt sabab bo'ladi. Odam qanday qarisa, olam ham shunday qariydi. Klassik mexanikada mana shu tasodif yo'q edi.

Vaqtning bir tomonlama va qaytmasligiga misollar keltiramiz. Jumladan, fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishi ham bir tomonlama - faqat olg'a boradi.

Sinergetikada, makon va vaqt strukturasi makroskopik tartibga kelish jarayonida murakkab chiziqsiz tizim sifatida tushuniladi. Bu tizim muvozanat holatidan uzoqlashib, o'ziga xos tanglik nuqtasiga (bifurkatsiya nuqtasiga) yaqinlashadi va natijada tizimning qalqib turadigan, turg'un bo'lmagan holati vujudga keladi. Mana shunday holatda tizim nuqtasi uncha ahamiyatli bo'lmagan ta'sir yoki fluktuatsiya asosida o'z holatini keskin o'zgartirishi mumkin. Bu holat ko'pincha xaos (tartibsizlik)dan tartibga o'tish asosida boradi.

Sinergetika vaqtning qaytish va qaytmaslik muammosi yechilishiga muhim xissa qo'shdi¹, ya'ni bu ikkala jarayonni birgalikda qarash mumkin. Darhaqiqat, bir-biridan uzoq dastlabki ko'rinishda bir-biriga qarshi juft tushunchalar hamma vaqt birgalikdadir. Ular: yaxshi-yomon, zarurat-tasodif, tartiblilik-tartibsizlik, qaytish-qaytmaslik.

Shu o'rinda aytish kerakki, sinergetika borliqdagi obyektlarni ochiq tizimlar sifatida qaraydi. Bunda ochiq tizim bu shunday tizimki u atrofidagi tizimlar bilan modda, energiya va axborot bilan almashib turadi. Albatta, «bugungi zamonaviy fan shuni ko'rsatyaptiki borliqdagi barcha

¹ Пригожин И., Стенгерс И. Время, хаос, квант. К решению парадокса времени. – М., 2000. – С.82.

sistemalar ochiq sistemalardir va muayyan darajada boshqa sistemalar bilan modda, energiya va axborot almashinuvida qatnashadi”¹.

Bunday tizimlarni yana dissipativ tizimlar² ham deyiladi. Dissipativ tizim (dissipativ struktura) lotincha «dissipatio» soʻzidan olingan boʻlib, tarqalish, barbod boʻlish maʼnosini bildiradi hamda termodinamik muvozanatdan faoliyat koʻrsatuvchi ochiq tizim. YAʼni, muvozanatsiz muhitda tashqaridan olingan energiyani dissipatsiyasi oqibatida barqaror, muvozanatli holat paydo boʻladi.

Dissipativ tizimlar borliqda, koinotda bir butun dissipativ sistemalarni tizimini tashkil qiladi. Bu yerda aytish lozimki, sinergetika yaratilishidan avval fan oʻz obyektlarini yopiq tizim sifatida oʻrganar edi. Yopiq tizim shunday tizimki, u boshqa tizimlar bilan modda, energiya va axborot bilan almashmaydi.

Taniqli olim Devid Xarvi taʼkidlaganidek, vaqt va makonni ijtimoiy xarakterdan ajratgan holda, yaʼni makon va vaqtni ijtimoiy harakatsiz tushunib boʻlmaydi. “Makon boshqa moddiy mahsulotlar shu jumladan odamlarga nisbatan moddiy mahsulotdir. Odamlar determinatsiyalashgan ijtimoiy munosabatlarga tortilgan boʻlib, shu tufayli makon shakl, funktsiya va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi”³.

M.Kastels asarida barcha reallik singari informatsion reallik oʻzining vaqt va makoniga egaligini keng qarab chiqiladi⁴. Unda muallif bu reallik makoni sifatida jamiyat (sotsium)ning siyosiy, iqtisodiy va belgilar (simvolik) tuzilishini jismoniy jihatdan ajralgan faoliyat bilan almashadigan kapital oqimi, texnologiya, xabar, maʼnoni anglatadigan tarmoq sifatida ifodalaydi. Ushbu makon uchta moddiy yordamga asoslanadi, yaʼni 1) elektron telekommunikatsiya va yuqori tezlikdagi transport vositasi; 2) aloqa (kommunikatsion) kompyuter markazlarining global iyerarxik tarmogʻi; 3) hukmron boshqaruv elitani hududiy taqsimoti.

Informatsion reallik oʻziga xos xususiyati tezkor kapital bitimlari, oʻzgaruvchan ish soatlari, hayot siklining bulanishi, hodisalarni toʻgʻridan toʻgʻri xabar berish va boshqalar hisoblanadi. Vaqt M.Kastels fikricha, abadiy qolmaydi. Abadiy vaqt makon (maydon) oqimiga toʻgʻri keladi va

¹ Каримов Б.Р. Синергетика ва эвристиканинг илмий билиш жараёнидаги ўрни // Синергетик парадигма: муаммо ва имкониятлар: илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2013. – Б.61-62.

² Николис Г., Пригожин И. Самоорганизация в неравновесных системах от диссипативных структур к упорядоченности через флуктуация. – Москва: Мир, 1979. – 512 с.

³ Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – М., 2000. – С.385.

⁴ Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – М., 2000. – С.354-434.

oʻtmish, hozirgi va hatto kelajakda oʻzgarishi, ularni tartibini oʻzgartirishi, hodisalar orasidagi oraliqni siqish ehtimoli borligini namoyon etadi. M.Kastels taʼkidlaganidek, makon oqimi “jamiyatni abadiy efemerligiga halal berish orqali vaqtni ajrata oladi va bir vaqtning oʻzida hodisalar ketma-ketligini tartibga soladi”¹.

Xoʻsh, makonga ijtimoiy amaliyot nuqtai nazardan qaraganda, uning nima ekanligini va tarixiy-ijtimoiy ahamiyatini qanday aniqlasa boʻladi? Ijtimoiy voqelikda makon fundamental ahamiyatga molikdir. Bugungi kunda axborot makoni butun dunyoni qamrab olmoqda. U ijtimoiy birlikka yetaklovchi omil boʻlib, qonun-qoida va kodlar majmuini insonlar bir-birini tushunish uchun ishlab chiqadilar, shu asosda, tabiiyki, madaniy hamjamiyatning chegaralari belgilanadi.

Ijtimoiy nazariya nuqtai nazaridan qaraganda, makon jamiyatning ifodasidir. Insoniyat jamiyatida tarkibiy oʻzgarishlar yuz bermoqda va shu asosda faraz qilish mumkinki, hozirgi zamonda makonning yangidan yangi shakl va jarayonlari paydo boʻlmoqda. Makonning shakl va jarayonlari ijtimoiy strukturaning umumiy dinamikasi taʼsirida shakllanadi. Ijtimoiy jarayonlar oldingi ijtimoiy makon komponentlarini oʻz ichiga olgan va shakllangan makonga oʻz taʼsirini oʻtkazadi.

Jamiyat va makon munosabatlari salmoqlikdir hamda bu munosabatlarning murakkabligini anglash zarur. Makon jamiyatning aksi emas, balki uning ifodasidir, jamiyatning fotonusxasi emas, oʻzligidir. Nazariy abstraksiyada boshqa moddiy mahsulotlarga oʻxshash u ham moddiy boʻlib, «determinatsiyalashgan ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etgan shaxsga ham tegishlidir»².

Shu bilan birga, “ijtimoiy amaliyot nuqtai nazaridan qaraganda makon vaqtni boʻluvchi ijtimoiy amaliyotlarning moddiy suyanchigʻidir”³. Darhaqiqat, bu yerda vaqtni boʻluvchi ijtimoiy amaliyoti bir vaqtning ichida baravar amalga oshayotgan barcha amaliyotlarni birlashtiruvchi makondir. Tadqiqotlarga koʻra, “aynan aniq-ravshan ravishda moddiy tasdigʻini topgan “bir vaqtlik” makonning jamiyatga nisbatan maʼnosini belgilab beradi”⁴.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, ijtimoiy amaliyotda makonni bilim, axborotlar oqimini saqlovchi elementlar majmuasidan iborat hamda vaqtni boʻlinishi ijtimoiy amaliyotlarning moddiy tayanchi sifatida

¹ Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – М., 2000. – С.434.

² Каранг: Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – М., 2000. – С.384.

³ Ўша асар. – С.385.

⁴ Ўша асар. – С.386.

tasavvur qilish mumkin. Imkoniyatlar makoni strukturaning bir butunlik sifatida shakllanishida bo'laklarning o'zaro ta'siriga asoslangan. Imkoniyatlar makonida faoliyatning "kantakt (aloqa)" muhiti vujudga kelgan, to'plangan, unda turli darajadagi va turli aniq fanlar bilimlari aloqada bo'lishi mumkin.

Bu yerdagi tahlildan ko'zlangan maqsad – axborotning imkoniyatlar makoni asosida yotgan mantiqni identifikatsiya qilishdir. Taraqqiyotning har bir bosqichiga tegishli jamiyat strukturasida hozirgi zamon o'tmish bilan determinatsiya qilingan imkoniyatlar makoni mavjud. Bizning vazifamiz subyektning bilish faoliyatining imkoniyatlar makonini hamda uning natijasi jamiyatning keyingi rivojiga ta'sir o'tkazishini ko'rsatishdir.

Buni "Algoritm" misolida ko'rib chiqaylik. Ma'lumki, hozirgi ko'p sonli algebrachilar boshida al-Xorazmiy turadi. Al-Xorazmiyning risolasi matematiklarning algebraga oid izlanishlari uzun silsilasidagi birinchi xalqadir. «Al-Xorazmiyning ijodiy faoliyati tabiatni o'rganish, bilishning ilmiy metodlarini tatbiq etishga yo'naltirilgan edi. Uning ijodiyoti o'rta asr Sharqining tabiiy-ilmiy va ilg'or taraqqiyparvar falsafiy g'oyalarini shakllantirishga yordam bergan»¹.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki ilm-fanning boshqa rivojlanish bosqichlaridan farqli o'laroq, «Muhammad al-Xorazmiy o'zi ixtiro qilgan miqdoriy o'rganish metodlarini ijtimoiy hayot voqeligiga nisbatan ham qo'llagan. U o'z zamonasiga xos odamlar munosabatlarining to'rt qirrasini o'rgangan: bular bitim, garov, vasiyat hamda qul savdosi (jalloplik)»². Pozitiv (ijobiy) bilimlar sof ilmiy yo'l bilan qo'lga kiritildi. Insonlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni o'rnatish va jamiyatda insonlararo munosabatni yo'lga solish uchun ushbu bilim asos bo'ldi.

Ma'lumki, algoritm – ma'lum bir turkumga doir masalalarni yechishda qo'llanadigan amallar yoki operatsiyalarning muayan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoidadir. Algoritmi topilgan masala yechilgan hisoblanadi. Shu sababli ham turli-tuman masala, vazifalarni yechish, hal qilish jarayonida algoritmlarni topish insonning tabiiy maqsadiga aylanadi. Bunda bilim – qadriyat va subyektning faoliyat qurolidir, ammo bilim uning qadr-qimmatini uning obyektivligidadir.

Subyektning atrofidagi olamga bo'lgan munosabati, unga ko'nikma hosil qilish usullari chirmashib ketgan ijtimoiy–madaniy makoni

¹ Хайруллаев М.М. О мировоззрении и научных идеях ал-Хорезми // Великий ученый средневековья ал-Хорезми. – Ташкент, 1985. – С.33.

² Кабулов В.К., Файзуллаев А.Ф., Назиров Ш.А. Ал-Хорезми, алгоритм и алгоритмизация. – Т.: Фан, 2006. – С.94.

mavjudligi tufayli intellektual faoliyat natijasida qoʻlga kiritilgan bilimlardan pozitiv ravishda foydalaniladi. Ijtimoiy-madaniy makonning maydoni har davrda oʻzgachadir. Ilmiy gʻoya makon-vaqt imkoniyatlariga hamisha mos va xos boʻlavermaydi. U ilmiy hamjamiyat tarafidan tan olinmaydi va idenfikasiya (qabul) qilinmaydi. Yangi texnologiyalar nafaqat bizni oʻrab turgan olam, balki imkoniyatlar makoni hamda makon va vaqt kabi asosiy kategoriyalar haqidagi tasavvurimizda tub oʻzgarish yasadi. Temporallik tushunchasi va fraktallik prinsipi tufayli biz ushbu kategoriyalar haqidagi bilimlarimizni yanada oshirmoqdamiz.

“Algoritm” tushunchasi tadrijiy ravishda rivojlanib, ilm-fan taraqqiy etgani sayin uning faoliyat maydoni ham uzluksiz kengayib bormoqda. Bu jarayon nafaqat insonning bilish va mehnat faoliyati bilan, balki hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining poydevorini tashkil etuvchi hisoblash mashinalari bilan ham bogʻliqdir. Bilishning “imkoniyatlar makoni” yanada keng koʻlamli boʻlishida oʻzbek olimlari ham salmoqli hissa qoʻshib, “algoritm” tushunchasini ilmiy konsepsiyalari bilan boyitmoqdalar.

Makon va vaqt moddiy obyektlar holatlarining muayyan koordinatsiya (uygʻunlashuv, muvofiqlashuv) usulini ifodalaydigan shakllardir. Ushbu shakllarning mazmuni harakatdagi materiya, moddiy jarayonlardir va aynan shularning xususiyatlari, tabiati, makon va zamonning asosiy xususiyatlarini belgilashi kerak. Bundan tashqari, makon va vaqtning mazmuni harakatdagi materiya boʻlgani uchun makon va vaqt orasida ham bogʻlanish bor, ular bir-biri bilan mutlaqo bogʻlanmagan holda mavjud boʻla olmaydi. Shu munosabat bilan dialektika fanni makon va vaqt xususiyatlari bilan ularni belgilaydigan tegishli moddiy jarayonlar orasidagi bogʻliqlikni izlashga yoʻnaltiradi.

Maʼlumki, ilm-fanning ravnaqi gumanizatsiya, kategorial apparatining, yondashuvlarni, interpretatsiya muammolari bilan bogʻliq. Ilm-fanning rivoji natijasida bir bosqichdan ikkinchisiga oʻtilganida kategorial apparat eskiradi. Masalan, klassik mexikaning kategorial apparati murakkab tizimlarni oʻrganishga qoʻl kelmaydi. Murakkab tizimlar nisbatan mustaqil oddiy tizimlarga boʻlinib, ularda elementlarning stoxastik oʻzaro taʼsirlashuvi natijasida yuzaga keladi. Masalan, tizimning butunligi qismlarning oʻziga xosligi bilan ifodalanmaydi, balki bir butun tizimga xos yangi sifati paydo boʻladi. Murakkab tizimlarda qism va butun kategoriyalari oʻzgacha, yangi xususiyatlar bilan ifodalanadi.

Binobarin, sababiyatni Laplasning determinizmi bilan aynanlashtirib boʻlmaydi, u “ehtimollik” va maqsadli sababiyat gʻoyalari bilan

to'ldirilgan bo'lishi kerak. Kibernetikada axborot nazariyasi va tizimlar nazariyasi paydo bo'lishi natijasida murakkab o'z-o'zidan tashkillanuvchi tizimlarni o'rganishga qiziqish avj olib ketdi. To'g'ridan-to'g'ri aks aloqa va shu kabi yangi tushunchalar shakllanib, muomalaga kiritildi. "Koordinata", "impuls", "vaqt" kabi klassik tushunchalarni qo'llash doirasining prinsipial cheklanganligi aniqlandi.

Chiziqsiz tizimlarni o'rganishdagi inqilob kompyuterlar va sanoqqa asoslangan uslublarning rivojlanishi tufayli yuz berdi. Ular bizni o'rab turgan olamda ro'y berayotgan jarayonlar haqidagi avvalgi tasavvurlarimizni o'zgartirib yubordi. «Ilgari mavjud bo'lgan qat'iy determinizm o'rniga yangi determinizm yuzaga keldi. U ko'p joylarda stoxastik ta'rifu tavsiflarni o'zlashtiradi. Taraqqiyot yo'nalishlarining ko'pligi, tartibsiz tizimlar paydo bo'lishining ehtimolligi, tizimlarga tashqi ta'sirlarning murakkabligi – bularning bari yo'nalishsiz tizimning uzviy tarkibiy qismlaridir. Ularni anglamay turib, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni aynan o'zidek ta'riflash mumkin emas. Shu sababdan, zamonaviy postindustrial jamiyatda – chiziqsiz yondashuv, fikrlashning chiziqsiz shakli, uslubi asos bo'lishi kerak»¹.

Ta'kidlash joizki, chiziqsiz fikrlash uslubida tasodifga alohida o'rin ajratiladi. Unga ontologik maqom beriladi. "Tasodif asl holatga qaytib bo'lmas jarayonni yaratadi"². Murakkab shaklli tizimlarni anglash fanning kategorial apparatini o'zgartirish asosida amalga oshadi. Masalan, falsafaning makon va vaqt kabi fundamental kategoriyalari o'z-o'zidan rivojlanuvchi tizimlarga yondashtirilganda yangi xususiyatlarni namoyon etadi. Hozirgi zamon fanida vaqtning "turli darajalari belgilanadi: qabul etilgan tushunchadagi yoki kvant mexanikasidagi vaqt: Lyapunov funksiyasi orqali jarayonning ortga qaytmasligi bilan bog'langan vaqt; tizim "tarixini" bifurkatsiya orqali ta'riflovchi vaqt"³.

"Murakkab o'z-o'zidan tashkillashtirish tizimlarini makon va vaqt nuqtai nazaridan ta'riflashda yangi-yangi ma'nolar yuzaga kela boshladi. Shu bilan birga, bir qator hollarda "tashqi" vaqt tushunchasiga qo'shimcha qilib "ichki, botiniy vaqt"(biologik soat va biologik vaqt, ijtimoiy vaqt) tushunchalari yuzaga keldi"⁴.

¹ Кабулов В.К., Файзуллаев А.Ф., Назиров Ш.А. Ал-Хорезми, алгоритм и алгоритмизация. – Т.: Фан, 2006. – С.206.

² Кудрявцев И., Лебедев С. Синергетика как парадигма нелинейности // Вопросы философии. – Москва, 2002. – №12. – С.24.

³ Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса. – М., 1989. – С.182.

⁴ Степин В.С. Саморазвивающиеся системы и постнеклассическая рациональность // Вопросы философии. – М., – №8, 2003. – С.6.

Professor B.O. To'rayev ta'kidlaganidek, "olamning sinergetik fazo-vaqt manzarasi murakkablik va oddiylilik, chiziqlilik va nochiziqlilik, zururiylik va tasodifiylik, ochiqlik va yopiqlik, tartiblanganlik va tartibsizlik kabi hodisalarga yangicha yondashish uchun evristik ahamiyatga egadir"¹.

Hozirgi zamon ilm-fan tiliga gipermakon kabi o'z ichiga o'nta o'lchovni olgan, shu jumladan vaqt, oqimlar makoni nazariyasi, zamondan tashqari vaqt, temporallik va kabilarni qamrab olgan yangi tushunchalar kirib keldi. I.Prigojin muvozanatsiz termodinamika atamalariga astronomik vaqtdan butunlay farqlanuvchi "ichki (botiniy) yoki ikkilamchi vaqt" tushunchasini kiritdi. Ichki vaqt muvozanatsiz dinamik tizimlarda uchraydigan trayektoriyalarning beqarorligi tufayli yuzaga keladi².

Murakkab tizimlar uchun ichki vaqtning paydo bo'lishi mumkinligini I.Prigojin quyidagicha ifodalaydi: o'z-o'zidan tashkillashgan bunday har bir yangi tizim o'zining ichki jarayonlarini o'z vaqtining imkoniyatlariga qarab muvofiqlashtiradi. Prigojin bu haqda «tizim vaqt imkonining nisbiyligi, dissipativ (parchalangan) tuzilma shakllanishi bilan makon va vaqtning bir xilligi yo'qoladi»³, deya ta'kidlaydi. Bundan tashqari, u tirik tizimlar vaqt yo'nalishini sezish qobiliyatiga ega deb hisoblaydi. Vaqtning yo'nalishi haqidagi bu fikrni psixologiya ham qayd etadi: biz o'tmishimizni eslaymiz-u, kelajagimizni eslolmaymiz.

Ma'lumki, biz yashab turgan olamdagi barcha jismlar, jonzorlar va voqea-hodisalar nisbiylik nazariyasi asosida talqin qilinadi. Shu sababli ham biz yashayotgan dunyoda vaqt kategoriyasi ilmiy nuqtai-nazardan nisbiy tushuniladi. Lekin "vaqt" o'zi nima, u qachondan boshlangan, uning nihoyasi bormi, degan savollar, bizning fikrimizcha, fan va texnologiyalar o'ta rivojlangan hamda axborotlashtirish jarayonlari yuz berayotgan XXI asrda ham jumboq bo'lib qolmoqda. Shu bois falsafada insonning o'rganish doirasidan tashqaridagi obyektlar chetlab o'tiladi.

Ammo biz yashayotgan olam shunchalik kattaki, uni tasavvur qilishga inson aqli ojizlik qiladi. Bizningcha, shunday bo'lgani ham ma'qul, chunki insoniyat shu vaqtgacha fan olamida qancha muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa, shuncha muvaffaqiyatsizlikka ham uchragani barcha uchun real voqelikdir.

¹ Тўраев Б.О. Оламнинг синергетик фазр-вакт манзараси // Синергетик парадигма: муаммо ва имкониятлар: илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2013. 82-6.

² Пригожин И., Стенгерс И. Время, хаос, квант. К решению парадокса времени. – М., 2000. – С.44.

³ Пригожин И. Время, структура и флуктуации. Нобелевская лекция по химии 1977 года. Успехи физических наук. Том 131, вып.2., – С.206.

Ilmiy adabiyotlarda yozilishicha, bizning Yer sharimiz bundan milliard yillar oldin o'z o'qi atrofida 25 soat davomida aylangan ekan. Olimlarning olib borgan izlanishlari natijasida Yer sharining ichki qismida bir-biri bilan bog'langan kanallar, tuynuklar mavjudligi aniqlangan. Mazkur yo'llarda har xil moddalar qorishmasidan iborat suyuqliklar oqadi. Natijada yerning magnit maydoni hosil bo'ladi. Mazkur kanallardagi qorishmalar oqimining meyorlari bir necha million yilda o'zgarishi tufayli yer yuzida magnit bo'ronlari qo'zg'alib turadi. Ammo yillar o'tishi bilan qorishmalar oqimining tezligi va tizimi o'zgarishi sababli, Yerning o'z o'qi atrofida aylanish sikli sekin-sekin kamayib boradi.

Yuqoridagi ilmiy fikrlar biz uchun ko'proq gipotezaga yaqinroq bo'lsa-da, ba'zi aniq dalillar mazkur gipotezani tasdiqlaydi. Masalan, tabiatdagi jonzorlar ikki xil vaqt soatining muvofiqligida hayot kechiradi. YA'ni, inson va hayvonlarda ichki hamda tashqi soat mavjud. Tirik organizmlardagi bioritm jonzorlarni atrof-muhitga va o'zgaruvchan yil fasllariga ko'nikishlari osonroq kechishi, kezi kelganda saqlab qolish uchun yordam beradi.

Olimlar tomonidan insonlarda eng ko'p o'rganilgan ritm bu sirkadianadir (circa - taxminan, dies - kun). U yerning o'z o'qi atrofida aylanadigan hamda kun va tun o'zgarishini belgilaydigan vaqt bilan deyarli yaqindir. Sirkadiana ritmi tabiiy bo'lib, uni biologik soat, ya'ni organizmdagi ichki soat boshqarib turadi. Qorong'i joylarda, g'orlarda izolyatsiya holida o'tkazilgan sinov natijalarining ko'rsatishicha, inson kun va tun almashinishini ko'rmasa ham, tushlik, jismoniy faollik va boshqa ijtimoiy faktorlar yo'q bo'lgan joyda ham ishlashda davom etadi. Odatda ichki soat bir sutkada 25 soat harakatlangani sababli tabiatan noaniq yuradi¹, ya'ni bizning geofizika asosidagi tashqi soatimiz kabi aniq yurmaydi. Oddiy olib qaraganda, tanamizdagi 25 soatlik ichki soatni geofizik 24 soatga mo'ljallab yuritish bizga vaqt beruvchilarning vazifasidir.

Ba'zi amerikalik tadqiqotchilar insonning ichida soat genlari mavjudligini kuzatdilar. Ular sava turkumiga kiruvchi, biroq o'ta ekstremal holatga ega kishilarning genlari tarkibida ichki soatni buzuvchi gen borligini aniqladilar. Ularning ta'kidlashlaricha², ichki soatlarda buzilish yuz bergan odamlarda juda erta uxlab, juda erta turish hamda uxlay

¹ Robert Levine. Eine Landkarte der Zeit. Piper. 2004. Claudia Wiemer. Auf neuen Wegen. Max Hueber Verlag. 2003.

² Robert Levine. Eine Landkarte der Zeit. Piper. 2004. Claudia Wiemer. Auf neuen Wegen. Max Hueber Verlag. 2003.

olmaslik alomatlari kuzatiladi yoki aksincha. Insondagi ichki soat insonning kundalik shaklini boshqarib turadi, salomatligi va kasalligini, ishlash qobiliyatining faolligi va sustligini aniqlab beradi. Shu sababli, tanamizdagi garmonlarning yoʻnalishi qanday kechishini yoki qaysi maʼnaviy yoki jismoniy faoliyatni kunning qaysi paytida bajarish maʼqulligini bilish zarur.

Biz koʻpincha muvozanat buzilgan organizmda ichki soat mavjudligini his qilamiz. Masalan, smenali ishlash shakli, homiladorlik, makon almashinishi. Sirkadiana ritmining buzilishi natijasida uyquning buzilishi yuz beradi. Uzoq mamlakatlarga sayohat qilgan kishilar samolyot yoki poyezddan tushgandan soʻng oʻzlarini yomon his qiladilar, oʻta charchaganlik, yomon kayfiyat, oshqozon sohasidagi ogʻriq kuzatiladi.

«Jet-Lag» atamasi koʻpchilikka maʼlum, yaʼni bu kun bilan tunni alishtirish hodisasiga yaqinroqdir. Ikki mamlakat orasidagi soat farqlari katta boʻlsa, sayohatchi koʻnikkunga qadar oʻz mamlakatidagi vaqt bilan yuradi. Buning sababi mahalliy vaqt bilan organizmdagi biologik ritm oʻrtasida uzilish boʻlib qolganidir. Ikkita vaqt zonasining oʻzgarishidan soʻng tabiiy kunning vaqt bilan bogʻliq strukturasi toʻsatdan uzayishi insonni bir necha soatlarga uzilgan makonga olib keladi. Bunda ichki soat yangi makonning taʼsirida yangi vaqtga moslashadi, biroq bu jarayon qoʻl soatini burab qoʻyganga nisbatan ancha uzoq davom etadi.

Ichki soatning buralishi uchun har bir oʻtilgan vaqt zonasiga bir kun ajratish lozim boʻladi. Bundan tashqari, mazkur moslashuv samolyotning yoʻnalishiga ham bogʻliq. Gʻarbiy yoʻnalishdagi safar uchun (masalan: Amerikaga) kunning uzayishi kuzatiladi, yaʼni bu 25 soatlik ichki soatimizga yaqinroq (Germaniyaliklar misolida). Lekin sharq tomonga qarab uchganda kunning qisqarishi kuzatiladi, yaʼni bu ichki soat chastotasidan ancha uzoqroq. Shu sababli, yevropaliklar Osiyo davlatlariga nisbatan Amerika qitʼasidagi davlatlardagi vaqtga tezroq moslashadilar.

Aytish kerakki, makon vaqtga shakl beradi. Vaqt va makonning ijtimoiy shakllari hozirgi zamon tarixiy amaliyoti chetga surayotgan ijtimoiy-madaniy strukturalarga asoslanuvchi bugungi tasavvurimizga sira mos kelmaydi.

“Axborotlashtirish – texnologik paradigmalarda hamda tarixiy oʻzgarishlar jarayoni bois yuzaga kelgan ijtimoiy shakl va jarayonlarning mush-tarak (qoʻshma) taʼsiri ostida makon ham, vaqt ham oʻzgarib bormoqda”¹. Jamiyatni axborotlashtirish imkoniyatlarining kengayishi shunchaki, nazariy yoki mafkuraviy abstraksiya emas, balki uning kundalik

¹ Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – М., 2000. – С.384.

hayotining omilidir. U muayyan bir vaqt ichida “makonni jamlab” jamiyatni axborotlashtirish odamning tanlash imkoniyatlarini keskin kengaytiradi, har bir inson qayerda va qanday shartlar asosida ishlashni, u yoki bu tovarlar va xizmatlarni kimdan va qaysi narhda sotib olishni o‘z ko‘ngliga qarab tanlaydi, sotuvchilar ko‘proq iste‘molchilar izmida bo‘ladi, monopolistlar, g‘irrom sohibkorlar, nopok ishlab chiqaruvchilarning daxmazasi ko‘payadi.

Sun‘iy yo‘ldoshlar “tirik” radio va televideniya axborotni uzatishda foydalanishi natijasida butun dunyo bo‘yicha afkor omma shakllanishiga katta ta‘sir o‘tkazadi. Multimedia, videokonferensiya-lashgan aloqa, sun‘iy intellekt paydo bo‘lishi va takomillashuvi axborot uzatish imkoniyatlarini juda kengaytiradi, bu esa ilmning keng qanot yozishi va almashuvi demakdir.

Axborotning moddiy tashuvchisiga bog‘liq bo‘lmaslik nuqtai nazaridan, P.Grechkoning “axborot – uni umumiy tushunishda – zamon va makonda materiya va energiya har xil taqsimlanishi, o‘lchovi, olamda sodir bo‘luvchi barcha jarayonlardagi o‘zgarishlar o‘lchovidir”¹ degan fikri diqqatga sazovordir.

Bizning faoliyatimiz makonda, shuningdek zamonda taqsimlangan, ya‘ni barcha o‘zaro ta‘sirilar muayyan makonda va vaqt oralig‘ida joylashgan. Kun davomidagi harakatimiz, odatda makon va zamonda “rejalashtirilgan”. Masalan, ishga qatnaydigan odamlar shunday rejalardan birini 9.00 dan 17.00 gacha ish vaqtida ishlab o‘tkazadi. Haftalik vaqt ham rejalashtirilgan: ish kunlarida ular ishda, dam olish kunlari – uyda. Ishda o‘tkazilgan vaqt makonda ham o‘zgartirishni – shaharning bir tumanidan boshqasiga, shahar chekkasidagi markazga borishni taqozo qiladi. Shuning uchun ijtimoiy o‘zaro ta‘sirni tahlil qilishda odamlarning makon va zamondagi harakatlarini hisobga olish kerak. Kun davomida vaqt zonalarida harakat qilganimizdek, makonda ham shunday harakatlanamiz.

Shu sababli ham ba‘zi tadqiqotlarda, “axborot – uning to‘laligicha tushunish doirasida, olamdagi barcha bo‘lib o‘tayotgan jarayonlarda fazo va vaqtda materiya, energiyani (quvvatni) notekis taqsimlashdagi meyordir”², deb talqin etiladi.

Hozirgi vaqtda axborotlashtirish natijasida makon va vaqt orasidagi masofalar qisqarmoqda. Masalan, Toshkentdan Andijonga o‘zaro aloqa

¹ Гречко П. Интеллектуальный импорт или о периферийном постмодернизме // Общественные науки и современность. – М., 2000. – С.167.

² Глушков В.М. Введение в алгебраическую теорию информации. – М.: Наука; Физматлат, 1995. – 112 с.

punktlaridan maktub yuborish jarayonlariga samolyot, pochta, poyezd orqali bir necha kun vaqt ketadi, hozirgi vaqtda axborotlashtirish jarayonlarining Internet kanali orqali bir necha daqiqada ushbu maktubni yuborish mumkin.

Ma'lumki, Internetdan foydalanishda makon va vaqt hech qanday rol o'ynamaydi, chunki turli mintaqalarda joylashgan odamlarning bir vaqtda fikr almashuviga masofa to'sqinlik qilmaydi. Internet virtual hamjamiyat yaratib, unda nafaqat jug'rofiy uzoqligi, hatto har xil madaniyatlar orasidagi farq ham tugatiladi. Biz kerakli mavzuni butun dunyo vakillari bilan bemalol muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu bilan birga, fikr almashuvining bunday chegarasizligi, Internet kommunikatsiyasining xususiyatlari e'tiborga olinmasa, ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi.

Internet ko'pincha virtual makon hisoblanib, unda anarxiya hukm suradi. Chunki bu yerda ma'lum qoidalarni o'rnatadigan hech qanday rahbariyat yo'q. Ammo Internet bir qancha mustaqil tarmoqlardan tuzilgan hamda bu tarmoqlarning shaxsiy egalari o'z tizimlaridan qanday maqsadlarda foydalanishni o'zlari hal qiladilar.

Umuman olganda, axborot tabiatining ontologik muammolari quyidagilardan iborat: axborot obyektiv reallik sifatida mavjudmi? (Setrov, A.V. Sokolov); Axborot tabiati mavjudligi qanday? Axborot qanday paydo bo'ladi? Axborot qayerda vujudga keladi? Axborotni qabul qilish qanday yuz beradi? Axborot qanday uzatiladi? Axborot qanday interpretatsiya qilinadi? Axborot modda va energiya bilan qanday bog'langan? Axborot ong bilan qanday bog'langan?

Yuqorida ta'kidlanganidek, axborotlashtirish natijasida makon va vaqt orasidagi masofalarning qisqarishi oqibatida ijtimoiy hayot shakllarida o'zgarishlar yuz bermoqda. Masalan, biz foydalanadigan ko'pgina tovar va mahsulotlar juda katta masofaga tashib olib boriladi, hatto yer sharining qarama-qarshi tomonidan olib kelinishi mumkin. Buning barchasi global o'zaro bog'liqlikning rivojlanishiga yordamlashmoqda.

Makon va vaqtning bunday rivojlanish xususiyatlarini tadqiq qilish axborot haqidagi bilimlarimizning yanada kengayishiga, olamning ilmiy manzarasi haqidagi tasavvurlarimizning o'zgarishiga, ilmiy dunyoqarashning yangi sifat bosqichiga o'tishiga imkoniyat yaratadi.

«Axborot» tushunchasining mohiyati, unga oid ta'rif va yondashuvlar, axborot va bilim orasidagi aloqadorlik, ularning o'ziga xos xususiyatlari va farqlari hamda axborotning ontologik masalalariga oid tahlillarimizni yakunlar ekanmiz yuqoridagilardan quyidagi xulosalarga keldik:

axborotning gnoseologik asoslari uning inson faoliyati taʼsirida ratsionallashtirilishi va izomorfizm gʻoyalarining taraqqiy etishi bilan chambarchas bogʻliq;

«axborot» tushunchasi ontologik jihatdan obyektiv makon-zamon transformatsiyasi va virtual borliqni ifodalaydi. Gnoseologik maʼnoda esa, axborot tashqi va ichki voqelikka oid turli belgilar, grafiklar, xabarlar va boshqa shu kabi intersub'yektiv aloqalar interpretatsiyasi hisoblanadi;

bilim muloqot jarayonida axborotning mazmuniga aylanadi. Yaʼni, bilim axborot signallarining ketma-ketligida, tartiblanishida kodlashtiriladi. Muloqotning birinchi sub'yekti bilimni kodlashtirish orqali axborotga (soʻz, gap, matn, aloqa toʻlqini, belgilarga), ikkinchi sub'yekti esa yana bir bor kodlashtirish amalini bajarib, axborotni bilimga aylantiradi. Bilim axborotni taqqoslash, tizimlashtirish, baholash, tahlil qilish asosida qayta ishlanib hosil boʻladi;

bilimlar axborotni qayta ishlaydigan va innovatsiyalarni tatbiq etish yoʻnalishlari oʻrtasida muloqotni amalga oshiradigan qurilmalarni ishga solish uchun qoʻllaniladi.

II-BOB. AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING FALSAFIY MUAMMOLARI

XXI asr – axborotlashgan jamiyat, ya’ni axborot, yuksak texnologiyalar va zamonaviy bilimlar, oldimizda ochilayotgan yangi istiqbollar asridir. Chunki bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani hamda jadal rivojlanish yo‘liga o‘tgani jamiyatimizga ham katta o‘zgarishlar olib kirdi. Bu o‘zgarishlar asosini axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari tashkil etadi.

Ushbu bobda axborotlashgan jamiyat tushunchasining paydo bo‘lishi, mohiyati, unga oid ta’riflar tahlili hamda yondashuvlar keng yoritib berilgan.

Bugungi kunda yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” g‘oyasi ostida uchinchi renessans poydevori barpo etilmoqda. Bu borada barcha sohalar, ilm-fan, madaniyat va san’atda yangilanishlar, ezgu ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Davlatimiz rahbari ta’kidlanganidek: “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi”¹. Mazkur bobda axborotlashgan jamiyat va axborotlashuv jarayonining mazmun mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Hozirgi paytda axborotlashuvning rivojlanish muammolarini o‘rganish, tahlil etish ko‘plab tadqiqotchilari va mutaxassislarni o‘ziga jalb etmoqda. Axborotlashgan jamiyatni barpo etish, axborotlashtirish jarayonlari, taxnika va texnologiyalarni isloh etishda barqarorlik hamda inson kamolotini yuksaltirish masalalariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘lib, mamlakatimizda yosh avlodga to‘g‘ri tarbiya berish, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va uning ma’naviy barkamol bo‘lib voyaga yetishi haqida g‘amxo‘rlik qilish bosh vazifa hisoblanadi. Albatta ushbu jarayonlar hozirgi davrda axborot, xususan informatsion jamiyatning qonuniyatlari, omillari, muhim tomonlari bilan chambarchas bog‘liq ravishda amalga oshirilmoqda.

¹ Президент Ш.Мирзиёевнинг 2021 йил 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизimini тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоатташкilotларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилишида сўзлаган нутқи. Kun.uz.

2.1. Axborotlashgan jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati

Axborotlashgan jamiyat va axborotlashuv jarayonining mazmun mohiyatini, uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asosiy vazifa hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki bugungi kunda axborot resurslari davlatlararo to'qnashuv, geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonda milliy manfaatlarni himoya qilish, asrab-avaylash muhim ahamiyatga ega. Globallashuv sharoitida "Kim axborotni egallasa, o'sha dunyoni egallaydi"¹, degan shior tobora ijtimoiy voqelikka aylanmoqda.

Hayotimizda axborot asri degan so'z ko'p qo'llanilmoqda. Lekin axborot boyigani sari insonning ma'naviyati kambag'allashmoqda. Axborot ilm olish uchun asos bo'lishi va bilimni kuchaytirishi kerak. Hozirgi cheksiz axborotga ega bo'layotgan yoshlar olim, yoki donishmand bo'layotganligini ko'rmaymiz. Shuning uchun manbalarda "Axborot parokanda bo'ladi, u ilm emas"², deb ta'kidlangan. Ta'kidlash kerakki, axborotlashuv jarayonida inson hayotida madaniyat va axborot o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlikni takomillashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda virtual borliqning salbiy va ijobiy ta'sirlarini, texnika-texnologiya, zamonaviy axborot vositalarining, xususan kompyuter odobi, kompyuter savodxonligi va kompyuter madaniyatini shakllantirish masalalarini o'rganish, tadqiq etish muhimdir. Bunday vaziyatda yoshlarning borliq, virtual olam bilan aloqadorligini e'tiborga olib ong, tafakkur, ratsional va xissiy yetukligi, o'zini boshqarishi masalasiga diqqat qaratish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda yoshlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirib borish borasidagi yangi moddiy va ma'naviy ne'matlarni, ya'ni "shaxs intellektual salohiyatini muntazam ravishda yuksaltirib borish yangi taraqqiyot bosqichining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi"³.

Insonning hayotiy faoliyati inson jamiyatiga xos bo'lgan o'z qonuniyatlariga ega bo'lgan muhitda amalga oshadi. Axborot muhitida shaxs xavfsizligi masalasi zamonaviy jamiyatda obyektiv ravishda yuzaga kelgan sivilizatsiyalar o'zgarishi va sharoit tufayli ehtiyojlarni keltirib chiqaradigan, jamiyat va davlat tizimidagi ehtiyojlariga mos ravishda,

¹ Тўраев Ш. ва бошқалар. Миллий ғоянинг инновацион тарғибот технологиялари ва ёшларни ахборот-психологик хуружлардан ҳимоя қилишнинг замонавий усуллари. Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. –Тошкент, 2016. – Б. 4.

² Хайдаров Б. Инсоннома: ҳаёт, ҳайрат, ҳикмат. -Тошкент. "Tafakkur qanoti", 2014. –Б. 130.

³ Сиддиқов И. Ёшларда интеллектуал маданиятни ривожлантириш: ижтимоий-фалсафий таҳлил. (Монография) -Фарғона, 2021. –Б. 113.

uning o‘z-o‘zini himoya qilishi va o‘zini qadrlashi, maqsadlarini amalga oshirishi bilan belgilanishi zarur.

Insoniyatning axborotlashgan jamiyat bosqichiga o‘tishi tobora chuqurlashib borayotgan davrda yoshlar ma‘naviyatga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turli mafkuraviy tahdidlar ostida yashamoqda. Ma‘lumki, XXI asrning jahonda hal qiluvchi omillari axborot va bilim bo‘lgan axborotlashgan jamiyatning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jamiyatning rivojlanish evolyutsiyasi bilim jamiyatidan tarmoqli jamiyatga, undan raqamli jamiyatga transformatsiyalanishi bilan ifodalanadi. Xususan, 2006 yili BMT Bosh Assambleyasida 17 mayning Butunjahon axborot jamiyati kuni¹ deb e‘lon qilinishi, axborotlashgan jamiyat masalalariga bag‘ishlangan Butun dunyo sammiti², “Global axborotlashgan jamiyat Xartiyasi” ning qabul qilinishi ham hozirgi kunda axborotlashgan jamiyat muammolarini tadqiq etishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Shu sababli, mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan axborotlashgan jamiyatni shakllantirishning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, texnologik shart-sharoitlari yaratilmoqda.

2000 yil 22 iyulda “Katta sakkizlik” uchrashuvi (Okinava)da “Global axborotlashgan jamiyat Xartiyasi” qabul qilinib, o‘sha yili BMTning Ming yillik sammitida e‘tirof etildi va axborotlashgan jamiyat muammolarini YUNESKO tomonidan nazariy jihatdan o‘rganish boshlandi³. Darhaqiqat, ushbu tushuncha ilmiy jamoatchilikda “yuksak axborotlashgan madaniyat”, “tig‘iz axborotlashgan jamiyat”, “axborot jamiyati” tushunchalari bilan ham keng targ‘ib qilinadi. Xullas, jahon hamjamiyatida har qanday jamiyatning rivojlanish sur‘ati va yo‘nalishini belgilab beruvchi axborotni barcha ne‘matlardan ustun deb tan olish yo‘liga o‘tili.

Xo‘sh, axborotlashgan jamiyat qanday jamiyat? Uning qanday o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari mavjud? Kelajakda qanday jamiyat sari boramiz? Ushbu jamiyatda yoshlar faolligi va ulardagi ehtiyoj va manfaatlar uyg‘unligini ta‘minlash qanday ahamiyatga ega? degan savollar paydo bo‘lishi tabiiy.

¹ <http://infocom.uz>. 2006/04/03/oon-obyavila-17-maya-vsemirnyim-dnem-informatsionnogo-obschestva// Хавола 13.03.2019 да олинган.

² Всемирный Саммит по Информационному обществу (WSIS)–<http://www.wisis.org/>; <http://www.unesco.org/wsisdirectory>

³Состояние исследований по проблем информационного общества. –СПб., ЮНЕСКО. 2004; Наука в информационном обществе. –Москва, ЮНЕСКО. 2004; Мониторинг информационного общества и обществ знаний. –СПб., ЮНЕСКО. 2004; Этика и права человека в информационном обществе. –Москва, ЮНЕСКО. 2007; Всемирный саммит по информационному обществу. –Москва, ЮНЕСКО. 2007.

Aytish kerakki, falsafiy va sotsiologik tadqiqotlarda «axborotlashgan jamiyat» tushunchasi yangi jamiyat sifatida, ya'ni ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy postindustrial jamiyatga o'tishi va unda faoliyatning amalga oshishi axborotni uzatish va saqlashga bog'liq holda izohlanadi.

Ma'lumki, insoniyat jamiyati o'z rivojlanishida industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tib bormoqda. Agar industrial jamiyatning asosiy rivojlanish manbai – energetik manbalar, energiyani ishlab chiqarish, uni tarqatish imkoniyatlari mavjudligida bo'lsa, axborotlashgan jamiyatida esa bilim va axborot jamiyat rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari dunyoni birlashtirish va global axborotlashgan jamiyat barpo etishga xizmat qilmoqda va bu bilan xalqlarning o'zaro yaqinlashishiga yordam beradi.

Япониялик arxitektor Kisho Kurokavaning ta'kidlashicha, “axborot jamiyati” tushunchasi (yaponcha: 情報化社会) 1961 yilda antropolog Tadao Umehara bilan bo'lgan suhbat chog'ida birinchi marta eshutilgan¹.

Bu atama birinchi marta bosma nashrlarda 1964-1966 yillarda Yaponiyaning «Xoso Asahi» jurnalida chop etilgan bir qator maqolalar sarlavhasida ishlatilgan. Axborotlashgan jamiyat kontseptsiyasining paydo bo'lishi Frits Machlup va Tadao Umehara asarlari bilan bog'liq bo'lib, ularda bilim sanoati (ингл. *knowledge industry*) va axborot sanoati (yaponcha: 情報産業) tushunchalari muhokama qilingan².

«Axborotlashgan jamiyat» nazariyasi M.Porat, Y.Masuda, T. Stoner, R.Karz va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan³. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan u yoki bu darajada axborot texnologiyalarining rivojlanishiga emas, balki texnologik yoki texnotronik (technetronic - yunoncha techne) jamiyatini shakllantirishga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ular bilimning ortib borayotgan yoki o'sib borayotgan roldan boshlab, zamonaviy jamiyatni "bilimli jamiyat", "bilim jamiyati" yoki "bilim-qiyamat jamiyati"⁴ deb belgiladilar. Darhaqiqat, bugungi kunda zamonaviy jamiyatning individual xususiyatlarini belgilash uchun taklif qilingan o'nlab tushunchalar mavjud.

¹ ポンピードセンター (яп.). *umdb.um.u-tokyo.ac.jp*. Дата обращения: 16 сентября 2024.

² Alistair S. Duff. Information Society Studies. - Routledge, 2013. ISBN 978-1-317-79799-9; Karvalics Information Society - what is it exactly? (The meaning, history and conceptual framework of an expression) Архивная копия от 26 февраля 2015 на Wayback Machine, 2007.

³ Porat M., Rubin M. The Information Economy: Development and Measurement. Wash., 1978; Masuda Y. The information Society as Post-Industrial Society. Wash., 1981; Stoner T. The Wealth of Information. L., 1983; Katz R.L. The Information Society: An International Perspective. N.Y., 1988.

⁴ Brzezinski Zb. Between Two Ages. - N.Y., 1988.

1992-yildan bu atama G'arb davlatlari tomonidan qo'llanila boshlandi, masalan, "milliy global axborot infratuzilmasi" tushunchasi AQShda Milliy fan fondining mashhur konferensiyasidagi B.Klinton va A.Gorening ma'ruzasidan so'ng kiritildi.

"Axborotlashgan jamiyat" tushunchasi Yevropaning axborotlashgan jamiyat bo'yicha eng obro'li ekspertlaridan biri Martin Bangemann boshchiligidagi Yevropa Komissiyasining Axborotlashgan jamiyat dasturlari bo'yicha ekspertlar guruhi faoliyatidan kelib chiqqan; axborot magistrallari va supermagistrallar - Kanada, Britaniya va Amerika nashrlarida.

XX asr oxirida "Axborotlashgan jamiyat" va "axborotlashtirish" atamalari nafaqat axborot sohasi mutaxassislari, balki siyosatchilar, iqtisodchilar, o'qituvchilar va olimlar lug'atidan ham mustahkam o'rin egalladi. Ko'pgina hollarda, ushbu kontseptsiya fuqarolik jamiyati platformasida (yoki hech bo'lmaganda uning e'lon qilingan tamoyillari) yangi evolyutsion sakrashni amalga oshirish va keyingi XXI asrga munosib kirib borish imkonini beradigan axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq edi.

Axborotlashgan jamiyat to'g'risidagi zamonaviy nazariyalarda axborot va axborot almashinuvi jara'eni muhimligi ta'kidlanib, bu ijtimoiy o'zaro bog'liqlikning bir bo'lagi sifatida talqin qilinadi¹. Axborot almashinuvi va uning boshqa fundamental jara'enlar bilan aloqalari modeli tizim yasovchi elementlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Axborotlashgan jamiyat va unda axborot almashinuvining xususiyatlari masalasini muhokama qilish uchun, dastavval, «axborotlashgan jamiyat» tushunchasining o'zi haqida, uning kelib chiqishi to'g'risida to'xtalib o'tish zarur. «Axborotlashgan jamiyat» tushunchasi, dastlab, amerikalik sotsiolog Daniyel Bell (1919-2011y)ning axborot texnologiyalari rivojlanishi tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida chuqur tahlil qilingan.

Axborotlashgan jamiyat - postindustrial jamiyat tushunchasi; tsivilizatsiya rivojlanishining yangi tarixiy bosqichi, bunda ishlab chiqarishning asosiy mahsuloti axborot va bilimdir.

Axborot jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: jamiyat hayotida axborot va bilimlarning rolini oshirish; yalpi ichki mahsulotda axborot kommunikatsiyalari, mahsulot va xizmatlar ulushini oshirish; odamlar o'rtasidagi samarali axborot o'zaro ta'sirini, ularning

¹ Кастельс М. Галактика Интернет: Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. – Екатеринбург: У-Фактория, 2004. - 230 с.

global axborot resurslariga kirishini va axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan global axborot makonini yaratish.

Axborotlashgan jamiyat va unda axborot almashinuvining xususiyatlari masalasini muhokama qilish uchun dastavval «axborotlashgan jamiyat» tushunchasining kelib chiqishi haqida to'xtalib o'tish zarur.

Amerikalik sotsiolog Daniyel Bell (1919–2011 y.)ning axborot texnologiyalari rivojlanishi tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida¹ «Axborotlashgan jamiyat» tushunchasi chuqur tahlil qilingan. D.Bellning konsepsiyasiga ko'ra, axborotlashgan jamiyat quyidagicha xususiyatlarga ega:

- axboriy-texnik – bu texnikaviy zahiralarni bo'lib, uni jamiyat ishlab chiqaradi va foydalanadi;

- ijtimoiy-axborot – bu jamiyat tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalanish;

- ijtimoiy-texnik – ijtimoiy-antropologik xususiyatlarni qamrab oladi.

Shuni alohida qayd etish joizki, jamiyat axborotlashishi ijtimoiy hayotga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bunga, avvalo, ommaviy axborot vositalari, uyali telefon va internet tarmog'i rivojlanishi natijasida shakllangan yangi ijtimoiy muammolarni kiritish mumkin.

Amerikalik sotsiolog D.Bellning ta'kidlashicha, axborotlashgan jamiyat, avvalo, ma'lumotlilik darajasi va malakasiga ko'ra, millat elitasini shakllantiradigan jamiyat. Tadqiqotchi axborotni jismonan iste'mol qilinmaydigan va eskirmaydigan «jamoaviy mahsulot» sifatida talqin qilib, industrial jamiyatda inson hayotiy faoliyatidagi mutlaqo yangi mahsulot bo'lgani uchun unga nisbatan o'sha davrda muomalada bo'lganidan o'zgacha me'yor va mezonlarni qo'llash kerakligiga e'tibor qaratadi².

Axborotlashgan jamiyatda yangi bilimlarni o'zlashtirish usuli hisoblash texnikasiga asoslanishini o'rgangan E.To'fflarning fikricha, «axborotlashgan jamiyatda fan uslublari hajm jihatdan juda katta bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi»³. Bunda olimlar yangi faktlarni qidirish o'rniga korrelyatsiya va tendensiyalarni o'rgatishda mumkin bo'lgan ilmiy ma'lumotlarni axborot operatsiyalari orqali oladi. Xullas, axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning manbai bilimni to'plash texnologiyalari, axborotni qayta ishlash va ramziy kommunikatsiyalarga bog'liq bo'ladi.

¹ Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. Пер.с англ. В. Л. Иноземцева. – М.: Academia,1999. – 956 с.

² O'sha joyda.

³ Тоффлер, Э. Третья волна (The Third Wave). – М.: АСТ, 2010. – С.448.

«Axborotlashgan jamiyat» iborasini ilk bor yapon olimi Y.Xayashi va bir necha yapon tashkilotlaridagi mutaxassislar qoʻllagan.

«Axborotlashgan jamiyat insoniyatning eng ulkan yutuqlaridan biri, – deb yozadi yapon olimi Y.Ma’suda. – Yangi texnologiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hayotning oʻziga xos ijobiy oʻzgarishiga olib keladi»¹. Natijada «Axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar oʻzgaradi. Bu jamiyat sinfsiz va ziddiyatsiz boʻlib, uni kichikroq davlat apparati boshqaradi»². Yapon sotsiologining axborotlashgan jamiyat konsepsiyasiga qoʻshgan hissasi avvalo axborotlashtirish bilan kompyuterlashtirishni ijtimoiy taraqqiyotning alohida sohalari sifatida bir-biridan ajratgani boʻldi.

Darhaqiqat, «axborotlashgan jamiyat» tushunchasini Y.Ma’suda yanada kengaytirib, postindustrial jamiyat nazariyasi haqidagi falsafiy konsepsiyasida axborot ijtimoiy hayotning barcha sohalarida peshqadamlik qilishini va jamiyatning texnologik taraqqiyoti davrida hukm suradigan «axborot hokimiyati» vujudga kelishini asoslab beradi. Aslida, «axborot hokimiyati» sanoatlashgan jamiyatda davlat boshqaruvining amaldagi uchta hokimiyatiga nisbatan norasmiy tarzda «toʻrtinchi hokimiyat» izdoshidir.

Y.Ma’suda insoniyat tamadduni rivojlanishini: anʼanaviy, industrial va axborotlashgan (postindustrial) jamiyatga boʻlib, unda axborotlashgan jamiyatni 10 ta atributga ajratgan. Axborotlashgan jamiyatda «Transformatsiyalashgan matbuot»ning shakllanishi va rivojlanish omillari³ sotsiologiya fanlari doktori O. Abduazimov tomonidan fanga kiritilgan.

Axborotlashgan jamiyat va ommaviy kommunikatsiya vositalarining kelib chiqishini tadqiq etgan oʻzbek sotsiologi O.Abduazimov ommaviy kommunikatsiya vositalarining taraqqiyot tarixini uch davrga boʻlib oʻrganishni taklif etadi. Uchinchi davrda elektron vositali axborot

¹ Маъсуда Й. Информационное общество как постиндустриальное общество. – М.: 1991. – С.172.

² O’sha joyda.

³ Абдуазимов О. Аxborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta’minlashda ommaviy kom-munikatsiyalar sotsiologiyasining ўрни (Ўзбекистон ommaviy axborot vositalarining 2001–2016 йиллардаги материаллари misolida). Монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2016. – Б. 49 – 66.

almashinuvi paydo bo'lishi bilan axborotlashgan jamiyatga o'tish sodir bo'lganini ta'kidlaydi¹⁷.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining yetakchi mutaxassislaridan A.Aripov axborotlashgan jamiyatning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

A.Aripov konsepsiyasi axborotlashgan jamiyatning O'zbekiston sharoitidagi xususiyatini ochib berishi nuqtai nazaridan qimmatlidir.

Hozirgi paytda axborot almashinuvi jahondagi globallashuv axborotlashgan sivilizatsiya shakllanishining tarkibiy qismi sifatida avvalgi zamon sharoitidan butunlay farq qiladi. Avval har bir fuqaro asosan o'z davlati va millati axborot tizimi ta'sirida rivojlangan bo'lsa, endi jahon miqyosida butun insoniyat yaratgan axborotlar oqimining kuchli ta'siri ostida shakllanmoqda.

Rivojlanayotgan O'zbekistonda ham axborot oqimi oshib borayotgani axborot almashinuvi jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayapti. Axborot almashinuvidagi bu miqdor va sifat o'zgarishlari, tabiiyki, jamiyat hayotiga yangiliklar olib kirmoqda. Boshqacha qilib aytganda, axborot almashinuvini tartibga soluvchi funksiyalarga amal qilinayotgani tufayli sotsiumda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Agar axborot almashinuvi hodisasiga keng ko'lamda qarasak, uning inson va jamiyat hayotida nechog'lik katta ahamiyatga egaligiga guvoh bo'lamiz. Sotsiumning eng kichik elementi – individdan tortib, insoniyat jamiyatigacha, ya'ni barchasining mavjudlik va rivojlanish sharti axborot almashinuvidir. Shunga ko'ra, axborot almashinuvi jarayonini prognozlash va tartibga solish zarurati yuzaga kelmoqda.

Axborot almashinuviga tizim sifatida yondashish ilmiy adabiyotlarda muayyan darajada tadqiq etilgan. Bunga, V.Afanasyev², V.Tyuxтин³, A.Ursul⁴ larning ilmiy ishlarini misol qilib keltirish mumkin. Mazkur ishlarda muammolar asosan tizimli (tuzilmaviy-funksional) tahlil etilgan. Tizimli yondashuvning bunday usuli falsafa, psixologiya, yurisprudensiya, matbuot nazariyasi, iqtisodiyot va pedagogika bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlarga xosdir. Binobarin, axborot almashinuv hodisasini tadqiq

¹ Абдуазимов О. Аxborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri мониторингини таъминлашда оммавий ком-муникациялар социологиясининг ўрни (Ўзбекистон оммавий аxborot воситаларининг 2001–2016 йиллардаги материаллари мисолида). Монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2016. – Б. 49 – 66.

² Афанасьев В.Г. Человек: общество, управление, информация: опыт системного подхода. – М.: 2013. – 208 с.

³ Тьютин В.С. Отражение системы, кибернетика: Теория отражения в свете кибернетики и системного подхода. – М.: Наука, 1972. – 256 с.

⁴ Урсула А.Д. Природа информации: философский очерк. – Челябинск: 2010. – 231 с.

etishda sotsiolog olimlar tizimli yondashuv usuliga mustahkam tayangani bejiz emas.

Axborotlashgan jamiyat to'g'risidagi zamonaviy nazariyalarda axborot va axborot almashinuvi jarayoni muhimligi ta'kidlanib, ijtimoiy o'zaro bog'liqlikning bir bo'lagi sifatida talqin qilinadi¹. Axborot almashinuvining boshqa fundamental jarayonlar bilan aloqalari modeli tizim yasovchi elementlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Jamiyatda axborot almashinuvi jarayonlariga, aholining axborot madaniyati yuksalishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omil bu global va mahalliy kommunikatsiya tarmoqlarining davr talablariga munosib ravishda rivojlanishidir. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun yuksak axborot texnologiyalari iqtisodiyotning hamma sohasiga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Biroq yalpi internetlashuv jamiyatda va shaxslararo axborot almashinuvini yanada tezlatishi, hajmini oshirishi bilan bir qatorda, axborot xurujlarining ko'payishiga ham olib kelishi mumkin. Fuqarolarni, ayniqsa, yosh avlodni global tarmoqning salbiy ta'siridan saqlash uchun o'z vaqtida davlat tomonidan barcha xavfsizlik choralari ko'rilishi zarur. Xususan, axborot sohasidagi xavfsizlikni ishonchli ta'minlashda O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligi doktrinasini ishlab chiqish va hayotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

E.To'fflarning fikricha, insoniyat axborotlashtirish orqali «evolyutsion taraqqiyotning yangi davriga qadam qo'ymoqda. Bu shunchaki o'zgartirilgan jamiyat emas, balki butunlay yangi jamiyatni qurishdir»². Bunday jamiyatni qurish oson bo'lmaydi, ko'plab nazariy va amaliy aspektdagi chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilishi talab etiladi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilgan holda, axborotlashgan jamiyatga o'tishning ijobiy tomonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

jamiyat hayotida axborot, bilim va axborot texnologiyalarining rolini oshishi;

axborot texnologiyalari, aloqa va axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarishda band bo'lganlar sonining ko'payishi, shuningdek, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining oshishi;

telefoniya, radio, televidenie, internetning raqamli vositalari va texnologiyalari, shuningdek, an'anaviy va elektron ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda jamiyatni chuqur axborotlashtirish;

¹ Кастельс М. Галактика Интернета: Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. – Екатеринбург: У-Фактория, 2004.

² Тоффлер Э. Шок будущего. – М.: АСТ, 2001. – С. 669.

yangi aloqa vositalaridan foydalanayotgan kishilar o'rtasida samarali axborot hamkorligini, ularning milliy va global axborot resurslaridan foydalanishini, shuningdek, axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan global axborot makonini yaratish;

elektron demokratiya, axborot iqtisodiyoti, elektron hukumat, raqamli bozorlar, elektron ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish;

axborot inqirozini yengish;

boshqa resurslarga nisbatan axborotning ustuvorligini ta'minlash;

jamiyatning asosi eng yangi axborot texnologiyalari va texnologiyalari orqali barcha turdagi bilimlarni qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish bo'lishi kerak.

So'nggi yillarda elektron aloqa uchun yangi texnologik manbalar paydo bo'lib bormoqda. Ushbu manbalar axborot asrining o'ziga xos xususiyatiga aylanib, o'zaro hamkorlik qilish uchun yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqdi. Hozirda ma'lumotni qiziqqan auditoriyaga yetkazish funksiyasi nafaqat an'anaviy ommaviy axborot vositalari, balki zamonaviy media makonlari (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, forumlar, foto, videoxosting) tomonidan ham amalga oshiriladi. Bu axborot almashinuvining yangi xususiyati sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar axborot almashinuvining asosiy vositasiga aylanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishda keng qo'llanishi mumkin. Insonlardagi axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirishda an'anaviy axborot vositalarining imkoniyatlari tobora kisqarib bormoqda. Shu bilan birga, axborotni cheklash, yopib qo'yish yoki axborot olishni ta'qiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi. Tizimni boshqarish, tartibga solish, undan foydalanish meyorlarini takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Internet bloggerlik faoliyati jahon tajribasida ham tartibga solinmagan yo'nalish bo'lib, uning imkoniyatlarini samarali yo'naltirish orqaligina jamoatchilik fikrini salbiy ruhda shakllanishi oldini olish mumkin bo'ladi.

“Axborotlashgan jamiyat – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborotni ishlab chiqarish, unga “ishlov berish”, saqlash va jamiyat a'zolariga yetkazish bilan bog'liq bo'ladigan jamiyat”¹. Demak axborotlashgan jamiyat – bu tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan narsa, hodisa, voqea, jarayonlar haqida axborotlarni yig'ish, yaratish, saqlash, qayta ishlash, tizimlashtirish, uzatish va qabul qilish, iste'mol, ayriboshlash,

¹ Фалсафа: энциклопедик луғат. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2010. – Б. 32

taqsimlashga asoslangan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarini uyg'un holda tezkor harakatga keltiruvchi intellektual munosabatlarni o'z ichiga olgan jamiyatdir, deb ta'rif berish mumkin.

“Axborotlashgan jamiyat – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborot tayyorlash, unga “ishlov berish”, saqlash va jamiyat a'zolariga yetkazishga bog'liq ekanini anglatadigan tushuncha”¹. Jamiyatni axborotlashtirish hozirgi kunda jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Dahaqiqat, “industrial jamiyatning asosiy rivojlanish manbai – energetik manbalar, energiyani ishlab chiqarish, uni tarqatish imkoniyatlari mavjudligida bo'lsa, axborotlashgan jamiyatida bilim va axborot jamiyat rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi”². Shu sababli ham bugungi kunda bilim va axborotga asoslangan global axborotlashgan jamiyat shakllanmoqda.

M.Usmonovanning ilmiy ishida «axborotlashgan жамият» tushunchasi birinchi marta 1978 yilda Fransiya prezidenti Frank buyurtmasiga ko'ra S.Nor tomonidan tayyorlangan “Axborotlashgan jamiyat” nomli ma'ruzasida keltirilgani, 1980 yilda ingliz tiliga “Jamiyatni kompyuterlashtirish” deb tarjima qilingani haqida fikr yuritiladi³.

Biroq, bizningcha, «axborotlashgan жамият» tushunchasi 1960-yillarning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan, uni Tokio texnologik universitetining professori Yu.Xayash birinchi bo'lib fanga kiritgan. Uning fikricha, axborotlashgan jamiyatda kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbaidan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarida axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi. Ya'ni, “moddiy mahsulot emas, axborotlashuv mahsuloti jamiyatning shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuchiga aylanadi”⁴.

Shu bilar birga, Yaponiya iqtisodiy rejalashtirish agentligi, Kompyuterlarni tatbiq etish sohalarini aniqlash instituti, Sanoat tarkibi masalalari bo'yicha Kengashi yapon xukumatiga taqdim etgan hisobotlarda bo'yicha hisobotlarida ham axborotlashgan jamiyatning asosiy ta'rif-tavsiflaridan foydalanilgan. Jumladan, “Yapon axborotlashuv jamiyati: mavzular va

¹ Маънавият ва тушунчалар изохли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти 2016. – Б. 25.

² Гаффарова Г.Ф. Мураккаб тизимларда ахборот генерациясининг фалсафий-методологик асослари: Дисс.я фалс.ф.д. – Тошкент, 2019. –Б.185.

³ Усмонова М.А. Социально-философский анализ проблем информатизации. Дисс. канд. филсоф. наук. 1998. – С.45.

⁴ Яхшиликов Ж.Я., Мухаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. Монография. Тошкент. “Фан” 2017. –Б.342.

yondashuvlar” (1969 yil), “Yapon jamiyatini axborotlashuviga hamkorlik siyosatining tarixlari” (1969 yil), “Axborotlashuv jamiyatining rejasi” (1971 yil). Ushbu hisobotlarda ko‘rsatilganidek, kompyuterning rivoji odamlarga ishonchli axborot manbalariga yo‘l ochib, ishlab chiqarishda avtomatlashuvning yuqori darajasini ta‘minlaydi hamda asosiy o‘zgarishlar ishlab chiqarishning o‘zida yuz beradi. Natijada uning mahsuloti “axborotlashuv jihatdan salmoqliroq” bo‘lib, innovatsiyalar, dizayn va marketing ulushining narx-navoga ta‘sirini anchagina oshiradi.

Keyinchalik F.Maxlup, D.Bell, I.Masuda, E.Toffler, P. Draker, M.Kastels va boshqalar axborotlashgan jamiyatga oid qarashlarni rivojlantirdi. Shu bilan birga rivojlangan davlatlarning axborotlashgan jamiyat konsepsiyalari qabul qilindi. Ushbu qarashlar va konsepsiyalarga qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Jumladan, F.Maxlup «axborotlashgan жамият» tushunchasini o‘zining «AQShda bilimlarni ishlab chiqarish va тарқатиш»¹ nomli asarida qo‘llagan.

«Axborotlashgan jamiyat» tushunchasining rivojida amerika jamiyatshunosi D.Bellning “Industrial jamiyat davrining kelajagi: ijtimoiy bashorat qilish tajribalari” nomli asari alohida ahamiyatga ega. Unda muallif insoniyat jamiyatining tarixini uch asosiy bosqichlarga²: agrar, industrial va industrial davrdan so‘ngi davrlarga bo‘lib chiqadi. Olim industrial davrdan so‘nggi davrning tarixini industrial bosqichining ta‘rif-tavsiflariga suyanagan holda chizib berishga intilgan.

D.Bell industrial jamiyatni ko‘proq mashinalar va buyumlar ishlab chiqaruvchi jamiyat, deb sharhlaydi. Industrial davrdan so‘ngi davrning farqlanuvchi belgisi bo‘lib, olimning fikriga ko‘ra³, buyumlar chiqarishdan (voz kechishdan) ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqaruv sohalarida xizmatlarni ishlab chiqarishni rivojlantirishga o‘tish jarayoni xizmat qiladi. Shu bilan birga, olim “har bir hozirgi zamon jamiyati innovatsiyalar (yangiliklar joriy qilish) va o‘zgarishlar ustidan ijtimoiy nazorat olib borish hisobiga kun ko‘rmoqda. Inson kelajakni ko‘ra bilish va uni rejalashtirishga интилкамда»⁴ deb ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, hozirgi kunda innovatsiyalarning tabiatini anglashga bo‘lgan intilishdagi o‘zgarishlar nazariy bilimlarning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Bu yo‘nalishdagi

¹ Каранг: Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США. – М., 1966.

² Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. – М.: Akademia, 1999. – С.38.

³ Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. –М.: 1999, -с.

⁴ Ўша асар. – С.104.

harakat ilm-fan, texnika va iqtisodiyotning o'ziga xos uyg'unlashuvi chog'ida tobora kuchaya boradi.

Axborotlashgan jamiyatga oid qiziqarli falsafiy konsepsiyalardan biri yapon olimi I.Masudaga tegishlidir. Uning konsepsiyasiga ko'ra¹, yangi jamiyatning poydevori bo'lib kompyuter texnologiyasi xizmat qiladi hamda bu texnologiyaning asosiy vazifasi inson aqliy mehnatining faolligini kuchaytirishdir. I.Masudaning fikricha, «axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar ўзгаради»², unda jamiyat sinflarga bo'linmaydi va ziddiyatsiz, ya'ni ahil, tinch-totuv jamiyat bo'lib, uni chog'roq hukumat va davlat apparati boshqaradi. Uning fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, axborotlashgan jamiyatda nafaqat qadriyatlar tizimi o'zgaradi, balki ishlab chiqarish, inson turmush tarzi, moddiy boyliklarga nisbatan madaniy dam olish sifatida qarashning ahamiyati ortadi.

Axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqiladi va iste'mol etiladi, bu hol aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, «axborotlashgan jamiyat – ko'pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishni amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatdir»³.

Taniqli ingliz olimi T.Stouner ta'kidlaganidek, «axborotni xuddi sarmoyaga o'xshatib jamg'arish va keyinchalik ishlatish uchun saqlash ham mumkin»⁴. Uning fikriga qo'shilgan holda, aytish mumkinki, industrial davrdan keyingi davrda milliy axborotlashuv zahiralari boylikning eng katta potensial manbaiga aylandi. Birinchi navbatda barcha kuchlarni ishga tushirib, iqtisodiyotning yangi tarmog'i – axborotlashtirish tarmog'ini rivojlantirish zarur. Yangi jamiyatda esa bandlikning umumiy ko'rsatkichlari va milliy mahsulotdagi ulushi bo'yicha sanoat xizmatlar sohasiga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Xizmatlar sohasi asosan, kerakli axborotlarni yig'ish, ishlov berish va taqdim etishdan iborat bo'ladi.

¹ Масуда Й. Информационное общество как постиндустриальное общество. – М., 1981. – С.43.

² Масуда Й. Информационное общество как постиндустриальное общество. – М., 1981. – С.44.

³ Фуломов С., Шермухамедов А., Бегалов Б. Аxborotlashgan jamiyatning muhojassamlanishi // Ўзбекистон иqtisodiy axborotnomasi. – Тошкент, 1999. январь-феврал. - 7 б.

⁴ Стоунер Т. Информационная революция: наука, экономика, технология. – М., 1993. – С.335.

S.Mol fikricha, “axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar o‘zgaradi”¹.

Axborotlashgan jamiyatning yana bir nazariyotchisi E.Toffler esa o‘ziga xos sharh beradi. “Uchinchi to‘lqin” deb nomlangan kitobida u tamaddun tarixidan uchta to‘lqinni ajratib oladi: birinchi to‘lqin – agrar (XVIII asrgacha), ikkinchisi – industrial (XX asrning 50-yillarigacha), uchinchisi – postindustrial davr (XX asrning 50-yillaridan boshlab).

“Eng yaqin tarixiy sarxad, – deb yozadi u, – o‘n ming yil avval qishloq xo‘jaligining joriy etilishi tufayli yuzaga kelgan o‘zgarishlarning ilk to‘lqinidek hali juda-juda olisda”². Darhaqiqat, o‘zgarishlarning ikkinchi to‘lqini industrial inqilob tufayli yuzaga keldi. Hozirgi kunda biz o‘zgarishlarning uchinchi to‘lqin farzandlarimiz. Uchinchi to‘lqin axborotlashuv inqilobining samarasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

1980–1990 yillarni axborotlashgan jamiyat konsepsiyalarining rivojidadagi yangi bosqich deb aytish mumkin. Bu davrdagi konsepsiyalar asosan Piter Draker va Manuel Kastels tadqiqotlari natijalari bilan chambarchas bog‘liq. P.Draker o‘zining “Kapitalizmdan keyingi jamiyat” kitobida axborotlashuv konsepsiyasini keltirib o‘tgan. Konsepsiyaning mohiyati an‘anaviy kapitalizmni yengib o‘tish g‘oyasidan iborat. Ushbu konsepsiyaga asosan, yuz berayotgan siljishning asosiy belgilari industrial xo‘jalikdan bilimlar va axborotga asoslangan iqtisodiy tizimga kirib borish, kapitalistik xususiy mulkchilikdan voz kechish, hozirgi zamon odami uchun yangi qadriyatlarni yaratish, iqtisodiyot va jamiyatdagi globallashuv jarayonlari ta’sirida milliy davlatning o‘zgarishi nazarda tutilgan³.

Tadqiqotchi M.Kastels axborotlashgan jamiyatning asosini iqtisodiy sohani birinchi o‘ringa qo‘yadi hamda “iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat” o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanadi⁴ deb ta’kidlaydi. M.Kastels o‘z fikr-mulohazalarining tayanch nuqtasi qilib global iqtisodiyotni hamda xalqaro moliyaviy bozorlarni olib, ularni shakllanayotgan yangi dunyoning asosiy belgilari sifatida qo‘llaydi. Uning “Axborotlashuv erasi: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat” deb nomlangan fundamental tadqiqoti yangi jamiyat asoslarini shakllantirishga olib boruvchi tendensiyalarni chuqur va har tomonlama tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda olim tilga olgan

¹ Моль С. Информационное воздействие в современном мире. – Москва: Крымский мост, 2004. Ст.484.

² Тоффлер Э. Шок будущего. – М.: АСТ, 2001. – С.34.

³ Дракер П. Посткапиталистическое общество. – СПб., 1999. – С.34.

⁴ Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. (перевод с англ.) – Москва, 2000. – С.20.

jamiyatni “tarmoqli”¹ deb atagan. Axborot o‘z tabiati bo‘yicha shunday resurski, uning uchun hech qanday to‘siq, g‘ov, chegara pisannd emas, shu fazilatidan kelib chiqib, olim axborotlashuv erasini globallashuv deb ataydi. Shu bilan birga, tarmoqli tarkiblar jamiyat globallashuvining ham vositasi, ham natijasi bo‘lib qoladi.

A.I. Rakitov o‘z asarlarida, axborotlashgan jamiyatga o‘tish jarayonini ishlab chiqarish va xizmatlar, bilimlardan foydalanish ijtimoiy faoliyatning eng muhim mahsulotiga aylanishini ko‘zda tutadi. Shuni ta’kidlash kerakki, bilimlarning jamiyatda tutgan o‘rni tobora oshaveradi. Muallifning fikricha, «to‘plangan va ishlovdagi axborotning hajmi va sifati, shuningdek uning qoyilmaqom qilib uzatilishi va qayta ishlash imkoniyatlari axborotlashgan jamiyatning asosiy me’yorlari bo‘lib xizmat qilishi мумкин»².

Rossiyalik faylasuf olim A.A.Chernov global informatsion jamiyat tushunchasini “axborot texnologiyalarani o‘zida borishi va jamiyat hayotiga kirib borishidir”³ deb izohlaydi.

N.Moiseyev axborotlashgan jamiyatni tahlil qilib: “Bunday jamiyatda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar yuz berishi, uning salbiy va ijobiy natijalarining kuzatilishi, bunday jamiyatda har qanday xolatga tayyor turish lozimligi, axborotlashgan jamiyatning shakllanishi – butun insoniyatga tegishli bo‘lgan, bundagi konfliktlarni xalq etishda barcha xalqlar, millatlarning birligi talab etiladi”⁴ deb ta’kidlaydi.

N. Moiseyev jamiyatdagi bunday murakkab o‘zgarishlarni tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladi: “Axborotlashgan jamiyatning qaror topishi bifurkatsion xususiyatga ega bo‘ladi. Ya’ni taraqqiyot asoslarining sifatiy o‘zgarishi, jamiyatdagi munosabatlarning ijtimoiy tabiati har qanday ijtimoiy injeneriyani rad etsa ham, kutilayotgan xavfdan ko‘z yumolmaymiz. Har qanday inqilobiy jarayon kabi axborotlashgan jamiyatga o‘tish ham kutilmagan oqibatlariga olib kelishi mumkin. Muammo uning rivojini rejalashtirishda emas, balki salbiy oqibatlarning oldini olishda (bu rivojlanish yo‘nalishining rejali, boshqariladigan yo‘nalishidan farqi shunda). Hodisalarning xavfli tus olish ehtimoli katta. Buning uchun

¹ Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. (перевод с англ.) – М., 2000. – С.20.

² Ракитов А.И. Информатизация: состояние, структура, перспективы (Перспективы информатизации общества). – М., 1990. – С.20.

³ Чернов А.А. Становление глобального информационного общества. Проблемы и перспективы. – Москва 2003. – С. 5-6.

⁴ Моисеев Н. Информационное общество: возможность и реальность. – Москва: АСТ, 2004. – С.451.

sayyoramizdagi axborot tizimlarining monopollashtirilishi va ayrim guruhdagi odamlarning g‘arazli manfaatlariga bo‘ysundirilish holatini ko‘z oldimizga keltirsak yetarli bo‘ladi. Mana shuning uchun ham axborotlashgan jamiyatning shakllanishi – butun insoniyatning jamoaviy muammosidir.

O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat masalasi A.T.Kenjaboyev, M.A.Usmonova, O.V.Lanseva, O.M.Kostrina, G.G‘.G‘affarova, M.Yoqubova, A.Abdumalikov kabi olimlarning doktorlik hamda nomzodlik dissertatsiyalarida tahlil etilgan. M.A.Usmonova axborotlashtirishning mazmun-moxiyati, ahamiyati, axborotlashtirish jarayonlarining tuzilishi, strukturasi o‘rganilib, ijtimoiy-siyosiy, hamda falsafiy jihatlar tahlil etilgan.

Tadqiqotchi M.Yoqubovanning ta‘rifiga e‘tibor berilsa axborotlashgan jamiyatda ilm, informatsiya va axborot texnikasining katta ahamiyatga egaligi, bunda jamiyat taraqqiyotida dastlab, axborot tayyorlash, uni rivojlantirish, saqlash, insoniyatga yetkazish muhimligi ta‘kidlanadi¹.

“Axborotlashgan jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishda mehnat qiluvchilarning, fan va madaniyat vakillarining axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bo‘lmish, dunyoviy bilimlar majmuini shakllantirish, yaratish, saqlash, qayta ishlash va xalqaro bozorda sotishni amalga oshirish bilan mashg‘ul bo‘lgan jamiyatdir”². N.Sodiqov axborotlashtirishning o‘zagini axborot va bilim tashkil etishi va yosh avlodning kelajagi hamda kamolotini yuksaltirishda amaliy yordam berishi, davlat taraqqiyotini belgilashda ham axborotlashgan jamiyatning zarurligini³ ta‘kidlaydi. Axborot tushunchasi bugungi kunda global ahamiyat kasb etdi, ya‘ni axborot xilma-xillikni aks ettirish degan ma‘noda ham qo‘llanilmoqda. Falsafiy jihatdan axborotlarni o‘zida aks ettirish obyektiga ko‘ra:

-tabiat (koinot, yer-suv, tuproq, o‘simlik, xayvonot)

-jamiyat (odamlar, jamoat birlashmalari, davlatlar, ularning tuzilishi, iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatlari)

-inson faoliyati (jismoniy va aqliy salohiyati, sog‘ligi, ongi va tafakkuri, mentaliteti, moyilligi va boshqalar) kabi guruhlariga ajratiladi. O‘z navbatida falsafaning metodologik ahamiyatidan kelib chiqib axborotlar umumiy, xususi, alohida axborot tizimlariga bo‘linadi.

¹ Ёкубова М.И. Жамият тараққийотида ахборотлашув ва ахборот технологияларининг аҳамияти.. Фалс.фан. номз. Дисс. авт. – Тошкент, 2006. –Б.10.

² Абдумаликов А. Фуқаролик жамиятида шахс инфор­мацион маданиятини шакллантириш: Монография. –Тошкент: Фан, 2016. –Б. 60.

³ Садиков Н.Н. Информатизация и формирование духовно-психологического облика молодежи. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқук, 2007. –С.5.

Inson va jamiyatning hayotiy manfaatlarini himoya qilishda o'z navbatida axborot tahdidlaridan himoyalaniish muhim ahamiyatga ega. Axborot bugungi kunga kelib inson tafakkuriga ta'sir o'tkazuvchi, insoniyat hayoti va taqdirini yaxshi yoki yomon tomonga burib yuboruvchi "goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi vositaga aylandi"¹. Shuning uchun yosh avlodga axborot tahdidlari xaqida ham tushuncha berish, "Axborot tahdidi – axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf tug'diruvchi sharoit va omillar yig'indisi"² ekanligini tushuntirish lozim. Mamlakatimiz hukumati tomonidan qabul qilingan qaror va dasturlar axborotlashgan jamiyatga o'tishning iqtisodiy, huquqiy, texnologik jihatlariga e'tibor berilmoqda. Masalan, "Axborotlashtirish haqida", "Elektron raqamli yozuv (imzo) haqida"gi qabul qilingan qonunlar va boshqa hujjatlar ana shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o'zgarib, barcha xarakatlar tovarlar ishlab chikarish, iste'mol etishga yo'natirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan sun'iy intellektlar, yangi bilim va kashfiyotlar yaratiladi. Qolayersa "xozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzod bu xaqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas"³. Ushbu jarayonda insonlarni o'ziga xos manfaatlarini ifodalaydigan, bir-biriga zid bo'lgan manfaatlarni bartaraf etadigan yagona vosita ishlab chiqish talab etiladi.

Axborotlashuvning ijobiy tomonlari bilan birga odamzodning illatlarini keltirib chiqaruvchi voqeliklar ham kuzatiladi. Ta'kidlash kerakki, informatsion jamiyat ma'lum mehnat faoliyatiga barham berib, yangisini vujudga keltiradi. Shuni nazarda tutish kerakki kompyuter va kompyuterlashtirish inson aqlini, ongi va tafakkurini boshqarishi emas, balki inson texnikani boshqarishi zarurdir. YA'ni bunday sharoitda shaxs axborotni qabul qilishi, uni o'ziga bo'ysundirishi va unga munosabat bildirishi maqsadga muvofiq. Demak, axborotlashuv jarayonlari davlatlar taraqqiyoti va insoniyat kelajagini belgilashda muhim omil ekan bo'lib, u olam va odam o'rtasidagi munosabatlarda faol ishtirok etishini aytib o'tish lozim, o'z navbatida insoniyat hayotining hozirgi davrida o'zaro axborot almashuvi shakllanmasa, u taraqqiy etmagan bo'lar edi. Inson hayotining

¹ Муҳаммад Амин Яхё. Интернетдаги таҳдидлардан химоя. –Тошкент: "Моварауннахр", 2016. – Б. 206.

² Ёзиева У. Аxborotlar таҳдидидан химояланишнинг педагогик шарт-шароитлари: Монография. –Тошкент: "Akademnashr", 2016. – Б.25.

³ Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент: "Маънавият", 2013. –Б 110.

maʼnosi va rivojlanishida axborotning zarurligi, buning natijasida sivilizatsiya kamol topishi, fikrlar almashishi, plyuralizmning, yaʼni fikrlar xilma-xilligi kuzatiladi.

Axborotlashgan jamiyat taraqqiyoti natijasida aholining koʻp qismi axborotlarni oʻzida qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va qoʻllash bilan band boʻladi. Bu esa insonlarning faoliyatini oʻz vaqtida axborotga ega boʻlgani va undan foydalana olganligiga bogʻliq boʻlib, barcha sohalarining zamonaviy mutaxassisi axborot oqimlarida erkin harakatlanishi uchun axborot generatsiyasini (ishlab chiqish, koʻpaytirish) kompyuterlar, telekommunikatsiyalar kabi aloqa vositalaridan foydalana olishni (bilishni) talab etmoqda. Bu esa bugun dunyodagi barcha davlatlar axborot va bilimga asoslangan axborotlashgan jamiyat sari borayotganligidan, hozirgi vaqtda axborotning tez va sifatli aylanishini taʼminlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining bosh mezoniga aylanishidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, axborotlashgan jamiyat ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatidan yangi bosqichi hisoblanadi.

Axborot jamiyatiga oʻtishning eng muhim mezonlari quyidagilardir:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ustuvor rivojlantirish;
- axborot sohasida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot ulushini keskin oshirish;
- axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarishda band boʻlgan ishchilar sonining koʻpayishi;
- milliy axborot makonini global axborot tarmoqlariga kiritish.

Ushbu oʻzgarishlar mikroprotsessorlar va tarmoqli kompyuter texnologiyalari, sunʼiy yoʻldosh aloqalari va ushbu texnologiyalardan foydalanish uchun boʻlgan energiya resurslarining paydo boʻlishi bilan bogʻliq.

Axborotlashgan jamiyat - bu axborotni ishlab chiqarish va isteʼmol qilish eng muhim faoliyat va ijtimoiy rivojlanishning eng muhim manbai boʻlgan jamiyatdir. Axborot muhiti (ijtimoiy va atrof-muhit bilan bir qatorda) insonning yangi muhitiga aylanmoqda. Yuqori texnologiyalar (yuqori texnologiyalar) jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishining asosidir.

2.2. Axborotlashgan jamiyatga oid konsepsiyalar tahlili

Jahonda raqamli kompyuterga asoslangan iqtisodiyot rivojlanayotgani (raqamli iqtisodiyot) nafaqat axborot texnologiyalarini qoʻllash bilan chegaralanmasdan, balki soha va biznes jarayonlarini internet hamda yangi

raqamli texnologiyalar bazasida tubdan o'zgartirmoqda. Shu bilan birga, bugun dunyo murakkab, nochiziqli, keskin va tez o'zgaruvchan bo'lib, taraqqiyotning asosini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, kommunikatsiya vositalari, axborot maydoni hamda inson kapitalining rivojlanganlik darajasi belgilamoqda. XXI asr – insoniyatning axborotlashgan jamiyat deb e'tirof etilgan yangi davrga o'tishi bilan dunyoda axborot sohasiga talab nihoyatda ortib bormoqda. Chunki axborot va interaktiv kommunikatsiyalar zamonaviy jamiyatda ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarning asosiy omili hisoblanadi.

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat tushunchasi zamonaviy ijtimoiy jarayon nazariyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Aynan shu narsa insoniyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga o'tishi bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Ijtimoiy taraqqiyot nazariyasi nuqtai nazaridan axborotlashgan jamiyatni insoniyat sivilizatsiyasi rivojining keyingi bosqichi deb hisoblash mumkin. Axborotlashgan jamiyat va uning rivojlanishi sivilizatsiya rivojlanishining tabiiy bosqichi bo'lib, zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari ta'sirida nafaqat iqtisodiyot, ijtimoiy tuzilma, huquq, madaniyat, balki butun davlat sohasida ham yuzaga keladi.

Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi sivilizatsiya rivojlanishining butun oldingi yo'nalishi bilan shartlangan tabiiy va obyektiv jarayondir. Jamiyatning zamonaviy rivojlanishi axborot va multimedia texnologiyalarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini o'zgartirishdagi muvaffaqiyati shubhasizdir. XX-asrning oxirgi uchdan birida va XXI asrning hozirgi davrida axborot va multimedia texnologiyalari nafaqat hayotning umumiy xususiyatiga aylandi, balki ular asosan iqtisodiyot, siyosat va uy hayotining rivojlanishini belgilab beradi.

Bir tomondan, axborot inqilobi ko'p jihatdan inson bilimlarining rivojlanish darajasini, uni olish, qayd etish va uzatish usullarini belgilaydi. Boshqa tomondan, nafaqat texnik, balki barcha ilmiy faoliyatga axborot fanlari tushunchalari va paradigmatlari sezilarli darajada ta'sir qiladi.

“Postindustrial” va “axborotlashgan” jamiyat atamalari o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha ikkita asosiy nuqtai nazar mavjud. Ba'zi olimlar nuqtai nazaridan, bu atamalar sinonimdir va teng ravishda almashtirilishi mumkin. Masalan, 70-yillarda deyarli bir vaqtning o'zida paydo bo'lgan ikkita mafkura - axborot jamiyati va postindustrializmning yaqinlashuvi boshlangan nuqtai nazar mavjud. Ushbu pozitsiyaga ko'ra, insoniyat

sivilizatsiyasi qishloq xo'jaligi va sanoat rivojlanish bosqichlaridan so'ng yangisiga - axborotga kiradi.

A.Turen kishilik jamiyatidagi o'zgarishlarning asosi bir madaniyatdan ikkinchi madaniyatga, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarning bir turidan ikkinchisiga o'tish ekanligini ko'rsatadi. U postindustrial jamiyatga o'tishni axborotni qayta ishlashning yangi turiga o'tish deb tasniflaydi. Uning tushunchasiga ko'pa¹, postindustrial – aholining aksariyat qismi sanoat yoki bozor ishlab chiqarishida emas, balki axborot ishlab chiqarishida band bo'lgan jamiyatdir. Bunday holda, biz o'rganilayotgan atamalarning bir xilligini kuzatamiz. Shu bilan birga, A.Turenning E.Toffler yoki J.Masudadan farqli o'laroq, vujudga kelayotgan jamiyat mamlakatlar taraqqiyotidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etmasligiga ham e'tibor qaratgan.

Axborotlashgan jamiyatda asosiy resurs - bu axborotni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va uzatish bilan shug'ullanadigan jamiyat hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, XX asr oxiriga kelib, Yevropa ittifoqi komissiyasi tomonidan «Axborotlashgan jamiyat qurishning Yevropacha yo'li» (1994 y.), «Axborotlashgan jamiyat sari Finlyandiya yo'li» (1995 y.), «Germaniyaning axborotlashgan jamiyat sari rivojlanishi» (1996 y.) dasturlari ishlab chiqildi. 2000 yil 22 iyulda «Katta sakkizlik» uchrashuvi (Okinava)da «Global axborotlashgan jamiyat Xartiyasi» qabul qilinib, o'sha yili BMTning Mingyillik sammitida e'tirof etildi. So'ngra, axborotlashgan jamiyat muammolarini YUNESKO tomonidan nazariy jihatdan o'rganish boshlandi². Darhaqiqat, ushbu tushuncha ilmiy jamoatchilikda «yuksak axborotlashgan madaniyat», «tig'iz axborotlashgan jamiyat», «axborot jamiyati» tushunchalari bilan ham keng targ'ib qilinadi. Xullas, jahon hamjamiyatida har qanday jamiyatning rivojlanish sur'ati va yo'nalishini belgilab beruvchi axborotni barcha ne'matlardan ustun deb tan olish yo'liga o'tildi.

Albatta, axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi masalalari bilan ko'plab tadqiqotchilar shug'ullangan. Jahon axborot jamiyatini yanada rivojlantirish muammolari bilan bog'liq masalalar 1970-yillarning boshidan boshlab turli darajadagi xalqaro sammit va

1

² Состояние исследований по проблем информационного общества. - СПб., ЮНЕСКО. 2004; Наука в информационном обществе. –М., ЮНЕСКО. 2004; Мониторинг информационного общества и обществ знаний. -СПб., ЮНЕСКО. 2004; Этика и права человека в информационном обществе. –М., ЮНЕСКО. 2007; Всемирный саммит по информационному обществу. –М., ЮНЕСКО. 2007.

konferensiyalarda ko‘tarilib kelinmoqda. Vaqt o‘tishi bilan hatto maxsus ilmiy intizom - axborotlashgan jamiyat, axborot makoni va axborot siyosatini o‘rganuvchi axborot fani paydo bo‘la boshladi.

Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasi Yaponiyada 1960-1970 yillar oxirida paydo bo‘lgan va biroz vaqt o‘tgach, 1970-1980 yillarda amerikalik va ingliz olimlari tomonidan o‘rganila boshlangan. Axborotlashgan jamiyat haqidagi ta‘limot uzoq vaqtdan beri G‘arb siyosiy nazariyasi doirasida ishlab chiqilgan. Rossiyalik mutaxassislar kelgusi postindustriya, axborot jamiyati haqidagi nazariy munozarada faqat 1990-yillarda faol ishtirok etdilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar vakillariga kelsak, ular bir qator obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra shakllanayotgan global axborot tartibining nazariy asoslarini shakllantirishda ishtirok etishdan chetlash-tirildi. Bu ikkinchisini 1970-yillarning o‘rtalaridan boshlab zamonaviy axborot texnologiyalarini tarqatish va axborot almashinuvi sohasida yanada teng huquqli munosabatlarni yaratish bo‘yicha qayta-qayta faol takliflar bilan chiqishga majbur qildi.

Axborotlashgan jamiyat haqida birinchi eslatmalarni Yaponiya hukumati uchun Iqtisodiy rejalashtirish agentligi, Kompyuterni rivojlantirish instituti va sanoat tuzilmasi kengashi tomonidan tayyorlangan hisobotlar sarlavhalarida topish mumkin. Ushbu ma‘ruzalarning sarlavhalari o‘z-o‘zidan gapiradi: "Yaponiya axborotlashgan jamiyat: mavzular va yondashuvlar" (1969), "Yaponiya jamiyatini axborotlash-tirishni targ‘ib qilish bo‘yicha siyosat konturlari" (1969), "Axborotlashgan jamiyat rejasi" (1971). Dastlab, axborotlashgan jamiyat kontseptsiyasining mazmuni uning texnik tomoniga qisqartirildi, ya‘ni "odamlarga ishonchli ma‘lumot manbalaridan foydalanishni ta‘minlaydigan va ularni oddiy ishlardan ozod qiladigan, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasi, yuqori darajadagi ish faoliyatini ta‘minlaydigan umumiy kompyuterlashtirish jarayonini faollashtirish"¹.

1973 yilda yuqoridagi ma‘ruzalarda bayon qilingan shakllanayotgan axborot jamiyati mazmuniga oid qoidalar amerikalik sotsiolog D.Bell tomonidan o‘zining mashhur "Kelajak postindustrial jamiyat. Ijtimoiy prognozlash tajribasi"².

¹ Чернов А.А. Основные историко-теоретические этапы развития концепций глобального информационного общества / Информация. Дипломатия. Психология; отв. ред. Ю. Б. Кашлев. - М.: Известия, 2002. С. 35.

² Bell D. The Coming of Post-industrial Society. A Venture in Social Forecasting. - N.Y.: Basic Books, 2001. 616 p.

Amerikalik tadqiqotchi o‘z ishida kelajak jamiyatining asoslarini belgilab berdi. U butun insoniyat tarixini uch bosqichga ajratdi: qishloq xo‘jaligi, sanoat va postindustrial (axborot). Asosiy maqsad moddiy ne‘matlar va ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish bo‘lgan sanoat jamiyatini tavsiflovchi Bell uning insoniyat rivojlanishining postindustrial bosqichidan sezilarli farqini ishlab chiqarishni moddiy sohadan xizmat ko‘rsatish sohasiga bosqichma-bosqich qayta yo‘naltirishda ko‘rdi. 1980 yilda D.Bell o‘zining yangi ishida “axborot jamiyatining ijtimoiy doirasi”ni belgilab berdi¹. Aynan shu asarida D.Bell birinchi bo‘lib postindustrial jamiyatni telekommunikatsiyaga asoslangan, bilim va axborot tovar maqomiga ega bo‘lgan axborot jamiyati sifatida tavsiflagan.

Aslida, D.Bellning ishi axborotlashgan jamiyatning tabiati haqidagi ilmiy fikr uchun o‘ziga xos katalizator bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, yapon olimi I.Ma’suda “Axborotlashgan jamiyat postindustrial jamiyat sifatida” (1983) asarida axborot va telekommunikatsiyalarga asoslangan yangi dunyo tuzumi konsepsiyasini ishlab chiqdi².

I.Ma’suda kompyuter texnologiyalarining izchil rivojlanishi iqtisodiyotdagi yetakchi sanoat oxir-oqibat “aqlli ishlab chiqarish” deb ataladigan narsaga, ya’ni axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari, eng yangi texnologiyalar yordamida to‘planadigan va tarqatiladigan axborot va bilimlarni ishlab chiqarishga olib kelishini taklif qildi. Shu bilan birga, I.Ma’suda, bizning nuqtai nazarimizdan, shakllanayotgan axborot jamiyatini ma’lum darajada ideallashtiradi, uning kichik hukumat va davlat apparati bilan sinfsiz va ziddiyatsiz bo‘lib ketishi haqida fikr bildiradi. Darhaqiqat, jamiyatning bu yangi turi sanoat jamiyati kabi ijtimoiy qarama-qarshiliklar bilan tavsiflanadi, yagona farq shundaki, yangi sharoitlarda munosabatlarning o‘zi va ijtimoiy tashkilot yanada murakkablashdi. Axborot omili shunchaki munosabatlar tizimiga qo‘shildi.

Axborotlashgan jamiyat tabiatining yana bir mashhur tadqiqotchisi ingliz olimi T. Stounyer kelajakda foydalanish uchun to‘planishi va saqlanishi mumkin bo‘lgan axborot va bilimlarni kapital bilan aniqladi. Shunday qilib, T. Stounyer birinchi bo‘lib “axborot mineral resurslar bilan taqqoslanadigan muhim strategik resurs”³ degan fikrni bildirdi. U vaqt o‘tishi bilan milliy axborot resurslari potensial boylik manbaiga

¹ Белл Д. Социальные рамки информационного общества / Новая технократическая волна на Западе / Под ред. П. С. Гуревича. М.: Знание, 1986. С. 330–342.

² Masuda Y. The Information Society as Postindustrial Society. - Washington: World Future Society., 1983. - 171 p.

³ Стоуньер Т. Информационное богатство: профиль постиндустриальной экономики // Новая технократическая волна на Западе / Под ред. П. С. Гуревича. - М.: Знание, 1986. -С.392-409.

aylanishini, ya'ni bu boylikka egalik qilmoqchi bo'lgan nufuzli shaxslar albatta paydo bo'ladi, deb taxmin qildi va bu juda asosli.

Binobarin, biz axborotlashgan jamiyatni konfliktisiz va sinfsiz deb ayta olmaymiz. I.Ma'suda ta'kidlaganidek, bu soddalik bo'lardi. Undagi nizolar nafaqat mumkin, balki yangi shartlarning ajralmas atributidir. Axborot ham qurolga, ham aralashuv obyektiga aylanganda ular o'zgaradi va axborot xarakteriga ega bo'la boshlaydi. Biroq, axborotlashgan jamiyat sinfsiz bo'lib qolishi dargumon, chunki boylik va qashshoqlik qutblari o'rtasidagi tafovutning ortishi, albatta, sodir bo'ladi va sodir bo'ladi, bu axborot jamiyati sharoitida yangi - informatsion o'lchovga ega bo'ladi.

T.Stounyer o'z tadqiqotlari yakunida kelgan fundamental xulosa shundan iboratki, zamonaviy dunyoda har qanday davlatning asosiy vazifasi iqtisodiyotning yangi istiqbolli tarmog'i - axborotni rivojlantirish bo'lishi kerak. Uning fikricha, "Yangi jamiyatda sanoat umumiy bandlik ko'rsatkichlari va milliy mahsulotdagi ulushi bo'yicha o'z o'rnini xizmat ko'rsatish sohasiga bo'shatib beradi, bu birinchi navbatda kerakli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va taqdim etishning har xil turlarini ifodalaydi"¹.

Kanadalik olim M.Maklyuen ham o'z asarlarida postindustrial jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini shakllantirishda axborot texnologiyalariga muhim o'rin ajratgan. Ushbu muallif o'z mulohazalarida postindustrial jamiyat davrida ommaviy axborot vositalarining uning hayotidagi faol rolining sezilarli o'sishiga olib keladigan nuqtai nazarni bir necha bor ifodalagan².

Axborotlashgan jamiyatning yana bir ko'zga ko'ringan nazariyotchisi E.Toffler o'zining "Uchinchi to'lqin" kitobida D.Bell tomonidan "Kelajak postindustrial jamiyat" asarida taklif qilingan jamiyatlarning mashhur tarixi tasnifiga asoslanib. "Ijtimoiy prognozlash tajribasi" qishloq xo'jaligi, sanoat va postindustrial sohalarida uning qoidalarini biroz aniqladi. Olim sivilizatsiya tarixida u uchta to'lqinni aniqladi: birinchisi qishloq xo'jaligi (18-asrgacha), ikkinchisi sanoat (1950-yillargacha), uchinchisi postindustrial (1950-yillardan boshlab).

Biroq, bu yerda bir ogohlantirish kerak: D.Bell ham, E.Toffler ham o'z konsepsiyalarini G'arb sivilizatsiyasi evolyutsiyasiga asoslagan, bu esa o'z tushunchalarini biroz bir tomonlama, tor yo'naltirilgan qilib, ularni

¹ Стоуньер Т. Информационное богатство: профиль постиндустриальной экономики // Новая технократическая волна на Западе / Под ред. П. С. Гуревича. - М.: Знание, 1986. -С.392-409.

² Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека М.: Канон-Пресс-Ц, 2003. 462 с.

universal xususiyatdan mahrum qiladi. Ushbu olimlar o'z nazariyalarida rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarini ataylab hisobga olmadilar, faqat dunyoning yetakchi G'arb davlatlarining yutuqlari haqida gapiradilar. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarining mustaqil hayotlari davomida G'arb sivilizatsiyasi bosib o'tgan butun evolyutsiya yo'lini bosib o'tishga ulgurmadilar, rivojlanishning qishloq xo'jaligi yoki agrar-sanoat bosqichida to'xtadilar.

Global axborotlashgan jamiyatga kirishi uchun ma'lum bir to'siq yaratadigan ushbu texnologik kechikish, asosan, 1970-yillarning oxirida rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati tomonidan boshlangan yangi xalqaro tartib konsepsiyasi bo'yicha munozaralarning kuchayishini oldindan belgilab qo'ydi.

Shunga qaramay, E.Toffler o'z tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlarning global axborot-kommunikatsiya makoniga teng integratsiyalashuvi muammosidan ataylab chetlab o'tadi, faqat kelajakdagi axborotlashgan jamiyat rivojlangan dunyo uchun va'da qiladigan cheksiz imkoniyatlar haqida gapiradi. Jumladan, u axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarish va aholining konsentratsiyasining buzilishi va axborot almashinuvining keskin kuchayishi haqida fikr bildiradi¹.

1980-1990 yillar oxirida P.Druker axborot jamiyati tushunchasini ishlab chiqdi va uni postkapitalistik deb atadi. U o'z tadqiqotining zamirida hozirgi zamonda moddiy ishlab chiqarish hukmron bo'lgan iqtisodiy tizimdan bilim va axborotga asoslangan jamiyatga o'tish jarayoni sodir bo'lganligidan kelib chiqdi. Eng so'nggi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarida P.Druker kapitalistik dunyo tizimini bilimga asoslangan bilimlarni talab qiluvchi, yuqori texnologiyali jamiyatga aylantirish uchun real imkoniyatni ko'rdi². Ammo axborot jamiyati muammolarining yana bir taniqli tadqiqotchisi M. Kastels o'zidan oldin ishlab chiqilgan axborot jamiyati tushunchalarini bir o'z tanqid qildi, uning mohiyati, uning nuqtai nazariga ko'ra, jamiyatdagi ma'lumotlar hal qiluvchi rolga borib taqaladi.

1989 yilda M.Kastels "Axborot shahri" asarini, 1998 yilda esa "Axborot asri" nomli uch jildlik fundamental asarini nashr etdi, bu uning barcha ilmiy ishlarining cho'qqisiga aylandi. Olim bu asarida axborotning hozirgi davrdagi rolga baho beradi. Shunday qilib, biz M.Kastelsning nazariy ishlanmalarini D.Bellning hisob-kitoblari bilan tenglashtirishni taklif qilamiz. M.Kastels ishining ahamiyatini inkor etish qiyin. Agar

¹ Тoffлер Э. Третья волна. - М.: АСТ, 1999. - 786 с.

² Drucker P. Post-Capitalist Society. - N.Y.: Harper-Collins Publ., 1995. - 232 p.

1970-1980-yillarda D.Bell faqat axborot asrining boshlanishini va uning oxir-oqibat nima bo'lishini bashorat qila olgan bo'lsa, M.Kastels XX-XXI-asrlar oxirida zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarni baholash imkoniyatiga ega bo'ldi¹.

M. Kastels, yangi axborot davri tengsizlikning yangi shakllarini o'z ichiga olishini tan oladi. Biroq, u ularni yengishning hech qanday yo'llarini taklif qilmaydi, u o'zining "axborot kapitalizmi" g'oyasiga juda ishtiyoqlidir, unda kapitalistlar sinfi yo'q, ular axborot ishchilari bilan almashtiriladi. Ya'ni, "bu ishchilar guruhi jamiyatdagi asosiy kuchga aylandi, deyarli hamma narsa uchun mas'ul bo'ldi - texnologiya yaratish, korporatsiyalardagi o'zgarishlarni boshqarish, qonunchilik islohotlarini talab qilishgacha. Aksincha, axborot kapitalizmi sharoitida qo'l mehnati bilan shug'ullanuvchilar soni tobora kamayib bormoqda va ular o'zlarining o'zgarishlarga moslashishlariga imkon bermaydigan o'zlarining egiluvchanligi, shuningdek, innovatsion bo'lgan axborot ishi bilan doimo tahdid ostida bo'lib, boylik yaratuvchi kuch ularni o'zgartirishga majbur qiladi"². Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyatdagi bu o'zgarishlar shu qadar to'satdan va tez sodir bo'lmoqdaki, iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va tog'-kon sanoati ustunlik qilishda davom etgan Afrikaning aksariyat mamlakatlari ularga tayyor emas edi.

M.Kastels faol qo'llayotgan "tarmoq jamiyati" atamasiga kelsak, u, bizningcha, to'liq emas va zamonaviy dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlarni to'liq tavsiflamaydi. U faqat yangi axborot davrining asosiy xususiyati axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari hamda davlatlar va shaxslarni bog'lovchi tarmoqlar ekanligini aks ettiradi. Biroq, ushbu tarmoqlarni rivojlantirish uchun mamlakat yetarli ilmiy va texnik salohiyatga ega bo'lishi kerak, bu esa yana insoniyatning faqat eng rivojlangan yarmiga axborot asriga kirish imkonini beradi.

Shunday qilib, biz "axborotlashgan jamiyat" atamasidan foydalanishni davom ettirishni taklif qilamiz. Darhaqiqat, "axborotlashgan jamiyat" atamasi "axborot davri", "axborot asri", "axborot asri", "postindustrial jamiyat" atamaları bilan sinonim bo'lib, "tarmoq jamiyati", "axborot" kabi tushunchalarning sintezidan iborat. "Kapitalizm" va "informatsionizm" va yangi turdagi iqtisodiyot va jamiyatga o'tishni anglatadi, bunda insoniyat taraqqiyotida axborot eng so'nggi axborot va telekommunikatsiya

¹ Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. - М.: ГУ ВШЭ, 2000. - 608 с.

² Уэбстер Ф. Теории информационного общества. - М.: Аспект Пресс, 2004. - С.148.

tizimlaridan faol foydalanishi natijasida yangi global miqyosga ega bo'ladi va keyingi rivojlanish uchun hal qiluvchi resursga aylanadi.

1990-yillarda Rossiya siyosiy maktabi vakillari ham rivojlanayotgan axborotlashgan jamiyatning tabiati haqidagi nutqlarda faol qatnashdilar. Albatta, sovet fanida axborotlashgan jamiyat muammolari ilgari, ya'ni 1990-yilgacha ham to'xtalgan edi. Biroq, ko'pincha ular qo'shilmaslik harakati a'zosi bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarning yangi dunyo axborot tartibi uchun kurashiga to'g'ri keldi. Bu G'arb siyosiy doktrinasida deyarli ko'tarilmagan mavzu edi. Sovet olimlari, aksincha, zamonaviy axborot texnologiyalari dunyo bo'ylab tarqalishi notekisligini bir necha bor ta'kidladilar, ya'ni biz rivojlanayotgan mamlakatlarning G'arbiy sivilizatsiyasining rivojlangan mamlakatlari tomonidan ma'lumotlarning kengayishi haqida gapirgan edik, bunda mahalliy olimlar neokolonializmning informatsion deb ataladigan shakli yangi, ilg'orroq ekanligini ko'rdilar¹.

O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat masalasi keng tahlil etilmagan. A.T.Kenjaboyev, M.A.Usmonova, O.V.Lanseva, O.M.Kostrina, M.Yoqubova kabi olimlarning ushbu muammolarga oid doktorlik hamda nomzodlik dissertatsiyalarini ta'kidlash mumkin.

O.V.Lansevaning nomzodlik dissertatsiyasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan axborotlashtirish jarayonlariga oid ilk falsafiy tadqiqotdir. Unda rivojlanishning informatsion jihatlari hamda axborot muammosi informatsion jarayonlarning ko'p xilligi, axborot va bilim kategoriyalarining aloqadorligi kabi muammolar global rivojlanish qonuniyatlari kontesti falsafiy tahlil etilgan.

M.A.Usmonovanning ilmiy tadqiqoti axborotlashtirishning ijtimoiy-falsafiy muammolariga bag'ishlangan. Unda "axborotlashgan jamiyat" tushunchasi, bunday jamiyatning mohiyati, axborotlashtirish jarayoni, tuzilishi, funksiyasi, axborotlashtirishning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy masalalari falsafiy tahlil etilgan.

M.Yoqubovanning fikricha, axborotlashgan jamiyat texnogen sivilizatsiya rivojlanishining muayyan bosqichidir, axborotlashgan jamiyatda bilim, axborot va axborot texnikasi asosiy rol o'ynaydi. Ya'ni, axborotlashgan jamiyat shunday jamiyatki, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng

¹ Вачнадзе Г.Н. Агрессия против разума: информационный империализм. - М.: Политиздат, 1988. 271 с.; Волкова И.В. «Информационный империализм» и борьба за духовную деколонизацию Африки (80-е гг.). Научно-информационный бюллетень. № 9. - М.: Институт Африки АН СССР, 1987. 52 с.; Дзэконова Л.И. Информационный империализм и борьба за новый международный информационный порядок в странах Западной Африки (1976–1981 гг.): Автореф. канд. дис. - М.: Изд-во Моск. ун-та, 1983. - 21 с.

avvalo, axborot ishlab chiqish, unga ishlov berish, uni saqlash va jamiyat aʼzolari orasida tarqatishga bogʻliq boʻladi¹.

A.Kenjaboyev milliy iqtisodiyotning tadbirkorlik sohasida, axborot hamda axborotlashtirish milliy tizimidagi axborot jarayonlarini baholashda tadbirkorlik faoliyatiga oid axborotlar bozori muhim omil ekanligini koʻrsatib bergan, tadbirkorlik faoliyatining axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirishning nazariy, uslubiy va amaliy yechimlari tahlil qilingan.

N.Sodiqov oʻz asarlarida yoshlarning axloqiy-psixologik qiyofasi rivojlanishida axborotlashtirishning taʼsirini yoritishga harakat qilgan. Uning fikriga koʻra: axborotlashgan jamiyat – postindustrial jamiyat konsepsiyasiga asoslangan sivilizatsiya taraqqiyotining tarixiy bosqichida yuzaga kelgan boʻlib, uning oʻzagini axborot va bilim tashkil etadi².

Akademik S.Gʻulomov fikricha, “axborotlashgan jamiyat – koʻpchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa uning oliy shakli boʻlmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishni amalga oshirish bilan band boʻlgan jamiyatidir”³. Darhaqiqat axborotlashgan jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi oʻzgaradi, moddiy boyliklarga nisbatan madaniy dam olish sifatida qarashning ahamiyati ortadi. Axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqiladi va isteʼmol etiladiki, bu hol aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi.

Biz yuqorida olimlarning ilmiy yondashuvlarini tahlil tahlil qilib chiqdik. Endi turli mamlakatlarning axborotlashgan jamiyat toʻgʻrisidagi konsepsiyalarining oʻziga xos xususiyatlarini yoritib beramiz.

Taʼkidlash kerakki, XX asr oxiriga kelib, Yevropa ittifoqi komissiyasi tomonidan «Axborotlashgan jamiyat qurishning Yevropacha yoʻli» (1994 y.), «Axborotlashgan jamiyat sari Finlyandiya yoʻli» (1995 y.), «Germaniyaning axborotlashgan jamiyat sari rivojlanishi» (1996 y.) dasturlari ishlab chiqildi. 2000 yil 22 iyulda «Katta sakkizlik» uchrashuvi (Okinava)da «Global axborotlashgan jamiyat Xartiyasi» qabul qilinib, oʻsha yili BMTning Mingyillik sammitida eʼtirof etildi. Soʻngra, axborotlashgan jamiyat muammolarini YUNESKO tomonidan nazariy

¹ Ёкубова М.И. Жамият тараққийотида ахборотлашув ва ахборот технологияларининг аҳамияти. Дисс. Автореф. Фалс.фан.номз. – Т., 2006. –Б.10.

² Садиков Н.Н. Информатизация и формирование духовно-психологического облика молодежи. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007. –С.5.

³ Ғуломов С., Шермухамедов А., Бегалов Б. Ахборотлашган жамиятнинг мужассамланиши // Ўзбекистонда иқтисодий ахборотномаси. – Т., 1999. январь-феврал, – 7-Б.

jihatdan o'rganish boshlandi¹. Darhaqiqat, ushbu tushuncha ilmiy jamoatchilikda «yuksak axborotlashgan madaniyat», «tig'iz axborotlashgan jamiyat», «axborot jamiyati» tushunchalari bilan ham keng targ'ib qilinadi. Xullas, jahon hamjamiyatida har qanday jamiyatning rivojlanish sur'ati va yo'nalishini belgilab beruvchi axborotni barcha ne'matlardan ustun deb tan olish yo'liga o'tildi.

Xo'sh, axborotlashgan jamiyatga oid qanday konsepsiyalar mavjud, ularning o'ziga xos xususiyatlari nima?

Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi davlat va jamiyatlar hayotining barcha sohalarida jiddiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Hozirda axborot odamlar va jamiyat farovonligining eng muhim manbaiga aylanmoqda, rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti tarkibida axborot texnologiyalari industriyasi eng yirik sohani tashkil etadi. Nemis tadqiqotchisi L.Nefedovning yozishicha: «Bugun tadqiqot va rivojlanishga sarflanayotgan mablag'larning uchdan bir qismi axborot texnologiyalariga yo'naltirilmoqda»².

XX asr 90-yillarining birinchi yarmidan boshlab amerikalik va yevropalik olimlar o'z e'tiborlarini hayotning turli sohalarida axborotning roli va ahamiyatiga emas, balki aynan bilimlarning qadr-qimmatiga qaratishdi. Bu holat, o'z navbatida, oliy darajada rivojlangan industrial jamiyatni ta'riflash uchun yangidan yangi atamalarni yuzaga keltirdi.

1994 yilning iyul oyida Yevropa hamdo'stlik davlatlari (YEHD) tomonidan "Yevropaning axborotlashgan jamiyat sari yo'li" faoliyat rejasi qabul qilindi. Unda Yevropa hamdo'stligining faoliyatidagi to'rtta asosiy yo'nalish ko'zda tutilgan: me'yoriy-huquqiy makon yaratish; axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, asosiy xizmatlarni tasnif etish, jihoz-uskunalarni bir standartga keltirish; axborotlashgan jamiyatning turli-tuman ijtimoiy va madaniy jihatlari o'rganish; aholi o'rtasida axborotlashgan jamiyatning konsepsiyalarini tashviqot qilib, odamlarning qo'llab-quvvatlashiga erishish.

Darhaqiqat, mazkur faoliyat rejasi "Bangeman tashabbusi" deb nomlangan. Bangeman YEHD rahbarlaridan biri bo'lib, u YEHDlarning axborotlashgan jamiyatga kirishini ta'minlovchi shoshilinch choralari bo'yicha tavsiyalar tayyorlagan ekspert guruhini boshqargan.

¹ Состояние исследований по проблем информационного общества. - СПб., ЮНЕСКО. 2004; Наука в информационном обществе. -М., ЮНЕСКО. 2004; Мониторинг информационного общества и обществ знаний. -СПб., ЮНЕСКО. 2004; Этика и права человека в информационном обществе. -М., ЮНЕСКО. 2007; Всемирный саммит по информационному обществу. -М., ЮНЕСКО. 2007.

² Nefedov L. Zusammenhang zwischen information, Ethik und Religion // Mensen B. (Hrsg/

Angliya va Fransiya konsepsiyalarida “tarmoqlar yoki xizmatlar” muammosi juda katta ahamiyatga molik, chunki ularning ta’limotiga ko‘ra, aynan tarmoqlarni yaratish – xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun eng qulay yo‘l. Shuni ham aytib qo‘yish kerakki, barcha dasturlarning asosiy maqsadi “universal xizmatlarni” rivojlantirishdir. Bunga sabab axborotlashgan jamiyatdagi notenglik muammosi bo‘lib, bu notenglik tufayli, aholining aksariyat qismi jamiyat afzalliklaridan benasib qolishi mumkin.

Osiyo davlatlari ishlab chiqargan axborotlashgan jamiyat rivojiga oid konsepsiyalar o‘z milliy qadriyatlari asosiga qurilgan bo‘lib, aksariyat hollarda, g‘arb olimlarining fikrlariga zid o‘laroq, industrial va ijtimoiy rivoj haqidagi o‘z nuqtai nazarlari olg‘a suriladi. Bu konsepsiyalarning mohiyatida «Konfutsiy ta’limoti bilan sodir bo‘layotgan ijtimoiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi aloqani topish harakati этади»¹.

“Ahil–inoq yashash, birga gullab-yashnash” falsafiy aqidalari, osiyolik olimlarning fikricha, muvaffaqiyat garovidir. Bugungi kunda Yaponiyada asosiy e’tibor o‘zining yangi bilim, texnologiya va mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lib, diqqat markazida esa – novatorlik g‘oyalar, nuqtai nazarlar, betakrorlik turadi. Ma’lumki, bu davlatda bolalar tug‘ilishi kamaygani bois, aholi asta-sekin qarib bormoqda. Yangi axborotlashuv texnologiyalari vositasida aholining ishchan qismi kamayishiga qaramay, iqtisodiyotga bu holatning salbiy ta’sirini biroz kamaytirish mumkin.

“Osiyo yo‘lbarslari” (yangi industrial mamlakatlar)ga oxirgi 25 yil ichida iqtisodiyoti, birinchi navbatda, sanoati juda tez sur’atlarda rivojlangan an’anaviy (milliy) qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan, hozirgi paytda xalqaro savdoda salmoqli o‘rin egallovchi davlatlar, masalan, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Koreya, Malayziya, Tailand² kiradi.

Binobarin, “Osiyo yo‘lbarslari (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur va Gonkong)ning” axborotlashuv taraqqiyotida iqtisodiy hamkorlik deb ataluvchi konsepsiyasi davlatning xususiy kapital tomonidan yirik mablag‘larni sarf qilish ishlariga aralashuvi, aniq maqsadlarga yo‘naltirishi, moddiy, ijtimoiy va axborotlashgan infratuzilmalar yaratish ishlarida faol qatnashishi asos bo‘lmoqda. “Yo‘lbarslar” orasida “intellektual orol” – strategik reja ishlab chiqqan Singapur alohida diqqatga sazovordir. Dunyodagi milliy axborotlashuv infratuzilmasi rivojlantirilgan, barcha uy,

¹ Вершинская О.Н. Информатизация общества // Вопросы философии. – М., 1999. – №3, – С.55-57.

² Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Т.: Шарқ, 2006. – 414-Б.

maktab yoki ish o'rinlardagi kompyuterlarning o'zaro aloqasini ta'minlagan ilk davlatlardan biriga aylanish – bu davlatning ezgu niyatidir.

Hindiston konsepsiyasini o'rta yo'l konsepsiyasi deb atasa bo'ladi. Chunki, davlat korxonalari xususiy sektorga berilmaydi, ammo mahalliy xizmatlar bozorida raqobatga keng yo'l ochilgan, bu borada 49 foizgacha chet el sarmoyasini qo'shishga ruxsat berilgan (mamlakatdagi 200 milliondan ortiq oila o'rtamiyona daromadga ega, shu bois ichki bozorning istiqbollari porloqdir). Global axborotlashgan jamiyat qurish yo'lida Hindistonning asosiy boyligi, sarmoyasi – odamlar, insonlar resurslaridir. Bugungi kunga kelib Hindiston ilmiy-texnik salohiyati bo'yicha dunyoda (AQSH va Rossiyadan keyingi uchinchi) o'rinni egallamoqda.

2006 yilning 27 martida BMT Bosh Assambleyasida 17 mayning Butunjahon axborot jamiyati kuni deb e'lon qilinishi ham hozirgi kunda jamiyatni axborotlashuvining ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Bugun dunyodagi barcha davlatlar axborotlashgan jamiyat sari bormoqdalar. Chunki, axborotlashgan jamiyat – yuksak taraqqiy etgan axborot infratuzilmasiga ega jamiyatdir.

Respublikamizda axborotlashgan jamiyat qurish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Respublikamiz hukumati tomonidan qabul qilingan qaror va dasturlarning barchasida demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat uchun axborotlashgan jamiyatga o'tishning iqtisodiy, huquqiy, texnologik, madaniy shart-sharoitlari yaratib berilmoqda. Masalan, "Axborotlashtirish haqida", "Elektron raqamli yozuv (imzo) haqida"gi qabul qilingan qonunlar va boshqa hujjatlar ana shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o'zgaradi. Barcha xarakatlar tovarlar ishlab chikarish, iste'mol etishga yo'natirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqariladi va iste'mol etiladiki, bu xol aqliy mehnat ulushini oshishiga olib keladi.

Axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoklari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosida turli xil tizimlar tashkil etadi.

Axborotlashgan jamiyat - jamiyatning ko'pchilik a'zolari axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bo'lishi bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatdir.

Axborot jamiyatga o'tishda kompyuter va telekommunikatsiya axborot texnologiyalari negizida yangi axborotni qayta ishlash sanoati yuzaga keladi.

Bizning Respublikamiz ham mustaqillik tufayli axborotlashgan

jamiyat tomon kirib bormoqda. Bu masala Prezidentimiz va xukumatimizning diqqat markazida birinchi masalalar qatorida turibdi.

Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasiga postindustrial nazariyadagi iqtisodiyotni birinchi, ikkinchi va uchinchi sektorlariga informatsion sektor qo'shildi. Konsepsiyani tarafdorlarining fikriga ko'ra, birinchi sektorda – qishloq xo'jalik, ikkinchi industrial sektorda – sanoat, uchinchi sektor – xizmat ko'rsatuvchilik dominantlik ahamiyatiga ega. Informatsion sektor axborotlashgan jamiyatida tizimga soluvchi vazifani bajaradi. Ushbu konsepsiyada axborot va bilim ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi. Ularni ahamiyatiga ko'ra, energiya va xizmat ko'rsatish moddiy ishlab chiqarishdan afzal ekanligiga urg'u berildi. Shu bilan birga axborot yohud bilim hamda interaktiv kommunikatsiyalar zamonaviy jamiyatda ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarning asosiy omili hisoblanadi.

Axborotlashgan jamiyatda iqtisodiy yutuqlar undagi milliy, mintaqaviy va lokal innovatsion tizim hamda surunkali malaka oshirish o'qishlarining birligi va yo'lga qo'yilganiga bog'liq.

Butun dunyo axborotlashgan jamiyatning qanday bo'lishi haqidagi umumiy konsepsiya mavjud bo'lmasa-da, bizningcha, uning mohiyatini bir-biriga bog'liq quyidagi jarayonlar tashkil etish kerak:

- axborot va bilimlar ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va madaniy rivojlanishning haqiqiy o'zak qudratiga, qimmatli manbaiga aylandi;

- ishlab chiqarishning omili bo'lmish xomashyo, mehnat, mablag', resurslarga tenglashtirilgan axborot va bilim bozorlari shakllana boshlaydi;

- axborotni yetkazib berish va undan foydalanishni ta'minlovchi sohalarning ahamiyati shiddatli tarzda osha boradi;

- axborot tizimining taraqqiy etganligi – ma'lum millat yoki mintaqaning raqobatbardoshligida, misol uchun xuddi uning transport tizimidek ahamiyatli bo'ladi;

- jamiyat faoliyatining har bir sohasiga taraqqiy etgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi mavjud ta'lim, mehnat, jamiyat hayot va dam olish tarzini keskin o'zgartiradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 2006 yil 27 mart kuni BMT Bosh Assambleyasida 17 mayni har yili Jahon axborotlashgan jamiyat kuni deb e'lon qilish to'g'risida rezolyusiya qabul qilingan edi. 2006 yil noyabr oyida Tursiyaning Antaliya shahrida o'tkazilgan (MST – mejdunarodnogo soyuz telekommunikatsiy) anjumanida 17 mayni Jahon axborotlashgan jamiyat va telekommunikatsiya kuni deb o'zgartirildi. Shu bilan birga 10-12 dekabr 2003 yilda Jenevada hamda 16-18 noyabr 2005 yilda Tunis

shaharlarida o'tkazilgan Sammitlarda ham axborotlashgan jamiyatga bag'ishlangan edi.

Ushbu o'tkazilgan voqealarga nisbatan mamlakatimizda ko'plab tadbirlar, xususan, 2006 yildan boshlab har yili mamlakatda informatsion-kommunikatsiya texnologiyalari haftaliklari (InfoCom) BMT taraqqiyot dasturidagi «AKT снѐcati» loyihasi doirasida hamkorlikda o'tkazilmoqda. InfoCom haftaligi, «ICTExpo» ko'rgazmalari, AKT milliy sammitlari kabilar respublikada AKT yo'nalishi taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Ularning natijasida hozirgi kunda axborot texnologiyalari qo'llanishining huquqiy bazalari rivojlandi. Ayniqsa, Toshkent shahrida har yili Jahon axborotlashgan jamiyat va telekommunikatsiya kuniga bag'ishlangan «BestSoft - Uzbekistan» dasturchilarning milliy forum iva milliy dasturiy mahsulotlar ko'rgazmasi o'tkazilishi ham O'zbekistonning xalqaro tashabbusga qo'shgan hissasi hisoblanadi. Albatta, «BestSoft - Uzbekistan» forumi va ko'rgazmasi keng miqyosda o'tkazilishi umumiy jamoatchilik va axborot texnologiya mutaxassislarini hamda mamlakatni dasturiy ta'minlash sohasida AKT loyihalarini yaratish va amalga oshirish amaliyoti bilan tanishtirish imkonini beradi.

Aytish kerakki, davlat tashkilotlar faoliyatida informatsion texnologiyalarining qo'llanilishiga oid dastur qabul qilindi va joriy qilinmoqda. Xususan, «Elektron hukumat»ni shakllantirish maqsadida davlat tashkilotlari va xo'jalik sub'ektlarida interaktiv xizmatlarni yaratish va ko'rsatish ishlari olib borilmoqda. Darhaqiqat, mamlakatda 150 ta davlat informatsion resursi yaratildi va ro'yxatga olindi. Umuman olganda, 97 % davlat tashkilotlari boshqaruvida o'zining veb-saytlari mavjud.

O'zbekistonda Axborot texnologiya tashkilotlari va korxonalari Assatsiatsiyasi tashkil etildi. Unga informatsion kommunikatsiya texnologiyalari sohasida 50 ta kompaniya a'zo hisoblanadi. Shu bilan birga 4 ta raqamli elektron kalitlarni ro'yxatdan o'tkazish markazlari tashkil etildi. Kutubxonalarda xizmatlar ko'rsatishda islohotlar tizimida 14 ta informatsion kutubxona markazlari yaratildi. Unda 2000 dan ortiq kutubxonalar va axborot resurs markazlarida ma'lumotlar bazasi mavjud.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr boshlari jahonda axborotlashgan jamiyatning shakllanishi, tarkib topishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jamiyatning hal qiluvchi omillarini axborot va bilim tashkil qiladi. Axborotlashgan jamiyat taraqqiyoti natijasida aholining ko'p qismi axborotlarni o'zida qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va qo'llash bilan band bo'ladi. Shuningdek mazkur jamiyatning shakllanish bosqichlarini axborotlashtirish va raqamlashtirish tashkil etadi.

III-BOB. AXBOROTLASHTIRISH – AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING MUHIM OMILI

O‘zbekistonning kelgusi taraqqiyotini ilm-fan, ilmiy, ijtimoiy-gumanitar texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot asosida boshqarish tashkil etadi. Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalariga asoslangan raqamlashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bunda jamiyat hayotida axborotning ahamiyati, qadr-qimmatli axborot, uni generatsiya qilish usullari muhimligi, axborotlashtirish va ta’lim jarayonida axborotning o‘rni, AKTni rivojlantirish va axborotlashgan jamiyat barpo etish, axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Ma’lumki, hozirgi globallashuv davrida jamiyatimiz hayotining turli-tuman va rang-barang sohalarining barcha rivojlanish jarayonlari shiddati va tezligi to‘xtovsiz darajada o‘tib bormoqda. Ayniqsa, hozirgi paytda “elektron pochta” yordamida yuboriladigan xabarlarimiz bir qancha soniyalar ichida Internet tarmog‘i bo‘lgan dunyoning eng uzoq manzillarida ma’lum bo‘lmoqda. Oldin, ya’ni 20-25 yil ilgari boshqa shahar yoki mamlakatlarda yashayotgan yaqinlarimizga yozgan xatlarimiz bir necha hafta davomida yetib borar edi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Demak, hayotimizning qanday sohasi bo‘lmasin, ularni bitta narsa birlashtirib turibdi: axborot va axborotlashtirishning yangi zamonaviy va eng ilg‘or texnologiyalarining qo‘llanilishi.

Shu sabab ushbu bobda tez sur‘atlarda rivojlanayotgan soha – axborotlashtirishning zamonaviy holati, ya’ni demokratik islohotlarda uning ahamiyati va ta’siri, rivojlanish modeli asosida olib borilayotgan demokratik islohotlarda axborotlashtirish jarayoni bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan. Jumladan, turli sohalarida axborotlashtirish masalalari, fanni axborotlashtirish, mamlakatning axborotlashtirish konsepsiyasi, axborot xavfsizligi hamda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tafakkuriga ta’siri masalalari tahlil etilgan.

3.1. Ахборотлаштиришнинг илмий-назарий асослари

Ma’lumki, axborotlashtirish tushunchasi hozirgi adabiyotlarda “elektrlashtirish”, “kompyuterlashtirish”, “avtomatlashtirish” atamalari bilan sinonim sifatida foydalaniladi. Ammo bu tushunchalar falsafiy maqomiga

ko'ra xilma-xildir. Shuning uchun ham ushbu jarayonlarning xilma xilligini tushunmaganlar, axborotlashtirishni kompyuterlashtirish bilan bir deb tushunadilar.

Xo'sh axborotlashtirish nima? Uning qanday xususiyatlari bor?

Axborotlashtirish atamasi birinchi bo'lib, 1978 yil Fransiya prezidenti Valeri Jiskar d'Estenning «Axborotlashgan jamiyat» nomli ma'ruzasida qo'llanilgan. Keyinchalik 1980 yilda ushbu ma'ruza ingliz tiliga tarjima qilinganda "Kompyuterlashgan jamiyat" nomini olgan.

Axborotlashtirish atamasi MDH davlatlarida birinchilardan bo'lib rus olimi A.I. Rakitov tadqiqotlarida qo'llagan. YA'ni, olim axborotlashtirishning mohiyati va mazmunini ochib bergan. Olimning fikricha, axborotlashtirish – ijtimoiy, texnik, iqtisodiy, siyosiy va madaniy mexanizmlar bilan shunchaki bog'liq bo'lmaydi. Shu bilan birga bu jarayon axborotni ishlab chiqish, uzatish, saqlash va tarqatish uchun informatsion texnologiyalarda foydalanishni ijobiy o'sishi olib keladi.

Ushbu davrda bu tushunchani rivojiga A.P. Yershov, A.D. Ursul, V.S. Mixalevich, Y.M. Kanigin kabi olimlar sezilarli iz qoldirdilar. Ayniqsa, ushbu atama 1989-1990 yillardagi axborotlashgan jamiyat konsepsiyalarini ishlab chiqish davrida faol muhokama etildi.

Ma'lumki, rivojlanish nuqtai-nazaridan, istalgan faoliyat sohasi ekstensiv va intensiv yo'l bilan rivojlanadi. Ilmiy-metodologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, axborotlashtirish jarayoni ham shu ikki yo'nalish bo'yicha amalga oshishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Chunki dastlabki bosqichlarda ekstensiv rivojlanish metodlari ustun bo'lsa, keyin ular asosan intensiv rivojlanish metodlari bilan almashadi¹.

Ekstensiv usul – kompyuter paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Unda quyidagi muammolar hal etiladi: jamiyatni axborotlashtirish ilmiy bazasini ta'minlash; hisoblash texnikasini ommaviy ishlab chiqarish uchun texnologik baza yaratish; turli ijtimoiy, kasbiy va yosh guruhlarining axborotga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash; dasturiy vositalarni ishlab chiqarish, hujjatlashtirish, tarqatish va reklama qilish tizimlarini yo'lga qo'yish; hisoblash texnikasi bilan ishlashning ommaviy o'rgatilishini ta'minlash uchun asos yaratish; ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarning joriy qilinishi munosabati bilan mutaxassislarni uzluksiz o'qitish tizimini yo'lga qo'yish; axborot xizmatlarini ta'minlash uchun aloqa vositalari infratuzilma tayyorlashdi.

¹ Тожиев М., Салахутдинов Р., Баракаев М., Абдалова С. Таълим жараёнида замонавий ахборот технологиялари. – Тошкент, 2001. –Б.77.

Yuqorida sanab o'tilgan axborotlashtirishga oid ilmiy-metodologik muammolarning tabiiy ravishda hal etilishi natijasida ekstensiv yo'l amalda inson faoliyatining barcha sohalarini, jumladan, fan, mehnat, loyihalashtirish, o'qitish va iste'molni qamrab oldi. Shunday qilib, axborotlashtirishning intensiv yo'liga o'tish imkoniyati yuzaga keladi, uning maqsadi jamiyat va insonlarning axborotga bo'lgan talablarini qondirishdan iborat. Shu o'rinda aytish mumkinki, «har kim o'z istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega»¹.

Aytish kerakki, ba'zi tadqiqotlarda jamiyatni axborotlashtirish jarayonining texnik-texnologik jihatlarini sifatida quyidagilarni: mediatizatsiyalash, kompyuterlashtirish va internetlashtirishni olishi ta'kidlanadi². Ushbu elementlar axborotlashtirish jarayonida rivojlanishi avtomatlashtirish, robotlashtirish va mexatron qurilmalarni yaratish bilan bevosita bog'liq.

Jamiyatni axborotlashtirishda ikkita asosiy nazariy-metodologik yondashuvni ko'rsatish mumkin, ya'ni, texnokratik va sotsiologik.

Birinchi yondashuvda boshqaruv va ishlab chiqarish sohasidagi insonlar mehnat faoliyatining texnik-texnologik uskunalari. Bunday holda mehnatni ishlab chiqarishni oshirish vositasi sifatida informatsion texnologiya baholanadi. Ushbu yondashuv tabiiyki chegaralangan, chunki u inson qadri va idealida izolyatsiyalangan texnik rivojlanishni qaraydi (nadelyayet texniku svoistvom samodvijeniya i samorazvitiya).

O'zining mohiyati jihatidan jamiyatni axborotlashtirishni texnik tushunish inson bessiliya va jamiyatni boshqarish informatsion jarayonlar orqali hamda antiinsonparvar (insonparvarlikka teskari) asoslanadi. Shu sababli ham jamiyatni axborotlashtirishni bunday tushunishda nraavstvennost, vijdon, insoniy hislatlar, dostoinstva kategoriyalari mavjud emas.

Ikkinchi yondashuv, ya'ni jamiyatni axborotlashtirishni mohiyatini tushunishning sotsiologik yo'nalishi. Bu holda axborotlashtirish inson faoliyatining barcha sohasini o'ziga olgan, ya'ni uning bilimi va axloqiga, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlariga, shaxs sifatida kamolotiga ta'sir qiladi. Insonni shaxs sifatida rivojlanishida uning bilimi va moral, iqtisodiy va ma'naviy qiziqishlariga asoslangan.

Jamiyatni axborotlashtirishning mohiyatini tushunishning yana bir yo'nalishi sotsiologikdir. Bunda axborotlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladigan, insonning o'ziga – uning bilimi va axloqiga, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlariga, shaxs sifatida kamol

¹ O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

² Негодаев И.А. Информатизация культуры. – Ростов-на-Дону, 2002. – Б.34.

topishiga ta'sir etuvchi jarayon sifatida qaraladi. Jamiyatni axborotlashtirish o'zaro bog'liq bo'lgan texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy omillar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Ular jamiyat va uning a'zolarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida jamiyatda axborotning rivojlanishi va keng miqyosda olinishi, almashinuvi va qo'llanilishini ta'minlaydi.

Demak, jamiyatni axborotlashtirish - bu jamiyat, uning a'zolarining intellektual salohiyatini oshirish maqsadida axborotni boshqarish va rivojlantirish resursi sifatida axborotni informatika yordamida o'zlashtirishning global jarayoni bo'lib, sivilizatsiyaning keyingi taraqqiyotini ta'minlaydi. Bu jihatdan jamiyatni axborotlashtirish nafaqat texnik va texnologik hodisa balki zamonaviy madaniyat hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, axborotlashtirish jarayonini ikki qismga, ya'ni axborotlashtirish bosqichlari hamda jamiyatni axborotlashtirishga ajratish mumkin.

Jamiyatni axborotlashtirish esa o'z ichiga quyidagilarni oladi: ta'limni a'borotlashtirish; informatsion resurslar (alohida yoki ommaviy hujjatlar, bilim, jamiyatdagi ijtimoiy foydalanish uchun tayyorlangan insonlar); axborot; axborotlashtirish.

Darhaqiqat, jamiyatni kompyuterlashtirish orqali quyidagilar ta'minlanadi, ya'ni jamiyat intellektual potentsiali faol foydalanish; informatsion xizmatlarning yuqori darajasini; ishonchli axborot manbaiga jamiyat a'zolarining foydalanish imkoniyati.

Umuman olganda, jamiyatni axborotlashtirish hamda kompyuterlashtirish farq qiladi. YA'ni, jamiyatni axborotlashtirish o'z ichiga asosan inson faoliyatining barcha ko'rinishlarida har tomonlama va o'z vaqtida bilim, ishonchli to'liq foydalanishni kompleks me'yoriga e'tibor qaratiladi.

Jamiyatni kompyuterlashtirishda asosan axborotni qayta ishlash va uni to'planishi hamda kompyuterning texnik bazasini rivojlantirish va ko'llanilishiga qaratiladi.

Axborotlashtirish bu sifat jihatidan yangi jamiyat (axborotlashgan jamiyat) barpo etish maqsadidagi intellektual-gumanistik qayta qurishdir. YA'ni, axborotlashtirish – global ijtimoiy jarayon bo'lib, uning asosiy xususiyati axborotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash, uzatish va foydalanishdir.

Axborotlashtirish jarayoni ziddiyatli xususiyatga ega bo'lgani uchun, uni baholashga nisbatan har xil yondashuvlar mavjud. Aksariyat hollarda uning ijobiy oqibatlari qayd etiladi, axborot vositalari nafaqat ishlab

chiqarish jarayonida, balki odamlarning kundalik hayotida, ularning o'zaro aloqalarida ham amal qilishi progressiv ahamiyatga ega ekani to'g'risida so'z yuritiladi. Jamiyatni siyosiy va hatto jismoniy sog'lomlashtirish yo'lini ko'pchilik axborotlashtirishda ko'radi.

Hozirgi kunda jamiyatni axborotlashtirish jarayoni ijtimoiy hayotning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa jihatlarini qamrab olmoqda. Shu ma'noda, axborotlashtirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda texnik-texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy va madaniy jihatlar uyg'unlikda olib boriladi. Bu jamiyatni shakllanishi jarayonida nafaqat ishlab chiqarish va texnologiyalar sohasida balki ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Axborotlashtirish jarayonining moddiy negizi – ishlab chiqarish, boshqaruv, ilm-fan, ta'lim va tarbiya hamda ijtimoiy va maishiy sohalarini kompyuterlashtirish va robotlashtirish asosida tashkil etadi. Hozirgi paytda axborot maydoni, kommunikatsiya vositalari zamonaviy jamiyat hayotiga o'zining jiddiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi zamon yangi texnika va texnologiyalarning tez rivojlanishi, turli axborotlar ko'lamining keskin ortib borishi bilan xarakterlanadi. Mana shunday ulkan axborot oqimida bo'lajak mutaxassis nafaqat o'zini yo'qotmasligi, balki ularga nisbatan tegishli ilmiy, mafkuraviy, g'oyaviy immunitet hosil qilgan bo'lishi lozim. Bunda axborotlarni faqat qabul qilish emas, balki ularni saqlash, uzatish va ulardan foydalanish madaniyati ham ko'zda tutiladi. Shuning uchun bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilimlarni egallash vazifasini qo'yimoqda.

Zamonaviy falsafiy til bilan aytganda, axborotning tez sur'atlar bilan ko'payishi, uni avtomatlashtirish usullarining rivojlantirilishi kompyuterlarning yaratilishiga va kishilar hayotining turli sohalarining kompyuterlashuviga olib keldi. Kompyuterlashtirish kishilik jamiyati rivojining navbatdagi yo'nalishi sifatida, hayotning qator sohalarida bo'lgani kabi, san'atda ham yuksak ravnaqni taqozo etmoqda.

N.Moiseyev jamiyatdagi bunday murakkab o'zgarishlarni tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladi: "Axborotlashgan jamiyatning qaror topishi bifurkatsion xususiyatga ega bo'ladi. YA'ni taraqqiyot asoslarining sifatii o'zgarishi, jamiyatdagi munosabatlarning ijtimoiy tabiati har qanday ijtimoiy injeneriyani rad etsa ham, kutilayotgan xavfdan ko'z

yumolmaymiz. Har qanday inqilobiy jarayon kabi axborotlashgan jamiyatga o'tish ham kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Muammo uning rivojini rejalashtirishda emas, balki salbiy oqibatlarning oldini olishda (bu rivojlanish yo'nalishining rejali, boshqariladigan yo'nalishidan farqi shunda). Hodisalarning xavfli tus olish ehtimoli katta. Buning uchun sayyoramizdagi axborot tizimlarining monopollashtirilishi va ayrim guruhdagi odamlarning g'arazli manfaatlariga bo'ysundirilish holatini ko'z oldimizga keltirsak yetarli bo'ladi. Mana shuning uchun ham axborotlashgan jamiyatning shakllanishi – butun insoniyatning jamoaviy muammosidir. Yana u BMT mummolarining doimiy ajralmas qismidir”¹.

Kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi axborotlashgan jamiyat nomini olgan jamiyatning rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Yaqin-yaqinlarda ham aksariyat faylasuf, iqtisodchi, siyosatshunos, jamiyatshunos va huquqshunos olimlarimiz axborotlashgan jamiyatni burjua nazariyotchilarining navbatdagi uydirmasi, deb tushunar edilar. Ularning maqsadi sinflar o'rtasidagi tafovutlarni yo'q qilib, sinflardan ustun turadigan yagona tarkib sifatida konvergatsiya qilish deb hisoblangan. Ammo axborotlashtirishni bunday talqin etish noto'g'ridir. Bunday jamiyatning ko'pchilik mehnatkashlari axborot yaratish sohasida faoliyat yuritadilar.

Hozirgi paytda mamlakatimizda axborotlashtirishning rivojlanish muammolarini aksariyat tadqiqotchilar va mutaxassislar G'arb axborotlashuv texnologiyalarining bizga berilishi, bizdagi hisoblash texnikasi, aloqa vositalari, tarmoqlar, ma'lumot va bilimlar banklari hamda ekspert tizimlarini, shuningdek boshqa tarkibiy unsurlarning G'arb andozalariga moslashuvi, deb tushunadilar. Shunga ko'ra, ular axborotlashtirishning maqsadini axborot jamiyati va muhitini barpo etish, shuningdek barcha texnologiyamiz va ishlab chiqarishimizning rivojlanishida oldinga tomon dadil va sifatli siljish uchun sharoitlar yaratishda deb bilishadi. Masalaning bunday qo'yilishi hamda ahvolning shu yo'sinda talqin etilishi, bir tomondan, tabiiydir.

Jamiyatning axborotlashtirilishida axborot tizimlari odamning kuchi, aql-idrokidan tortib, tabiat boyligigacha bo'lgan resurslarni himoya qiladi. Bunda mehnat unumdorligi bir necha marta ko'tariladi. Misol tariqasida bir o'qituvchi ta'limni takomillashtirish bo'yicha yangilik yaratdi, deylik. Uni hayotga tatbiq qilish uchun barchani malaka oshirishga chaqirib, ularni o'qitishga qanchadan-qancha vaqt, kuch sarflaydi. Shu ish axborot

¹ Моисеев Н. Информационное общество: возможность и реальность. – Москва: АСТ, 2004. – С.451.

tizimi yordamida zudlik bilan amalga oshiriladi, ya'ni kompyuter orqali juda tez tarqatish mumkin. Shu sababli ham "jamiyatni isloh etishda yangicha, zamonaviy fikrlovchi kishilarga tayanish hal qiluvchi omil"¹dir.

Haqiqatan ham, dunyoda kuch emas, aql-zakovat, fikr-g'oya kurash maydoniga chiqqaniga ancha bo'ldi. Endi har bir mamlakat o'z aqliy-ma'naviy salohiyatini qay darajada kamolga yetkazgani, undan qay darajada foydalanganiga qarab taraqqiy etadi. Shunday ekan, kimning qo'lida mo'l axborot bo'lsa, o'sha qudratlidir. Bu davr falsafasining asosiy belgilari tafakkur, nuqtai nazarlarning xilma-xilligi va rang-barangligi, oshkoralik, o'zgacha qarashlarga toqatililik va bir butun axborotlar tizimidan foydalanishning osonligi, qulayligi, tezligi kabi muhim omillardan iborat.

Axborotlashtirish jarayoni kishilik jamiyati dinamikasining navbatdagi yo'nalishi sifatida hayotning qator sohalarida yuksak ravnaqni taqozo etadi. Bu yo'nalishda maorif sohasida ham jiddiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Jumladan, fan inqilobi va axborotlashtirish tufayli o'qish, o'qitish ishlarining samaradorligini yanada oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

Iqtisodiyot sohasida ishlab chiqarish bilan xizmat ko'rsatish nisbatida birinchisining hisobiga ikkinchisining kengayishi ro'y bermoqda.

Siyosiy sohada ham axborotlashtirish jarayonlari tufayli jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Chunonchi, davlat hokimiyatining markazlashganligi barham topib, shaxsning erkinligi oshib bormoqda. Boshqa tomondan qaraganda, davlat markazlashganligining kuchsizlanishi axborotlarga egalik qilish natijalari bilan bog'liq.

Hozirgi zamonda axborotlar almashuvi shu qadar o'sganki, jamiyat axborotlashgan jamiyat deb atalmoqda. Axborotlar majmui eng muhim ishlab chiqarish zaxiralaridan biriga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishimizda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Agar barcha ko'rsatilgan jarayonlarni umumlashtirsak, bu sohadagi birinchi tendensiyaning quyidagicha ifodalash mumkin: axborotlashtirish faqat axborot hajmining o'sishiga – stansiya, tarmoqlar yaratilishiga, ma'lumot va bilimlar bazalarining barpo etilishi olib kelmaydi, balki prinsipial jihatdan mutlaqo yangi texnologiyalar (axborotlashuvdan boshqa), yangi madaniyat, jamiyatning yangi turiga yetaklaydi. Ikkinchi tendensiya – axborot va axborotlashtirish bugungi kunda axborot muhiti deb ataluvchi alohida muhitning paydo bo'lishiga ko'maklashmoqda. Axborotlashgan muhit uning ichida saqlanayotgan va harakatlanayotgan axborot nuqtai-

¹ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б.23-24.

nazaridan olib ko‘rilsa, muayyan insoniy maqsadlarga xizmat qiluvchi texnikaviy obyekt sifatida namoyon bo‘ladi, maqsadlar esa mazkur texnikaga nisbatan harakatning tashqi shart-sharoitlari vazifasini bajaradi.

Axborotlashtirish jarayoni muammolari haqida fikr yuritir ekanmiz, bir tomondan axborot va namunalarga o‘xshatish yo‘llari bilan ko‘chiriladigan (translyatsiya qilinadigan) “tajriba”, ikkinchi tomondan madaniyatning uch sohasini - san‘at, gumanitar bilimlar hamda aniq va texnik bilimlarni farqlashni bilishimiz zarur. Birinchi sohada axborot ahamiyatini ba’zi olimlar “o‘zgartirilgan (buyumlashgan va ijtimoiylashgan), o‘zi yaralgan bilimning o‘rnini bosolmaydigan” bilim shakli sifatida muhokama etsa, bu holda ushbu axborotning ahamiyati ancha past; ikkinchi sohada garchi “nisbatan og‘riqsiz axborotga aylanuvchi”, ammo “bu axborotdan foydalanish uchun undagi ilmni tiklash ancha mashaqqatli bo‘lib, keng va teran tajribaga tayanishni talab qiladi” va faqat uchinchi sohada “tajriba va axborot o‘rtasidagi o‘zaro munosabat axborotni ko‘chirish tomon siljiydi”¹.

Madaniyatimizda aylanayotgan bilim, ma’lumot va axborotlar nafaqat gumanitar yoki aniq bilim shaklida, balki mifologik, poeziya, diniy, g‘oyaviy, madaniy-diniy shakllarda ham mavjud. To‘g‘risini aytganda, shu va shunga o‘xshash bilimlarni axborot shakliga aylantirish jarayonida ma’nosi va tajribasiga putur yetkazmay tugal va to‘kis o‘tkazish mumkin emas.

Rivojlanishning uch miqyosdagi - jahon, milliy va mintaqaviy saviyasini birdek mutanosiblik (balans)da saqlab turish uchun jahon miqyosidagi rivojlanishga (kommunikatsiya vositalari, axborot texnologiyalari, intellektual ta’minot va kabi sohalarda) qo‘shilish natijasida bu jabhadagi milliy va mintaqaviy harakatlarni susaytirmaslik kerak. Aksincha, axborot sohasida mamlakat va uning olis burchaklaridagi rivojlanishning muayyan mustaqil yo‘nalishlari barcha mavjud kuchlar (moliyaviy, siyosiy, moddiy vositalar va boshqalar) tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi zarur.

Jamiyatimiz taraqqiyotining bugungi kundagi vazifalari, yo‘nalishlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, to‘liq asos bilan shuni ta’kidlash lozimki, globallashuv natijasida axborotlashuv jarayonlarining rivojlanishi inson, jamiyat va tabiat, evolyutsion-ekologik rivoji bilan dialektik birlik va ziddiyatli holatda bo‘ladi. Uning taraqqiyoti, bir tomondan, hozirgi zamon kishisining hayot faoliyatida barcha tomonlarni yaxshilash uchun

¹ Ладенко И.С., Шапиро Э.Л., Никаноров С.П. Освоение и развитие сферы интеллектуальных систем. – Новосибирск, 1988. – С.47.

juda katta imkoniyatlar yaratdi. Shu bois ham uning ta'siri ostida demografik vaziyat jiddiy ravishda o'zgardi. Bu o'zgarish jamiyatda insonlar o'limining kamayishi va o'rtacha umr ko'rishning uzayishi bilan tavsiflanadi.

Agar biz jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, axborotlashirish jarayonlari tibbiyotning barcha tarmoqlariga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganligini ham ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Jumladan, hozirda davolash-tashxis jarayonlari sifat jihatdan o'zgardi, kasalliklarning oldini olishning yangi usullari yaratildi, dori-darmonlar, biologik jihatdan faol moddalarning turlari ko'paydi, organizmni kuzatish va hayotni ta'minlashning zamonaviy avtomatik hamda o'zini-o'zi tartibga soladigan tizimlari yuzaga keldi, ichki organlarni ko'chirib o'tkazish, ularni protezlash imkoniyati tug'ildi. Mikroelektronika, kompyuter, EHM bilan jihozlangan zamonaviy apparatlardan foydalanish inson organizmida ro'y beradigan fiziologik va patologik jarayonlarga chuqur kirib borish imkonini berdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi o'zining murakkab qiyofasi bilan alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu jarayonni globallashuv va axborotlashuv kabi hodisalarning ta'siri bilan izohlashimiz mumkin. YA'ni, hozirgi kunda globallashuv va axborotning falsafiy qiymati tobora ortib bormoqda. Taraqqiyotning bunday komunikatsion texnologik imkoniyatlari kengayib borayotganligi yangi ilmiy munosabatlarda axborotning roli ortib borayotganligini bilan izohlash mumkin. Shuning uchun ham bir guruh ilmiy jamoatchilik munosabatlari doirasida "xalqaro axborotlashgan makon", "tarmoqli sivilizatsiyaning tug'ilishi", "tarmoqli paradigma", "tarmoqli davlat", "tarmoqli huquq"¹ kabi tushunchalar ishlatilmoqda. Bu tushunchalar o'ziga xos ilmiy-metodologik maqomga ega, chunki ularda axborotning turli ko'rinishlari, miqyosi va darajalari o'z ifodasini topgan.

Shuning uchun ham hozirgi davrda shakllanayotgan yangi falsafiy konsepsiyalarda globallashuv va axborotlashuv masalasini ilmiy-metodologik jihatdan tahlil qilishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Mazkur muammoga uning barcha tomonlarini ikir-chikirigacha tushungan holda nihoyatda zukkolik, o'ta samimiylilik va pok niyat bilan yondashishimiz axborotlashuv sohasidagi ko'pgina muammolarning oldini olishga imkon berdi. Bu jarayonda jamiyatning intelligensiya qatlamiga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar soha vakillarining ta'sir doirasiga

¹ Турышев А.А. Информация как признак составов преступлений в сфере экономической деятельности: Автореферат дисс. канд.юрид.наук. – Омск, 2006. – С.3.

biz yuqori baho beramiz. Chunki, ijtimoiy-gumanitar soha vakillari - faylasuflar, huquqshunoslar, tarixchilar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar, pedagoglar, psixologlar va boshqa ilg'or fikrli ziyolilarning axborotlashtirishni yuksak maqsadlar sari yo'naltirish va bunday axborotlarni omma orasida targ'ib-tashviq etish borasidagi ishlarning jamiyatimiz taraqqiyoti va inson kamoloti uchun ahamiyati beqiyosdir.

Shuning uchun ham olimlarimizning axborotlashtirishning ilmiy-metodologik masalalariga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar, risolalarni tayyorlashlari nafaqat o'quvchilarning, balki talaba yoshlarning, keng jamoatchilikning ongi va dunyoqarashiga ta'sir etib, axborotlashuvdagi mavjud kamchiliklar, nuqsonlarni bartaraf etishga, kishilarda yangicha tafakkurni shakllantirishga ko'maklashadi.

Muammoni tadqiq etish natijasida shunday xulosaga keldikki, bugungi kunda globallashuv va axborotlashtirish jarayonlarini ezgu insonparvar maqsadlarga yo'naltirish uslubiy yondashuvlarimizda jiddiy sifat o'zgarishlarini amalga oshirishni taqozo etmoqda. Shu o'rinda globallashuv va axborotlashuv jarayonlariga bog'liq ravishda olib borilayotgan konkret ijtimoiy obyektga nisbatan tanlanma (differensial) yondashuv ustuvor bo'lishi kerakligiga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Ana shundagina insoniyatni amalga oshirayotgan ishlarida yuqori samaraga erishish mumkin.

Falsafiy va sotsiologik tadqiqotlarda «axborotlashgan jamiyat» tushunchasi yangi jamiyat sifatida, ya'ni ijtimoiy taraqqiyotning zamona-viy postindustrial jamiyatga o'tishi va unda faoliyatning amalga oshishi axborotni uzatish va saqlashga bog'liq holda izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashtirish jarayonlarining darajasi va sifati jamiyatning rivojlanish darajasiga chambarchas bog'liq va aksincha, ya'ni jamiyatning rivojlanganlik darajasi axborotlashtirish darajasi bilan belgilanadi yoki jamiyat qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, uning doirasida shunchalik ilg'or axborot texnologiyalarini kundalik hayotda keng qo'llash imkoniyatlari yaratilgan bo'ladi.

3.2. Axborotlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari

Axborot olish va uzatishga bo'lgan ehtiyojlarning o'sganligi axborotlashtirish jarayonining asosiy omillaridan biridir. Binobarin, «axborot asri» deb nom olgan XXI asrda alohida olingan davlatlar va butun dunyoning kelajagini strategik resursiga aylangan axborotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Albatta, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida jamiyat muayyan shakl va hajmda axborot, bilim almashinuvi asosida rivojlanib kelgan.

Hozirgi paytda mamlakatimizda axborotlashtirishning rivojlanish muammolarini aksariyat tadqiqotchilar va mutaxassislar G'arb axborot texnologiyalarining bizdagi hisoblash texnikasi, aloqa vositalari, tarmoqlar, ma'lumot va bilimlar banklari hamda ekspert tizimlarini, shuningdek boshqa tarkibiy unsurlarning G'arb andozalariga moslashuvi, deb tushunadilar. Shunga ko'ra, ular axborotlashtirishning maqsadini axborot jamiyati va muhitini barpo etish, shuningdek barcha texnologiya va ishlab chiqarishning rivojlanishida oldinga tomon dadil va sifatli siljish uchun sharoitlar yaratishda deb bilishadi. Masalaning bunday qo'yilishi hamda ahvolning shu yo'sinda talqin etilishi, bir tomondan, tabiiydir.

Jamiyatning axborotlashtirilishida axborot tizimlari odamning kuchi, aql-idrokidan tortib, tabiat boyligigacha bo'lgan resurslarni himoya qiladi. Bunda mehnat unumdorligi bir necha marta ko'tariladi. Misol tariqasida bir o'qituvchi ta'limni takomillashtirish bo'yicha yangilik yaratdi, deylik. Uni hayotga tatbiq qilish uchun barchani malaka oshirishga chaqirib, ularni o'qitishga qanchadan-qancha vaqt, kuch sarflaydi. Shu ish axborot tizimi yordamida zudlik bilan amalga oshiriladi, ya'ni kompyuter orqali juda tez tarqatish mumkin.

Haqiqatan ham, dunyoda kuch emas, aql-zakovat, fikr-g'oya kurash maydoniga chiqqaniga ancha bo'ldi. Endi har bir mamlakat o'z aqliy-ma'naviy salohiyatini qay darajada kamolga yetkazgani, undan qay darajada foydalanganiga qarab taraqqiy etadi. Shunday ekan, kimning qo'lida mo'l axborot bo'lsa, o'sha qudratlidir. Bu davr falsafasining asosiy belgilari tafakkur, nuqtai nazarlarning xilma-xilligi va rang-barangligi, oshkoralik, o'zgacha qarashlarga toqatlilik va bir butun axborotlar tizimidan foydalanishning osonligi, qulayligi, tezligi kabi muhim omillardan iborat.

Xo'sh, axborotlashtirish nima? Ushbu jarayonning asosiy xususiyatlari nimada? Axborotlashtirish jarayonining ijobiy va salbiy tomonlari mavjudmi? Ushbu jarayonda axborot qanday ahamiyatga ega bo'ladi?

Bugungi kunda axborotlashtirish jarayonlari birinchidan, tashkiliy-huquqiy va moliyaviy; ikkinchidan, axborot va ma'lumotnoma bazalaridan foydalana olish imkoniyati; uchinchidan, barcha tahliliy xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish; to'rtinchidan, yangicha ish va tajriba almashish shakllarini o'zlashtirish, siyosatshunoslar, sotsiologlar faoliyatini muvofiqlashtirish; beshinchidan, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning siyosiy, mafkuraviy darajasini yuksaltirish; oltinchidan, raqobat-

bardoshlikni oshirish bilan bog'liq.

Axborotlashtirishning ahamiyati shundaki, unda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha sohalarida axborot va bilimlardan foydalanish samarali amalga oshadi; fuqarolar, tashkilotlar va davlatning axborot ehtiyojlarini qondirish, axborotlashgan jamiyatga o'tish uchun sharoitlar yaratiladi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Darhaqiqat, axborotlashtirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda texnik-texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy va madaniy jihatlar uyg'unlikda olib boriladi. Bu esa jamiyatni shakllanishi jarayonida nafaqat ishlab chiqarish va texnologiyalar sohasida balki ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Axborotlashtirish jarayoni kishilik jamiyatining navbatdagi yo'nalishi sifatida hayotning qator sohalarida yuksak ravnaqni taqozo etadi. Bu yo'nalishda maorif sohasida ham jiddiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Jumladan, fan inqilobi va axborotlashtirish tufayli o'qish, o'qitish ishlarining samaradorligini yanada oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

Iqtisodiyot sohasida ishlab chiqarish bilan xizmat ko'rsatish nisbatida birinchisining hisobiga ikkinchisining kengayishi ro'y bermoqda.

Axborotlashtirish jarayonidagi o'zgarishlar ommaviy ruhiyatda, ta'lim tizimida, har bir inson saviyasida o'z ifodasini topmoqda. Odatda, bu sohadagi o'zgarishlar boshqa soha o'zgarishlariga zamin tayyorlaydi. Shuningdek, bunday o'zgarishlarni dastavval fanning yangi ratsional ko'rinishlarida hayot va inson haqidagi tarmog'i bo'lgan biologiyada shakllanayotganini ko'rishimiz mumkin. Chunki, dastlab mikroorganizmlarga tatbiqan shakllangan gen injeneriyasida hozirgi vaqtda inson genomi, irsiylikning genetik kodi masalalari yangi texnologiyalar va fandagi axborotlar asosida jiddiy o'rganilmoqda.

Ilmiy ijodiyot metodologiyasi nuqtai-nazaridan olib qaraganda, ilmiy tadqiqotlar doirasiga iqtidorli kishilarning o'ta sezgirlik qobiliyati hamda biomaydonini o'rganishga kirishilayotganligi ma'lum bo'lsa, ontologik jihatdan esa olamning kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlariga, koinot jarayonlarining kishilar hayotiga ta'siriga oid masalalar bo'yicha ham yangicha nuqtai nazarlar shakllanmoqda. Misol uchun V.Vernadskiyning noosfera konsepsiyasini olib qarashimiz mumkin¹.

Siyosiy sohada ham axborotlashtirish jarayonlari tufayli jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Chunonchi, davlat hokimiyatining markazlashganligi barham topib, shaxsning erkinligi oshib bormoqda. Boshqa tomondan

¹ Вернадский В. Живое вещество. – М.: Наука, 1978. – С.359.

qaraganda, davlat markazlashganligining kuchsizlanishi axborotlarga egalik qilish natijalari bilan bog'liq.

Hozirgi sharoitda esa xalqaro voqealarning asl maqsadi va mohiyatini aniqlash nihoyatda mushkul. Ayniqsa, bu mafkuraviy xarakterga ega bo'lgan xalqaro voqealarning maqsadi va yo'nalishini aniqlashda ko'rinadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ko'proq kuchga egaligini ta'kidlar ekan, "agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiq, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin"¹, - deydi.

Ikkinchidan, postindustrial inqilob, urbanizatsiya, axborotlashtirish, globallashuv jarayonlari foyda ketidan quvadigan, asosan moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladiganlarni vujudga keltirdiki, bunday kishilar o'z maqsadlari yo'lida har qanday afsonayu g'oyani ham qo'llab-quvvatlashga qodirdirlar. Bunday holat mamlakat xavfsizligiga beqiyos tahdid solishi tabiiydir.

Shuni ta'kidlash kerakki, axborotlashtirish jarayonlarining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin: xabarni uzatish tezligining ortishi; axborot uzatish hajmi oshishi; axborotni qayta ishlash tezlashgan; qaytuvchi aloqaning to'liq foydalanilishi; yangi axborot olish hajmi o'sishi va joriy etishning tezlashishi; mehnatni boshqarish texnik uskunalarining o'sishi.

Axborotlashtirish jarayonlarini intellektual jihatdan ta'minlash undan ham muhimroq bo'lib, quyidagilarni talab etadi: axborotlashtirish siyosatini yuritish, axborotlashtirish loyihalarini ishlab chiqish, axborotlashtirish sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ishlab chiqarishlar o'quv dasturlari tayyorlash va h.k.

Axborotlashtirish sohasidagi siyosat ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlar va axborotlashtirishning zaminini, asosini yaratishga ko'maklashishi kerak. Buning uchun mamlakatdagi modernizatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash zarur.

Axborotlashtirish jarayonlari insoniyat taraqqiyotida muhim hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Tabiat bilan insoniyat jamiyati o'rtasida, shuningdek insoniyat jamiyatining o'zida o'zaro axborot almashuvi mavjud bo'lmaganda, u taraqqiy qilmagan va hozirgi darajaga erishmagan bo'lardi. Hayot mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun moddiy vositalar bilan bir qatorda axborot ham zarur. Insoniyatning taraqqiyot darajasi

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т.8. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 86-Б.

qanchalik yuqori bo'lsa, uning hayotida axborot shunchalik katta o'rin egallaydi. Bizningcha, jamiyatda axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda mazkur masalalarga doir mummolarning oldini olish, shuningdek, axborotlashtirish jarayonini ilmiy-metodologik jihatdan ko'proq o'rganish ushbu faoliyatning yo'naltiruvchi asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda quyidagi masalalarni hal etishga to'g'ri keladi:

- * samarali xalqaro axborot almashuvlarini yo'lga qo'yish, barcha davlatlarning milliy axborot tizimini hisobga olgan holda axborot bilan ta'minlash darajasini yuksaltirish va axborot xavfsizligi tizimini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlarni tashkil etish.

- * O'zbekistonning milliy axborot tizimini, o'zi tanlagan ijtimoiy-iqtisodiy yo'lining huquqiy kafolatlarini amalda ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va bunda xalqaro axborot almashinuvi munosabatlarini mafkurasizlashtirish.

- * axborotlarning insonparvarlik asosiga ega bo'lishida inson huquqlari kafolatlarini ta'minlashning xalqaro tizimini takomillashtirish, xalqlar o'rtasida axborot ayriboshlashda o'zaro ishonch va hamkorlik rishtalarini mustahkamlash. Bunda xalqaro axborot ayriboshlash va axborot texnologiyalarini hamkorlikda takomillashtirishga oid meyoriy xujjatlarni amaliy hayotda qaror toptirish talab qilinadi.

- * O'zbekistonda axborotlashtirish jarayonlarini tez sur'atlarda davom ettirishda milliy axborot xavfsizligini ta'minlash, global axborot tizimi siyosatining ustuvor vazifalari qatorida kata ahamiyat kasb etadi.

Axborotlashtirishning samarali rivoji uchun mamlakatimizda zamonaviy axborotlashgan texnologiyalar yaratilishi, zarur shart-sharoitlar yaratish, xorijiy kompyuterlar va boshqa vositalar sotib olinishi kerak. Shunga qaramay, yangi mutaxassislarni tayyorlash, keng ko'lamda kompyuter savodxonligini yoyish, mavjud mutaxassislarni qayta tayyorlash alohida ahamiyatga molikdir. Ilmiy-texnik infratuzilmani rivojlantirish zarur: masalan, aloqa va kommunikatsiyalar tizimlari, bu tizimlarga xizmat ko'rsatuvchi ilmiy tekshirish hamda muhandislik markazlari va firmalarini kuchaytirish kerak.

Axborotlashtirish sohasida refleksiyaning barcha shakllari ko'payishi, unda paydo bo'layotgan muammolarni tushunish va his qilish ham ahamiyati jihatdan boshqalaridan qolishmaydigan tendensiyadir. Misol uchun ikki muhim muammoni tilga olamiz. Birinchi muammo – axborotni qayta ishlash va hisob-kitoblar uchun shunchaki mashinalar yaratish emas, balki sun'iy intellekt yaratishdir.

Intellekt deb ataluvchi va aslida bilimlarning yashash shakli bo'lmish zehn, aql-idrok, farosat mazkur resursdan bahramand bo'lish imkoniyatini ko'paytirib hamda kamaytirib turuvchi omildir. Shuning uchun ham sara bilimlar an'anaviy hokimiyat qurilmalariga aloqasi bo'lmagan tor doiradagi odamlar qo'lida to'planadi. Shuning uchun ham axborotlashayotgan jamiyatda bilim eng asosiy qadriyatdir. Bilim – o'lmas mulk. Bu sivilizatsiyaning asosiy yo'lidir. Aytaylik, iqtisodimiz va hukumatimiz inqirozga yuz tutsa ham biz bilimga muhtojmiz. Demak, jamiyatni axborotlashtirishning rivojlanishida an'anaviy hokimiyatning inqirozga uchrashi aslo g'ov-to'siq bo'lolmaydi.

Mashina qanchalik original va murakkab bo'lmasin, hatto neyron tarmoqlarning ish prinsiplarini takrorlay olsa va axborotga parallel ravishda ishlov berish asosida harakatlansa-da, baribir, u aql-idrok kabi bo'lolmaydi. Juda borsa, kompyuter matnidan yulib olingan alohida operatsiyalarni takrorlay oladi.

Bugungi kunda asosiy izlanishlar vizual obrazlar va bilimlar bilan ishlashga imkoniyat beradigan moslama, aqida va dasturlarni ishlab chiqarish tomon bormoqda. Birinchi holat ham, ikkinchisi ham axborotni oddiygina kodlashtirish (shartli belgi) yoki uni tushunarli holatga (dekodlashtirish) keltirish, jarayonlarni algoritmlashtirish bilan cheklanmasdan, balki mashina vositasida tushunish, o'qish, idrok etish prinsiplarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ikkinchi muammo – bilim bazasini, kengroq qilib olganda – bilimlar bilan ishlay oladigan, ya'ni ularning (kerakligini) ajratib, klassifikatsiya qilib, o'zgartirib qayta tuzadigan, ma'nosiga deyarli putur yetkazmasdan kodlashtiradigan, bilimlar kontekstlari va ulardan foydalanish uchun asosiy yo'llarini kodlashtiradigan, mashinada ishlov berilgan bilimlarni tabiiy, tushunarli shaklga keltiruvchi mashinalar tizimini yaratish zarur. Bu vazifani tamoyillar orqali amalga oshirish mumkinmi? Axir, real bilim nafaqat ma'no, mazmun, balki maqsadga ham ega, talay kontekstlar va foydalanish sohalaridan iborat, rivojlangan holda u bilim nazariyaga jamlanadi, falsafa va metodologiyaga joylashadi, o'ziga xos tarzda amal qiladi.

“Bilimlar bo'yicha muhandisning asosiy vazifasi, - deb yozadi Y.A.Shreyder, - matnda (yoki kompyuter xotirasida) noaniq havoyi bilimning aniq tasavvurini tiklashdir. Bu yerda kommunikatsiya fenomenining ma'nosi matnda tasavvur etilishi qiyin bo'lgan mazmunning aynan o'zidek qilib ifoda etish emas, balki ongning matnda idrok qilinishi qiyin bo'lgan

qandaydir yo‘nalishlarini berishda matndan foydalanishdir»¹. Haqiqatan, bilvosita kommunikatsiyada matn tashqi reallik parchasini bildiruvchi belgi sifatida emas, balki ongning muayyan yo‘nalishlariga ishora etuvchi sifatida ishlatiladi.

Ammo yana bir holat borki, u ham bo‘lsa ruhiy tilshunoslikka oiddir. Gap shundaki, madaniyatning aralash-quralashligi, baland-pastligi unda aylanayotgan axborotlar – ma’lumot, bilim, tasavvurlarning madaniy nojipsligini keltirib chiqaradi. Xo‘sh, bu ahvolda umuman axborotning xolisligi va jamiyatning axborotlashtirilishi haqida fikr yuritish joizmi?

Axborotlashtirish jarayoni muammolari haqida fikr yuritar ekanmiz, bir tomondan axborot va namunalarga o‘xshatish yo‘llari bilan ko‘chiriladigan (translyatsiya qilinadigan) “tajriba”, ikkinchi tomondan madaniyatning uch sohasini - san‘at, gumanitar bilimlar hamda aniq va texnik bilimlarni farqlashni bilishimiz zarur. Birinchi sohada axborot ahamiyatini ba’zi olimlar “o‘zgartirilgan (buyumlashgan va ijtimoiylashgan), o‘zi yaralgan bilimning o‘rnini bosolmaydigan” bilim shakli sifatida muhokama etsa, bu holda ushbu axborotning ahamiyati ancha past; ikkinchi sohada garchi “nisbatan og‘riqsiz axborotga aylanuvchi”, ammo “bu axborotdan foydalanish uchun undagi ilmni tiklash ancha mashaqqatli bo‘lib, keng va teran tajribaga tayanishni talab qiladi” va faqat uchinchi sohada “tajriba va axborot o‘rtasidagi o‘zaro munosabat axborotni ko‘chirish tomon siljiydi”².

Madaniyatimizda aylanayotgan bilim, ma’lumot va axborotlar nafaqat gumanitar yoki aniq bilim shaklida, balki mifologik, poeziya, diniy, g‘oyaviy, madaniy-diniy shakllarda ham mavjud. To‘g‘risini aytganda, shu va shunga o‘xshash bilimlarni axborot shakliga aylantirish jarayonida ma’nosi va tajribasiga putur yetkazmay tugal va to‘kis o‘tkazish mumkin emas.

Federiko Mayorning fikricha, “gap-so‘zsiz iqrор bo‘lishga undovchi muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda, mehnat qurollari va texnoindustriya mahsulotlarining import qilinishi (ko‘pincha majburan) madaniyatga zavol yetkazishini ko‘rsatuvchi ko‘pgina misollarni keltirish mumkin”³. Umuman olganda, rivojlanayotgan mamlakatlarga bunday zo‘rma-zo‘raki axborotni tiqishtirish, shuningdek ongli ravishda begona madaniy

¹ Шрейдер Ю.А. Информатизация и культура: аналитический обзор. – М., 1991. – С.43.

² Ладенко И.С., Шапиро Э.Л., Никаноров С.П. Освоение и развитие сферы интеллектуальных систем. – Новосибирск, 1988. – С. 47.

³ Майор Ф. Завтра всегда поздно. – М., – С.67.

qadriyatlarni majburan qabul qildirish undan ham battar oqibatlarni keltirib chiqaradi.

“Milliy tadqiqotlarni rag‘batlantirish, - deb yozadi F.Mayor, - resurslardan oqilona foydalanish, davlat va xususiy sektorlari harakatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek jalb etilgan mablag‘larning samaradorligini ko‘tarishga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgarishlar texnologik balansning salbiy saldosiga qarshi qalqon bo‘la oladi”¹.

Rivojlanishning uch miqyosdagi - jahon, milliy va mintaqaviy saviyasini birdek mutanosiblik (balans)da saqlab turish uchun jahon miqyosidagi rivojlanishga (kommunikatsiya vositalari, axborot texnologiyalari, intellektual ta‘minot va kabi sohalarda) qo‘shilish natijasida bu jabhadagi milliy va mintaqaviy harakatlarni susaytirmaslik kerak. Aksincha, axborot sohasida mamlakat va uning olis burchaklaridagi rivojlanishning muayyan mustaqil yo‘nalishlari barcha mavjud kuchlar (moliyaviy, siyosiy, moddiy vositalar va boshqalar) tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi zarur.

F.Mayor balans haqida so‘z yuritar ekan, unda obdon o‘ylab qilingan tadbirlarning mushtarakligini, uyg‘unligini nazarda tutadi. Masalan, chet el axborotlashgan texnologiyalarini uzatish, axborotlashtirish sohasidagi muayyan milliy va regional tadqiqotlarni rag‘batlantirish, qo‘shma korxona va firmalar yaratish, chet el firmalari va universitetlarida kadrlarni o‘qitish, kompyuter savodxonligi milliy rejasini yaratish, jahon miqyosidagi informatsiyaning rivojiga qarab yo‘l tutish, axborotlashuv sohasida milliy hamda mintaqaviy konsepsiya va modellar yaratish va h.k.

Rivojlanishning barcha asosiy bosqichlarini bosib o‘tish zaruratini A.Rakitov «kompyuter va telekommunikatsiya industriyasiga suyanishga majbur ekanligini hisobga olsak, oldimizda turgan vazifalarni uddalab hal qilishimiz uchun zarur bo‘lgan barcha amaliyot va nazariy metodlarni har tomonlama obdon o‘ylab, yaxshilab anglab olishimizda»², deb biladi. Bu yerda gap nafaqat kompyuter va telekommunikatsiya industriyasi haqida balki bunday industriyaga havodek zarur bo‘lgan ijtimoiy-madaniy sharoitlar, turli-tuman infratuzilmalar haqida ham bormoqda.

Bizningcha, yangi kompyuter texnikasini yaratish bilan ish bitmaydi, chunki albatta muayyan iqtisodiy tuzilmalarni (bozor munosabatlari, kredit tizimi, birja va h.k.) yaratish, bir qator ijtimoiy va madaniy munosabatlarni o‘zgartirish (faoliyatni tashkillashtirishning yangi turlariga o‘tish, yangi

¹ O‘sha asar. – C.47.

² Ракитов А.И. Информатизация: состояние, структура, перспективы // Перспективы информатизации общества. – М., 1990. – С.21.

ratsionallikni joriy etish, madaniyat muassasalarini yangicha tashkil qilish), odamlar ongi va salohiyatini yangilash zarur. Modomiki, bu kabi barcha o'zgarishlar va rivojlanish bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'liq ekan, organik rivojlanishning qaysidir pog'onalarini bosmasdan o'tish amrimaholdir. To'g'ri, bu jarayonlar sal o'zgacha va balki tezroq yuz berishi mumkin. Ammo ularning barchasini bosib o'tishga to'g'ri keladi, chunki hozirgi zamon tamaddunga olib boruvchi keng ko'chalar yo'q.

Jamiyatimiz taraqqiyotining bugungi kundagi vazifalari, yo'nalishlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, to'liq asos bilan shuni ta'kidlash lozimki, globallashuv natijasida axborotlashuv jarayonlarining rivojlanishi inson, jamiyat va tabiat, evolyutsion-ekologik rivoji bilan dialektik birlik va ziddiyatli holatda bo'ladi. Uning taraqqiyoti, bir tomondan, hozirgi zamon kishisining hayot faoliyatida barcha tomonlarni yaxshilash uchun juda katta imkoniyatlar yaratdi. Shu bois ham uning ta'siri ostida demografik vaziyat jiddiy ravishda o'zgardi. Bu o'zgarish jamiyatda insonlar o'limining kamayishi va o'rtacha umr ko'rishning uzayishi bilan tavsiflanadi.

Agar biz jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, axborotlash-tirish jarayonlari tibbiyotning barcha tarmoqlariga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganligini ham ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Jumladan, hozirda davolash-tashxis jarayonlari sifat jihatdan o'zgardi, kasalliklarning oldini olishning yangi usullari yaratildi, dori-darmonlar, biologik jihatdan faol moddalarning turlari ko'paydi, organizmni kuzatish va hayotni ta'minlashning zamonaviy avtomatik hamda o'zini-o'zi tartibga soladigan tizimlari yuzaga keldi, ichki organlarni ko'chirib o'tkazish, ularni protezlash imkoniyati tug'ildi. Mikroelektronika, kompyuter, EHM bilan jihozlangan zamonaviy apparatlardan foydalanish inson organizmida ro'y beradigan fiziologik va patologik jarayonlarga chuqur kirib borish imkonini berdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi o'zining murakkab qiyofasi bilan alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu jarayonni globallashuv va axborotlashuv kabi hodisalarning ta'siri bilan izohlashimiz mumkin. YA'ni, hozirgi kunda globallashuv va axborotning falsafiy qiymati tobora ortib bormoqda. Taraqqiyotning bunday kommunikatsion texnologik imkoniyatlari kengayib borayotganligi yangi ilmiy munosabatlarda axborotning roli ortib borayotganligini bilan izohlash mumkin. Shuning uchun ham bir guruh ilmiy jamoatchilik munosabatlari doirasida "xalqaro axborotlashgan makon", "tarmoqli sivilizatsiyaning tug'ilishi", "tarmoqli paradigma", "tarmoqli davlat",

“tarmoqli huquq”¹ kabi tushunchalar ishlatilmoqda. Bu tushunchalar o‘ziga xos ilmiy-metodologik maqomga ega, chunki ularda axborotning turli ko‘rinishlari, miqyosi va darajalari o‘z ifodasini topgan.

Shuning uchun ham hozirgi davrda shakllanayotgan yangi falsafiy konsepsiyalarda globallashuv va axborotlashuv masalasini ilmiy-metodologik jihatdan tahlil qilishga jiddiy e‘tibor berilmoqda. Mazkur muammoga uning barcha tomonlarini ikir-chikirigacha tushungan holda nihoyatda zukkolik, o‘ta samimiylik va pok niyat bilan yondashishimiz axborotlashuv sohasidagi ko‘pgina muammolarning oldini olishga imkon berdi. Bu jarayonda jamiyatning intelligensiya qatlamiga katta mas‘uliyat yuklatiladi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar soha vakillarining ta’sir doirasiga biz yuqori baho beramiz. Chunki, ijtimoiy-gumanitar soha vakillari - faylasuflar, huquqshunoslar, tarixchilar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar, pedagoglar, psixologlar va boshqa ilg‘or fikrli ziyolilarning axborotlashtirishni yuksak maqsadlar sari yo‘naltirish va bunday axborotlarni omma orasida targ‘ib-tashviq etish borasidagi ishlarning jamiyatimiz taraqqiyoti va inson kamoloti uchun ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun ham olimlarimizning axborotlashtirishning ilmiy-metodologik masalalariga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, risolalarni tayyorlashlari nafaqat o‘quvchilarning, balki talaba yoshlarning, keng jamoatchilikning ongi va dunyoqarashiga ta’sir etib, axborotlashuvdagi mavjud kamchiliklar, nuqsonlarni bartaraf etishga, kishilarda yangicha tafakkurni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Muammoni tadqiq etish natijasida shunday xulosaga keldikki, bugungi kunda globallashuv va axborotlashtirish jarayonlarini ezgu insonparvar maqsadlarga yo‘naltirish uslubiy yondashuvlarimizda jiddiy sifat o‘zgarishlarini amalga oshirishni taqozo etmoqda. Shu o‘rinda globallashuv va axborotlashuv jarayonlariga bog‘liq ravishda olib borilayotgan konkret ijtimoiy obyektga nisbatan tanlanma (differensial) yondashuv ustuvor bo‘lishi kerakligiga alohida e‘tibor qaratmoq lozim. Ana shundagina insoniyatni amalga oshirayotgan ishlarida yuqori samaraga erishish mumkin.

Keyingi yillarda axborot texnologiyalarining inson hayotiga ta’siri kuchayib bormoqda. Inson kognitiv (xotira, idrok, tafakkur, tushunish, qaror qabul qilish) jarayonlariga, ayniqsa, yoshlarning kognitivligiga qanday ta’sir etishini tadqiq etish eng dolzarb bo‘lgan fanlararo muammodir. Ma’lumki, kognitivlik shaxsning bilish jarayonidagi qobiliyati bo‘lib, u shaxs intellektual imkoniyatlarining asosini tashkil

¹ Турышев А.А. Информация как признак составов преступлений в сфере экономической деятельности. Автореферат дисс. канд.юрид.наук. – Омск, 2006. – С.3.

etadi. Yangiliklarni idrok etish va ularni moddiylashtirish kognitiv qobiliyat bilan bog'liqlikda sodir bo'ladi. Kognitivlikning asosiy mazmunini yangi bilimlarni ishlab chiqara olish tashkil etadi. Kognitologik tafakkur bilish jarayonida dalillanganlik, mantiqiy asoslanganlik, mustaqil va tanqidiy fikrlashga, ya'ni refleksiyaga asoslanadi.

Shu sababli bu muammo bugungi kunda juda ko'plab olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Masalan, Oksford universitetidagi kelajakdagi tafakkur institutida S.Grinfild rahbarligida (Oxford University's Institute for the Future of the Mind)¹, shuningdek, Stenford universitetining inson va interaktiv media kommunikatsiyasi nomli laboratoriyasida fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Respublikamizdagi Falsafa ilmiy markazida ham kognitivlik muammosini o'rganishga dastlabki qadamlar qo'yilmoqda.

Xo'sh nima uchun inson, yoshlarning kognitiv xususiyatlariga e'tibor ortib bormoqda? Bunga sabab axborot texnologiyalarining inson organizmi va tafakkurga bo'lgan salbiy ta'siri haqidagi ma'lumotlarning paydo bo'lishidir. Ma'lumotlarga murojat etadigan bo'lsak, 1980 yildan keyin tavallud etgan insonlarning psixikasida shu yilgacha tug'ilgan insonlarga qaraganda ancha tafovutlar kuzatilgan. Ularning tili ham o'zgacharoq, Ularning juda ko'pchiligi bir soatlik ko'rsatuvni oxirigacha ko'ra olmasligi kuzatilgan. Shuningdek, ularning ko'pchiligida diqqatni jamlay olmaslik uchraydi va bu holat mazkur avlodning sindromi hisoblanmoqda². Bu o'z navbatida ta'lim tizimining ham "raqamli avlod" talabiga ko'ra o'zgartirishni kun talabiga ko'ymoqda.

Shuningdek, bu avlodga axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga oid treninglar o'tkazish ham zarurligi olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Mutaxassislar fikriga ko'ra, bunday kognitiv o'zgarishlarga sabab birinchidan, bugungi kunda axborot miqdorining tobora ko'payib borayotganligi va kommunikatsiyadagi yangilanishlardir³. YA'ni gipertekstning paydo bo'lishi natijasida inson rizoma shaklidagi matn bilan ishlashiga to'g'ri kelmoqda.

Ikkinchi sabab axborot oqimining kuchayib borishidir. Masalan, bir oy davomida inson shunchalik axborotni qayta ishlar ekanki, XVIII asrda yashagan inson bu axborotni butun umri davomida qayta ishlagan ekan.

¹ The Institute for the Future of the Mind. – URL: <http://www.futuremind.ox.ac.uk/>

² Эрнст К. Когда говорят, что интернет убьет телевидение, это глупость // Коммерсантъ. № 192. 2011. 13 октября. – Режим доступа: <http://www.kommersant.ru/doc/1793394>

³ Лысак И.В., Белов Д.П. Влияние информационно-коммуникационных технологий на особенности когнитивных процессов // Известия ЮФУ. Технические науки. 2013. № 5. -С. 256–264.

Shuningdek, axborotlar oqimining ortib borayotganligi yana shunda ko‘rinadiki, faqat Facebook ijtimoiy tarmog‘ida bir oyda 30 mlrd ga yaqin yangi axborot manbalari taqdim etiladi. Internet saytlarning miqdori ham ortib bormoqda. Agar ular 2007 yilda 105 mln ga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, 2013 yilning fevralida ularning soni Netcraft kompaniyasining ma‘lumotlariga ko‘ra, 630 mln dan ortgan. Ma‘lumotlar har ikki yilda ikki baravarga ortib bormoqda va bu holat 2020 yilgacha kuzatilar ekan. Biroq olimlarning fikriga ko‘ra, mazkur ma‘lumotlar oqimida foydali axborotlar miqdori 35% nigina tashkil etar ekan, xolos¹.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda insonning faolligi, uning bilimi asosiy resurs ekan, kognitivlik muammosini falsafiy tadqiq etish, yoshlarimizning bilish jarayonidagi muammolarini o‘rganish eng muhim va dolzarb vazifadir.

Ammo erishilgan ijobiy natijalarga qaramay, axborotlashtirish va kompyuter texnologiyalarining rivoji respublikaning o‘sib borayotgan talablari darajasida emas. Masalan, telefon apparatlarining zichligi ko‘rsatkichi (100 kishiga o‘rtacha 6,7 ta) bo‘yicha O‘zbekiston MDH davlatlari doirasida tuzilgan “Aloqa sohasidagi regional hamkorlik”ning 12 ta a‘zosi ichida oxirgi o‘rinni, har bir kishiga to‘g‘ri keladigan shaharlararo so‘zlashuvlar soni bo‘yicha 11-o‘rinni, pochta jo‘natmalari bo‘yicha 9-o‘rinni egallaydi².

Internet tizimining hayotimizga kirib kelish darajasi respublikaning barcha hududlarida bir xil emas. O‘zbekistonda qabul qilingan axborotlashtirish qonunlari jahon standartlariga ko‘p jihatdan mos keladi. Biroq ular amalda namoyon bo‘lmayapti. Ammo sarhisob qilinganida hali bu borada ba‘zi masalalar tugal yechimini topmaganligi, Davlat dasturining ijrosini ta‘minlash bo‘yicha joylarda sustkashliklarga yo‘l qo‘yilayotganligi ayon bo‘lmoqda. Masalan, ma‘lumotlarga ko‘ra, “.UZ” domenida ro‘yxatdan o‘tgan veb saytlar soni ayni paytda 3000dan oshgan. Bu raqamlar juda tez o‘sib borayotgani nazarda tutilsa, ko‘rsatkich ijobiydek tuyulishi mumkin. Biroq ayrim korxona va tashkilotlar rahbarlarining veb-sayt yaratishga befarq qarashlari, buning uchun juda katta mablag‘ zarur bo‘ladi, deb o‘ylashlari va eskicha ish yuritishdan voz kecha olmayotganlari bu masalaning e‘tibordan chetda qolishiga sabab bo‘lyapti. Buning ustiga saytlarning davlat tilida yuritilmasligi va yangiliklar bilan muntazam to‘ldirib borilmasligi singari muammolarni

¹ Постолатий В. BigData шагает по планете // Российская бизнес-газета: Инновации. №896, 2013. 14 мая: <http://www.rg.ru/2013/05/14/inf-site.html>.

² Жамият кўзгуси. – Т.: Академия, 2005. – 39-Б.

ham kiritish mumkin. Respublikamizda mingdan ortiq gazeta va jurnallar, o‘nlab radio va telestudiyalar mavjud bo‘lsada, ularning sanoqlilarigina Internetda o‘z manzillariga ega.

Hozirgi sharoitda axborot texnologiyasi iste’molchilari sifatida birinchi o‘ringa banklar va bank-moliya tizimlari chiqmoqda (ma’lumotlarga ko‘ra 90-yillarning boshlarida axborot-kompyuter vositalarining 30 foizi ularga tegishli edi). Qog‘oz hujjatlar hamma joyda elektron yozuv tizimi tomonidan chetga surib chiqarilmoqda. Ammo yangi texnologiyadan nafaqat bank tizimining ishini tubdan yaxshilashda, balki mablag‘larni o‘zlashtirishda ham foydalanilmoqda.

Axborotlashtirishning salbiy oqibatlarini ham hisobga olish hamda tahlil va tadqiq etish zarur. Kompyuterlashtirish shunday oqibatlarga olib keladiki, bo‘sh vaqt, shaxsiy hayot, xulq-atvor, kayfiyat va boshqa barcha insoniy ko‘rinishlar beayov, rahm-shafqatsiz ravishda va zo‘ravonlik bilan bir qolipga solinadi. “Eng yangi axborotlashuv texnikasi, - deb yozadi N.S.Myullert, - nafaqat har bir insonni diqqat markaziga olish, balki har bir insonni hayot, faoliyat, tafakkur doirasidan chiqarib tashlash imkoniyatini beradi. Uning vositasida butun jamiyatni, qolaversa, har bir insonni ipsiz o‘rab-chirmab olish, jism-joni va ruhi, ongi, tafakkuri ustidan hukmronlik qilish imkoniyati paydo bo‘lishi kundek ravshan”.

Kompyuterlashtirish tufayli alohida olingan insonning shaxsiy hayotiga kirib borish imkoniyati yaratiladi, ishsizlik yuzaga keladi, axborotlashtirishning o‘z mantig‘ga binoan umumiy ratsionalizm paydo bo‘ladi. Ma’rifat yo‘lidagi bilimni hukmronlik sifatidagi bilim bilan aslo adashtirib qo‘yish mumkin emas. Bu yo‘sindagi ziddiyat hukmronlik beruvchi bilim ishlab chiqarishni oshira borib, tabiatga zarar yetkazishi, zo‘r berib qurollanishga, ishsizlikka olib kelishi mumkin¹.

K.Xessing “Kompyuterdan qo‘rqishmi?”, deb nomlangan maqolasida sanab o‘tgan axborotlashtirishning salbiy oqibatlari orasida “odamning avtomatlashuvi”, “standartlashuvi”, “axborotning seroblighi”, “bilimning kazo-kazolar qo‘liga o‘tishi”, “bilimning kasofati bilan hukmdorlarning zo‘rayishi”, “aksariyat kasb-korlar zavol topishi”, “jamlanishga intilish”, “o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi”, “katta tizimlarga zarar yetkazishning osonligi” kabilarga e’tiborga molik.

Y.A.Shreyder “kompyuter sindromi”ni axborotlashtirishning salbiy oqibati deb biladi. “Kompyuterning sun’iy olami, -deb yozadi muallif², -

¹ Ракитов А.И. Информатизация: состояние, структура, перспективы // Перспективы информатизации общества. – М., 1990. – С.64–65.

² Шрейдер Ю.А. Информатизация и культура: аналитический обзор. – М., 1991. – С.61.

chinakam hayot bilan qat'iy to'qnashuv, ziddiyatlar bo'lmagani oqibatida insonning talay da'vo-talablarini go'yo qoniqtirgandek bo'ladi, hatto kompyuter bilan o'zaro aloqa bog'lab (interfeys) o'zining "men"ni mangulikka daxldordek qilib ko'rsata oladi. Bu yerdagi xavf-hatar aynan kompyuter olami chinakam hayotga o'xshashligidadir. Bu o'xshashlik chinakam hayot bilan aloqasini yo'qqa chiqaradi va voqelikning mezonlaridan adashtiradi.

Axborotlashtirishning salbiy oqibatlari haqida gap yuritilganda tilga olingan "salbiy oqibatlar" iborasi qat'iy ta'rif-tavsif emas, balki tahlil natijasida yuzaga kelgan shunchaki izohlovchi nom ekanini esda tutish kerak. Masalan, ma'lumki, axborotlashtirish, bir tomondan, ba'zi bir kasb-korlarni yo'qqa chiqarib, barham bersa, ikkinchi tomondan, yangi kasblarga ehtiyojlarni tug'diradi¹. Shuningdek, kompyuterlashtirish ratsionallikning yangi turi shakllanishiga, xususan, odamni yana ko'proq «texnosfera» unsuri (ya'ni Xaydegger iborasi bilan aytganda "postav" Yestell)ga aylantiradi. Ammo, shu bilan birga, har bir davlat axborotlashtirish sohasida jahon mehnat taqsimotiga kirish hamda mustaqil rivojlanish masalalarini o'z ichiga uyg'un holda olgan mustaqil siyosatini ishlab chiqishi zarurligi o'z-o'zidan ayon bo'lmoqda.

"Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, - deb yozadi F.Mayor, - (oshib-toshib yotgan) ish kuchini iloji boricha ko'proq ishga solish, sarmoya va elektr kuchini iloji boricha kamroq ishlatish maqsadga muvofiqdir. Nima bo'lsa ham, pirovard natijada mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash katta ahamiyatga ega"². Shu munosabat bilan F.Mayor "faoliyatning oraliq turlari", deb ataluvchi yoki "kamtorona texnologiyalar" haqida fikr yuritadi. Bu boradagi umumiy strategiya quyidagicha faraz qilinadi: bir tomondan, texnologiyalar rivojlanib boradi; ikkinchi tomondan oliy maqom texnologiyalarni (axborotlashuv sohasidagi zamonaviy, jahonshumul yutuqlarni o'zida mujassam etgan axborotlashuv texnologiyalari, telekommunikatsiyalar, mehnatni tashkillashtirish va kabilarni) o'zlashtira oladigan namunali korxonalar, yoki qo'shma firmalar barpo etiladi; uchinchi tomondan – ta'lim va mutaxassislarni qayta tayyorlash sohasida axborotlashtirishning yangi, jahon andozalariga yaqin saviyada mutaxassis-larni tayyorlash ishlari jadallik bilan amalga oshiriladi.

Yangi texnologiyadan insoniyat jamiyati taraqqiyotini jadallashtirish maqsadidagina emas, balki taraqqiyotga to'sqinlik qilish maqsadida ham

¹ Ўша асар. – С.47.

² Майор Ф. Завтра всегда поздно. – М., йил – С.67.

foydalanish holatlari mavjud. Axborotlashtirish jahon taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, ba'zi salbiy holatlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, kiberterrorizm (kibernetik urush), ya'ni kompyuter tizimlariga hujum. Bu xodisa 1990 yillarda birinchi marta sodir etilib, maqsadi - tashkilotlarning barcha hujjatlari kompyuterda saqlanganligini hisobga olib, ularning faoliyatida uzilish hosil qilish bo'lsa, ikkinchidan, birdan-bir muhim axborotni yo'qotish hisoblanadi. Masalan, 1997 yil avgustida kiberguruhlar "Qora yo'lbars" interneti nomli Shri Lanka davlatining elektron pochtasiga hujum qilganlar, 1998 yil may oyida xakkerlar hindlarning yadro qurolini sinab ko'rishiga qarshilik qilib, Badha shahridagi Hind atom tadqiqotlari markazining kompyuteridagi qayd daftarchasini hamda elektron pochtasini yo'q qilishgan. Shuningdek, kiberterroristlar o'zlarining g'oya, maqsad va vazifalarini tarqatishda internetdan ham foydalanishmoqda. Muayyan mafkuraviy poligonlarning muttasil tarqatilgan axborotlaridagi yovuz va zararli g'oyalar oqimi, teleekranlar orqali doimiy namoyish etiladigan jangari filmlar, bolalarga mo'ljallangan buzg'unchi g'oyalar asosida ishlangan o'yinlar, kompyuter tarmoqlari dasturlarini ishdan chiqaradigan "virus"larni tarqatish bunga misol bo'la oladi.

A. Ignatenko bir qancha radikal islomiy harakatlar va guruhlarining internetdagi saytlarini tahlil qilar ekan, hatto televizor yoki radio kabi zamonaviy taraqqiyot yutuqlarini inkor etuvchi "Tolibon" harakatining ham alohida sayti borligini va toliblar internetning targ'ibot-tashviqotdagi beqiyos o'rnini inkor etmasligini ta'kidlaydi¹. Shuni aytib o'tish kerakki, o'sha paytlarda toliblarning afg'on aholisi uylaridagi televizorlarni sindirib, radiolarni buzib yo'q qilganliklari ommaviy axborot vositalarida ko'p ta'kidlangan bo'lsa-da, biroq ular o'zlarining xalqaro maydondagi obro'sini oshirishda internetdan keng foydalanishga intilganlar.

A. Ignatenkonining ta'kidlashicha², agar internetda nima yuz berayotganiga e'tibor bilan nazar tashlansa, internet islomiy harakatlarning global miqyosdagi tashviqot markaziga aylanib bo'lgan. Bugungi kunda internetda katta va kichik bo'lgan aksariyat islomiy harakatlar va guruhlarining saytlari joylashtirilgan va ushbu saytlar tez-tez o'zgartirilib, axborotlar bilan boyitib boriladi.

¹ Игнатенко А. Зеленный интернетционал. Экстремизм в компьютерной сети (С) "НГ-Религии-Дайджест" (НГРД), электр. версия прил. к "НГ" (ЭВНГРД). Номер 003 (3) от 07 апреля 1999 г., среда. Полоса 4.

² O'sha joyda.

Albatta, internetda islom dini bilan tanishtiruvchi bir qancha saytlar mavjud bo'lib, ular mazmun va mohiyati jihatdan islomiy guruhlar va harakatlarning saytlaridan farq qiladi. Bu saytlarning barchasi mazmun mohiyati, yo'nalishi bo'yicha jihodni, ya'ni jihod qilish g'oyalarini targ'ib va tashviq qilish bilan mashg'uldir. Jihod ikki yo'nalishda e'lon qilingan bo'lib, birinchisi Farbga (AQSH, Isroil) va ikkinchisi (islom dinidan chekinishda ayblagan holda) musulmon davlatlarining hukumatlariga qarshi qaratilgandir. Har bir islomiy tashkilotning saytini ochish bilanoq jihod to'g'risidagi maxsus materiallar bilan to'ldirilgan sahifaga duch kelish mumkin. Unda jihod nima, u nima uchun va qanday olib boriladi kabi masalalar yuzasidan keng ma'lumotlar berilgan.

Biz yuqorida jamiyatni axborotlashtirish jarayonlarida uchraydigan ayrim ilmiy-metodologik masalalarni ko'rib o'tdik. Endi axborotlashtirish natijasida yuzaga kelayotgan axborotlashgan jamiyatdagi ba'zi bir muammolarni ko'rib chiqamiz.

Turli mamlakatlarda jamiyatning axborotlashuv darajasi turlicha, uning fuqarolik jamiyati asoslari yaratilgan, axborot va telekommunikatsiya sanoati rivojlangan kompyuter texnologiyalari hayotning, turar joy, oziq-ovqat, transport singari ajralmas qismlariga aylangan davlatlarda yuqoridir. Bu borada mamlakatimizda keyingi yillarda olg'a intilishlar bo'ldi. Internet O'zbekistonda boshqa tarmoqlarga qaraganda keng tarqaldi va o'zining munosib o'rnini topmoqda. Internet butun jahondagi singari O'zbekistonda ham yagona kommunikatsion va axborot muhiti bo'lib, o'z mavqeini mustahkamlamoqda. Biroq, "bugungi hayotimizga chuqur kirib borayotgan Internet tizimini keng joriy etish, yoshlarimizni O'zbekistonning qadimiy va boy tarixi, ezgu qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, bu borada o'zbek tilining imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi doimo e'tiborimiz markazida turishi lozim"¹.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashtirish jarayonlari insoniyat taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Tabiat bilan insoniyat jamiyati o'rtasida, shuningdek insoniyat jamiyatining o'zida o'zaro axborot almashuvi mavjud bo'lmaganida u taraqqiy qilmagan va hozirgi kamolotiga erishmagan bo'lardi. Hayot mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun, moddiy vositalar kabi, axborot ham zarur. Insoniyatning taraqqiyot darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning hayotida axborotlar shunchalik

¹ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т.: Ўзбекистон, 2005. –194 б.

katta ahamiyatga ega bo'ladi. Jamiyatning rivojlanishi hamda hayotning moddiy sharoitlarini ta'minlash, shuningdek, atrof-muhit va o'zini ko'proq o'rganish bu faoliyatning yo'naltiruvchi asosi bo'lib xizmat qiladi.

3.3. Fanni axborotlashtirish masalalari

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi davrda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensial-lashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Darhaqiqat, hozirgi davr o'zining murakkab munosabatlari, qarama-qarshiliklari, ziddiyatli muammolari bilan tavsiflanadi, muntazam ravishda yangilanib borib, yangi sifat o'zgarishlarga o'tish holati bilan ajralib turadi. Mazkur o'zgarishlarning ijobiy natijasi har bir davlat, jahon miqyosida ilm-fanning rivojlanish darajasi bilan belgilanmoqda. Natijada fan rolining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati o'zgardi. Shu sababli ham bugungi kunda fanda murakkablik, beqarorlik, o'zgaruvchanlik kabi xususiyatlarga ega bo'lgan obyektlar o'rganilmoqda.

Ma'lumki, axborotlashtirish jarayonining moddiy negizini ishlab chiqarish, boshqaruv, ilm-fan, ta'lim-tarbiya hamda ijtimoiy va maishiy sohalarni kompyuterlashtirish va robotlashtirish tashkil etadi. Hozirgi paytda axborot maydoni, kommunikatsiya vositalari zamonaviy jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Axborot, kompyuterlashtirish, hisoblash texnikasi, axborot texnologiyasi, modellash, ma'lumotlar manbai, dasturlashtirish, shaxsiy kompyuterlar, dastur bilan ta'minlash va boshqa shu kabi ilmiy tushunchalar axborotlashtirish jarayonining eng muhim xususiyatlarini tashkil etadi.

Axborotlashtirish jarayoni kishilik jamiyati dinamikasining navbatdagi yo'nalishi sifatida hayotning qator sohalarida yuksak ravnaqni taqozo etadi. Fan inqilobi va axborotlashtirish tufayli o'qish, o'qitish ishlarining samaradorligini yanada oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Iqtisodiyot sohasida ishlab chiqarish bilan xizmat ko'rsatish nisbatida birinchisining hisobiga ikkinchisining kengayishi ro'y bermoqda.

Axborotlashtirish jarayonlari fan taraqqiyotiga qanday ta'sir qilishi mumkin? Mutaxassislarning fikriga qaraganda, axborotlashtirish

jarayonlari fanda ham global o'zgarishlarni keltirib chiqardi. YA'ni, fanning mohiyati, strukturasi, funksiyalaridagi yangi sifatiy o'zgarishlar, fanning tobora global, internatsional mazmun kasb etib, globallashib borayotganida ko'ramiz. Bu jarayon ikki yo'nalishda rivojlanmoqda. Birinchisi, fanning notijorat axborotlashtirish yo'nalishi bo'lib, unda olimlar va turli o'quv yurtlari birgalikda ilmiy tadqiqot olib boradilar, o'zaro bilim almashish sodir bo'ladi. Ikkinchisi tijorat yo'nalishidagi fandagi axborotlashtirish hisoblanadi. Bu yo'nalish asosan XX asrdan boshlandi va keyingi o'n yillarda dadil o'sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu yo'nalishdagi fanning axborotlashuvi obyektiv asosga ega bo'lib, uning omillari - global moliyaviy va fond bozorlarining vujudga kelishi; xalqaro raqobatning kuchayib global tus olishi; transmilliy korporatsiyalarning iqtisodiy faoliyat ko'lamining o'sishi; aloqa vositalari, shuningdek global "INTERNET" tarmog'ining rivojlanishi, yerning maxsus sun'iy yo'ldoshlarining uchirilishi xizmat qiladi.

Fanni axborotlashtirish zaruriyati xususan shu bilan belgilanadiki, hozirgi zamon fanida ilmiy inqilob uchun shart-sharoit yaratayotgan katta o'zgarishlar, chunonchi, fanlarning integratsiyasi va differensiyasi sodir bo'lmoqda, ya'ni ilmiy bilimning yangi sohalari vujudga kelmoqda. Jumladan, fanlar integratsiyasi va differensiyasining natijasi sifatida paydo bo'lgan ijtimoiy antropologiya, ijtimoiy ekologiya, gen injeneriyasi, texnosotsiologiya, bioetika, bioinformatika kabi fan sohaslarini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga bugungi kunda "kognitivlik", "kognitiv fanlar", "kognitiv imkoniyatlar" kabi tushunchalar keng o'rganilmoqda. Kognitivlik (ingliz. cognitivism, lot. cognitio - bilim, bilish) asosan insonning bilish va bilimini anglatadi.

Hozirgi kunda "kognitiv fanlar" deb olgan fanlararo tadqiqot yo'nalishi ham mavjud bo'lib, bu yo'nalish kognitiv axborotlarni qayta ishlash modeli yordamida bilish jarayoni va oliy kognitiv vazifalarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, o'z ichiga epistemologiya, kognitiv psixologiya, sun'iy intellekt sohasidagi tadqiqotlar, psixolingvistika, neyropsixologiya, so'nggi o'n yilliklarda neyrokibernetika va hisoblash neyrobiologiyasi kabilarni qamrab olmoqda¹.

Hozirgi kunda keng ravishda rivojlanayotgan mazkur yo'nalish insonning bilish jarayonini har tomonlama tadqiq etishga qaratgan. Inson o'z biologik va ijtimoiy evolyutsiyasi jarayonida yana bir muhim evolyutsion rivojlanishni, ya'ni kognitiv evolyutsiyani boshidan kechirgan.

¹ Энциклопедия эпистемологии и философии науки. - Москва: «Канон+» РООИ «Реабилитация», 2009. - С.364.

Kognitiv evolyutsiya jarayonida inson tashqi dunyoni aks ettirib, o'zining kognitiv (bilish) imkoniyatlarini shakllantirib borgan. Kognitiv imkoniyatlarning shakllanishi jarayonida inson o'zining bilish qobiliyatlarini rivojlantirib borgan. Insonning kognitiv imkoniyatlariga uning xissiy va aqliy bilish imkoniyatlarini kiritish mumkin. Tadqiqotlarga asosan , insonning kognitiv imkoniyatlari sifatida tafakkur, ong, xotira, xissiy qabullash va tabiiy til kabilar tilga olinadi.

Bugunga qadar fan ko'proq moddiy ishlab chiqarishni tashkil etish va moddiy boyliklarni yaratishga qaratilgan bo'lsa, hozirga kelib, fan jamiyat hayotining ham barcha sohalarini o'ziga bo'ysundirib oldi. YA'ni, fan taraqqiyotining so'nggi axborotlashtirish bosqichiga qadar ko'proq moddiy soha bilan bog'langan bo'lsa, hozirda u madaniyat va ma'naviyat sohasiga ham o'zining har tomonlama ta'sirini o'tkazmoqda. Shu bilan birga axborotlashtirish natijasida fan amaliyotini amalga oshiruvchi subyektlar nihoyatda faollashib fanning obyektiv natijalariga o'zlarining manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'sir ko'rsatmoqdalar.

Axborotlashtirish jarayonlari jamiyat hayotiga, tarixiy ijtimoiy jarayonlar mohiyati va inson hayotiga istagancha ta'sir eta olish imkoniyatini berdi. Ayniqsa, sputnik aloqalar va axborotlashtirish ommaviy ongga, demak ijtimoiy jarayonlarning yo'nalishlari va borishiga ta'sir etish imkoniyatlarini keskin oshirdi. Shu bilan birga axborotlashtirish mamlakat va millatlarning ixotalangan holda yashashi, mamlakatning tashqarisida kechayotgan jarayonlardan chetda qolishi mumkin bo'lmay qoldi.

Ma'lumki, bugungi axborotlashtirish davrida fan taraqqiyoti malakali kadrlardan tinmay o'z bilimlarini oshirib borishni talab qilmoqda. Chunki hozirgi bilimlarning yangilanishiga bo'lgan ehtiyoj o'rtacha besh yilni tashkil etadi. Masalan, birgina kompyuterlashtirish yoki uyali aloqa sohasini olaylik. Qisqagina ikki-uch yil ichida ushbu texnologiyaning yangi-yangi avlodlari yaratilmoqda. Kishilar ularning bitta avlodlarini o'zlashtirib ulgurmay, ularning yanada zamonaviyroq va murakkabroq hamda shu bilan birga qulayroq yangi turlari paydo bo'lmoqda. Bu hol yuqori bilim va malakali shaxsni o'zini ijtimoiy ehtiyojiga aylantirib, bu sohada katta raqobatga olib kelmoqda.

Fanni axborotlashtirish ilmiy bilish jarayonida ham katta o'zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan, ilmiy bilishning bir qancha bosqichlarida insonning fikrlash jarayoni avtomatik rejimda sodir bo'ladi. Shu bilan birga ilmiy tadqiqotni insonning bevosita ishtirokisiz amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Ayni paytda, bilim va tafakkurning xususiyatlari ham, ilmiy tadqiqotlarning eksperimental negizi ham tubdan o'zgardi.

Ma'lumki, fanni axborotlashtirish kerakli axborotni yig'ish uchun zarur vaqtni tejash imkonini beradi. Vaholanki, axborotlashtirishsiz tadqiqotchi o'z ish vaqtining yarmini, ba'zan undan ham ko'prog'ini axborot yig'ishga sarflagan bo'lar edi. Olimning axborot yig'ish bilan bog'liq kam ijodiy mehnatdan xalos bo'lishi ijodiy mahsuldorlikni, izlanishning evristik xususiyatini, mehnatning bosqichma-bosqich va umumiy unumdorligini keskin oshiradi.

Fanni axborotlashtirish fan tuzilishi va ilmiy tadqiqot metodlarini ham, fanning tashkiliy tuzilishini ham o'zgartiradi. Shu sababli bugungi kunda fanda murakkablik, beqarorlik, o'zgaruvchanlik kabi xususiyatlarga ega bo'lgan obyektlar o'rganilmoqda. Ma'lumki, axborot texnikasi bir vaqtning o'zida bir qancha murakkab vazifalarni hal qilishga qodir qimmatbaho texnika vositalarining katta komplekslarini o'z ichiga oladi. Shu bois ularga yirik tadqiqot jamoalari xizmat ko'rsatadi. Shu sababli, fanda o'ziga xos «jamoalashtirish» sodir bo'lmoqda. YA'ni, ilmiy kashfiyotlar alohida shaxslar tomonidan emas, balki ko'proq ilmiy-tadqiqot jamoalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Bunday guruhlar muayyan ilmiy muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan turli mutaxassislardan tashkil topadi.

Qo'yilgan vazifa hal qilinishiga qarab, jamoa tarkibi yangi muammo-ning yechimini topish uchun tegishli tarzda o'zgartiriladi. Bunday kompleks dasturlarning amalga oshirilishi nazariy va eksperimental tadqiqotlar faoliyatini, ilmiy bilimning fundamental va amaliy sohalarini bir sistemaga birlashtiradi, turli fanlar o'rtasidagi aloqalarni faollashtiradi. Natijada fanlarning o'zaro aloqasi jarayonlari kuchayadi, ular o'rtasida qat'iy chegaralarning yo'qolishi, fanlarning integratsiyalashuvi sodir bo'ladi.

Zamonaviy axborotlashtirish postnokklassik fanning mazmuni, funktsiya, strukturasi, obyektiga ta'sir etdi. Murakkab, o'z-o'zini tashkil etadigan, sinergetik xarakterga ega bo'lgan tizimlar zamonaviy jahon fani-ning obyektiga aylandi. Shu sababli ham fanda integratsiya, differentsiatsiya, globallashtirish, axborotlashtirish jarayonlari kuchaydi, ya'ni «fan inqilobi va axborotlashtirish tufayli o'qish, o'qitish ishlarining samaradorligi yanada oshirilib, jamiyatdagi ijtimoiy intellekt o'ziga xos tarzda rivojlantirilmoqda»¹.

Bugungi axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi va sun'iy intellektning rivojlanishi natijasida bilimni hosil bo'lish jarayonlariga

¹ Каранг. Человек и общество. Современный мир. - М., 1997. -Б.5.

e'tibor ortib bormoqda, ya'ni, "ular asosida ongimizdagi barcha mental holatlarni disklarga ko'chirib saqlashimiz"¹ mumkinligi ta'kidlanadi.

Fan taraqqiyotida axborotlashuvning ta'siri natijasida konvergensiya jarayoni yuz beradi. YA'ni, konvergensiya – birlashuv, fan va texnologiyalarning o'zaro bir biriga kirib borishi bo'lib, u inson onginini o'rganuvchi NBIK-texnologiyalarga (N – nano, B – bio, I – axborot texnologiyalari, K – kognitiv texnologiyalar) asoslanadi. Shu bilan birga ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, «konvergent nano-, bio-, info-, kognitiv fan va texnologiyalar (NBIK-texnologiyalar) tirik tabiatdagi jarayonlar va tizimlarni adekvat ishlab chikarish imkoniyatini yaratadi². Demak, konvergent texnologiyalar tabiatning organik bir kismiga aylanuvchi sifat jihatdan yangi texnosferaning shakllanishida amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi, ya'ni konvergensiya natijasida fan va texnologiyalarning yaqinlashuvi vujudga keladi.

Shuning uchun ham bugungi kunda fan va texnologiyalarning eng global to'rtta yo'nalishining birlashuvi kuzatilmoqda, ya'ni N – nano, materiallarni atom molekulyar darajada konstruksiyalaydi; B – bio, noorganik materiallarga biologik materiallarni kiritish asosida gibridd materiallar oladi, I – informatsion texnologiyalar, gibridd material yoki tizimlarga integral sxemalarni o'rnatadi va natijada butunlay yangi intellektual sistema yaratiladi, K – kognitiv texnologiyalar esa, ong, tafakkur, bilish, jarayonlarini, tirik jonzoatlarning, asosan inson neyrofiziologik va molekulyar-biologik, shuningdek gumanitar nuqtai nazardan ham o'rganadi.

Yuqorida sanab o'tilgan texnologiyalarga kognitiv texnologiyalarning birlashuvi miyaning funksiyasini, ong mexanizmlari, jonzoatlarning faoliyatini o'rganish asosida ma'lum algoritmlarni yaratish imkonini beradi. Bu algoritmlar esa o'z navbatida sun'iy yaratilgan tizimlarda fikrlashga o'xshash funksiyalarni hosil qilish imkonini beradi. Fandagi zamonaviy konvergensiya jarayonlaridan samarali foydalanish yangi dunyoqarash va yangi metodologik yondashuvlarni talab etadi. Shuningdek, inson miyasi, mental jarayonlarni, kognitiv tuzilmalarini tushunish imkoniyatini kengaytiradi. Buning natijasida bilimlarni taqdim etish, uzatish, yaratish imkoniyatlari yanada ortadi.

¹ Пенроуз Р. Тени разума: в поисках науки о сознании. - Москва-Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2005. – С.67.

² Ковальчук М.В. Конвергенция наук и технологий – прорыв в будущее // Российские нанотехнологии. 2011. №1-2. –С.243-248.

Keyingi yillarda axborot texnologiyalarining inson hayotiga ta'siri kuchayib bormoqda. Inson kognitiv (xotira, idrok, tafakkur, tushunish, qaror qabul qilish) jarayonlariga, ayniqsa, yoshlarning kognitivligiga qanday ta'sir etishini tadqiq etish eng dolzarb bo'lgan fanlararo muammodir. Ma'lumki, kognitivlik shaxsning bilish jarayonidagi qobiliyati bo'lib, u shaxs intellektual imkoniyatlarining asosini tashkil etadi. Yangiliklarni idrok etish va ularni moddiylashtirish kognitiv qobiliyat bilan bog'liqlikda sodir bo'ladi. Kognitivlikning asosiy mazmunini yangi bilimlarni ishlab chiqara olish tashkil etadi. Kognitologik tafakkur bilish jarayonida dalillanganlik, mantiqiy asoslanganlik, mustaqil va tanqidiy fikrlashga, ya'ni refleksiyaga asoslanadi.

Shu sababli bu muammo bugungi kunda juda ko'plab olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Masalan, Oksford universitetidagi kelajakdagi tafakkur institutida S.Grinfild rahbarligida (Oxford University's Institute for the Future of the Mind)¹, shuningdek, Stenford universitetining inson va interaktiv media kommunikatsiyasi nomli laboratoriyasida fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Respublikamizdagi Falsafa ilmiy jamoasida ham kognitivlik muammosini o'rganishga dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Xo'sh nima uchun inson, yoshlarning kognitiv xususiyatlariga e'tibor ortib bormoqda? Bunga sabab axborot texnologiyalarining inson organizmi va tafakkuriga bo'lgan salbiy ta'siri haqidagi ma'lumotlarning paydo bo'lishidir. Ma'lumotlarga murojaat etadigan bo'lsak, 1980 yildan keyin tavallud etgan insonlarning psixikasida shu yilgacha tug'ilgan insonlarga qaraganda ancha tafovutlar kuzatilgan. Ularning tili ham o'zgacharoq, ularning juda ko'pchiligi bir soatlik ko'rsatuvni oxirigacha ko'ra olmasligi kuzatilgan. Shuniingdek, ularning ko'pchiligida diqqatni jamlay olmaslik uchraydi va bu holat mazkur avlodning sindromi hisoblanmoqda². Bu o'z navbatida ta'lim tizimining ham "raqamli avlod" talabiga ko'ra o'zgartirishni kun talabiga ko'ymoqda.

Shuningdek, bu avlodga axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga oid treninglar o'tkazish ham zarurligi olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Mutaxassislar fikriga ko'ra, bunday kognitiv o'zgarishlarga sabab birinchidan, bugungi kunda axborot miqdorining tobora ko'payib borayotganligi va kommunikatsiyadagi yangilanishlardir³.

¹ The Institute for the Future of the Mind. – URL: <http://www.futuremind.ox.ac.uk/>

² Эрнст К. Когда говорят, что интернет убьет телевидение, это глупость // Коммерсантъ. № 192. 2011. 13 октября. – Режим доступа: <http://www.kommersant.ru/doc/1793394>

³ Лысак И.В., Белов Д.П. Влияние информационно-коммуникационных технологий на особенности когнитивных процессов // Известия ЮФУ. Технические науки. 2013. № 5. – С.256–264.

YA'ni gipertekstning paydo bo'lishi natijasida inson rizoma shaklidagi matn bilan ishlashiga to'g'ri kelmoqda.

Ikkinchi sabab axborot oqimining kuchayib borishidir. Masalan, bir oy davomida inson shunchalik axborotni qayta ishlar ekanki, XVIII asrda yashagan inson bu axborotni butun umri davomida qayta ishlagan ekan. Shuningdek, axborotlar oqimining ortib borayotganligi yana shunda ko'rinadiki, faqat Facebook ijtimoiy tarmog'ida bir oyda 30 mlrd ga yaqin yangi axborot manbalari taqdim etiladi. Internet saytlarning miqdori ham ortib bormoqda. Agar ular 2007 yilda 105 mln ga yaqin bo'lgan bo'lsa, 2013 yilning fevralida ularning soni Netcraft kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra, 630 mln dan ortgan. Ma'lumotlar har ikki yilda ikki baravarga ortib bormoqda va bu holat 2020 yilgacha kuzatilar ekan. Biroq olimlarning fikriga ko'ra, mazkur ma'lumotlar oqimida foydali axborotlar miqdori 35% nigina tashkil etar ekan, xolos¹. Darhaqiqat, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda insonning faolligi, uning bilimi asosiy resurs ekan, kognitivlik muammosini falsafiy tadqiq etish, yoshlarimizning bilish jarayonidagi muammolarini o'rganish eng muhim va dolzarb vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo o'zbek xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir. Shu boisdan ham, axborotlashtirish jarayonlarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh yo'nalishlaridan hisoblanadi.

3.4. Demokratik islohotlarda axborotlashtirish masalalari

Ma'lumki, dunyodagi barcha mamlakatlar erkin bozor munosabatlariga o'tish uchun o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlanishning modelini tuzadi. Darhaqiqat, jamiyat hayotida shunday davrlar bo'ladiki, o'z umrini yashab bo'lgan eski tuzum qonun-qoidalarini yangicha asosda o'zgartirish, barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish zaruratini yaratadi. Jumladan, O'zbekiston ham o'zining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlariga, davlatchilik tarixiga, milliy-diniy qadriyatlar va

¹ Постолатий В. Big Data шагает по планете // Российская бизнес-газета: Инновации. №896, 2013. 14 мая: <http://www.rg.ru/2013/05/14/inf-site.html>.

zamonaviy tajribalarga asoslanib rivojlanishning “o‘zbek modeli”da o‘z aksini topgan tamoyillarga asoslangan tizimga o‘tdi.

Avvalo shuni aytish kerakki, 2006 yilning 27 martida BMT Bosh Assambleyasida 17 mayning Butunjahon axborot jamiyati kuni deb e‘lon qilinishi ham hozirgi kunda jamiyatni axborotlashtirishning ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Bugun dunyodagi barcha davlatlar axborotlashgan jamiyat sari bormoqdalar. Chunki, axborotlashgan jamiyat – yuksak taraqqiy etgan axborot infratuzilmasiga ega jamiyatdir. Shuning uchun ham “faqat zamon bilan teng qadam tashlayotgan tez o‘zgarayotgan dunyoning qat’iy shart va talablariga javob berishga intilayotgan mamlakatning kelajagi yorug‘ bo‘lishi mumkin”¹.

Ma‘lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach rivojlanish imkoniyatlaridan rivojlanishning “o‘zbek modeli”ni tanlandi va shu asosida ketmoqda. Hayotga tatbiq etilayotgan model quyidagi tamoyillardan iborat: “iqtisodiyotni mafkuradan holiligi, uning siyosatdan ustunligini ta‘minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya‘ni islohotlar tashabbuskori bo‘lishi va ularning muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta‘minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillarga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir”².

Umuman olganda mustaqillik yillarida olib borilgan demokratik islohotlarning asosi xalqning ma‘naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o‘zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga dahldor bo‘lganini chuqur his qilishiga qaratilgan. YA‘ni, “islohot – isloh uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak”³. Albatta mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar inson va uning manfaatlariga xizmat qiladi. Xususan, 2017-2020 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining maqsadi hamda 2017 yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb nomlanishi ham uning amaldagi isbotidir.

Ayniqsa, 2017 yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e‘lon qilinishi jamiyatimiz strukturasida o‘zgarishlarni mustahkamlashda muhim omildir. Chunki jamiyatimizni murakkab tizim deb olsak, uning elementlari bo‘lgan inson, davlat, jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro muloqot, bu elementlar o‘rtasidagi mavjud bog‘lanish va ta’sirlarning

¹ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б.35.

² Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2010. –Б.4.

³ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2009. –Б.106.

yanada mustahkamlanishini ta'minlaydi. Darhaqiqat, o'zaro muloqot o'zaro bog'lanishlarni yanada mustahkamlab, jamiyatimizdagi fuqarolar, jamiyat va davlatning o'zaro ta'sir va faolligini oshiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mazkur yil o'z mohiyatiga ko'ra taskari (qaytuvchi) aloqa tamoyiliga asoslanadi. YA'ni, davlat va xalq o'rtasidagi aloqa ular orasidagi munosabatni anglatadi. Ma'lumki, falsafada har qanday munosabat aloqadorlik bo'la olmaydi, faqat biron-bir narsa yoki hodisaning o'zgarishi ikkinchi bir narsa va hodisaning o'zgarishiga ta'sir qilsagina, u aloqa bo'la oladi. Demak, yuqorida aytilgan davlat muassasalari joylarida xalq qabulxonalarining yoki davlat xizmatlari portallarining tashkil etilishi davlat va xalq o'rtasida ikki tomonlama aloqaning namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida davlat xizmatining yaxshi tomonga o'zgarishini kafolatlovchi mexanizmdir. Darhaqiqat, ijobiy (qaytuvchi) aloqa – tizimning rivojlanish surati o'sishining, tizimning o'zgaruvchi sharoitlarda moslashuvining asosini tashkil qiladi.

Darhaqiqat, rivojlanishning "o'zbek modeli" tamoyillari demokratik islohotlar, ta'lim sohasidagi islohotlar, liberallashtirish, modernizatsiyalashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, axborotlashtirish kabi mamlakatimizdagi o'zgarishlarga, yangiliklarga metodologik asos bo'lmoqda. Shular asosida "biz o'z oldimizga qo'yilgan uzoq muddatli strategik maqsadlar, ya'ni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlash, hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash"¹ uchun harakatdamiz.

Ana shunday mustaqillik yillari respublikamizda o'tkazilgan demokratik islohotlarda axborotlashtirish masalasi alohida o'ringa ega. Buni biz axborotlashtirish jarayonlarini (ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarga) insonlar hayotini va yashash sharoitini yaxshilangani, insonlar faoliyat qamrovini kengaytirgani, ya'ni imkoniyatlar maydoni, u bilan bog'liq bo'lgan insonlar faoliyat yo'nalishlari ko'paygani hamda inson, jamiyat tafakkurida o'zgarishlar yuz berayotganida ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, demokratiya bu hamisha o'zgarib turadigan hayot tarzi, jamiyat tizimining rivoji bilan uzviy bog'liqdir. O'zbek modeli butun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, g'oyaviy-mafkuraviy hayotimiz taraqqiyoti, milliy davlatchiligimiz tashkil topib, takomillashuvi, mamlakatimiz ichki va tashqi siyosati mustahkamlanishi uchun birdan-bir

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2010. –Б.3.

yetakchi metodologik asos bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham u jahon miqyosida keng e'tirof etildi. Buning asosiy sababi u tarix taqozo etgan, davr talabi bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'zining beshta juda mustahkam va eng ustuvor tayanch nuqtasiga ega ekanligida bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunida axborot resurslaridan foydalanish va ularni aniqlash tartiblari ifodalanga¹ hamda ushbu sohaga xorij investitsiyalarining kiritilishiga huquqiy sharoit yaratilgan. Natijada, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan masofadan o'qitish, teletibbiyot, elektron tijorat kabi yangi xizmatlar rivojlantirilmoqda.

"Elektron hukumat" kontseptsiyasida (davlat organlariga murojaat qilish jarayonlarining soddalashtirilishi anglanadi) Internet orqali ham jismoniy, ham yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish ko'zda tutiladi.

Respublikamizda demokratik islohotlarning dastlabki yillaridayoq mamlakatimizda milliy axborot tizimlarini shakllantirish, axborotlashtirish sohasini tartibga solish, axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, «Aloqa to'g'risida» (13.01.1992. №512-XII), «Telekommunikatsiyalar to'g'risida» (20.08.1994. №822-1), "Ma'lumotlar uzatish milliy tarmog'ini tashkil etish va jahon axborot tarmoqlaridan foydalanishni tartibga solish to'g'risida" (05.02.1999. №52 qarori), «Axborotlashtirish to'g'risida» (05.02.2004), «Elektron tijorat to'g'risida» (05.2004), «Elektron xujjat aylanishi to'g'risida» (05.2004), "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" (08.07.2005, PQ-117), "Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining hukumat portaliga axborotlarni taqdim etish va joylashtirish tartibi to'g'risida" (21.04.2009., 116-son qarori), "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (21.03.2012.), "O'zbekiston Respublikasida Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (27.06.2013.), "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to'g'risida" (04.02.2015. PF-4702 sonli, PQ-2293-son), "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (29.08.2017. PQ-3245 sonli) kabi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini qabul qilinishi

¹ Ўзбекистон Республикасининг "Ахборотлаштириш тўғрисида"ги Қонуни / <https://www.lex.uz/acts/83472>

buning yaqqol dalilidir. Ushbu qayd etilgan farmon va qonunlarda jamiyatni axborotlashtirish jarayonlarining huquqiy asoslari belgilab berildi.

Respublikamiz hukumati tomonidan qabul qilingan qaror va dasturlarning barchasida demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat uchun axborotlashgan jamiyatga o'tishning iqtisodiy, huquqiy, texnologik, madaniy shart-sharoitlari yaratib berilmoqda. Masalan, "Axborotlashtirish haqida", "Elektron raqamli yozuv (imzo) haqida"gi qabul qilingan qonunlar va boshqa hujjatlar ana shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Birinchi Prezidentimizning 2001 yil 30 maydagi "Kompyuterlash-tirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi farmoni axborotlashgan jamiyatga o'tishning navbatdagi bosqichida turgan dolzarb muammolarni hal qilish borasida tashlangan yana bir muhim qadam bo'ldi. Farmonning asosiy maqsadi¹ – axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish, jamiyat hayoti va iqtisodiyotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish, fuqarolarning axborotlarga bo'lgan o'sib borayotgan talablarini yanada to'laroq qondirish, jahon axborot jamiyatiga kirib borishni kengaytirishdan iborat.

Ushbu farmondan kelib chiqqan holda va uni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlash-tirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi hamda "2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi" ishlab chiqildi. Unda bu sohadagi asosiy yo'nalishlar: telekommunikatsiyalar infratuzilishini rivojlantirish; kompyuterlashtirish; axborot xavfsizligini ta'minlash; kadrlar tayyorlash va boshqalar ko'rsatib berildi.

O'zbekiston Respublikasida 2004 yilda qabul qilingan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunda ta'kidlanishicha², axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

¹ Ўзбекистон Республикасининг "Компьютерлаштиришни янада ривожлантириш ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш тўғрисида"ги ПФ-3080-сон фармони / <https://lex.uz/docs/152470>

² Ўзбекистон Республикасининг "Ахборотлаштириш тўғрисида"ги Қонуни /Халқ сўзи. 2004 йил 11-феврал.

Ushbu qonunning maqsadi axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Unda ta'kidlanishicha¹, axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resursi va texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayonidir. Ushbu ta'rifni tahlil qiladigan bo'lsak, unda axborotlashtirish insonlar va tashkilotlarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga sharoit yaratishga, sharoit yaratish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalanishni taqozo etadi. Shu bilan birga axborotlashtirish jarayoni tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy omillarga asoslanadi.

Aytish kerakki, yuqoridagilarni falsafiy mushohada etadigan bo'lsak, hayotning o'zi turli xil ehtiyojlarni bosqichma-bosqich qondirish jarayonidir. Asosiy ehtiyoj hayotning uzluksiz davomiyligini ta'kinlashdir. Asosiy ehtiyojni qondirish uchun ikkilamchi ehtiyojlar yuzaga chiqadi, ya'ni oziqlanish, turar-joy, uylanish, nasl-nasab qoldirish, uni voyaga yetkazish uchun sharoit yaratish. Inson o'z hayoti davomida barcha ehtiyojlarini qondirish uchun esa boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishadi. Muloqotga kirishish jarayonidan asosiy maqsad – o'zaro axborot almashishdir. Demak, insonlarning axborotga bo'lgan ehtiyoji ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qamrab oladi.

Endi shunday mulohazalarni tashkilotlar va muassasalar faoliyatida keltirishimiz mumkin. Masalan, ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'z faoliyatini tashkil etish uchun birinchi navbatda hom ashyo yetkazib beruvchilar va tayyor mahsulotlarni sotib oluvchilar bilan muloqotga kirishadilar. Bundan tashqari hom ashyo va tayyor mahsulotlarning bozor narxlarining holati, ushbu bozorlardagi talab va taklif dinamikasi, amalga oshirilayotgan faoliyat turining davlat tomonidan tartibga solinishi va boshqa ko'plab yo'nalishlarga katta ehtiyoj seziladi. Shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar yoki davlat boshqaruvi muassasalarining ham o'z faoliyatlari yo'nalishlari axborotlar olish va almashish katta ahamiyatga ega bo'lishi tabiiy holdir.

Demak, “axborotga bo'lgan ehtiyoj tashkilotlar va muassasalar faoliyatini amalga oshirish uchun eng asosiy ehtiyojlardan, umuman axborotlashtirish jarayoni esa insonlar va tashkilotlar hamda

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни // Халқ сўзи. 2004 йил 11-феврал.

muassasalarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan jarayondir”¹.

Darhaqiqat, axborotlashtirish jarayonlari insoniyat taraqqiyotida muhim, hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki tabiat bilan insoniyat jamiyati oʻrtasida, shuningdek insoniyat jamiyatining oʻzida oʻzaro axborot almashuvi mavjud boʻlmaganida u taraqqiy qilmagan va hozirgi mavjud kamolotiga erishmagan boʻlardi.

Yana shuni taʼkidlash kerakki, axborotlashtirish jarayonida uchta oʻziga xos vositalardan foydalaniladi, yaʼni axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlari. Ushbu tushunchalarga “Axborotlashtirish toʻgʻrisida”gi qonunda quyidagicha taʼrif berilgan, yaʼni

- axborot resursi – axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, maʼlumotlar banki, maʼlumotlar bazasi;

- axborot texnologiyalari – axborotni toʻplash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullari va jarayonlar;

- axborot tizimi – axborotni toʻplash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalaridir².

Bizning mamlakatimizda axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

- har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanishni taʼminlash;

- davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida Oʻzbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;

- xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmogʻidan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;

- kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni ragʻbatlantirish³ va hokazo.

Oʻzbekiston Respublikasi axborotlashtirish konsepsiyasining asosiy maqsadi va unda qoʻyilgan masalalar quyidagilardan iborat: milliy

¹ Ходжаев С.М. Аxborotlashtirish tizimi: genезиси, тажриба ва амалиёти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. –Б.9.

² Ўзбекистон Республикасининг “Аxborotlashtirish tўғрисида”ги Қонуни // Халқ сўзи. 2004 йил 11- феврал.

³ Ўша жойда.

axborot-hisoblash tizimini yaratish; axborotlarga tovar sifatida yondashishning iqtisodiy, huquqiy va meyoriy hujjatlarini yuritish; axborotlarni qayta ishlashni tartibga soluvchi jahon standartlariga rioya qilish; axborotlar texnologiyasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash; axborot vositalari foydalanuvchilarini tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish.

Konsepsiyaning asosiy qoidalarini hisobga olib O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish dasturi ishlab chiqildi, u uch maqsadli dasturni o'z ichiga oladi: a) milliy axborot-hisoblash tarmog'i; b) EHMni matematik va dasturiy ta'minlash; v) shaxsiy kompyuter.

Mazkur dasturdan vazirlik va mahkamalarning axborot-hisoblash tarmog'ini yaratish, kompyuterlar va hisoblash texnikasi vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish, hujjatlashtirishning meyoriy-uslubiy va huquqiy tizimini yaratish va boshqalar joy olgan.

Jamiyatni axborotlashtirish o'z ichiga quyidagi komponentlarni qamrab oladi: 1) axborot resursi – ma'lumotlar, bazalar va banklari, turli xil arxivlar, kutubxonalar, muzeylar fondi va boshqalar; 2) axborot–telekommunikatsiya infrastrukturasi xududiy davlat kompyuter tarmoqlari, telekommunikatsion tarmoqlar va maxsus xizmat ko'rsatuvchi tizimlar, tarmoqlar, ma'lumotlarni uzatish kanallar va axborot oqimlarini boshqarish; 3) axborotlar, kompyuterlar va telekommunikatsiya texnologiyalari; 4) axborotlarga kirish va ularni tarqatish uchun qo'llaniladigan telekommunikatsiya informatika va hisoblash texnikasi vositalarini qo'llaydigan ilmiy-ishlab chiqarishdagi mutaxassislar; 5) milliy axborotlar infrastrukturasi faoliyatini tashkil qiluvchi tashkiliy tuzilmalar va xodimlar; 6) ommaviy axborot tizimlari; 7) axborot mahsulotlar va xizmatlar, axborotlashtirish, telekommunikatsiya, aloqa vositalar va axborot texnologiya bozori; 8) axborotlarni himoya qilishni ta'minlovchi tizimlari; 9) jahonning ochiq axborot tarmoqlari bilan O'zbekiston Respublikasi axborot tarmoqlari bog'liq munosabatlari; 10) axborotlashtirish qonunlarining tizimi.

Axborotlashtirish, ijtimoiy-texnik jarayon sifatida, jamiyatning siyosiy hayoti, eng avvalo, uni demokratlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi sharoitda demokratiyani shakllantirishning zarur sharti bo'lgan axborotlashtirish, uning ko'lemi, sur'atlari va yo'nalishi ayni jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va umuman madaniy jarayonlarga, shu jumladan fan, ta'lim, umumiy madaniyatning globallashtirish darajasiga uzviy bog'liqdir. Birinchidan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni

demokratlashtirish, uning axborot bazasini taqozo qilib, sivilizatsiya manfaatlarini asosida maqsadga muvofiq baholash mezonlarni ishlab chiqishni talab qiladi; ikkinchidan, jamiyatni demokratlashtirishni xususiyatlari regional va milliy xarakterga ega bo'lishini hisobga olib, uni axborotlashtirishga ham differensial yondoshmoq lozim; uchinchidan, "ochiq jamiyat" tushunchasining demokratik xarakteri axborotlashtirish jarayoniga nisbatan shartli xarakterga ega, chunki har qanday axborotni "ijobiy" deb baholash nisbiydir; to'rtinchidan, jamiyatda "axborot erkinligi" tushunchasi "axborot masuliyati"ni istisno qilmaydi. Shunga ko'ra, "axborot erkinligi"ni demokratiya belgisi, tamoyili, xususiyati deb baholash mutlaqo shartli va nisbiydir.

Umuman olganda, barcha rivojlangan mamlakatlarda axborotlashtirishga alohida e'tibor berilib, bu maqsadga asosiy resurslar yo'naltirilmoqda. Axborotlashtirish nazariy tahlil obyektidan u yoki bu mamlakat iqtisodiy va siyosiy ustuvorligining qudratlovchi baholash mezonlariga aylangan, u davlatning ishlab chiqarish va tashqi strategiyasini ishlab chiqarish uchun muhimdir. Shunday qilib, axborotlashtirishning umumiy belgilarini aniqlashga va o'zida ham falsafiy, ham amaliy xususiyatlarni jamlagan axborotlashgan jamiyat rivojlanishining mavjud konsepsiyalarining asosiy holatini falsafiy tahlil etish kerakligini ko'rsatadi. Bunda shuni unutmaslik kerakki, jamiyatni axborotlashtirishdan asosiy maqsad – odamlar hayotini yaxshilash, ularning barcha orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish uchun sharoitlar yaratish, har qanday taraqqiyotda obyektlarga emas, odamlarga tayanish lozimdir.

O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish haqidagi qonuni jahon standartlariga ko'p jihatdan mos keladi. Biroq ular amaliyotda namoyon bo'lmayapti. Shakllanib kelayotgan axborotlashgan jamiyatning o'zak xususiyatlaridan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: jamiyatning ijtimoiy-ekologik rivojlanishida axborot va bilimlarning eng muhim omil bo'lishi; xo'jalik, rahbarlik va boshqa sohalaridagi faoliyat misli ko'rilmagan darajada axborotga ega bo'lishni taqozo etishi, axborot va bilimlarning ahamiyati va tutgan o'rni keskin oshadi.

Axborot va axborotlashtirish xizmatlariga talab oshishi, xususan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijtimoiy hayotning nafaqat turli kasbiy sohalariga, balki maishiy sohalariga ham keng tatbiq etilishi rivojlangan bozor infratuzilmasini bunyodga keltiradi.

Ijtimoiy tizim va hamkorlik modellaridagi chuqur o'zgarishlar, pastdan yuqoriga pog'onali bo'ysunish o'rniga moslashuvchan elastik tarmoqlarning joriy etilishi hamisha yangilanib turadigan zamonga mos

keladi. Axborot va bilimlar ahamiyatining tobora orta borishi hozirgi zamonning asosiy mohiyatidir. Axborot va bilim ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlarning ham, iqtisodiy rivojlanishning ham, jamiyat farovonligi ham asosiy omili bo'lib bormoqda. Axborotlashgan jamiyatda iqtisodiy yutuqlar undagi milliy, mintaqaviy va lokal innovatsion tizim hamda surunkali malaka oshirish o'qishlarining birligi va yo'lga qo'yilganiga bog'liq.

Demak, axborotlashtirish jarayoni haqida gapirganda, birinchi navbatda texnologik, shuningdek iqtisodiy jihatlarni nazarda tutish lozim. Ammo axborotlashtirish ijtimoiy-madaniy sohaning rivojiga ham ko'mak berishi, modernizatsiyaning xilma-xil jarayonlarini (bozor iqtisodiyotiga o'tish, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi muomala munosabatlarining hozirgi zamon talablariga mos kelishi, demokratik jarayonlarni ta'minlash, huquqiy davlat qurilishini rag'batlantirish va h.k.) qo'llab-quvvatlashi hamda inson va madaniyat uchun foyda keltirishi zarur.

Ta'kidlash lozimki, inson va uning madaniyatiga mutanosiblik deganda axborotlashtirish sohasidagi g'ov, to'siq emas, balki madaniyat va insonning rivojiga turtki beruvchi ma'lum jarayonlarning ustuvor deb hisoblanishi va ularning qo'llab-quvvatlanishi tushuniladi. Bir tomondan, axborotlashtirishning immanent (ajralmas) holda rivojlanishi, ikkinchi tomondan, modernizatsiya jarayonlarining oqibatlarini hali nima bilan tugallanishi noma'lum bo'lishi bois, axborotlashtirish rivoji ba'zi bir noxush, ko'ngilsiz, nomatlub natijalarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Shuning uchun axborotlashtirishga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni nazorat qilish, bu nazorat tizimini demokratiya mezonlariga muvofiq takomillashtirish kerak.

Butun dunyo axborotlashgan jamiyatning qanday bo'lishi haqidagi umumiy konsepsiya mavjud bo'lmasa-da, bizningcha, uning mohiyatini bir-biriga bog'liq quyidagi jarayonlar tashkil etish kerak:

- axborot va bilimlar ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va madaniy rivojlanishning haqiqiy o'zak qudratiga, qimmatli manbaiga aylandi;
- ishlab chiqarishning omili bo'lmish xomashyo, mehnat, mablag', resurslarga tenglashtirilgan axborot va bilim bozorlari shakllana boshlaydi;
- axborotni yetkazib berish va undan foydalanishni ta'minlovchi sohalarning ahamiyati shiddatli tarzda osha boradi;
- axborot tizimining taraqqiy etganligi – ma'lum millat yoki mintaqaning raqobatbardoshligida, misol uchun xuddi uning transport tizimidek ahamiyatli bo'ladi;

– jamiyat faoliyatining har bir sohasiga taraqqiy etgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi mavjud ta’lim, mehnat, jamiyat hayot va dam olish tarzini keskin o’zgartiradi.

Yuqoridagilardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

axborotlashtirish jarayoni hozirgi zamon texnologiyalari vositasida moddiy ishlab chiqarish sohasidagi inson mehnatini avtomatlashtirish, aqliy faoliyatni, xususan ilm-fan, loyihalashtirish va boshqaruv tizimlaridagi mehnatni yengillashtirish va jadallashtirishga xizmat qilmoqda, shuningdek ma’naviy-badiiy faoliyatning ba’zi ko’rinishlarini tubdan o’zgartirmoqda, zarur axborotlarni uzatish yoki qidirish jarayonini aql bovar qilmas darajada tezlashtirmoqda;

axborot, kompyuterlashtirish, hisoblash texnikasi, axborot texnologiyasi, modellash, ma’lumotlar manbai, dasturlashtirish, shaxsiy kompyuterlar, dastur bilan ta’minlash kabilar axborotlashtirish jarayonining eng muhim xususiyatlarini tashkil etadi;

axborotlashtirish jarayoni nafaqat ijtimoiy tarkiblar, boshqaruv mexanizmlarini tubdan o’zgartirib yuboradi, balki o’zining muvaffaqiyatli rivoji uchun ham ushbu tarkiblar va mexanizmlarning o’zgarishiga muxtojdir;

axborotlashtirish barcha jamiyat a’zolarining eng asosiy hayotiy ehtiyojlaridan hisoblanib, axborotga bo’lgan ehtiyojlarini axborot tizimlari va texnologiyalari yordamida qondirishga qaratilgan jarayonlardir.

3.5. Axborot xavfsizligi muammosi

Ma’lumki, axborot-kommunikatsiya tizimlarida ma’lumotlar almashinuvinini samarali amalga oshirishni tashkil etish bugungi rivojlangan jamiyatda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham XXI asrda rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari jamiyatning barcha sohalariga keng tadbiiq qilinmoqda. YA’ni, axborot texnologiyalarining tezlik bilan rivojlanib borishi, jamiyat faoliyatining keng sohasida turli axborot xizmatlarining vujudga kelishiga olib keladi. Ammo axborot texnologiyalarining yuqori sur’atda rivojlanishi va barcha sohalarda keng qo’llanilishi, yangidan-yangi imqoniyatlarni yaratish bilan bir qatorda, o’ziga xos muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mustaqillik yillari respublikamizda o’tkazilgan demokratik islohotlarda axborot sohasini isloh qilish, axborot xavfsizligi masalalari alohida o’ringa ega. Chunki, davlat va jamiyat manfaatlari bilan bog’liq muhim

ma'lumotlarni almashish hamda tahlil qilishda tez va ishonchli ma'lumot almashinuvi talab etiladigan tizimlarda axborot xavfsizligi (muhofazasi) masalalari dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga axborot asrining muhim ko'rsatkichlaridan biri – davlat va jamiyatning barcha bo'g'inlari uchun tezkor axborot almashinuvi birinchi hayotiy zaruratga aylanishidir. Bu ishni qila olganlar zamon bilan hamnafas yashaydi, eplolmaganlar esa orqada qolib ketaveradi va bunday qoloqlik kundan kunga oshadi. Demak, rivojlanishni xohlagan davlat birinchi o'rinda o'z kommunikatsiya tizimlarining faoliyatini, butunligini va xavfsizligini ta'minlashi zarurdir.

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat barpo etishning muammolaridan biri axborot xavfsizligi masalasidir. Chunki, "axborot texnologiyalari davri", "axborot asri" deya nom olgan hozirgi zamonda biror jamiyatni aniq ishlab chiqilgan axborot xavfsizligi tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, axborot qudratli kuchga aylanib, yadro poligonlaridan ham xavfliroq tus olib bormoqda. Shu o'rinda birinchi Prezidentimizning "endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi"¹ degan fikrlari ham axborot xavfsizligiga daxldor, desak yanglishmaymiz.

Shu sababli ham mamlakatimizda mustaqillik yillari olib borilgan demokratik islohotlarda axborot xavfsizligi muammosiga katta e'tibor qaratilgan. Fikrimizning isboti sifatida respublikamizda qabul qilingan qarorlarni keltirish mumkin: birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning 2007 yil 3 aprelda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasida axborotning kriptografik himoyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi» PQ-614-sonli qarori va «Axborotlashtirish to'g'risida» (2003 yil), «Elektron raqamli imzo to'g'risida» (2003 yil), «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida» (2004 yil), «Elektron tijorat to'g'risida» (2004 yil), «Elektron to'lovlar to'g'risida» (2004 yil), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 iyulidagi 117-PQ qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 22 noyabridagi №256-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Davlat boshqaruvi organlari va hokimiyatining elektron hujjat aylanishi qoidasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 22 iyuldagi "Respublikada qog'ozni tejash va undan oqilona foydalanishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 155-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № PQ-1730 «Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori shular jumlasidandir.

¹ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси – халқ этиқоди ва буюк келажакка ишончдир (Фидокор газетаси мухбири саволларига жавоблар). – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б.7.

Shu bilan birga mamlakatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlarda davlat hokimiyat organlari va boshqaruvidagi elektron hujjat aylanuvi qulay strategiyalarini ishlab chiqish uchun keng sharoitlar yaratilgan. Birinchi Prezidentimizning 2013 yil 27 iyundagi № PQ-1989 «O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Maxkamasining 2013 yil 16 sentabrdagi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi qoshida «elektron xukumat» tizimini rivojlantirish markazi tashkil etildi. Ayni qaror asosida «Elektron xukumat» tizimini axborot komplekslari, resurslari va ma‘lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta‘minlash maqsadida axborot xavfsizligini ta‘minlash markazi ham tuzilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda Internet tarmog‘ining rivojlana borгани sari axborot xavfsizligiga jiddiy e‘tibor qaratish sabablari sifatida - axborot o‘g‘irlash, uni mazmunini buzish, ruxsatsiz axborotni o‘zgartirish, kompyuter texnologiyalaridan iznsiz foydalanish, tarmoqdagi serverlarga tajovuz qilish, turli noqonuniy yo‘llar bilan axborotlarni uzatish holatlari kun sayin ko‘payib borishini ko‘rsatish mumkin.

Shu bilan birga bugungi kunda axborot xavfsizligini ta‘minlash vositalarini yaratishning murakkabligi shundaki, ma‘lumotlar kompyuterdan yo‘qolmasdan turib, uning nusxasini o‘g‘irlash mumkin. Shu bilan birga asl nusxa ishdan chiqadi, ya‘ni yaroqsiz holga kelib qoladi. Bunday salbiy holatlar nafaqat oddiy shaxs yoki korxona va tashkilotlarga, balki davlat budgetiga ham zarar keltiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlar natijasi bo‘lgan korporativ va global tarmoqlarda elektron hujjat aylanishida axborot xavfsizligini ta‘minlaydigan eng samarali yo‘llardan biri elektron raqamli imzodir. Elektron raqamli imzo orqali elektron hujjat biror kimsaga yuborilganda, elektron hujjat kim tomondan yaratilgani aniq bo‘ladi, hujjat butunligi saqlanadi va noqonuniy o‘zgartirilishining oldi olinadi.

Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, axborot tahdidi shunday bir universal xususiyatga egaki, uning barcha boshqa sohalarga jiddiy salbiy ta‘sir qilish imkoniyati bor: shaxs dunyoqarashiga, jamiyatning barqarorligiga, davlatning tinchligiga, jamoatchilik fikrini chalg‘itishga va oxiri-oqibatda har bir mamlakatning ma‘naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga ham. Chunki axborotning jamiyat, tashkilot, oila, shaxs ongiga kirib kelishi uncha ham ko‘zga tashlanmaydi. Ijobiy va salbiy axborotni

farqlash, yaxshi ma'lumotni o'zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o'zi esa mustahkam irodali bo'lishi zarur. Har bir mamlakat aholisining asosiy qismi esa bunday imkoniyatga ega emas.

Shuning uchun axborot-psixologik barqarorlikka birinchi o'rinda axborot tarqatuvchilar ega bo'lishi shart: davlat tuzilmalarining xizmat-chilari, jurnalistlar, pedagoglar, jamoat tashkilotlarining xodimlari va boshqalar. Buni quyidagicha izohlash mumkin, ya'ni "Ma'rifatparvarlik biz uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni yechmasak, barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, kelajak ham, farovon hayot ham bo'lmaydi"¹.

Hozirgi kunda zamonaviy integratsiya tushunchasi dunyo axborot makonidan mustahkam o'rin egallashni taqozo etmoqda. Axborot makonini egallashga bo'lgan intilish, yurtboshimizning ko'plab chiqishlarida bayon etilgan. Axborot makoni erkinligini yo'lga qo'yish o'zgacha bir muammo bo'lsa, ana shu erkinlik chegaralaridan chiqib ketgan yoki mana shu erkinlik qiyofasida kirib keladigan tajovuzlar kuchaygan holatlarda undan muhofaza choralarini ko'ra bilish yanada mushkulroq, yanada murakkabroq va qaltisroq muammodir.

Hozirgi e'lon qilinmagan axborot hurujlari sharoitida quyidagilarga alohida e'tibor qaratishimiz kerak: axborotlashtirish jarayonlaridagi mavjud shakl va usullarni o'zgartirishimiz, ularni milliy manfaatlarimiz va zamonaviy mezonlarga muvofiqlashtirish, axborot tahdidlariga qarshi barcha zamonaviy vositalardan foydalanishimiz kerak; ichki va tashqi siyosatda ro'y berayotgan fakt va voqealarni yoritishda yangicha yondashuvlarni qo'llash, mahalliy ommaviy axborot vositalarining xalqaro miqyosdagi jamoatchilik fikriga ta'sirchanligini oshirish, dushmanlik kayfiyatida bo'lgan axborot vositalarining mafkuraviy xurujlariga munosib javob berish; mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va O'zbekistonning xalqaro aloqalarini tahlil qilish borasida tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish, islohotlarning axborot ta'minotini ta'minlash ishida matbuot va elektron ommaviy axborot vositalari harakatini birlashtirish.

Shu bilan birga, "bugungi hayotimizga chuqur kirib borayotgan Internet tizimini keng joriy etish, yoshlarimizni O'zbekistonning qadimiy va

¹ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси — халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. — Тошкент: Ўзбекистон, 2000. — Б.23-24.

boy tarixi, ezgu qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, bu borada o'zbek tilining imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi doimo e'tiborimiz markazida turishi lozim"¹.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, jahonda noxolis axborot tarqatish, uni salbiy talqin qilish yoki o'z manfaatiga moslab uzatish holatlari vujudga kelmoqda. Demak, axborot xavfsizligini ta'minlash usullarni o'rganish va tatbiq etish zarur va shart.

Axborot xurujlarining oldini olish, axborot xavfsizligini ta'minlash – mamlakatni ichki va tashqi xavflardan himoyalash demakdir. Ushbu axborot xurujlaridan ko'zda tutilgan asl maqsad: birinchidan, davlat va uning rahbariyatini, mamlakatda o'tkazilayotgan izchil islohotlarni obro'sizlantirishga urinish; ikkinchidan, o'tkazilayotgan islohotlarning samaradorligi borasida aholida shubha tug'dirish, hokimiyatga nisbatan ishonchsizlikni paydo qilish va hatto "aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qiluvchi davlatda demokratik jamiyat qurib bo'lmاسligi va bu boradagi urinishlar yomon oqibatlariga olib kelishi" bilan odamlarni qo'rqitish; uchinchidan, mamlakatdan investorlarni cho'chitish, mamlakatda go'yo demokratik tamoyillarga zid xatti-harakatlarga yo'l qo'yilayotgani haqida safsata sotish bilan dunyo siyosiy va ishbilarmon doiralarida O'zbekistonni salbiy bo'yoqlarda ko'rsatish va hokazo. Shuning uchun ham axborot xavfsizligini ta'minlash har qachongidan ham muhimdir.

Umuman olganda, mamlakatimizda mustaqillik yillarida o'zbek modeliga asoslanib amalga oshirilgan keng ko'lamli demokratik islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquqtartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Shu bilan birga "taraqqiyotning "o'zbek modeli"ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o'z ishimizda doimo suyanamiz"².

¹ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т.: Ўзбекистон, 2005. –Б.194.

² Мирзиеёв Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. – Б.5.

Axborotlashgan jamiyat butun insoniyat hamjamiyati va alohida inson hayotining sifatini yaxshilash uchun buyuk salohiyatga ega, kichik va o'rta tadbirkorlik, mahalliy shart-sharoitlar va resurslardan optimal foydalanish, murakkab xizmatlar va ta'limni rivojlantirish imkoniyatlarini keskin kengaytiradi.

Insoniyatning iqtisodiy, siyosiy, harbiy faoliyatini murakkablashishi va bu sohalarda murakkab tizimlarning shakllanishi, oqibatda boshqarish va uning informatsion ta'minoti masalalari birinchi o'ringa chiqib, nafaqat kibernetika kabi bilim sohalarini, balki yangi dunyoqarashni tug'diradi, uning doirasida olam axborot jarayonlari prizmasi orqali idrok etiladi.

Shakllanayotgan axborotlashgan jamiyatning quyidagi ichki bir-biriga bog'liq asosiy jihatini ajratish mumkin: axborot va bilimning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim resursiga aylanganligi; axborot sanoatining ishlab chiqarishning eng harakatchan, foyda keltiruvchi va nufuzli sohasiga aylanishi; axborot va axborot xizmatlarini iste'mol qilishning rivojlangan bozor infratuzilmasining yuzaga kelishi; ijtimoiy tashkil qilish va hamkorlik modellarida chuqur o'zgarishlar.

IV-BOB. RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MA'NAVIY YANGILANISH MUAMMOSI

Jamiyat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotganligi islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

Ushbu bobda asta-sekin kundalik hayotning har bir sohasini ajralmas qismiga aylanib borayotgan raqamlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, uning ma'naviy yangilanish jarayonlariga ta'siri tahlil etilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida mamlakatdagi o'zgarishlar xalqimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining ifodasini topmoqda. Chunki, «zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak»¹. Albatta, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz kerak. Bu esa kelajakda mamlakatimizdagi ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan demokratik islohotlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish imkonini beradi. Shu sababli ham «bilim, ta'lim va tarbiya – Yangi O'zbekistonning tayanch ustunlariga aylanishi shart»².

4.1. Ma'naviy yangilanish muammosi: falsafiy tahlil

Bugungi kunda mamlakatimiz inson erkin va farovon yashaydigan ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyat qurish sari bormoqda. Shu jihatdan globallashib borayotgan va ma'rifiy sohada turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi olamda ma'naviy hayotimizdagi o'zgarishlar dinamikasining rivojlanish darajasi, unga xos qonuniyatlarning amalga oshishi va bu bilan bog'liq o'ziga xos milliy xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotining barcha

¹ Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисига Мурожаатномаси. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. –Б.19-20.

² Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va yangi O'zbekiston. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024. -67-b.

sohalarini jadal taraqqiy ettirish, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish sari katta tashabbuslar ilgari surilmoqda. Ushbu maqsadda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi dasturi qabul qilingan¹. Unda ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash hamda sohani yangi bosqichga olib chiqish alohida ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston demokratik taraqqiyotining ma'naviy yuksalish bosqichida harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi va uning ustuvor yo'nalishlarining belgilanishi, "xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilsin" g'oyasining o'rta tashlanishi, Xalq va virtual qabulxonalar, Davlat xizmati agentliklarining tashkil etilishi, xalq bilan davlat rahbarining bevosita muloqotining yo'lga qo'yilishi – mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada rivojlantirishning yangi amaliy usuli sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston demokratik rivojining yangi, milliy yuksalish bosqichida jamiyat rivoji va ta'lim tarbiya masalalari yuzasidan zamonaviy demokratik rivojlanishning xususiyatlaridan kelib chiqib, tub sifat o'zgarishi nuqtai nazaridan keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, demokratik islohotlarni izchil davom ettirar ekan, uning amaliy, konstruktiv xarakteriga hamda tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik o'ta muhimligiga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Bugungi kunga kelib ma'naviy sohadagi voqelik va jarayonlarni huquqiy tartibga solish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish va bunda zamon talablarini, Yangi O'zbekistonning mustahkam poydevorini qo'yish ehtiyojlarini hisobga olish zarurati yetilgan. Shu munosabat bilan O'zbekistonning keyingi o'n yilliklarga mo'ljallangan milliy taraqqiyot strategiyasida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga alohida bo'lim ajratilgani bejiz emas. Unda ushbu sohadagi serqirra faoliyatning mazmun-mohiyati, maqsad-muddalari, ustuvor yo'nalishlari va dolzarb vazifalari ochiq oydin ifodasini topgan. Bu jihatdan, "O'zbekiston Respublikasining ma'naviyat sohasidagi davlat siyosati to'g'risida" qonunni hamda "O'zbekistonning 2022–2032 yillarga mo'ljallangan ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot strategiyasi"ni ishlab chiqishni va uni amaliyotga joriy etish zarurligini alohida ta'kidlamoqchiman. O'z navbatida, bu Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonining ma'naviy sohadagi o'zgarishlari va innovatsiyalari dinamikasini to'liq tasavvur etish imkonini beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 60-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

Yangi O‘zbekiston orzusi, yangi O‘zbekiston fenomeni, Yangi O‘zbekiston: yangi taraqqiyot omillari, ma’naviy yangilanish imkoniyat va istiqbollari, yangi ma’naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar, ma’rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi, yangi O‘zbekiston va ma’naviy yangilanish kabi masalalar Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning asarlarida o‘z aksini topgan.

Globallashuv sharoitida ma’naviyat masalalari, ma’naviy qadriyatlar va ma’naviy yangilanishning xususiyatlari mustaqillikning dastlabki yillarida T.Mahmudov, J.Tulenov, S.Shermuhamedov, A.Jalalov, I.Xujamqulov, I.Ergashev, E.Yusupov kabi atoqli olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, hozirda ma’naviy yangilanishning turli jihatlarini B.Aliyev, Q.Nazarov, S.Otamurodov, S.Berdiqulov, D.Norqulov, A.Umarov, Sh.Madayeva, A.Mo‘minov, A.Muxtorov, J.Ramatov, A.Qodirov, M.Qahharova, X.Xaydarov, F.Yuldasheva va boshqalar tomonidan tadqiq etilmoqda.

Xususan, S.Otamurodov globallashuv va millat, milliy o‘zlikni anglash¹, A.Begmatov globallashuv sharoitida ma’naviy taraqqiyot va ma’naviy tarbiya², A.Erkayev ma’naviy taraqqiyot qonuniyatlari³, F.Yuldasheva globallashuv sharoitida O‘zbekistonda ma’naviy yangilanishning o‘ziga xos xususiyatlarini⁴ tadqiq etgan.

O‘zbekiston bugungi kunda tom ma’nodagi asrga teng buyuk voqealarni boshidan kechirmoqda. Tarixdan ma’lumki, biror xalq hayotida tub burilish sodir bo‘layotgan davrlarda jamiyat yangi istiqbollar sari bormog‘i uchun ijtimoiy munosabatlarni shunga muvofiq o‘zgartirmog‘i lozim bo‘ladi. Shu bois ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar shaxsning va butunicha jamiyatning tafakkurida, dunyoqarashida, ma’naviy olamida o‘zgarishlarni taqozo etadi.

XX asrning ulug‘ gumanisti A.Shveyser: “Voqelikni shakllantiruvchi kuchlar ichida ma’naviyat birinchidir”⁵, - degan edi. Biz bugun ulkan imkoniyatlar davrida yashamoqdamiz. Biroq ularni real voqelikka aylantirish yo‘lidagi g‘ov va xafv-xatarlar ham mavjudligicha qolmoqda.

¹ Otamurodov S. Milliy rivojlantirish falsafasi. – Toshkent: Akademiya, 2006; Globallashuv va milliy xavfsizlik (siёсий-falsafiy taхlil). – Toshkent: Ўзбекистон, 2013.

² Бегматов А. Маънавийт фалсафаси ёхуд Ислам Каримов асарларидаги янги фалсафий тизимнинг яратилиши. – Toshkent: Шарқ, 2000; Маънавийт фалсафаси. 2-китоб. – Toshkent, 2006; Маънавий тарбия. . – Toshkent: Akademiya, 2006.

³ Ёркаев А. Духовность – энергия независимости. – Toshkent: Маънавийт, 1998.

⁴ Юлдашева Ф.Х. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари: Дисс.я автореферати фалс.ф.д. (DSc). – Toshkent, 2019. – 72 б.

⁵ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.И. - Т.: Ўзбекистон, 2003. 34-б.

Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish uchun avvalo, insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz berishi zarur. Zero, kishilar tafakkurini band etgan eski andozalardan, tor qoliplardan, o'z umrini yashab bo'lgan aqidalardan xalos etmay turib, yangi davr, tarixiy taraqqiyot bilan tabiiy ravishda qo'l ushlashib keladigan yangidan-yangi muammolarni hal etib bo'lmaydi.

Darhaqiqat, jamiyatni ma'naviy yangilamay, kishilar tafakkurini o'zgartirmay turib, demokratik jamiyatni qurish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, umuman hech qanday taraqqiyotga erishish mumkin emas. Zero, demokratik fuqarolik jamiyati yuksak ma'naviyat va keng ma'rifat tantana qilgan jamiyatdir.

Biron-bir jamiyatning taraqqiyoti, kelajagi, avvalo, uning ma'naviy poydevori qanchalik mustahkamligi bilan belgilanadi. Har bir shaxsning, pirovardida xalq va millatning ma'naviy yuksalishi esa ming yillar mobaynida shakllangan, sayqal topib kelgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga sodiqlik, milliy-madaniy merosni e'zozlash, munosabat, o'zlikni anglash, insoniy komillikka intilish, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini egallash orqali ta'minlanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad – bugungi murakkab va tahlikali zamonda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, halqimiz farovonligini ta'minlash, yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz asosida vatanparvarlik, fidoyilik va yaratuvchanlik ruhida tarbiyalashdir.

Keyingi yillarda yurtimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsadni izchil amalga oshirishga qaratilgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hozirgi davr talabi va taqozosi, jamiyatimizning harakatlantiruvchi kuchlari va rivojlanish omillarini belgilaydigan faoliyat dasturi hisoblanmoqda. Mazkur strategiya xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko'lamli islohotlar davomiyligini ta'minlashning yaqqol ifodasidir. Shu sababli ham, “yangi O'zbekiston – bu inson va biznes manfaatlarini adolatli qonunlar asosida himoya qilinadigan jamiyatdir”¹. Shunday ekan, “yangi O'zbekistonni yuksak bilimli, intellektual salohiyatli insonlar yurtiga, ma'rifiy jamiyatga aylantirish”² shart.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va yangi O'zbekiston. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2024. 94-b.

² O'sha asar. 137-6.

Xo'sh ma'naviy taraqqiyot nima?

Ma'naviy taraqqiyot deganda ma'naviyatning o'zgarishi, rivojlanishi va boyib borishi jarayonini ifodalovchi tushuncha sifatida olishimiz mumkin. Ya'ni, bir tomondan kishilar hayotida yoki jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar shaxs ongi va ma'naviyatida muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ikkinchi tomondan, ma'naviyat voqealigidagi o'zgarishlarning kelib chiqishi va sodir bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Aytish kerakki, agar ma'naviyat yangilanib, boyib turmasa, juda tez orqada eskirib, taraqqiyotga yordam berish u yoqda tursin, unga xalaqit beradigan, to'siq bo'ladigan hodisaga aylanib qolar edi.

Jamiyat taraqqiyotidagi burilish, tub islohotlar davrida ma'naviyatda ham jiddiy o'zgarishlar yuz beradi va ayni paytda ma'naviyatning jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarga ta'siri kuchayadi. Bunday pallalarda ma'naviyat sur'atlari ham tezlashadi. Jumladan, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin unutilib ketayotgan milliy ma'naviy qadriyatlarni tiklanish, yoshlar, aholi ongiga singdirishga katta e'tibor berila boshlandi. Ma'naviyatga bunday e'tibor berilishi xalqning ongi, turmush tarzi, jamiyatdagi voqea-hodisalarga munosabatining o'zgarishiga kuchli ta'sir qildi.

Shu jihatdan ham jamiyat ijtimoiy ongi va dunyoqarashidagi o'zgarishlar, oxir oqibat, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va boshqa sohalarada jadal rivojlanishni ta'minlaydi. Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy ong va tafakkurdagi o'zgarishlar – o'z-o'zidan, tasodifan yoki mo'jiza bilan sodir bo'lib qolmadi. So'nggi yillarda, yangi O'zbekiston renessansining uchinchi davri to'g'risida fikr-mulohazalar aytilmoqda. Albatta uning sodir bo'lishi, «jamiyat ijtimoiy ongi va tafakkurida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi»¹. Albatta, aytish mumkinki jamiyatning ma'naviy yangilanishi, kishilar ongi va tasavvurida ro'y bergan o'zgarishlar mudom ijtimoiy adolatni qaror toptirish bilan bog'liq bo'lib kelgan.

Shuningdek, «agar yangilanishlar odamlar ongi va dunyoqarashi, qalbi va ruhiyati orqali o'zini namoyon etsa, u yashovchan va samarali бўлади»². Shu sababli ham mamlakatimizda davlatning yangilanishlar strategiyasi, sifat jihatdan o'zgarayotgan jamiyat, yangicha tafakkur asosida vujudga kelayotgan ijtimoiy guruhlarining qadriyat mo'ljallari bilan uyg'unlashib ketgan.

¹ Юнусов К.А. Янгиланаётган Ўзбекистонда ижтимоий онг ва тафаккурдаги ўзгаришларни амалга оширишдаги муҳим омил // Янгиланаётган Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий, маънавий ўзгаришлар: республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2021. – Б.5

² Жўраев Н. Маънавият – одам ва олам халоскори. – Тошкент: «Маънавият», 2018. 7-б.

Shuni ta'kidlash kerakki, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning aynan beshinchi yo'nalishi – «ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish»¹dir. Ushbu yo'nalishda bir necha maqsadlar ilgari surilgan bo'lib, ular bir biriga bog'liqdir.

Xususan, "ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish" masalasi asosiy maqsadlardan biridir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun barcha tashkilotlarda turli xil tadbirlar, davra suhbatlari o'tkazildi hamda ular davom etmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida ma'naviyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish ishlarini yanada samarali va tizimli tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish vazifalari" mavzusidagi ma'rifiy tadbir "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyilini amalga oshirishning ma'naviy sohadagi vazifalarini bajarish masalalariga bag'ishlandi ². Unda Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan Taraqqiyot strategiyasining ma'naviy rivojlanish masalalariga qaratilgan 5-ustuvor yo'nalishiga doir maqsad va vazifalarni bajarish va amalga oshirishga alohida ahamiyat qaratildi.

Shu bilan birga yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda «Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat» konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Prezidentimiz SH.Mirziyoevning ta'kidlashicha, Yangi O'zbekistonni yuksak madaniyat va ma'naviyatga ega bo'lgan, erkin va baxtli insonlar yashaydigan mamlakatga aylantirish uchun "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturi ishlab chiqiladi³. Bu, avvalo, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi. O'z navbatida, bu jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги 60-сон Фармони.
<https://lex.uz/uz/docs/5841063>

² <https://uzlidep.uz/news-of-party/11394>

³ <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston--marifatli-jamiyat-kontseptsiyasi-amalga-oshiriladi>

Ta'kidlash kerakki, yuqoridagi konsepsiyani ishlab chiqib hayotga tadbiriq etilishi natijasida aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining mamlakatimiz taraqqiyotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirishga qaratilgan alohida dasturlar qabul qilishga hamda ijodkor ziyolilarga doimiy e'tibor qaratish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar davom ettiriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, «ma'naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, milliy yuksalish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish – pirovard maqsadi inson manfaatlarini ta'minlash bo'lgan islohotlarimizning eng muhim vazifalaridandir»¹. Darhaqiqat, yangi avlodni voyaga yetkazishda asosiy e'tibor ta'limga, ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifatga qaratildi. Vaholanki, ta'lim o'zgarsa odamlar o'zgaridi, odamlar o'zgarsa jamiyat o'zgaridi. Ayniqsa, uchinchi Renessansni to'rt ajralmas xalqasi bog'chada – tarbiyachi, maktabda – o'qituvchi, oliy ta'limda – professor o'qituvchi, ilm va ijodiy ziyolilarga bog'liqdir.

Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish; targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralari ko'rish; o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash; «Mahalla-tuman-viloyat-respublika» prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma'naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda «Yoshlar - Yangi O'zbekiston byudjorlari» shiori ostida «Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans» g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash² kabi vazifalar qo'yildi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: «O'zbekiston» нашриёти, 2021. – Б.304.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги 60-сон Фармони. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

Yuqorida aytilgan yo‘nalishning maqsadlaridan bir – «aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda «Kitobsevar МИЛЛАТ» umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish»¹. Buning uchun aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruv tizimini joriy etish vazifasi ilgari surildi.

«Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib этиш» maqsadida mamlakatimizning istiqbolli islohotlarida kelajakda IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda «Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Ренессанс» shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etiladi. Bu esa yangi taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo‘nalishidagi ilgari qo‘yilgan maqsadlardan biridir. Shu bilan birga ushbu maqsadni amalga oshirishda buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma‘naviy merosini keng targ‘ib qilish hamda yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish ham ko‘zda tutilgan. Bu esa buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etishda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni ham nazarda tutadi.

Albatta, yaqin yillarda mamlakatimizda yangi ma‘naviy makonni shakllantirish bo‘yicha ishlar samarasini yuksak darajaga ko‘tarish va bu boradagi faoliyat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida “Yangi O‘zbekistonning Ma‘naviy taraqqiyot strategiyasi”ni hamda uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va hayotga joriy etish zarur bo‘ladi. Shuningdek, fuqarolarning ezgulik va insonparvarlik g‘oyalari hamda yuksak ma‘naviyat tamoyillariga asoslangan sog‘lom dunyoqarashi va zamonaviy tafakurini “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasi asosida shakllantirishni umummilliy harakatga aylantirish lozim. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston jamiyatining ma‘naviyat kodeksi”ni yaratish va uning amaliyotini ta‘minlash zarurati hamda “O‘zbekiston Respublikasining ma‘naviyat sohasidagi davlat

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги 60-сон Фармони.
<https://lex.uz/uz/docs/5841063>

siyosatining asoslari to'g'risida" qonunini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirilishini ta'minlash masalalari ham allaqachon yetilgan.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishda "Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot strategiyasi" turkumida kitoblar, lug'at va risolalar tayyorlash va chop etish ishlarini yo'lga qo'yish, shu maqsaddagi ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni amalga oshirish kerak. Buning uchun "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobining mazmun mohiyatini keng targ'ib qilish orqali barcha davlat va jamoat tashkilotlarida "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" mavzusida "Ma'naviyat soatlari"ni tashkil qilish mumkin. Bu esa ma'naviy taraqqiyot sohasini yangi bosqichga olib chiqishda vazifalarni o'z ichiga oladi hamda bu sohadagi boshqa maqsadlarni amalga oshirishga zamin yaratadi.

4.2. Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari

Raqamli texnologiyalar asta-sekin kundalik hayotning har qanday sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda hayotning barcha sohalari faoliyatini elektron, kompyuter, tarmoq va boshqa muhim avtomatlashtirilgan texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Aloqa va xarid qilishdan tortib, mahsulot ishlab chiqarish va kompaniyaning mustaqil "ishi"ga qadar hamma narsa raqamli muhitga o'tmoqda. Shu sababdan, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi paradigmasida raqamli texnologiyalar ijtimoiy farovonlikning o'sishini belgilaydigan asosiy ishlab chiqarish manbai sifatida qaraladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonning kelgusi taraqqiyotini ilmfan, ilmiy, ijtimoiy-gumanitar texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot asosida boshqarish tashkil etadi. Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalariga asoslangan raqamlashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bunday mamlakatdagi o'zgarishlar xalqimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining ifodasini topmoqda. Albatta, bugun zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz kerak. Bu esa kelajakda mamlakatimizdagi ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan demokratik

islohotlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish imkonini beradi. Shu sababli ham 2020 yil yurtimizda «Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»¹ deb nomlandi.

Darhaqiqat, zamonaviy dunyo yangi texnologiyalar rivojlanishining navbatdagi bosqichiga o'tdi. Ya'ni, birinchisi, bug' dvigatelini yaratish; ikkinchisi - elektrlashtirish; uchinchi - axborotlashtirish; to'rtinchisi - raqamlashtirish, ya'ni katta ma'lumotlar va unga asoslangan texnologiyalar davri.

Hozirgi vaqtda "raqamlashtirish" atamasi tor va keng ma'noda qo'llanilmoqda. Tor ma'noda raqamlashtirish axborotning raqamli shaklga aylanishini anglatadi, bu ko'p holatlarda xarajatlarning pasayishiga, yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Keng ma'noda «raqamlashtirish» jarayoni, odatda, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyasiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. Unga axborotni yaratish, qayta ishlab almashish va uzatish texnologiyalari kiradi.

A. Marey fikricha, «raqamlashtirish - bu bizning fikrlash tarzimiz, harakatimiz, atrof-muhit va bir-birimiz bilan aloqa qilishimizning paradigmal o'zgarishi»². Ya'ni, raqamlashtirishni aloqa va o'zaro munosabat paradigmasining o'zgarishidir.

E. L. Vartanova, M. I. Maksyenko, S. S. Smirnovlar ta'kidlashlaricha, raqamlashtirish «bu nafaqat ma'lumotni raqamlashtirish, balki infratuzilmaviy, boshqaruv, xulq-atvor, madaniy tabiatning kompleks yechimi»³. Ya'ni, Internet va mobil aloqani rivojlantirish raqamlashtirishning asosiy texnologiyalari degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Bugungi kunda axborot va bilim jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lib, unga an'anaviy tushunchalar va modellar qo'llanilmaydi. L.V. Shmelkova ta'kidlaganidek⁴, raqamli iqtisodiyotga mos keladigan shaxsning eng muhim xususiyati bu raqamli texnologiyalarga egalik qilish va ularni kasbiy faoliyatda qo'llashdir. Raqamli texnologiyalar, bir tomondan, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi,

¹ Мирзиёев Ш. М. (2020) Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

² Marey A. Tsifrovizatsiya kak izmenenie paradigmy [Elektronnyy resurs]. — Rezhim dostupa: <https://www.bcg.com/ru-ru/about/bcg-review/digitalization.aspx> (xavola vaqti: 15.03.2020).

³ Кешелава, А.В., Буданов, В.Г., Румянцев, В.Ю. и др. (2017). Введение в «Цифровую» экономику - ВНИИ Геосистем, -С.28.

⁴ Исследование российского рынка онлайн-образования и образовательных технологий [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <https://edmarket.digital/> (xavola vaqti: 15.04.2020).

boshqa tomondan, ular turli sohalarda individual yondashishga imkon beradi.

Raqamlashtirish tushunchasi "raqamli vositalar yordamida aloqa, yozuv, ma'lumotlarni uzatishning raqamli usuli"dir¹. Darhaqiqat, raqamlashtirish jarayonida ma'lumotlarning sifati va mazmunida hech qanday o'zgarish bo'lmaydi, shunchaki raqamli formatda keyinchalik qayta ishlash uchun elektron shaklga aylantiriladi, bu bizga mavjud bo'lgan biznes-jarayonlarni ularga raqamli formatga ma'lumot qo'shish orqali takomillashtirishga imkon beradi.

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining hozirgi bosqichi raqamlashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborotlashtirish va kompyuterlashtirishni almashtirgan dunyo ijtimoiy rivojlanishidagi yangi tendensiya sifatida, u quyidagilar bilan tavsiflanadi - ma'lumotlarning raqamli taqdimoti asosida, bir mamlakatning ham, butun dunyoning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti miqyosida iqtisodiyot samaradorligi oshishi va hayot sifati yaxshilanishiga olib keladi.

Raqamli tarmoqlarda rivojlanayotgan jamiyat uchun sifat jihatidan o'zgargan xususiyatlarni yaratib, axborot-kommunikatsion tushdagi yangi madaniy amaliyotlarning shakllanishi amalga oshirilmoqda², bunda shaxsning erkinligi, uning madaniy o'zini o'zi identifikatsiyasi va virtual muhitda o'zini namoyon qilish imkoniyatlari har xil tushuniladi³. Albatta, raqamli madaniyat inson hayotining ma'nolari va qadriyatlariga tubdan ta'sir ko'rsatishi, jamiyat madaniyatining ixtisoslashgan va kundalik darajalari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishi, turmush tarzi va turmush tarziga muhim o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Raqamlashtirish nafaqat ijtimoiy rivojlanishning, balki dunyo iqtisodiyotining iqtisodiy o'sishida ham hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Alohida raqamli texnologiyalarni joriy etishdan global va milliy iqtisodiyot doirasida raqamli ekotizimni qurishga o'tish mavjud. Ushbu tendensiya barcha mamlakatlarda raqamlashtirish jarayoni ishtirokchilari - davlat hokimiyati organlari, biznes, o'quv muassasalari, sanoat korxonalari va moliyaviy institutlar o'rtasida samarali hamkorlik zarurligini aks ettiradi.

¹ Цифровизация [Электронный ресурс] // Викисловарь. — Режим доступа: <https://ru.wiktionary.org/wiki/цифровизация> (хавола вакти: 15.03.2018)

² Астафьева, О.Н. (2004). Синергетический дискурс современных информационно-коммуникативных процессов. Синергетическая парадигма: Когнитивно-коммуникативные стратегии современного научного познания. -Москва, С.419-443.

³ 4. Астафьева, О.Н. (2007). Виртуальные сообщества: «сетевая» идентичность и развитие личности в сетевых пространствах. Вестник Харьковский национальный ун-та им. В. Н. Каразина «POST OFFICE. Образи часу – образи с світу». Серия: Теория культуры и философия науки. № 776, -С.120–133.

Aytish kerakki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ko'p qirrali jarayon bo'lib innovatsion rivojlanishning asosini tashkil etmoqda. Raqamli iqtisodiyot ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jumladan, insonlarning o'zaro munosabatlari, ilmiy tadqiqot, fan, ta'lim, bilimlarni generatsiya qilish, insonning bilish jarayonlariga katta ta'sir o'tkazmoqda. Shu sababli raqamli iqtisodiyot - bu O'zbekiston rivojlanishi uchun yangi paradigmani belgilaydigan global tendensiyadir. Bunda asosiy vazifalardan biri - insonlarni mamlakatda yuz berayotgan raqamlashtirish jarayonlariga ilmiy, amaliy va fuqarolik qarashlarini yetkazish, iqtisodiy o'sish uchun imkoniyatlarni izlash, integratsiya va ulkan sinergetik effektga erishish orqali hayot darajasi va sifatini yaxshilash zarur. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotda tashkilotlarning va birinchi navbatda iqtisodiyotning real sektori korxonalarining zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan foydalanishi ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun muhim shartdir.

Aytish kerakki, ijtimoiy rivojlanishda raqamlashtirish va iqtisodiyotni raqamli o'zgartirish ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu esa ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni shakllantirish va ulardan foydalanish zaruriyatini, raqamli voqelikni o'zlashtirishning yangi shakllarini moslashtirish va rivojlantirishni talab qilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy manbalaridan biri uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini tashkil etish, aholini bilimlarini faol ravishda yangilash va talab qilinadigan kompetensiyalarni shakllantirish¹ zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Albatta, raqamli iqtisodiyot harakatlar strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. 2019 yildagi «Faol investitsiya va ijtimoiy rivojlanish yili» dasturida raqamli iqtisodiyotning milliy konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasini qo'ydi. Bu esa iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilishni nazardada tutadi. Shu bilan birga, «Raqamli O'zbekiston - 2030» dasturini amalga oshirish maqsadi qo'yildi. Ta'kidlash joizki, raqamli iqtisodiyotning iqtisodiyotdagi o'rni zamonaviy dunyoda mamlakatlarning raqobatdoshligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Biz iqtisodiyotning qaysi sektoriga qaramasdan, hamma narsada raqamli texnologiyalarning o'rnini ko'ramiz. Xususan, biz innovatsion raqamli texnologiyalarning mamlaka-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини Инновацион Ривожлантириш Стратегиясини тасдиqlаш Тўғрисида”. <https://lex.uz/ru/docs/3913188>

timiz bank tizimidagi ulushini, shuningdek, davlat xizmatlari darajasida ko'rmog'damiz.

Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalining roli va ahamiyatini inobatga olgan holda, biz raqamli iqtisodiy aloqalarning rivojlanish darajasini har jihatdan baholaydigan ko'rsatkichlarga murojaat qilamiz. Ta'kidlash joizki, iqtisodiyotni raqamlashtirish darajasini baholovchi har bir indikatora inson kapitalini, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha raqamli bilim va ko'nikmalar shaklidagi baho mavjud.

Shuni aytish kerakki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarda raqamli iqtisodiyot masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, 2020 yil 28 aprelda PQ-4699 «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarorida ham ta'lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, "Besh tashabbus»loyihasini amalga oshirish doirasida 2022 yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o'qitish markazlarini ochish kabi vazifalarni amalga oshirish masalalari ilgari surilgan¹. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish imkonini beradi.

Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyot «iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, unda axborotlashgan jamiyatining asosiy ko'rsatkichlarini tavsiflovchi sub'ektlarning bilimlari va nomoddiy ishlab chiqarishlar ustunlik qiladi»². shuni aytish kerakki, raqamli iqtisodiyot - bu O'zbekiston rivojlanishi uchun yangi paradigmani belgilaydigan global tendensiyadir. Bunda asosiy vazifalardan biri - insonlarni mamlakatda yuz berayotgan raqamlashtirish jarayonlariga ilmiy, amaliy va fuqarolik qarashlarini yetkazish, iqtisodiy o'sish uchun imkoniyatlarni izlash, integratsiya va ulkan sinergetik

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори. «Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги // ҚХММБ: 07/20/4699/0520-сон 29.04.2020 й.

² Забелина, О.В., Мальцева, А.В., Мирзабалаева, Ф.И. (2019). Установки работающего населения России на непрерывное профессиональное образование. Креативная экономика. Том 13, №4. – С.773-790. doi:[10.18334/ce.13.4.40532](https://doi.org/10.18334/ce.13.4.40532)

effektga erishish orqali hayot darajasi va sifatini yaxshilash zarur. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotda tashkilotlarning va birinchi navbatda iqtisodiyotning real sektori korxonalarining zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan foydalanishi ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun muhim shartdir.

Albatta, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keltirilgan "raqamli iqtisodiyot", "bilimlar iqtisodiyoti", "axborotlashgan jamiyat" tushunchalari eski sanoat paradigmasini o'rnini bosadigan yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimni shakllantiradi. Shu sababli dunyoning rivojlangan davlatlari raqamli iqtisodiyot, tizimli axborotlashgan jamiyat va bilim iqtisodiyotining tizimli elementlarini uyg'un rivojlanishiga katta e'tibor bermoqdalar. Shu o'rinda aytish kerakki, raqamli jamiyat - bu global loyiha bo'lib, uning maqsadi global telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ma'lumot yig'adigan, ishlaydigan, ishlab chiqaradigan va tarqatadigan mikroelektronika, mahalliy va global kompyuter tarmoqlaridan foydalanishga asoslangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda boshqariladigan yangi jamiyatni yaratishdir. Darhaqiqat, raqamli jamiyat mohiyatan tarmoqli axborotlashgan jamiyati deyish mumkin. Darhaqiqat, raqamli o'zgarishlarning maqsadi iqtisodiy munosabatlarning yangi versiyasi (raqamli iqtisodiyot), jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarning yangi darajasi (raqamli hukumat), yuqori texnologiyali infratuzilmani (raqamli makon) yaratishdir.

Raqamli jamiyat qurish tamoyillari 2030 yilgacha quyidagilar bo'lishi mumkin: raqamli milliy suverenitetni qo'llab-quvvatlash; raqamli aktivlardan har bir sub'ektning bepul, teng va kamsitishsiz foydalanishi; milliy raqamli texnologiyalardan foydalanishning ustunligi; yagona raqamli makon mavjudligi; fanlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, yagona bilim tizimini shakllantirish; an'anaviy, ijtimoiy, milliy qadriyatlar va madaniyatni saqlab qolgan holda yangi raqamli qadriyatlar va madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish. Shunday qilib, raqamli jamiyat murakkab ko'p o'lchovli tizim sifatida ongli ravishda, aniq va bir xil ma'noda me'moriy prinsiplarga asoslangan tizimli yondashuvni qo'llash orqali tushunilishi¹, raqamli jamiyatni bashorat qilingan qonuniy, tashkiliy va texnologik vositalar orqali ko'rish, xuddi shu prognozlardan foydalanib, tarkibiy qismlarni bir-biri bilan bog'lab, raqamli jamiyatning yagona modelini shakllantirish mumkin.

¹ Gaffarova, G.G. (2019), Problems self-organization: philosophical analysis // Scientific Bulletin of Namangan State University. –T.1. –№5, - C.185-190.

4.3. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tafakkuriga ta'siri

XXI asrda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internetning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati shiddat bilan oshib bormoqda. "Albatta, internet orqali dunyoning istalgan nuqtasi bilan tezkor aloqa o'rnatish, zudlik bilan zarur axborot va ma'lumotlarni olish, bilim va ma'rifatni oshirishda uning beqiyos o'rni va ahamiyati borligini xech kim inkor etmaydi. Biz odamlarimizning internet imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishga bo'lgan intilishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz. Takror bo'lsada, aytmoqchiman - axborot olamida qandaydir devor o'rnatish, o'z qobig'iga o'ralib, maxdudlikka yuz tutish yo'li bizga aslo ma'qul emas"¹.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik jamiyatining an'anaviy shakllarini nafaqat o'zgartiryapti, balki yaqin kelajakdagi yangicha ko'rinishini o'zida namoyon qilmoqda. Aslida ijtimoiy tarmoqlarning asosiy vazifasi ular endigina tashkil etilayotgan paytlarda odamlarga uzoqdagi tanishi bilan aloqa qilish, ular o'rtasida o'zaro onlayn muloqotni yo'lga qo'yish edi. Biroq bugun ularning funksiyalari tobora kengayib bormoqda. Eng avvalo, jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsatishning qudratli axborot - siyosiy vositasiga aylanmoqda.

Mutaxassislarining fikricha, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning asosiy ustunligi muloqot erkinligi hisoblanadi. Ayni paytda ular yer yuzidagi qariyb 3 milliard aholini qamrab olgan². Bu sayyora ahlining deyarli yarmi, degani. Darhaqiqat, bugun ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy barcha-barcha sohalarida global tarmoqning cheksiz-chegarasiz imkoniyatlarini hisobga olmaslik, undan ma'lum maqsadlar yo'lida foydalanmaslik, ta'bir joiz bo'lsa, zamondan orqada qolish, deganidir. Bu masala bevosita yoshlar faoliyatiga ham daxldor. Xo'sh, ijtimoiy tarmoqlar nima? U yoshlar tafakkuri va faoliyatiga qanday ta'sir qiladi?

Ijtimoiy tarmoqlar virtual olam internetdagi xuddi shunday «ari uyasi»dir. Ular paydo bo'lganiga unchalik ko'p bo'lgani yo'q. Ushbu tarmoqda dastlab qiziqishlari yoki kasblari bo'yicha birlashdilar, keyin bu g'oya kengayib, do'stlar, tanishlar, hamkasblar ularga qo'shila boshladilar.

Hozirda yirik ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar soni millionlab, milliardlab kishiga yetgan. Ular o'zaro muloqot qiladilar, saytlarga o'zlarining, yaqinlarining fotosuratlarini, videolarini qo'yadilar, u yoki bu

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. - Т.: "Ўзбекистон", 2001.

² <http://uza.uz/uz/society/yosh-avlod-huquqi-va-xorij-tajribasi-25.02.2010-11431>.

mavzuda fikr almashadilar. Kimlardir bu saytlarda o‘zlarining unut bo‘lib ketgan tanishlarini, bolalikdagi do‘stlarini topadilar. Ba’zida aqlga to‘g‘ri kelmaydigan hollar ham uchraydi – ikkita yon qo‘shni bir-biri bilan internet orqali gaplashib o‘tirashadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda faqat do‘stlar, tanishlarni emas, mashhur insonlarni ham uchratish mumkin. Yulduzlar o‘z sahifalarini ochib, unda hayotlaridagi qiziqarli voqealarni yozadilar, suratlarini berib boradilar. Shu bilan birga tarmoqlar ichida ko‘plab hamjamiyatlar ochilgan – ularni istalgan foydalanuvchi o‘z qiziqishiga qarab ochishi va do‘stlarini taklif qilishi mumkin. Hamjamiyatlarning mavzulari xilma-xil – futbol, tikuvchilik, avtomobil. Shunday qilib, insoniyat nimaga qiziqsa, hammasi. Hamjamiyat ichida uning a‘zolari o‘zaro fikr almashadilar. Ba’zi hamjamiyatlarga istagan kishi a‘zo bo‘lishi mumkin, ba’zilari esa yopiq sanalib, unga faqat a‘zolardan birining tavsiyasi bilan yoki hamjamiyat ma’muri ruxsati bilan qo‘shilsa bo‘ladi.

Aytish kerakki, ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunimizning eng asosiy vaqt o‘tkazuvchi omili hisoblanadi. Ayniqsa yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kasaliga uchrashgan. Bizning diyorimizda eng asosiy ijtimoiy tarmoq sifatida “odnoklasniki” birinchi o‘rinda turadi. Shu bilan birga mail.ru, facebook, twitter, telegram, instagram, imo, WhatsApp kabi ijtimoiy tarmoqlar keng ommalashdi.

Darhaqiqat, bugungi kunda Odnoklassniki ijtimoiy tarmog‘i sinfdoshlarini - litsey (kollej) kursdoshlarni, institut (universitet) kursdoshlarni, qarindoshlarni, hamkasblarni xullas yaqin do‘stlarni topib, ular bilan gaplashishga imkon beruvchi ko‘ptillik tarmoq hisoblanadi. Bu ijtimoiy tarmoq 2006 yilda ishga tushgan. Uning tuzuvchisi rossiyalik veb-dasturchi Albert Popkov hisoblanadi. Sayt foydalanuvchilarning asosiy yoshi 14-55 yoshni tashkil qiladi. Dastlab bu saytdan ro‘yxatdan o‘tish pullik bo‘lgan, so‘ng 2010 yil bu xizmat bepul deb e’lon qilingan.

2010 yili Jet korxonasi bu ijtimoiy tarmoqda dastlabki o‘yinlarni beta versiyasini sinovdan o‘tkazgan. 2011 yildan boshlab foydalanuvchilarni guruxlarga bo‘lish boshlangan. 2011 yilda musiqa blogi ishga tushdi va shu yili saytning yuqori qicmidagi boshqa proyecktarga o‘tish (mail.ru Group korxonasi xizmatlari) blogi ishlab chiqildi. Hozirgi kunda kunlik foydalanuvchilar soni 40 millionga yetdi. Sayt tojik va ingliz tiliga o‘girilgan bo‘lib, u jahondagi top ijtimoiy tarmoqlar o‘ntaligiga kiradi.

Ijtimoiy tarmoq deganda ko‘z oldimizga hozirgi kun ta’rifi bilan aytadigan bo‘lsak Virtual olam degan tushuncha keladigan bo‘lib qoldi. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarning soni ko‘paygandan ko‘payib

bormoqda, bu o'z navbatida jamiyatga katta ta'sirini berib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar shunday kuchga ega bo'ldiki uzoqdagi do'stingni yaqinlashtirib, yaqindagi do'stingni uzoqlashtirishga olib keldi. Bu o'z navbatida jamiyat a'zolari orasida sarosima va betartiblikni keltirib chiqarmoqda. Ammo ijtimoiy tarmoqlar hozirgi kunda yoshlarga keng imkoniyatlarni ham yaratib bermoqda. Bunga misol sifatida turli davlat yoshlari bir-birlari bilan fikr almashib savollariga javob topishda, katta yutuqlarga erishishda ijtimoiy tarmoqlarning beqiyos yordamlari foyda berib kelmoqda. Bunda yoshlarning ongini va niyatini to'g'ri qo'ya bilishni o'rgatsak ijtimoiy tarmoqlardan ham kerakli natijalarni olsak bo'ladi.

Ma'lum qilinishicha, ijtimoiy tarmoqlarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, Internet kontentining kengayishi, Internetga ulangan multimediya moslamalarining ommalashuvi madaniy va ijodiy sohada burilish yasadi. Ammo, ekspertlar bu boradagi o'zgarishlar tillar xilma-xilligiga ziyon yetkazishi, "veb gigant"larning o'sishi esa dunyo madaniy boyliklarini xatarga qo'yishini ta'kidlashmoqda.

Bugungi kunda ayrim ommaviy ijtimoiy tarmoqlarda 13 yoshga to'lmagan bolalarni ro'yxatga olmaslik uchun cheklovlar qo'yilgan. Ayrim kompyuter operatsion tizimlarida ham «ota-ona» nazorati funksiyasi mavjud bo'lib, bolalarni tizimdan foydalanish vaqtlariga cheklov qo'yish imkoni mavjud. U kompyuterdan o'rnatilgan vaqtdan ortiqcha foydalanish imkonini bermaydi va avtomatik ravishda ishini to'xtatadi. Agar farzandingizga kompyuter sotib olib, undan bilimlari doirasini kengaytirish maqsadida foydalanishiga ruxsat bergan ekansiz, bu bilan o'zingizning ham oldingizga ma'suliyatli vazifalar paydo bo'lganini unutmasligingiz zarur.

Ayrim mamlakatlarda bolalarning o'z tarmoqlari mavjud bo'lib, ularda: ovozi o'yinlar, multfilmlar, harflari yirik shriftda va bolalarga mos tushunarli tilda bayon etilgan matnlar berilgan. Mazkur saytlar kattalar ham kirib, ularni o'rganishlari imkoni mavjud. Bunday tarmoq manbalarida bolalarga haqiqiy hayotdagi kabi virtual olamda ham tartib-intizom qoidalari mavjudligini tushuntirib borish eng birinchi navbatdagi vazifadir.

Pedagogik nuqtai-nazardan, tarmoq quyidagi xavfli ta'sirlarga ega: zamonamizning salbiy ta'sirga ega yomon illatlari qatorida, internet tarmog'iga bog'lanib qolish; o'qish va bilim olishga yengiltaklik bilan munosabatda bo'lish (Internetdan tayyor dars ishlanmalari, matematik masalalar yechimlarini osongina topish hisobiga dars topshiriqlarini

mustaqil bajarmaslik); jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir xavfi, ya'ni bolaning faol harakatda bo'lmay, uzoq vaqt monitor ro'parasida o'tirishiga to'g'ri kelishi va boshqalar.

Ijtimoiy tarmoqlarning hozirgi kunda yoshlar tafakkuriga ijobiy ta'sir etishi bilan birga juda ko'plab yoshlarni ijtimoiy tarmoqlar vaqtini o'g'irlamoqda, internet-klublarda, mobil telefonlarda yoshlar ayni o'qib ilm hosil qiladigan paytlarida vaqtlarini bekorchi o'yinlarga, axloqiy buzuvchi xarakatlar, estetik jihatdan saviyasi ancha past bo'lgan foto suratlar va video fayllarni ko'rish bilan umrini xazon qilmoqda.

Darhaqiqat, Internetga kirgan bola internet saytidan xoxlagan ma'lumotni izlashi va unga bir necha xildagi takliflar beriladi. U o'zi xoxlagan ma'lumotni ochishi mumkin. Lekin u ma'lumotni olish natijasida axborot manbai yoki sayt xaritasida turli xil ko'rinishdagi reklamalar mavjud. U o'zi xoxlamagan tarzda ham ushbu reklamalarni ko'rish mumkin. Shunda u yoshlarni ongiga ta'sir qiladi va shu tariqa uni ham turli hil tarzda reklamalar o'z domiga tortib boradi. Yana hozirgi kunda kompyuter o'yinlari keng rivojlanishi. Buning natijasida yoshlar jangari ruxda tarbiyalanib bormoqda. Masalan: O'yin o'ynash davrida bola birovni o'ldirsa unga rag'bat sifatida 10 ball, mashinasini tortib olsa 20 ball, magazinga kirib uni talon taroq qilsa 30 ball, militsiya xodimini ursa 40 ball beriladi. Buning natijasida yoshlar ongida nafaqat insonlarga qolaversa davlat xodimlariga nisbatan ham norozilik kayfiyati ham rivojlanadi. Shuning uchun ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishimiz lozim.

Albatta bu bilan ularni cheklay olmaymiz ularni internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz lozim. O'yinlar masalasiga kelsak yoshlarni aqliy qobiliyatini shakllantiradigan matematik, mantiqiy o'yinlarni keltirishimiz mumkin. Ularni eng asosiysi nazoratdan chetda qoldirmasligimiz lozim. Shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda mutloq notanish shaxslar bilan tanishishga urinayotgani tashvishli xolat. Bu esa jamiyatda ilmsizlik joxillikning, axloqsizlikni tomir yoyishiga olib keladi. Buning natijasida yoshlar ongi va madaniyatiga salbiy ta'sir qilmoqda. Bularning oldini olish uchun, yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli va qiziqarli tashkil etish lozim. Bunda eng avvalo oila, mahalla, ta'lim maskanlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikda ish olib bormoq lozim.

Ta'lim muassasalarida yoshlarni o'qishdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun sport to'garaklari, musiqa to'garaklari, fan to'garaklari davomiy tarzda va eng asosiysi yoshlarni qiziqitira oladigan darajada tashkil etish lozim. Shu bilan birga yoshlarni iqtidorlisini topish

va ularni tarbiyalash lozim. Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan yoshlarni qiziqishi va yosh xususiyatidan kelib chiqib turli xil formalar tashkil etish lozim.

4.4. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda virtual olamning ahamiyati

Insoniyat azal-azaldan virtual hodisalariga duch kelgan, ular bilish va amaliyot faoliyatida u yoki bu darajada anglanilgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, faqat XX asrning 2-yarmida virtuallik mohiyati, unga oid xossalar va qonuniyatlar ilmiy, amaliy hamda texnologik tadqiqotlar predmetiga aylandi. Bu davrgacha falsafa va fanda virtuallik fenomenini o'rganish borliqni bilish muammosi bilan gnoseologik nisbatda bo'lgan, virtuallik tushunchasi bilan turdosh bo'lgan imkoniyat tushunchasi xususida mulohazalar yuritilgan.

Virtuallikni imkoniyat va potentsiallik sinonimi sifatida qo'llash antik davr falsafiy refleksiya doirasiga kiritilgan. Tadqiqotchi M.Normammatova ilmiy tadqiqot ishida virtuallikni potentsiallik sinonimi sifatida qullash Geraklit qarashlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Uning keltirishicha "...mutafakkir virtuallik fenomini ma'nosiga turdosh mazmunni saqlaydigan, bo'lajak voqelik kurtagini o'zida majassamlashtirgan "urug'" tushunchasini falsafiy refleksiya doirasiga kiritdi"¹. Geraklitning fikricha, umumiy mohiyat bo'lgan, borliqning yaratuvchi kuchini (negizini) tashkil qilgan olovdan suv (dengiz) paydo bo'lib, u "olamni hosil qiladigan urug'"ga aylanadi. Bu urug'dan yer va osmon hamda ularning oralig'idagi makonda turli xil narsalar vujudga keladi².

Antik davrning buyuk matafakkiri Aristotel potentsiallikni haqiqiy narsaga aylantirilmasligini taxmin qildi: "...mavjud bo'lmagan narsalar orasida, imkoniy biror narsa bor; lekin... aslida bu yemas" (virtual)³.

Antik Yunonistonda nazariy tafakkur darajasida yaratilgan va potentsiallik, imkoniyat kategoriyalari bilan ifodalangan dastlabki virtualistik g'oyalar musulmon sharqida diqqat-e'tibordan chetda qolmadi. Sharqning buyuk allomalari Al-Kindiy, Forobiy, Ibn Sino va boshqalar sabab hamda oqibatning oldingi holati ma'nosini bildirgan imkoniyat va

¹ Нормаматова М.Н. Постноклассик эпистемология ва виртуалистика. Монография. Самарканд.: 2015.- 8 б.

² Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии. М., 1981 - с. 134

³ Аристотель. Метафизика // Сочинения-в.4-хт_Т.1_/ Ред В.Ф. Асмус- М.: Мысль, 1975.- 550 с.

potensiallik (virtuallik) tushunchalaridan ontologik va gnoseologik masalalarni hal qilishda keng foydalanishgan, o'z davrlari ilmi va amaliyoti nuqtai nazaridan bu tushunchalarning yangi ma'no-mazmunini ochib berishgan.

Forobiyning borliqning yaratilishi va mohiyatini tushuntirishga oid qarashlarida virtuallik va konstant rayellikning dialektik tarzda namoyon bo'lishini ko'ramiz. Forobiy fikricha borliq olti bosqichdan iborat bo'lib bu bosqichlar, ayni vaqtda, butun mavjud narsalarning asosidir, ular bir-biri bilan sabab va oqibat munosabatlari bilan bog'langan. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat: birinchi bosqich – birinchi sabab, ikkinchi bosqich – ikkinchi sabab, uchinchi bosqich – uchinchi sabab – faol aql, to'rtinchi bosqich – to'rtinchi sabab – jon (annafas), beshinchi bosqich – shakl, oltinchi bosqich – materiya¹. Forobiy birinchi uchta sababni noreal ekanligini, oxirgi uchta esa, ya'ni to'rtinchi, beshinchi va oltinchi sabablar bevosita real buyumlar, moddiy narsalar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Forobiyning konstant va virtual reallikka yaqin fikrlari uning materiya va shakl to'g'risidagi qarashlarida ham ko'rinadi. Uningcha har qanday narsa, predmet ikkita ibtidodan – materiya (hayula) va shakl (surat)dan tashkil topadi. Forobiy “Jamo'a siyosati” asarida bunday yozadi: Shakl – bu shunday narsaki, uning yordamida imkoniyatdagi jism haqiqatda jismga aylanadi. Materiya shunday narsaki, u tufayli jism imkoniy tarzda mavjuddir. Haqiqatdagi kursi – imkoniyatdagi kursi, bu shu ma'nodaki, u yog'ochdir, yog'och o'zida kursi shaklini olgandan keyin, u haqiqatda kursi bo'ladi.

Forobiyning gnoseologiyasidagi nazariy va amaliy aql dialektikasida potensial aqlning faol aqlga aylanishi va oxir oqibatda samoviy aqlga aylanib borishi haqidagi fikrlarida ham virtuallik xos fikrlar ilgari surilgan. Forobiy talqinicha, mohiyatni bilish predmetlarning ular materiyasidan ajralgan formasi – shaklini bilish bilan bog'liqdir. Predmetlar formasini materiyadan ajratib olish, ular mohiyatini bilish imkoni asta-sekin voqelikka aylanadi. Aql bu imkoniyatni amalga oshiradi, ya'ni ular shaklini materiyasidan ajratib, mohiyatini biladi va bu bilan voqeyiy yoki aktual aqlga aylanadi. Bunday aqliy bilish, predmet mohiyatiga kirib borishda davom etadi. Aql predmetlarning so'nggi, navbatdagi asoslari,

¹ Хайруллаев М. Уйғониш даври ва шарқ мутафаккири “Ўзбекистон” нашриёти Т. 1971.-188 б.

“egalarini”, moddiy sabablarini bilish darajasiga yetib boradi. Bu bosqichda u qo‘lga kiritilgan yoki foydalanilgan aql deb ataladi¹.

Sharqning yana bir qomusiy olimi Ibn Sino ijodida ham imkoniyat tushunchasi o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lib “belgilanish” va “holat” tushunchalari yordamida ifodalashga harakat qiladi. Ibn Sinoning fikricha, barcha mavjud narsalar yo substansiya, yo aksidensiya sifatida namoyon bo‘ladi. Substansiyaning mavjud bo‘lishi mohiyat bilan belgilanadi. Lekin, imkoniyatni bor bo‘lishi substansiyaning mohiyati bilan emas, balki narsani u yoki bu tarzda mavjud bo‘lishi bilan belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, imkoniyat maxsus substansiya emas, u substansiyaning holatidir. Narsa va materiya imkoniyat holatida mavjud bo‘lishi mumkin. Materiya har doim imkoniyatdagi narsa yoki predmetdir va shu bois, oldin mavjud bo‘ladi².

Yangi davrda Leybnits dunyomizning yaratilishida Xudoning erkinligini metafizik ravishda oqlash uchun imkoniyatda bo‘lgan dunyolar g‘oyasini e‘lon qildi.³

Popper bizning dunyomiz empirik kuzatilgan faktlar yoki ratsional tushunilgan qonunlardan iborat emas, balki " mayl " yoki " moyillik " (propensities) deb ataydigan maxsus potensial davlatlardan iborat degan fikrni ilgari surdi.⁴ . Imkoniyatdagi olamlar muammosi J. Hintikka, S. Kripke, R. Karnap va boshqalarning asarlaridagi modal mantiqda ham ko‘rib chiqiladi (masalan, qarang⁵).

"Virtual" atamasini imkoniyat yoki potensiallik sinonimi sifatida qo‘llash bizning davrimizda ham kuzatiladi, masalan, tarixdagi sub‘ektiv kayfiyatni "virtual tarix" deb atash(masalan, qarang)⁶, tarixiy o‘tmishni qalbakilashtirish, tarixiy voqealar qanday rivojlanishini tasavvur qilishga

¹ Хайруллаев М. Уйғониш даври ва шарқ мутафаккири “Ўзбекистон” нашриёти Т. 1971.-237 б.

² Ибн Сина. Книга знания// Ибн-Сина. Избранные произведения. М.: “Наука”, 1980. –с. 132-133

³ Лейбниц Г.В. Монадология // Лейбниц Г.В. Сочинения в 4-х томах. Т.1.- М.: Мысль, 1982.- С. 413-429. Юз.Лем С. Сумма технологий: Пер. с польского / С. Лем.- М.: ООО

⁴ Поппер Карл Р. Объективное знание. Эволюционный подход / Пер. с англ. ДХЛахути. Отв. ред. В.Н.Садовский.- М.: Эдиториал УРСС, 2002.- 384 с.

⁵ Карнап Р. Значение и необходимость. Исследование по семантике и модальной логике.- М.: Иностранная лит-ра, 1959.- 382 с. Хинтика Я. Логико-эпистемологические исследования.- М.: Прогресс, 1980.- 447 с.

⁶ Каранг: Еременко А.М. О виртуальности виртуальной истории...// Человек.- 2002.-№3.-С. 124-139; Экштут С. А. Сослагательное наклонение в истории: воплощение незбывшегося. Опыт философского осмысления // Вопросы философии.-2000.- №8.- С. 79-87.

urinib, "agar muqobil varianti bo'lib, haqiqatda mag'lub bo'lsada, xayoliy g'alaba qozonadi va uni rivojlantira олади»¹

Rus olimi M.Yermenko virtual reallikni imkoniyatdagi dunyo ma'nosida qo'llaydi. M. Yermenko imkoniyatdagi olamlarni "imkoniyatlar majmui (yoki imkoniyatdagi mavjudliklar), ya'ni bir butunlikni izchil shakllantirib bir-birining imkoniyatini istisno qilmaydigan dunyo" sifatida tushunadi². Bu fikrga qushilish qiyn, chunki, virtual reallik imkoniyatdagi dunyo tushunchasi mazmuniga kirmaydi. Virtual reallik bizni imkoniyatda bo'lgan dunyo kabi, moddiy belgilarga yega bo'lmagan va izchil ravishda bir butunlikni tashkil yetadigan imkoniyatlar majmui sifatida qiziqtiradi, ammo uning o'ziga xosligi, avvalo, insonning u bilan haqiqatan ham mavjud bo'lgani kabi, u bilan muloqot qilishidadir.

Shu o'rinda virtuallik va imkoniyat tushunchalari o'rtasidagi munosabatga oydinlik kiritib o'tmoqchimiz. Imkoniyat va virtuallik tushunchalari ma'no va mazmunan bir-biriga yaqin tushunchalar hisoblanadi, hamda bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu ikki tushuncha o'rtasidagi munosabat, avvalo qisman moslik munosabatida ekanligini ta'kidlab o'tmoq lozim. Ular o'rtasidagi qisman moslik munosabati qo'yidagilarda ko'rinadi: birinchidan, virtuallik ma'lum bir ma'noda imkoniyatdagi voqelik hisoblanadi, chunki virtual reallik hali to'la vujudga kelmagan voqea, to'la yaratilmagan borliqdir; ikkinchidan, bu ikki tushuncha o'z mohiyatini voqelik kategoriyasi orqali namoyon etadi. Shu bilan birga imkoniyat ham virtuallik singari potensial holatda mavjud bo'ladi. Bu yerda virtuallik tushunchasining shakllanishi imkoniyat tushunchasining rivojlanishiga olib keladi.

Virtuallik imkoniyatga yangicha ma'no va mazmun berishi mumkin. Virtuallik o'z mohiyatini imkoniyat va voqelik tushunchasi orqali ochib beradi. Imkoniyat va virtuallik tushunchalari bir-biri bilan o'xshash bo'lishi bilan birgalikda ular o'rtasida ma'lum farqli tomonlar ham mavjud. Ammo bular o'rtasidagi farqni konkret chegara qo'yish bilan aniqlab bo'lmaydi, chunki bu ikki tushuncha bir-biriga juda yaqin va o'zaro bog'liqlangandir.

Virtuallik va imkoniyat o'rtasidagi farq qo'yidagilardan iborat: birinchidan, imkoniyat ehtimolli, ya'ni uning voqelikka aylanishi yoki aylanmasligi ehtimollik harakteriga ega. Virtual ob'ekt real holda mavjud va u hamisha aktualdir; ikkinchidan, virtual reallik doimo qandaydir ilk (konstant) reallikdan yaratiladi, hamda virtual reallik keyingi darajadagi

¹ Еременко А.М. О виртуальности виртуальной истории...// Человек.- 2002.-№3.-С. 124

² Эпштейн М.Н. Философия возможного.- СПб.: Алетейя, 2001,- 30 с.

boshqa virtual reallikni keltirib chiqarishi mumkin va bu jarayon cheksizdir. Imkoniyatning voqelikka aylanishi esa yangi narsa yoki hodisaning vujudga kelishini anglatadi; uchinchidan, imkoniyat voqelikka aylanishi bilan ma'lum shaklga ega bo'ladi. Virtuallik esa mavjud bo'lish holatini bildiradi.¹

"Virtual" va "virtual reallik" tushunchalaridan foydalanish noaniq bo'lgani kabi, "Virtual" va "virtual reallik" hodisani tushunish ham shunday. Biz ushbu maqolada virtusning sxolastik g'oyasining zamonaviy falsafasi va ilm-fanidagi tiklanishni faol sabab, butun koinotga xos bo'lgan faol tamoyil va uning qismlari deb hisoblamaymiz, va shunga ko'ra, ob'ektivistik pozitsiyadan virtual reallikni ongdan mustaqil bo'lgan haqiqiy mavjudlik, shuningdek, virtual reallik imkoniy va parallel dunyolar sifatida tushunishga yordam beradi (I.A.Akchurina, V.P.Vizgina, G.Patti, Yu.V.Sachkova, Ye.D.Smirnovoy i dr.).

Virtual voqelikni tushunishda borliqni aks ettirib va o'zgartirib inson faoliyatining mahsuli sifatida qarovchi asosiy yondashuvlarni uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh - bu virtual voqelikni o'ta keng tushunish, bu yerda oqibatda barcha reallikga ishora qiladi - bu reallik ("narsa-biz uchun") odatda virtual deb hisoblanadi, chunki predmet ob'ektiv dunyo bilan yemas, balki sub'ektning tasavvurlari bilan o'zaro ta'sirda deb his qilinadi (F.IXirenok, O.EXaksanskiy, S.A.Borchikov, D.V.Ivanov, M.Kastels, I.X.Korsunsev, F.G.Maylenova va boshqalar).

Ikkinchi guruh - virtual voqelikni zamonaviy axborot texnologiyalari kontekstida deb tushunish. U murakkab texnik tizim-kompyuter va uning apparat hamda dasturiy ta'minoti asosida yaratiladigan virtual reallik bilan xarakterlanadi. Bu sohada qiziqish predmeti odatda kompyuterdagi virtual dunyolar bo'lib, uning asosiy ajralib turadigan xususiyati interaktivlik, ya'ni Foydalanuvchining kompyuter ijodlari bilan muloqot qilish qobiliyatidir (V.S.Babenko, S.Datsyuk, M.B.Ignatev, DjLane, K.Makmillan, A.A.Rodionov, M.Xaym, F.Xemit, Ye.A.Shapovalov, D.I.Shapiro va boshqa tadqiqotchilar).

Uchinchi guruh tadqiqotlarida, virtual reallik tushunchasi kognitiv va ijtimoiy modellar, mavhum tushunchalar va kategoriyalar realligida qo'llanilib, har doim ham real moddiy jarayonlarga mos kelmaydigan, badiiy to'qima va hayoliy tasvirlar-kitoblar, filmlar, rasmlar, shuningdek tush, orzu, ong o'zgargan holatlariga murojaat qilinadi (O.SAnisimov,

¹ Муҳаммадиев Х.Х. Виртуалистикада постноклассик ғоялар // постноклассик фалсафа ва фанлар методологияси муаммолари. Монография. Самарқанд: СамДУ нашри, 2011.-88-89 б.

O.N.Astafeva, I.V.Bestujev-Lada, V.M.Kollonotay, O.R.Maslov i Ye.E.Pronina, A.I.Neklessa, N.A.Nosov, Yu.M.Osipov, V.SSvechnikov va boshqalar.).

Tipologiyamizdan boshqa yana yondashuvga ko'ra virtual voqelikning namoyon bo'lishi aniq bir ifodalovchining ma'lum bir xarakteriga bog'liq bo'lmagan, balki ong ishtirokida yuzaga keladigan va shu shaklda inson ruhiyatiga beriladigan maxsus voqelik sifatida qaraladigan tadqiqotlar mavjud. Bu tadqiqot ishlarida mualliflar virtual voqelikni tushunishda barcha uch asosiy yondashuvni hisobga oladilar(G.P.Menchikov, M.Yu.Openkov, S.L.Orexov).

Virtual reallikni juda keng tushunish, tabiiy ravishda, Berklidan Berger va Lukmangacha kuzatilishi mumkin bo'lgan qurilgan (konstrutiv) reallik g'oyasiga mos keladi. Berklining fikricha, bizga ma'lumki, narsalarning mavjudligi faqat ularning idrok qilinishidan iborat (esse est percipi). Uning fikricha, ulkan sezgilar majmui ("g'oyalar") da oriyentatsiya uchun odamlar o'zlarining assotsiativ bog'lanishlari asosida ularning turli birikmalarini yagona ketma-ketlikka birlashtirishlari lozim, bu narsa sifatida belgilangan¹.

Kant "haqiqiy tajriba" ning asosiy shakllarini tashqi dunyoda yemas, balki inson ongida joylashtirish orqali oldindan berilgan dunyo tushunchasini yo'q qildi: "biz o'zimizni tabiat deb ataydigan hodisalarga tartib va muntazamlikni keltiramiz va agar biz yoki ruhimizning tabiati ularni dastlab qo'ymagan bo'lsa, hodisalarda топилмайди»², "... bunday hodisalar bizdan tashqarida bo'lishi mumkin emas va faqat bizning hissiyotimizda mavjud»³.

Gusserl vaqt ichki ongining fenomenologiyasiga bag'ishlangan ma'ruzalarida ong tuzilmalarini sintez qilishning harakat mexanizmini ochib beradi va idrokni "birinchi navbatda ob'ektni tashkil yetadi" deb хисоблайди»⁴

Nihoyat, P. Berger va T. Lukman reallik ijtimoiy qurilganligini ta'kidlashadi, shu bilan birga, voqelik "hodisalarga xos sifat bizning Iroda va istagimizdan mustaqil borliqga yega bo'lish"deb tushuniladi ⁵.

¹ Беркли Дж. Сочинения / Сост., общ. ред. и вступ. статья И.С. Нарского.-М.: Мысль, 1978.- 556 с.

² Кант И. Критика чистого разума / Пер. с нем. Н. Лосского.- М.: Мысль, 1994.- 513с.

³ Кант И. Критика чистого разума / Пер. с нем. Н. Лосского.- М.: Мысль, 1994.- 514с.

⁴ Гуссерль Эд. Феноменология внутреннего сознания времени //Собрание сочинений. Т. 1.- М.: Гнозис, 1994.- с.44

⁵ Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания,- М.: «Медиум», 1995.- с. 9

"Nomodddiy" reallikni yaratish mexanizmini ular Reifikatsiya deb tushundi. Reifikatsiya-bu tabiiy hodisalar, kosmik qonunlarning oqibatlari yoki ilohiy irodaning ko'rinishlari kabi inson faoliyatining mahsulotlarini bundan butunlay farq qiladigan narsa sifatida qabul qilishdir

Reifikatsiya - bu tabiiy hodisalar, kosmik qonunlarning oqibatlari yoki ilohiy irodaning ko'rinishlarida namoyon bulish sifatida inson faoliyatining mahsulotlarini bundan butunlay farq qiladigan narsa sifatida qabul qilishdir

Yuqoridagilardan aytish mumkinki, zamonaviy davr o'zining beqarorligi, tez o'zgaruvchanligi, noaniqliklari, murakkabliklari bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda barcha jabhalarda tizimli o'zgarishlar davom etmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda kuzatilayotgan pandemiya ham respublikamizdagi ijtimoiy tizimning barcha jabhalariga ta'sir etdi. Iqtisod, xizmat ko'rsatish, tibbiyot, ta'lim tizimi, insonlar tafakkkurida ham tizimli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Umuman olganda, bugungi kunda raqamli texnologiyalar va tarmoq effektlari jahon iqtisodiy tizimining barcha sub'ektlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining ajralmas qismi hamda ijtimoiy taraqqiyot asosidir. O'zbekiston, dunyoning aksariyat mamlakatlari singari, hayotning barcha sohalarida bilim, fan, texnika va axborotning muhim roli bilan ajralib turadigan boshqa texnologik inqilob, yangi sivilizatsiyaning paydo bo'lishi arafasida. Zero, hozirgi murakkab davrda O'zbekiston uchun an'anaviy iqtisodiyotni imkon qadar zamonaviy axborot, intellektual, raqamli iqtisodiyotga aylantirish juda muhimdir. Bu esa rivojlanish yo'lidir. Aks holda, keyingi ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar natijasida siyosiy nomutanosiblik muqarrar bo'lib, bu o'z navbatida ijobiy teskari aloqa sifatida harakat qilishi va mamlakatni texnologik, keyin esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlardan orqada qoldirishi mumkin.

XULOSA

Bugungi kunda olam tezkor o'zgarib bormoqda. Bunday tub va keng miqyosli o'zgarishlar jamiyatning aynan axborot sohasida sodir bo'lmoqda. Ushbu o'zgarishlar ilmiy-texnik inqilobning navbatdagi bosqichi emas, balki global sivilizatsion xarakterga ega jarayondir. O'z navbatida, XXI asrning o'rtalaridayoq sayyoramizda "sivilizatsiyaning umuman yangi turi – axborot (informatsion) sivilizatsiyasi shakllanadi" deb bashorat qilinmoqda. Darhaqiqat, sivilizatsiyaning shakllanish jarayonida jamiyatning deyarli barcha sohalarida axborot va ilmiy bilimning ahamiyati jiddiy ravishda ormoqda.

Shu bilan birga bugungi kunda inson bir oy davomida shunchalik axborotni qayta ishlar ekanki, uni XVIII asrda yashagan inson butun umri davomida qayta ishlashga sarflagan. Xususan, bugungi kunda axborot miqdorining tobora ko'payib borayotganligi va kommunikatsiyadagi yangilanishlar hamda axborot oqimining kuchayib borayotganligi, hozirgi vaqtda axborotning tez va sifatli aylanishini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining bosh mezoniga aylanayotgani hamda axborot generatsiyasiga bog'liq masalalar bugungi kunda ham ilmiy-nazariy ham amaliy jihatdan dolzarb bo'lib, uni falsafiy-metodologik tahlil qilish muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga hozirgi paytda axborot generatsiyasi zamonaviy jamiyat hayotiga yangicha tasavvurlar, yondashuvlar, dunyoqarashlarni vujudga keltirmoqda. Ushbu jarayonlarning falsafiy-metodologik tahlili hozirgi rivojlanishning mezonlarini belgilab beradi.

Aytish kerakki, XXI asr – axborotlashgan jamiyat asridir. Darhaqiqat, "yangi asr – axborot, yuksak texnologiyalar va zamonaviy bilimlar, oldimizda ochilayotgan yangi istiqbollar asridir". Shuning uchun ham hozirgi vaqtda axborotning tez va sifatli aylanishini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining bosh mezoniga aylanmoqda.

Ba'zi mutaxassislar fikricha, insoniyat axborotlashtirish orqali "evolyutsion taraqqiyotning yangi davriga qadam qo'yimoqda. Bu shunchaki o'zlashtirilgan jamiyatni qurish emas, balki butunlay yangi jamiyatdir", - deya yozadi E.Toffler. Bunday jamiyatni qurish muammolari ko'p hollarda axborot va axborotlashtirish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, katta tadqiqot olamini tashkil qiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda tez o'zgarib turadigan olamda yangi muammolar, yangi falsafiy, metodologik dasturlarni tushuntirishni talab qiladigan vazifalar vujudga kelmoqda. Shu sababli ham biz yangi

sharoitlar bilan to'qnashishga tayyor bo'lishimiz, zamonaviy tabiiy fanlar ma'lumotlariga asoslanib tanlangan o'z tizimimizni va ongli ravishda dunyoqarashlarni shakllantirishimiz lozim. Darhaqiqat, bugungi murakkab olamni sinergetika, murakkab tizim nazariyasi va uning "murakkablik"da bo'linishini o'rganmoqda. Bu yo'nalishlar zamonaviy olamning imkoniyatlari qatorida yangi yuqori texnologiyalarni va global muammolarni yechishning yangi yo'lini birlashtiradi.

Hozirgi vaqtda axborotlarsiz ishlab chiqarish rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi, axborot maydoni jamiyat hayotiga o'zining jiddiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun axborot fan va ijtimoiy hayotning eng muhim sohalaridan biriga aylandi. Undan samarali foydalanish yo'llari va imkoniyatlarini topish jamiyat taraqqiyotining barcha sohaları va ayniqsa, iqtisodning zaruriy asosini tashkil qiladi. Axborot ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotning muhim omilidir. Shu sababli ham u inson tafakkuriga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi, insoniyat hayotini, taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh ijobiy goh salbiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylandi.

Hozirgi axborotlashgan jamiyatda axborot inson bilimining asosiy manbalaridan biri bo'lib qoldi. Shu ma'noda, ishlab chiqarishning yuksak rivojlanishi, yuksalishi zamonaviy makroelektronika va kompyuter texnikasiga asoslanmoqda. Bu jarayonlar o'z navbatida ommaviy axborot va texnologiyalarni vujudga keltirib, axborotni saqlash va qayta tahlil qilishning turli murakkab yo'nalishlarini shakllanishiga olib keldi. Kommunikatsiya tizimidagi bunday o'zgarish xatto xo'jalik tizimini o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, axborotga nisbatan yuksak ommaviy ehtiyojning o'sishi umuman aholiga axborot va kommunikatsiya xizmati sohasining o'sishiga olib keldi. Aynan shuning uchun ham axborot insonning shaxsiy ehtiyojni qondirish, shaxsiy buyurtmalarni bajarish xususiyatini, uning ahloqiy va estetik qadriyatlarini namoyon qilishga qaratilgan kibermadaniyat¹ tushunchasini vujudga keltirmoqda.

Hozirgi zamon olamda shart-sharoitlari bir xil bo'lgan ahvolda tarixiy musobaqani ko'p axborotlarni yaratgan va ularni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jadalroq tadbiq eta biluvchi ijtimoiy tuzum yutib ketadi. O'z-o'zidan shu ham ravshanki, odam va odamzotning ijtimoiy va jonnni saqlash uchun kurashida bunday texnologiyaning saviyasi va sifati tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois axborotlashtirish texnologiyasi jadal rivojlanayotgan va hayotga tadbiq etilayotgan jarayon va tobora

¹ На путях постмодернизма. – М.: Котур. 1995. – С.141.

oshkora ravishda ko'payib kelayotgan axborot falsafa nuqtai nazari bilan jamiyatni anglash alohida qiziqish uyg'otadi.

Yigirmanchi asrda insoniyat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Kosmik asr, deb nom olgan bu bosqich fan va texnikaning mislsiz taraqqiyoti, uning yutuqlarining xalq xo'jaligiga keng qamrovda tatbiq etilishi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar esa XXI asr arafasida kishilik jamiyati taraqqiyot uchun mutlaqo yangi tendensiya – axborotlashtirish jarayonini yuzaga keltirdi. Axborotlashtirish hozirgi davrning taraqqiyotini belgilab beradigan, umumlashtiradigan va kuch-qudrati sifatida namoyon bo'layotgan obyektiv jarayondir.

XXI asr misli ko'rilmagan tezkor gullab-yashnash asri bo'ladi. Bunda axborotlarsiz ishlab chiqarish rivojlanishini tasavvur etib bo'lmaydi, u tugayotgan asrimizning so'nggi o'n yilligida butun kishilik jamiyati rivojlanishi resursi deb tan olingan. Bu kompyuterlar va axborot tizimlari, mahalliy va global tarmoqlar internetning umumjahon tarmog'i, multi-medial texnologiyalar va hakoazolarni o'z ichiga oladi.

Axborotlashtirish kishilik jamiyatining barcha sohalariga kirib bormoqda. Yaqin yillarda iqtisodchining ish joyini kompyutersiz tasavvur qilish qiyin va bu universal texnikaning imkoniyatlari mataxassislar tomonidan to'liq darajada foydalanilishi kerak.

Insonning axborot ishlab chiqarish bo'yicha imkoniyatlarni kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish – axborotlashtirish sanoatining jadal rivojlantirishni talab etuvchi eng muhim texnik, iqtisodiy vazifadir.

Axborotlashtirishga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni nazorat qilish, bu nazorat tizimini demokratiya mezonlariga muvofiq takomillashtirish kerak. YA'ni, ichki va tashqi siyosatda ro'y berayotgan fakt va voqealarni yoritishda yangicha yondashuvlarni qo'llash, mahalliy ommaviy axborot vositalarining xalqaro miqyosdagi jamoatchilik fikriga ta'sirchanligini oshirish, dushmanlik kayfiyatida bo'lgan axborot vositalarining mafkuraviy xurujlariga munosib javob berishga qodir axborot immunitetini shakllantirish kerak.

Mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va O'zbekistonning xalqaro aloqalarini tahlil qilish borasida tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish, islohotlarning axborot ta'minotini ta'minlash ishida matbuot va elektron ommaviy axborot vositalari harakatlarini birlashtirish lozim. Buning uchun ilmiy-texnik infratuzilmani rivojlantirish zarur: masalan, aloqa va kommunikatsiyalar tizimlari, bu tizimlarga xizmat

ko'rsatuvchi ilmiy tekshirish va muhandislik markazlari hamda firmalarini kuchaytirish kerak.

Axborotlashtirish sohasidagi siyosat ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlar va axborotlashtirishning zaminini, asosini yaratishga ko'maklashishi kerak: buning uchun davlatdagi modernizatsiya jarayonlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarur. Ilmiy bilim muhandisligi, intellektual (matematik, lingvistik, gumanitar, ijtimoiy-madaniy va h.k.) ta'minot va boshqalar barcha yo'nalishlar bir tomondan himoyalangan va ularga yaxshi sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори. «Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги // ҚХММБ: 07/20/4699/0520-сон 29.04.2020 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // «Куч – адолатда». Ўзбекистон Республикаси судининг ҳуқуқий газетаси. 2018 йил 29 декабрь, №52-53(722). –Б.3.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги 60-сон Фармони. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини Инновацион Ривожлантириш Стратегиясини тасдиқлаш Тўғрисида”. <https://lex.uz/ru/docs/3913188>
6. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”-ги Қонуни / <https://www.lex.uz/acts/83472>
7. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни // Халқ сўзи. 2004 йил 11- феврал.
8. Ўзбекистон Республикасининг “Компьютерлаштиришни янада ривожлантириш ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-3080-сон фармони / <https://lex.uz/docs/152470>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi 60-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
10. Президент Ш.Мирзиёевнинг 2021 йил 19 январь кuni маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомллаштириш, бу борада давлат ва жамоатташкiлотларининг хамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилишида сўзлаган нутқи. Kun.uz.
11. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024. 94-b.
12. Мирзиёев Ш. М. (2020) Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

13. Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. – Б.19-20.

14. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – Б.5.

15. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент, 2018. <https://www.pv.uz/uz/news/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirzиеva-olij-mazhlisu>

16. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: «O'zbekiston» нашриёти, 2021. – Б.304.

MONOGRAFIYA, RISOLA VA BOSHQA KITOB-LAR

17. Абдеев Р.Ф. Философия информационной цивилизации. - М.: ВЛАДОС, 1994.

18. Абдуазимов О. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик фикри мониторингини таъминлашда оммавий ком-муникациялар социологиясининг ўрни (Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларининг 2001–2016 йиллардаги материаллари мисолида). Монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2016. – Б. 49 – 66.

19. Абдуазимов О. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик фикри мониторингини таъминлашда оммавий ком-муникациялар социологиясининг ўрни (Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларининг 2001–2016 йиллардаги материаллари мисолида). Монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2016. – Б. 49 – 66.

20. Абдуллаева М.Н., Покачалов Г. Философские проблемы методологии науки. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – С.37.

21. Абдуллаева М.Н., Туленова К.Ж., Ғаффарова Г.Ғ., Ниязимъетов М.К. Миллий ғоя ва фаннинг методологик муаммолари. - Тошкент.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2009. - Б.24.

22. Абдумаликов А. Фукаролик жамиятида шахс инфор-мацион маданиятини шакллантириш: Монография. –Тошкент: Фан, 2016. –Б. 60.

23. Аристотель. Метафизика // Сочинения-в.4-хт_Т.1_ / Ред В.Ф. Асмус- М.: Мысль, 1975.- 550 с.

24. Асланова М.Н., Сапрыкина Е.В. Знание и информация в современном обществе: источник опасности или эксперты риска? // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 1.

2014. №1(135). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/znanie-informatsiya-v-sovremennom-obschestve-istochniki-opasnosti-ili-eksperty-riska> (Хавола: 18.07.2019)

25. Астафьева, О.Н. (2004). Синергетический дискурс современных информационно-коммуникативных процессов. Синергетическая парадигма: Когнитивно-коммуникативные стратегии современного научного познания. -Москва, С.419-443.

26. Астафьева, О.Н. (2007). Виртуальные сообщества: «сетевая» идентичность и развитие личности в сетевых пространствах. Вестник Харьковский национальный ун-та им. В. Н. Каразина «POST OFFICE. Образи часу – образи с світу». Серия: Теория культуры и философия науки. № 776, -С.120–133.

27. Афанасьев В.Г. Человек: общество, управление, информация: опыт системного подхода.– М.: 2013.– 208 с.

28. Аюбов Ш.А. Продолжение идей ал-Хоразми в современных алгебраических системах // Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация. – Т., 2000. – С.54.

29. Бард А., Зодерквист Я. Нетократия. Новая правящая элита и жизнь после капитализма. / Перевод со шведского языка. – СПб.: Стокгольмская школа экономики в Санкт-Петербурге, 2004. – 252 с.

30. Баяндин А.В. От восприятия – к информации // Исследования в области естественных наук. Апрель, 2012. №4 (Электронный ресурс). URL:<http://science.snauka.ru/2012/04/234> (дата обращения: 21.01.2014)

31. Бегматов А. Маънавият фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларидаги янги фалсафий тизимнинг яратилиши. – Тошкент: Шарк, 2000.

32. Бегматов А. Маънавият фалсафаси. 2-китоб. – Тошкент, 2006.

33. Бегматов А. Маънавий тарбия. – Тошкент: Akademiya, 2006.

34. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. Пер.с англ. В. Л. Иноземцева. – М.: Academia, 1999. – 956 с.

35. Белл Д. Социальные рамки информационного общества / Новая технократическая волна на Западе / Под ред. П. С. Гуревича. М.: Знание, 1986. С. 330–342.

36. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. - М.: «Медиум», 1995.

37. Беркли Дж. Сочинения / Сост., общ. ред. и вступ. статья И.С. Нарского.-М.: Мысль, 1978.- 556 с.

38. Богатырева Е.Н. Феномен информации в контексте научного познания: философский анализ: Автореф. дис. К.филос. наук. – Саратов, 2000. – 29 с.
39. Бриллиэн Л. Наука и теория информации. – М., 1959.
40. Шеннон К.Э. Работы по теории информации и кибернетике. – М., 1963.
41. Бриллиэн Л. Научная неопределенность и информация. – М., 1966.
42. Вачнадзе Г.Н. Агрессия против разума: информационный империализм. – М.: Политиздат, 1988. 271 с.
43. Вернадский В. Живое вещество. – М.: Наука, 1978. – С.359.
44. Вершинская О.Н. Информатизация общества // Вопросы философии. – М., 1999. – №3, – С.55-57.
45. Винер Н. Человек управляющий. – СПб: Питер, 2001. – С.24.
46. Волкова И.В. «Информационный империализм» и борьба за духовную деколонизацию Африки (80-е гг.). Научно-информационный бюллетень. № 9. – М.: Институт Африки АН СССР, 1987. 52 с.
47. Всемирный Саммит по Информационному обществу (WSIS) – <http://www.wisis.org/>; <http://www.unesco.org/wsisdirectory>
48. Всемирный саммит по информационному обществу. – М., ЮНЕСКО. 2007.
49. Гайденок П.П. Знание и информация // Философия науки. – М., 1997. – №3. – С.189-190.
50. Гаффарова Г.Г. Ахборот ва ахборотлаштириш жараёнларининг фалсафий-методологик муаммолари: Дисс. фалс.ф.н. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2008. – 160 б.
51. Gaffarova, G.G. (2019), Problems self-organization: philosophical analysis // Scientific Bulletin of Namangan State University. –Т.1. –№5, – С.185-190.
52. Гаффарова Г.Г. Мураккаб тизимларда ахборот генерациясининг фалсафий-методологик асослари: Дисс.я фалс.ф.д. – Тошкент, 2019. – Б.185.
53. Гелбрейт Дж. Справедливое общество. Гуманистический взгляд. – Boston-NY, 1996.
54. Глушков В.М. Введение в алгебраическую теорию информации. – М.: Наука; Физматлат, 1995. – 112 с.
55. Глушков В.М. Основы безбумажной информатики. – М., 1987.

- 56.Гречко П. Интеллектуальный импорт или о периферийном постмодернизма // Общественные науки и современность. – М., 2000. – С.167.
- 57.Фуломов С., Шермухамедов А., Бегалов Б. Ахборотлашган жамиятнинг мужассамланиши // Ўзбекистонда иқтисодий ахборотномаси. – Т., 1999. январь-февраль, – 7-Б.
- 58.Гуссерль Эд. Феноменология внутреннего сознания времени //Собрание сочинений. Т. 1.- М.: Гнозис, 1994.- с.44
- 59.Давронов З. Илмий ижод методологияси. – Т.: Иқтисод-молия, 2007. – 180-б.
- 60.Дзэконова Л.И. Информационный империализм и борьба за новый международный информационный порядок в странах Западной Африки (1976–1981 гг.): Автореф. канд. дис. - М.: Изд-во Моск. ун-та, 1983. - 21 с.
- 61.Дракер П. Посткапиталистическое общество. – СПб., 1999. – С.34.
- 62.Дракер П. Посткапиталистическое общество // Новая индустриальная волна на Западе: Антология / Под ред. В.Л. Иноземцева. - М.: Academia, 1999.
- 63.Дружинин В.В., Конторов Д.С. Проблемы системологии. – М., 1976.
- 64.Дубровский Д.И. Информация, сознание, мозг. – М.: Высшая школа. 1980. – С.97.
- 65.Дубровский Д.И., Вержбицкий В.В. Категория информации (философский обзор) // Философские науки. – Москва, 1976. – № 1. – С.156.
- 66.Ёзиева У. Ахборотлар таҳдидидан химояланишнинг педагогик шарт-шароитлари: Монография. –Тошкент: “Akademnashr”, 2016. – Б.25.
- 67.Ёкубова М.И. Жамият таракқиётида ахборотлашув ва ахборот технологияларининг аҳамияти.. Фалс.фан. номз. Дисс. авт. – Тошкент, 2006. –Б.10.
- 68.Еременко А.М. О виртуальности виртуальной истории...// Человек.- 2002.-№3.-С. 124-139.
- 69.Экштут С. А. Сослагательное наклонение в истории: воплощение незбывшегося. Опыт философского осмысления // Вопросы философии.-2000.- №8.- С. 79-87.
- 70.Еременко А.М. О виртуальности виртуальной истории...// Человек.- 2002.-№3.-С. 124

71. Ёрмирзаева Ф.А. «Информация» и «знание»: анализ соотношения статуса понятий в условиях информационного общества // Вестник ТГУПБП, 2018. №1 (74), -С.48-57.

72. Жалалова Г.О. Илмий билимларда трансформация жараёнларининг эпистемологик моҳияти: Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.яси. – Тошкент, 2018. –Б.12.

73. Жамият кўзгуси. – Т.: Академия, 2005. – 39-Б.

74. Жданов Г.Б. Информация и сознание // Вопросы философии. – Москва, 2004. – №11. – С.97.

75. Жўраев Н. Маънавият – одам ва олам халоскори. – Тошкент: «Маънавият», 2018. 7-б.

76. Забелина, О.В., Мальцева, А.В., Мирзабалаева, Ф.И. (2019). Установки работающего населения России на непрерывное профессиональное образование. Креативная экономика. Том 13, №4. – С.773-790. doi:[10.18334/ce.13.4.40532](https://doi.org/10.18334/ce.13.4.40532)

77. Задумкин К.А., Кондаков И.А., Иванов М.Н. Процесс генерации знаний: основные понятия и сущность // Экономика региона: проблемы развития, Вып.4(50), апрель-июнь, 2010. –С.23.

78. Земан И. Познание и информация. – М., 1966.

79. Ибн Сина. Книга знания// Ибн-Сина. Избранные произведения. М.: “Наука”, 1980. –с. 132-133

80. Игнатенко А. Зеленый интернетционал. Экстремизм в компьютерной сети (С) “НГ-Религии-Дайджест” (НГРД), электр. версия прил. к “НГ” (ЭВНГРД). Номер 003 (3) от 07 апреля 1999 г., среда. Полоса 4.

81. Иноземцев В.Л. Перспективы постиндустриальной теории в меняющемся мире // Новая индустриальная волна на Западе: Антология. - М.: Academia, 1999.

82. Иноземцев В.Л. Современное постиндустриальное общество: природа, противоречия, перспективы. – М.: Логос, 2000. – 304 с.

83. Исследование российского рынка онлайн-образования и образовательных технологий [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <https://edmarket.digital/> (хавола вақти: 15.04.2020).

84. Кабулов В., Файзуллаев А., Назиров Ш. Ал-Харезми, алгоритм и алгоритмизация. – Т.: Фан, 2006. – С.52.

85. Кабулов В.К. Принципы и методы алгоритмизации // Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация. – Т., 2000. – С.66.

86. Кабулов В.К., Файзуллаев А.Ф., Назиров Ш.А. Ал-Хорезми, алгоритм и алгоритмизация. – Т.: Фан, 2006. – С.206.

87. Кант И. Критика чистого разума / Пер. с нем. Н. Лосского.- М.: Мысль, 1994.- 513 с

88. Караваев Н.Л. Знание и информация как необходимые компоненты познавательного процесса: взаимоотношения и взаимопереходы: Дисс... на соискание учёной степени канд.филос.н. Киров, 2009.

89. Каримов Б.Р. Синергетика ва эвристиканинг илмий билиш жараёнидаги ўрни // Синергетик парадигма: муаммо ва имкониятлар: илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2013. -Б.61-62.

90. Каримов И. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: “Маънавият”, 2013. –Б 110.

91. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.П. - Т.: Ўзбекистон, 2003. 34-б.

92. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б.35.

93. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2010. –Б.4.

94. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир (Фидокор газетаси муҳбири саволларига жавоблар). – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б.7.

95. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б.23-24.

96. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т.8. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 86-Б.

97. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т.: Ўзбекистон, 2005. –Б.194.

98. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ асрга интиломда. - Т.: “Ўзбекистон”, 2001.

99. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2009. –Б.106.

100. Карнап Р. Значение и необходимость. Исследование по семантике и модальной логике.- М.: Иностранная лит-ра, 1959.- 382 с.

101. Хинтиikka Я. Логико-эпистемологические исследования.- М.: Прогресс, 1980.- 447 с.

102. Кастельс М. Галактика Интернет: Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. – Екатеринбург: У-Фактория, 2004. - 230 с.
103. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. - М.: ГУ ВШЭ, 2000. - 608 с.
104. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество, культура /Пер. с англ.; Под науч. рук. О.И.Шкаратана. – М.: ГУВШЭ, 2000.
105. Кастлер Г. Возникновение биологической организации. – М., 1967. – С.20.
106. Катречко С.Л. Знание как сознательный феномен // Что значит знать?: сборник научных статьи. – М.: Центр гуманитарных исследования. – СПб.: Университетская книга, 1999. – С.60-99.
107. Каширин В.И., Каширина О.В. Философия информации: союз философии и компьютерной культуры // Вестник Ставропольский государственный ун-та: научный журнал. – Ставрополь, 2006. Вып.44. – С.157-161.
108. Кешелава, А.В., Буданов, В.Г., Румянцев, В.Ю. и др. (2017). Введение в «Цифровую» экономику - ВНИИ Геосистем, -С.28.
109. Клейнер Г.Б. Управление корпоративными предприятиями и экономика знаний // России. Социология. Этнология. 2005. №4. – С.30-48. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/upravlenie-lorporativnymi-predpriyatimi-i-ekonomika-znaniy-znanie> (Хавола: 18.07.2019).
110. Ковальчук М.В. Конвергенция наук и технологий – прорыв в будущее // Российские нанотехнологии. 2011. №1-2. –С.243-248.
111. Колин К. К. Информационная цивилизация, какой она будет? // Библиотековедение, 2001. № 5. -С.32-38.
112. Колин К. К. Овладение информацией - стратегическая проблема развития цивилизации в XXI веке. //Межотраслевая информационная служба, 2013, № 2. С. 5-15.
113. Колин К. К. Сущность информации и философские основы информатики // Информационные технологии. 2005. № 5. С. 63-70.
114. Колин К. К. Человек в изменяющемся мире и проблема научного просвещения // Информация и научное мировоззрение: сборник статей. - М.: Русская школьная библиотечная ассоциация, 2013. - С.81-98.
115. Колин К.К. Информационная цивилизация. - М.: ИПИ РАН, 2002. –С.112.

116. Колин К.К. Философия информации и фундаментальные проблемы информатики // Информационные ресурсы России: научно-практический журнал. – М., 2010. №1(113), –С.25-28.

117. Колин К.К. Философия информации: структура реальности и феномен информации // Метафизика, 2013, № 4(10); Колин К.К. Философия информации и проблема формирования современного научного мировоззрения // Вестник Международной академии наук, 2013, № 1.

118. Колмаков В.Ю. Информация, информативность, виртуальность. – Красноярск: Изд-во СибГТУ, 2004. - с.

119. Колужов Ю.И., Ушакова Е.В. Содержательная стратегия обучения: знаниеведческий аспект // Вестник Томского государственного университета. 2005. №45, -С.16-18.

120. Корогодина В.И., Корогодина В.Л. Информация как основа жизни. – Дубна: Издательский центр «Феникс», 2000. – 208 с.

121. Корченкова Н.Ю. Становление теоретико-прикладной концепции права на информацию: Автореф. дисс.канд.юрид.наук. – Н.Новгород, 2003. –С.3.

122. Кочергин А.Н., Цайер З.Ф. Информациогенез и вопросы его оптимизации. – Новосибирск, 1977.

123. Кудрявцев И., Лебедев С. Синергетика как парадигма нелинейности // Вопросы философии. – Москва, 2002. – №12. – С.24.

124. Кушаков Ш.С. К вопросу о специфике информации // Труды СамГУ (общественные науки). Новая серия. Вып. № 340. – Самарканд: СамГУ, 1976. -С.55-76.

125. Кушаков Ш.С. Природа и основные виды информации (философско-методологические аспекты): Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1978. – 24 с.

126. Лабодский В.В. Управления знаниями. – Мн.: Современная школа, 2008. – 392 с.

127. Ладенко И.С., Шапиро Э.Л., Никаноров С.П. Освоение и развитие сферы интеллектуальных систем. – Новосибирск, 1988. – С.47.

128. Лазаревич А.А. Научное знание в информационном обществе. – Мн.: Наука и техника, 1993. – 101 с.

129. Ланцева О. Информационные аспекты развития (философско-методологический анализ): Дисс. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1995. – 125 с.

130. Левич А.П. Информация как структура систем // Семиотика и информатика. – М., 1978. №10, – С.116.
131. Лейбниц Г.В. Монадология // Лейбниц Г.В. Сочинения в 4-х томах. Т.1.- М.: Мысль, 1982. – С. 413-429.
132. Луковкин С.Б. Проблемы становления информационного общества в современной философии: Автореф. дисс. Канд.филос.наук. – Мурманск, 2006. – С.18.
133. Луковкин, С.Б. Философский анализ понятий информация и информационное взаимодействие // Поиск: философские и социально-экономические исследования: межвузовский сборник научных статей. – Мурманск: Максимум, 2002. – Вып. IV. – С.67.
134. Луман Н. Невероятность коммуникации // Проблемы теоретической социологии. – СПб., 2000. – №3. – С.43-54.
135. Лысак И.В., Белов Д.П. Влияние информационно-коммуникационных технологий на особенности когнитивных процессов // Известия ЮФУ. Технические науки. 2013. № 5. -С. 256–264.
136. Лю Ган. Философия информации и основы новой китайской философии науки и техники //Вопросы философии. 2007. № 5. -С.45-57.
137. Майор Ф. Завтра всегда поздно. – М., – С.67.
138. Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека М.: Канон-Пресс-Ц, 2003. 462 с.
139. Масуда Й. Информационное общество как постиндустриальное общество. – М., 1981. –С.43.
140. Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США. – М., 1966.
141. Маънавият ва тушунчалар изохли лугати. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти 2016. – Б. 25.
142. Маъсуда Й. Информационное общество как постиндустриальное общество. – М.: 1991. – С.172.
143. Мелюхин И.С. Информационное общество: истоки, проблемы, тенденции развития. - М.: МГУ, 1999.
144. Методологические проблемы наук об информации: материалы 10-м заседании семинара. – М: ИНИОН РАН, 7 февраля 2013.
145. Методологические проблемы наук об информации: материалы 11-м заседании семинара. – М: ИНИОН РАН, 15 марта 2013.

146. Методологические проблемы наук об информации: материалы 17-м заседании семинара. – М: ИНИОН РАН, 24 апреля 2014. <http://www/inion.ru/seminars.mpni>
147. Микешина Л.А. Философия науки. Учебное пособие. - М.: Прогресс-традиция, 2005. - С.68.
148. Микешина Л.А., Опенко М.Ю. Новые образы познания и реальности. – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 1997. - 240 с.
149. Мильнер Б.З. Управление знаниями: эволюция и революция в организации. – Москва: Инфра-М, 2003. –С.58.
150. Моисеев Н. Информационное общества: возможность и реальность // Информационное общество. - М.: ООО «Издательство АСТ», 2004. – С.451.
151. Моисеев Н.Н. Расставание с простотой. – М., 2000. – С.106.
152. Моисеев Н.Н. Универсум. Информация. Общество. – М.: Устойчивый мир, 2001. – С. 185.
153. Моисеев Н.Н. Человек, среда, общество. – М.: Наука, 1982. – С.74.
154. Моль А. Искусство и ЭВМ. – М.: Мир, 1975. – С.506.
155. Моль С. Информационное воздействие в современном мире. – Москва: Крымский мост, 2004. Ст.484.
156. Мониторинг информационного общества и обществ знаний. - СПб., ЮНЕСКО. 2004.
157. Мустакиллик: изохли илмий-оммабоп луғат. – Т.: Шарқ, 2006. – 414-Б.
158. Муҳаммад Амин Яхё. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. – Тошкент: “Моварауннахр”, 2016. – Б. 206.
159. Муҳаммадиев Ҳ.Ҳ. Виртуалистикада постноклассик ғоялар // постноклассик фалсафа ва фанлар методологияси муаммолари. Монография. Самарқанд: СамДУ нашри, 2011.-88-89 б.
160. На путях постмодернизма. – М.: Котур. 1995. – С.141.
161. Наука в информационном обществе. –Москва, ЮНЕСКО. 2004.
162. Негодаев И.А. Информатизация культуры. – Ростов-на-Дону, 2002. –Б.34.
163. Негодаев И.А. На путях к информационному обществу. - Ростов на Дону.1999. - С .75- 76.
164. Нестеров А.В. Философия информации // Научно-техническая информация. Сер.1. – М., 2000. №2, -С.1-9.

165. Николис Г., Пригожин И. Самоорганизация в неравновесных системах от диссипативных структур к упорядоченности через флуктуация. – Москва: Мир, 1979. – 512 с.
166. Новик И.Б. Введение в информационный мир. - М.: Наука, 1991.
167. Новик И.Б. О некоторых методологических проблемах кибернетики / Кибернетику – на службу коммунизму. Т.1. – М.-Л., 1961.
168. Нормаматова М.Н. Постноклассик эпистемология ва виртуалистика. Монография. Самарканд.: 2015.- 8 б.
169. Определенности и неопределенности. – Кишинев, 1996. – С.61.
170. Отамуродов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. – Тошкент: Akademiya, 2006;
171. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллий хавфсизлик (сиёсий-фалсафий таҳлил). – Тошкент: Ўзбекистон, 2013.
172. Охэндзан Е.Г. Информация в управленческом решении в условиях перехода к рыночным отношениям: Дисс. канд.экон. наук. – М., 1992.-С.3.
173. Пенроуз Р. Тени разума: в поисках науки о сознании. - Москва-Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2005. – С.67.
174. Перегудов Ф.М., Тарасенко Ф.П. Введение в системный анализ. – М., 1989.
175. Петров М.А. О соотношении понятий «знание» и «информация»: Автореф. дис. д-ра филос. наук. - Красноярск, 2005. - 29 с.
176. Полани М. Личностные знания. – Москва: «Книга по Требованию», 1985. – С.9.
177. Попов Е., Коновалов А. Управление издержками производства и потребления информации // Проблемы теории и практики управления. 2007. №2, -С.16-25.
178. Попов Л. Информациология и информационная политика. - М.: Луч, 1999. -С.27
179. Поппер Карл Р. Объективное знание. Эволюционный подход / Пер. с англ. ДХЛахути. Отв. ред. В.Н.Садовский.- М.: Эдиториал УРСС, 2002.- 384 с.
180. Постолатий В. Big Data шагает по планете // Российская бизнес-газета: Инновации. №896, 2013. 14 мая: <http://www.rg.ru/2013/05/14/infa-site.html>.

181. Пригожин И. Время, структура и флуктуации. Нобелевская лекция по химии 1977 года. Успехи физических наук. Том 131, вып.2., – С.206.
182. Пригожин И., Стенгерс И. Время, хаос, квант. К решению парадокса времени. – М., 2000. – С.82.
183. Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса. – М., 1989. – С.182.
184. Программы ЮНЕСКО «Информация для всех» / <http://www.unesco.org/webworld/ifap>; www.ifar.ru
185. Пушкарёв Ю.В., Пушкарёва Е.А. Знаниевая парадигма в общественном развитии: основные концепции // Вестник Новосибирского государственного педагогического университета, 2015. №3(25) // www.vestnik.nspu.ru
186. Пьер Тейяр де Шарден. Феномен человека (Преджизнь, жизнь, мысль, сверхжизнь). – М., 1987. – С. 54.
187. Ракитов А.И. Информатизация: состояние, структура, перспективы // Перспективы информатизации общества. – М., 1990. – С.64–65.
188. Ракитов А.И. Философия компьютерной революции. – М., 1991.
189. Ростои В. Стадии экономического роста / Пер. с англ. - Нью-Йорк, 1960; Тоффлер О. Футурошок. - СПб.: Лань, 1997.
190. Роузенталь Ф. Торжество знания. – М., 1978. – С.235.
191. Садиков Н.Н. Информатизация и формирование духовно-психологического облика молодежи. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007. –С.5.
192. Сапир Ж. К экономической теории неоднородности систем: Опыт исследования децентрализованной экономики. Пер. с фр. Под науч. Ред. НА. Макашовой. – М.: Изд-во ВШЭ, 2001. – С.48.
193. Свитич Л.П. Социальная информатиология. - М.: Алгоритм, 2000. –С.250
194. Сергиевский В. Информация и знание с позиций субъекта познания.
195. Сетров М.И. Информационные процессы в биологических системах. Методологический очерк. – Л., 1975. – Б.123-124.
196. Сиддиқов И. Ёшларда интеллектуал маданиятни ривожлантириш: ижтимоий-фалсафий таҳлил. (Монография) - Фарғона, 2021. –Б. 113.

197. Скворцов Л.В. Философия информации или информационная культура // Человек: образ и сущность. Слово и культура. Ежегодник. – М., 2003. – С.53-80.
198. Соколов А.В. Философия информации: проф.-мировоззрение. Учебное пособие. – СПб: СПбГУКИ, 2010. – 368 с.
199. Состояние исследований по проблем информационного общества. - СПб., ЮНЕСКО. 2004.
200. Степанова Т.Е. Экономика знаний: методологический аспект. – Саратов: Изд.во Саратовского университета, 2004. – 127 с.
201. Степин В.С. Саморазвивающиеся системы и постнеклассическая рациональность // Вопросы философии. – М., – №8, 2003. – С.6.
202. Стёпин В.С., Горохов В.Г., Розов М.А. Философия наука и техника. – М.: Контакт-Альфа, 1995.
203. Стоуньер Т. Информационная революция: наука, экономика, технология. – М., 1993. – С.335.
204. Стоуньер Т. Информационное богатство: профиль постиндустриальной экономики // Новая технократическая волна на Западе / Под ред. П.С.Гуревича. - М.: Знание, 1986. -С.392-409.
205. Судаков К. В. Информационный феномен жизнедеятельности. М.: РМАПО.1999. - 380 с.
206. Тарасенко Ф.П. К определению понятия информации в кибернетике // Вопросы философии, 1963. №4.
207. Тожиев М., Салахутдинов Р., Баракаев М., Абдалова С. Таълим жараёнида замонавий ахборот технологиялари. – Тошкент, 2001. –Б.77.
208. Тоффлер Э. Третья волна. - М.: АСТ, 1999. - 786 с.
209. Тоффлер Э. Шок будущего. – М.: АСТ, 2001. – С. 669.
210. Тоффлер, Э. Третья волна (The Third Wave). – М.: АСТ, 2010. – С.448.
211. Тўраев Б.О. Оламнинг синергетик фазр-вакт манзараси // Синергетик парадигма: муаммо ва имкониятлар: илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2013. 82-б.
212. Тураев Б.О. Пространство, время, развитие. – Т.: Фан, 1992. – С.21.
213. Тўраев Ш. ва бошқалар. Миллий ғоянинг инновацион тарғибот технологиялари ва ёшларни ахборот-психологик хуружлардан ҳимоя қилишнинг замонавий усуллари. Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. –Тошкент, 2016. – Б. 4.

214. Турышев А.А. Информация как признак составов преступлений в сфере экономической деятельности. Автореферат дисс. канд.юрид.наук. – Омск, 2006. – С.3.
215. Тюхтин В.С. Отражение системы, кибернетика: Теория отражения в свете кибернетики и системного подхода. – М.: Наука, 1972. – 256 с.
216. Урсул А. Д. Природа информации. Философский очерк. - М.: Политиздат, 1968. - 288 с.
217. Урсул А. Д. Путь в ноосферу. Концепция выживания и устойчивого развития цивилизации. - М.: Луч, 1993. 275 с.
218. Урсул А.Д. Диалектика определенности и неопределенности. – Кишинев, 1996. – С.61.
219. Урсул А.Д. Информация // Философский энциклопедический словарь. – М., 1983. – С. 95.
220. Урсул А.Д. Информация. Методологические аспекты. - М.: Наука, 1971. -295 с.
221. Урсул А.Д. Природа информации. Философский очерк. - М.: Политиздат, 1968. - 288 с.
222. Урсул А.Д. Природа информации: философский очерк. 2-е изд. – Челябинск, 2010. – 231 с.
223. Урсул А.Д. Отражение и информация. – М., 1973.
224. Урсул А.Д. Проблема информации в современной науке. – М., 1975.
225. Турышев А.А. Информация как признак составов преступлений в сфере экономической деятельности: Автореферат дисс. канд.юрид.наук. – Омск, 2006. – С.3.
226. Усмонова М.А. Социально-философский анализ проблем информатизации. Дисс. канд. филсоф. наук. 1998. – С.45.
227. Ушакова Е.В. Знаниеведение и управление. Монография. – Барнаул: Изд-во АлтГУ, 2006.
228. Ушакова Е.В. Системно-философское содержание современной научной картины мира (мировоззренческо-методологический аспект): дисс....докт.филос.наук. – Иркутск, 1999.
229. Узбестер Ф. Теории информационного общества / Пер. с англ. М.В. Арапова, Н.В. Малыхиной; Под ред. Е.Л.Вартановой. -М.: Аспект Пресс, 2004.
230. Фабричное С.А. Концепция и основные методологические принципы исследования информационного труда / Современное общество. – Омск, 1999. Вып.2. – С.34.

231. Файзуллаев А.Ф. Современная алгоритмизация науки, техники и рыночных отношений // Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация. – Т., 2000. – С.92.
232. Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. - Тошкент.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006 – Б.23.
233. Файзуллаев О., Абдуллаева М.Н. Ҳозирги замон фанида имконият муаммолари. -Т.: Фан, 1993. – Б.86-87.
234. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. – Т.: Шарқ, 2004. – Б.83.
235. Фалсафа: энциклопедик луғат. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2010. – Б. 32
236. Хайдеггер М. Бытие и время. – М., 1997. – С. 448.
237. Хайдеггер М. Введение в метафизику. – СПб., 1998. – С.119.
238. Хайдеггер М. Положение об основании. Статьи и фрагменты. – СПб., 2000. – С. 64.
239. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва шарқ мутафаккири “Ўзбекистон” нашриёти Т. 1971.-188 б.
240. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва шарқ мутафаккири “Ўзбекистон” нашриёти Т. 1971.-237 б.
241. Хайруллаев М.М. О Мировоззрении и научных идеях ал-Хорезми // Великий ученый средневековья ал-Хорезми. – Ташкент, 1985. – С.33.
242. Хартия глобального информационного общества/
<http://www.ifap.ru/ofdocs/okinhar.htm>
243. Хартли Р. Передача информации // Теория информации и её приложения. – М.: Гос. изд. физ.-мат. лит., 1959.
244. Ходжаев С.М. Ахборотлаштириш тизими: генезиси, тажриба ва амалиёти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. –Б.9.
245. Ходжсон Дж. Социально-экономические последствия прогресса знаний и нарастания сложности // Вопросы экономики, 2001. №8, -С.34.
246. Хорошилов А.В. Информационные системы в экономике. – М.: МЭСИ, - 168 с.
247. Хоц А.Ю., Аксумов Б.В. Информационная революция в контексте трансформации современной культуры // Проблемы философии культуры: Сборник статей. – Ставрополь: СГУ, 1999. – С. 20-24.
248. Ҳайдаров Б. Инсоннома: ҳаёт, ҳайрат, ҳикмат. -Тошкент. “Tafakkur qanoti”, 2014. –Б. 130.

249. Цифровизация [Электронный ресурс] // Викисловарь. — Режим доступа: <https://ru.wiktionary.org/wiki/цифровизация> (хавола вакти: 15.03.2018)
250. Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии. М., 1981-с. 134
251. Человек и общество. Современный мир. - М., 1997. —Б.5.
252. Чередникова Л.Е. Знания в контексте инновационного развития // Научные записки НГУЭУ. 2004. №3.
253. Чернавский Д.С. Синергетика и информация. - М.: Наука, 2001.
254. Чернов А.А. Основные историко-теоретические этапы развития концепций глобального информационного общества / Информация. Дипломатия. Психология; отв. ред. Ю. Б. Кашлев. - М.: Известия, 2002. С. 35.
255. Чернов А.А. Становление глобального информационного общества: проблемы и перспективы. —М.: Дашков и К, 2003. — С.13.
256. Чуринов Н.М. Информационная реальность: основания и принципы построения теории: Автореф. дис. д-ра филос. наук. М., 1991. - 29 с.
257. Шемакин Ю.И. Семантика самоорганизующихся систем. — М.: Академический проект, 2003. — 176 с.
258. Шеннон К.Э. Работы по теории информации и кибернетике. — М., 1963.
259. Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. —Тошкент, 2005. - Б. 24.
260. Шрейдер Ю.А. Информатизация и культура: Аналитический обзор. - М., 1991.
261. Шрейдер Ю.А. Информация и знание // Системная концепция информационных процессов: сб. Трудов. — М.: ВНИИСИ, 1988 (Вып.3). — С.47-53.
262. Щербинин М.Н. Философия информации // Информатизация Москвы, России, мира, Вселенной. — М., 1996. №3(4).
263. Щербинин М.Н. Философия информации // Прикладная философия и социология: труды международной конференции. — Ульяновск: УлГТУ, 2001. Т.1. —С.99.
264. Эйген М., Винклер Р. Игра жизни. — М., 1979. — С.18.
265. Эйнштейн М.Н. Философия возможного.- СПб.: Алетей, 2001,- 30 с.

266. Энциклопедия эпистемологии и философии науки. - Москва: «Канон+» РООИ «Реабилитация», 2009. - С.364.
267. Эркаев А. Духовность – энергия независимости. – Тошкент: Маънавият, 1998.
268. Эрнст К. Когда говорят, что интернет убьет телевидение, это глупость // Коммерсантъ. № 192. 2011. 13 октября. – Режим доступа: <http://www.kommersant.ru/doc/1793394>
269. Этика и права человека в информационном обществе. –М., ЮНЕСКО. 2007.
270. Эшби Р. Массовая информация: стратегия и тактика потребления. – М.: Дело, 1993. – С.405.
271. Эшби У.К. Введение в кибернетику. – М., 1959.
272. Юлдашева Ф.Х. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари: Дисс.я автореферати фалс.ф.д. (DSc). – Тошкент, 2019. – 72 б.
273. Юнусов К.А. Янгиланаётган Ўзбекистонда ижтимоий онг ва тафаккурдаги ўзгаришларни амалга оширишдаги муҳим омил // Янгиланаётган Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий, маънавий ўзгаришлар: республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2021. -Б.5
274. Яглом А.М., Яглом И.М. Вероятность и информация. – М., 1969.
275. Яглом Т. Массовые коммуникации в современном мире: методология анализа и практика исследования. – СПб.: Питер, 2000. – С.190.
276. Янч Э. Самоорганизующаяся Вселенная. Введение и обзор: рождение парадигмы из метафлуктуация / Э.Янч // Общественные науки и современность. 1999. №1, -С.151.
277. Яхшиликов Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. Монография. Тошкент. “Фан” 2017. –Б.342.
278. ポンピドーセンター (яп.). umdb.um.u-tokyo.ac.jp. Дата обращения: 16 сентября 2024.
279. Alistair S. Duff. Information Society Studies. - Routledge, 2013. ISBN 978-1-317-79799-9.
280. Karvalics Information Society - what is it exactly? (The meaning, history and conceptual framework of an expression) Архивная копия от 26 февраля 2015 на Wayback Machine, 2007.
281. Bell D. The Coming of Post-industrial Society. A Venture in Social Forecasting. - N.Y.: Basic Books, 2001. 616 p.

282. Brzezinski Zb. Between Two Ages. - N.Y., 1988.
283. Crawford R. In the Era of Human Capital: The Emergence of Talent, Intelligence and Knowledge as the Worldwide Economic Force and Means to Managers and Investors. N.Y., 1991. –P.4.
284. Drucker P. Post-Capitalist Society. - N.Y.: Harper-Collins Publ., 1995. - 232 p.
285. Katz R.L. The Information Society: An International Perspective. N.Y., 1988.
286. Marey A. Tsifrovizatsiya kak izmenenie paradigmy [Elektronnyy resurs]. — Rezhim dostupa: <https://www.bcg.com/ru-ru/about/bcg-review/digitalization.aspx> (хавола вақти: 15.03.2020).
287. Masuda Y. The information Society as Post-Industrial Society. Wash., 1981.
288. Masuda Y. The Information Society as Postindustrial Society. - Washington: World Future Society., 1983. - 171 p.
289. Nefedov L. Zusammenhang zwischen information, Ethik und Religion // Mensen B. (Hrsg)/
290. Porat M., Rubin M. The Information Economy: Development and Measurement. Wash., 1978.
291. Robert Levine. Eine Landkarte der Zeit. Piper. 2004. Claudia Wiemer. Auf neuen Wegen. Max Hueber Verlag. 2003.
292. Stonier T. The Wealf of Information. - L., 1983.
293. The Institute for the Future of the Mind. – URL: <http://www.futuremind.ox.ac.uk/>
294. Wig K. Knowledge Management Foundations: How People and Organizations Create, Represent and Use Knowledge. – Schema Press, Arlington, TX, USA, 1993. – 158 p.
295. Wu Kun. Thirty years of research of Information Philosophy in Cina // Открытое образование. № 5. С. 28-49.

INTERNET MATERIALLARI

1. <http://infocom.uz. 2006/04/03/oon-obyavila-17-maya-vsemirnyim-dnem-informatsionogo-obschestva/> Хавола 13.03.2019 да олинган.
2. <http://uza.uz/uz/society/yosh-avlod-huquqi-va-xorij-tajribasi-25.02.2010-11431>.
3. <https://uzlidep.uz/news-of-party/11394>
4. <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston--marifatli-jamiyat-kontseptsiyasi-amalga-oshiriladi>

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. AXBOROT TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY-METODOLOGIK AHAMIYATI.....	6
1.1. Axborot tushunchasining falsafiy tahlili.....	6
1.2. Axborotning epistemologik asoslari	24
1.3. Axborotning ontologik xususiyati.....	45
II-BOB. AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING FALSAFIY MUAMMOLARI.....	62
2.1. Axborotlashgan jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati	63
2.2. Axborotlashgan jamiyatga oid konsepsiyalar tahlili.....	79
III-BOB. AXBOROTLASHTIRISH – AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING MUHIM OMILI	94
3.1. Axborotlashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	94
3.2. Axborotlashtirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari	103
3.3. Fanni axborotlashtirish masalalari	119
3.4. Demokratik islohotlarda axborotlashtirish masalalari	125
3.5. Axborot xavfsizligi muammosi.....	135
IV-BOB. RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MA’NAVIY YANGILANISH MUAMMOSI	141
4.1. Ma’naviy yangilanish muammosi: falsafiy tahlil	141
4.2. Raqamlashtirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari	149
4.3. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tafakkuriga ta’siri	155
4.4. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda virtual olamning ahamiyati	159
XULOSA	166
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	170

G‘AFFAROVA GULCHEHRA

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT FALSAFASI

Monografiya

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliqo‘ziyeva
Musaxhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Muxammadiyev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 14.10.2024 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturası.
Xisob-nashr tabogi. 12.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 72.

«Sarbon LLS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

**Nashriyot tel. raqami +998 (97) 017-01-01
+998 (94) 673-66-56**

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN